

A.I. AVAZBOYEV, Y.U. ISMADIYAROV

KASBIY
PEDAGOGLKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A.I. Avazboyev, Y.U. Ismadiyarov

KASBIY PEDAGOGIKA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif
vazirligi tomonidan 5111000 – «Kasb ta'limi» bakalavr yo'nalishlarida
ta'lif olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya
etilgan*

*Cholpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2014*

UO'K: 37.013(075)

KBK 74r

K27

A21

Taqrizchilar:

Sh.K. Mardonov – pedagogika fanlari doktori, professor,

Sh.S. Shodmonova – pedagogika fanlari doktori, professor.

- A21 Kasbiy pedagogika/A.I. Avazboyev [va boshq.]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vazirligi – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014. 320 b.
ISBN 978-9943-05-692-3

Mazkur o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta’lim tizimini rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogikaning o‘rnini va vazifalari; o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi kadrlar tayyorlash jarayonidagi kasbiy-malakaviy o‘zgarishlar; kasb-hunar ta’limining rivojlanish tarixi; uzluksiz ta’limning maqsadi, mazmuni, tuzilishi; uzluksiz kasbiy ta’lim tushunchalar; o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida kasbiy ta’limning maqsadi va vazifalari; o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida kasblar va mutaxassisliklar klassifikatsiyasi, kasb-hunar kolleji bitiruvchilariga talablar, o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni, o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari; kasbiy ta’lim mazmuni, uni tanlash va tahlil qilishning ilmiy-usulik asoslari; kichik mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish qonuniyatları; kasbiy ta’lim sohasida xalqaro tajriba; ta’limning dual tizimi; o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish to‘g‘risidagi asosiy me’yoriv-huquqiy hujjatlar; kasb-hunar ta’limi va ta’lim muassasalarini boshqarish va shu kabi masalalar yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, kasb-hunar ta’limi sohalari bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchi va talabalar uchun mo‘ljallangan.

UO'K: 37.013(075)

KBK 74r

© A.I. Avazboyev va boshq., 2014

© Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2014

ISBN 978-9943-05-692-3

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligiga erishilib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlanishi, kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta ko‘rib chiqish va tashkil etishni o‘z oldiga dolzarb vazifa qilib qo‘ydi. Bu muhim vazifani hal etishda kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan uzluksiz ta’limning bir bo‘g‘ini – yangi turdagи o‘quv muassasasi bo‘lgan kasb-hunar kollejlari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini yangi turdagи ta’lim muassasasi sifatidagi rivoji, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Bu masalalarni hal etishda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejlarda ishlab chiqarish ta’limini tashkil etish, ta’lim usullarini tanlash va yangilarini ishlab chiqish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Kasb-hunar kollejlari tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beruvchi o‘quv muassasasi bo‘lib, u o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingen kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni beradi.

Kasb-hunar kollejlaring o‘quv jarayoni ishlab chiqarish ta’limi, tarbiyaviy soatlar, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlaridan iborat bo‘lib, ularning yaxlit pedagogik jarayon sifatida takomillashtirilishi, amaliy tajriba-sinov ishlari natijalariga ko‘ra belgilanadi.

Bu jarayon kasb-hunar kollejlarda tegishli yo‘nalishdagi mutaxassislik fanlarini o‘qitish va ishlab chiqarish ta’limi (mutaxassislik

fanlari bo'yicha laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, mashinalarni boshqarishga o'rgatish, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti)ni yuqori usulik saviyada o'tish orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar qayd etilgan tashkiliy shakllari o'quvchilarni tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladigan kasbiy ta'lim nati-jasida nazariy bilim, ko'nikma va malakalar tizimi shakllantiriladi, ishlab chiqarish ta'limi jarayonida esa, o'quvchilar, asosan, amaliy kasbiy-ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bu ikki mushtarak jarayon mahsuli sifatida muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassisni tayyorlash ta'minlanadi.

Zamonaviy mutaxassis kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Bunday talablar darajasidagi mutaxassisni tarbiyalash uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va boshqarish, kasb-hunar kollejlarida ishlab chiqarish ta'limini amalga oshirishning samarali shakllari, faol usullari hamda zamonaviy vositalari majmuasini ishlab chiqish hamda ilmiy-usulik jihatdan asoslash lozim bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlarida malakali kichik mutaxassis tayyorlash ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- mutaxassislik bo'yicha davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilganligi;
- ta'lim mazmunida ko'zlangan ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- malakali kichik mutaxassis tayyorlash jarayonining barcha tar-kibiy qismlari (nazariy mashg'ulotlar, laboratoriya-amaliy mashg'u-lotlar, ishlab chiqarish amaliyoti) o'zaro bog'liq holda uzviy tash-killashtirilishi;
- kasbiy ta'lim berish mazmunining fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti darajasi talablariga javob berishi.

Bu talablarni bajarishda ishlab chiqarish ta'limining o'rni be-qiyosdir. Chunki ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi – bo'-

lajak malakali kichik mutaxassislarни muayyan mutaxassislik sohasida amaliy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan iborat. U esa, o'z navbatida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish, zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma va malakalarни shakllantirish, o'z mutaxassisliklari uchun xos bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko'rsatishga o'rgatishdan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi deganda, biror aniq kasb yoki mutaxassislik bo'yicha amaliy o'qitish tushuniladi. Lekin hozirgi kunda bu atama bir tomonlama bo'lib, kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarни shakllantirish uchun ma'lum texnologik, tashkiliy-iqtisodiy, nazariy, texnikaviy bilimlar beriladi. U o'z mohiyatiga ko'ra nazariy ta'lim va amaliy mehnat jarayonlarining sintezidir. Bu holat unga har tomonlama majmuaviy yondashuvni talab etadi.

Har qanday ta'lim jarayoni o'zaro bir-birini taqozo etuvchi o'qitish – o'qish faoliyatini ko'zda tutadi. Bunda, maxsus ixtisoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchi faoliyati ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni qo'llashning amaliy ko'nikma hamda malakalarini o'zlashtirish. Ular ta'lim jarayonida birlashadi va bir butun pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ushbu xususiyat ta'lim berish jarayoni va usullariga ham taalluqlidir.

Ishlab chiqarish ta'limi uzoq tarixga ega ta'lim berish turi bo'lib, uzoq davrlar mobaynida u bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirib kelingan. Yirik sanoat korxonalarini va rivojlangan qishloq xo'jaligining paydo bo'lishi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni talab qiladi, bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish ta'limini o'qitish jarayonini alohida ta'lim turi sifatida tashkillashtirilishiga olib keldi.

Kasb-hunar kollejlarida o‘qitish jarayoni mustaqil va o‘zaro bog‘-langan nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi. Amaliy mashg‘ulotni yuqori usulik saviyada o‘tish uchun maxsus fanlarning nazariy qismi talab darajasida o‘qitilishi lozim. Ma’lum sohada kichik mutaxassis tayyorlashda o‘quvchilarning ishlab chiqarish mehnatiga oid nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhim masalalardan biridir.

Respublikamizda bozor munosabatlariiga o‘tish sharoitida tobora keng ko‘lam olayotgan yangi texnika va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bundan kelib chiqqan holda, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari uchun zamonaviy talablar darajasiga o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratish talabalarning kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qo‘llanma ham bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy pedagogika borasidagi nazariy bilimlarini puxta egallahshlariga ko‘maklashish, amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga puxta zamin tayyorlashga qaratilgan.

Shuningdek, qo‘llanma oliy ta’lim muassasalari hamda kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari, soha tadqiqotchilari uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib qoladi deb ishonamiz.

I BO'LIM.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKANING O'RNI VA VAZIFALARI

1-BOB. «KASBIY PEDAGOGIKA» FAN SIFATIDA

Tayanch iboralar: Ta'lism, umumiy o'rta ta'lism, kasbiy ta'lism, kasbiy pedagogika, kasbiy mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, pedagogik prinsip, pedagogik muloqot, didaktik prinsiplar (tamoyillar), ta'lism usullari, ta'lism vositalari, ta'lism texnologiyalari.

1.1. O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lim tizimi islohotlari

Davlatimiz rahbari Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» nomli ma'rurasida ta'kidlaganidek, «mustaqillik yillarda bosib o'tgan yo'limiz va to'plagan tajribamizni xolisona baholash, qo'lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichmabosqich rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan modelning naqadar to'g'ri ekanini va shu yo'ldan bundan buyon ham og'ishmay qat'iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda».

Bugungi kunda, fan-texnikaning jadal taraqqiyoti sharoitida har bir davlat o'zining istiqbol rejalarini belgilari ekan, kelajakda ushbu rejalarни amalga oshiruvchi yosh avlod qobiliyatlarini rivojlantirishga, intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ma'naviyatini boyitishga

alohida e'tibor berishi davr talabidir. Shu sababli mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning haq-huquqlarini muhofaza qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, keyingi yillarda, Davlat budjetining 60 foizidan ortig'i ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgani ham kelajagimiz vorislariga bo'lgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasıdır. Zero, yoshlar bugungi niyatlarimizni ertaga ro'yobga chiqaradigan, mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlaydigan, har bir sohada o'z iqtidori va iste'dodini to'la-to'kis namoyon eta oladigan avlod sifatida shakllanishi zarur.

Buyuk ajdodlarimiz qadimdan bebaño boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Ana shu fikrga tayangan holda, mustaqillikning dastlabki yillardanoq ta'lim-tarbiya masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralib, butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish tizimining samaradorlik darajasi, yutuq va kamchiliklari tahlil etildi.

Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar ichida, birinchilardan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1992-yil 2-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunini tasdiqladi. Bu dasturulamal hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruva tarkibi, pedagog xodimlarning haq-huquqlari, burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi. Binobarin, bu muhim davlat hujjatining qabul qilinishi ta'lim sohasida amalga oshiriladigan barcha islohotlarning muqaddimasi hamda huquqiy kafolati edi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan asosiy qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston xalqining xohish-irodasidan kelib chiqib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda, yoshlar ongiga singdirishning huquqiy asoslarini o'zida ifoda etgan. Konstitutsiya barcha fuqarolar qatori yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy va me'yoriy jihatlarini ham o'zida aks ettirdi. Jumladan, uning 41-moddasida: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyy ta'lim olish davlat

tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» deb belgilab qo'yilgan.

Prezidentimizning 1993-yil 29-dekabrdagi farmoniga binoan, oktabr oyining birinchi yakshanbasi xalq ta'limi xodimlari kuni (kasb bayrami sifatida) belgilandi. 1996-yil 9-sentabrdagi «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Farmon munosabati bilan, yosh avlodni buyuk an'analarimizga, yuksak ma'naviy qadriyatlarni qodislik va yorug' kelajak egalari ekanliklariga qat'iy ishonch ruhida tarbiyalash maqsadida 1997-yildan boshlab, 1-oktabr «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» – umumxalq bayrami hamda dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Zamonaviy taraqqiyot talablariga to'la javob beruvchi ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida, 1997-yilda mukammallashgan va qayta ishlangan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning (yangi tahriri) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, unda yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiya asosida yetuk qilib tarbiyalash, talabaarning ma'naviyatini milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash va shakllantirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish, yoshlarda Vatanga va xalqqa muhabbat, yurt farovonligi uchun kurashish, insonparvarlik, o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy iftixor, o'zga millat kishilari va ularning qadriyatlarni hurmat qilish kabi fazilatlari ruhida tarbiyalash, yoshlarda vijdon erkinligi, bilimdonlik, axloqlilik, jismoniy yetuklik, mustaqil fikrni kamol toptirish kabi ta'lim-tarbiya masalalari ustuvor vazifa sifatida amalga oshirilmoqda.

Istiqlol davrida umumta'lim maktablari faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida, 2004-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2008-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi

farmoyishi, 2004-yil 21-mayda «2004–2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. Uning ijrosi ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 6-oktabrdagi «Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni chiqarildi. Unda mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida, ushbu farmon bilan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagagi «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to‘g‘risida»gi 77-qarori, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagagi «O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 204-qarori, Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 27-iyuldagi «Umumta’lim maktablari bitiruvchilarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘qishini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 427-qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlar natijasi sifatida 2009-yil umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari 100 foiz akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘qishni davom ettirish imkoniga ega bo‘lishdi.

Yurtimizda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi 2009-yildan boshlab majburiy xususiyatga ega bo‘ldi. O‘quvchilar ixtiyoriy ravishda, o‘z qiziqishlari va qobiliyatidan kelib chiqqan holda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni davom ettirish imkoniga ega. Ularga o‘z qiziqishlari, qobiliyatları va imkoniyatlarından kelib chiqqan holda, kasb tanlashiga yordam berish maqsadida, kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi tuzildi. Ushbu markaz o‘quvchilarning intilishlari, qobiliyati va imkoniyatlarini o‘rgangan holda, kasbga yo‘naltirish

masalalarini tadqiq etmoqda hamda ota-onalarga asosli maslahatlar berib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati 2005-yilning 23-noyabrida «2006–2010-yillarda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarini sifatli tayyorlash va mehnatidan foydalanish bo‘yicha namunali hududiy dastur»ni qabul qildi. Ushbu dastur asosida har bir ma’muriy bo‘linish – viloyat va tumanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan hududiy dasturlar ishlab chiqildi, hokimliklar huzurida hokimlar rahbarlik qiladigan hamda tarkibiga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari kiritilgan muvofiqlashtirish kengashlari tashkil etildi.

Hududiy dasturlarda quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- imkoniyatga qarab, bitiruvchilar mehnatidan foydalanishni ta’minlash, shuningdek, budgetdan tashqari «Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi» mablag‘larini jalb etgan holda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish;
- hududlardagi kasb-hunar ta’limini mahalliy mehnat bozori ehtiyojini hisobga olib rivojlantirish; mehnat bozorida talab va taklifning real ahvolini hududiy darajada aniqlash;
- kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritishining ish beruvchi nuqtai nazaridan tezkor monitoringi mexanizmini yaratish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaliy ijrosiga, shuningdek, bakalavr va magistr kadrlar tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan O‘zbekiston Prezidentining o‘ndan ortiq farmon va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Xususan, 2004-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2008-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoyishi, 2004-yil 21-mayda «2004–2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida»gi farmonining qabul qilinishi milliy ta’lim rivojida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Prezidentimizning 2008-yil 1-apreldagi «Real iqtisodiyotning soha va tarmoqlari talablariga javob beradigan malakali kadrlarni

tayyorlashni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishi asosida amalga oshirilgan ishlar natijasida, birgina, 2009–2010-o'quv yilining o'zida hududlardagi 118 ta kasb-hunar kollejida 62 ta ixtisoslik bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlash to'xtalib, talab katta bo'lgan 90 ta mutaxassislik bo'yicha yangidan kadrlar tayyorlashga kirishildi. 34 ta kasb-hunar kollejining ixtisosligi o'zgartirildi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda jahondagi nufuzli Universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Buning natijasida, Toshkentda Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestministr Universiteti ish boshladi. I. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat Universiteti, Italiyaning Turin Politexnika Universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish Institut, G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M. Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi.

1.2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida

Istiqlolga erishgan mamlakatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'lim mazmunini davr nuqtai nazaridan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagи IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilmoqda.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy saloxiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyatni, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Ta'limning «O'zbek modeli» dunyoga keldi, bu model xalqaro miqyosda eng obro'li mutaxassislar tomonidan tan olinmoqda.

Mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda to'plangan ijobiy tajribalarga asoslangan holda, ta'lim tizimining to'laqonli faoliyatini

tashkil etish va isloxtlarni jadallashtirishga qaratilgan me'yoriy-uslubiy hujjatlar ishlab chiqildi.

Fan texnika taraqqiyoti sharoitida jamiyatning barcha a'zolarining jumladan yoshlarning madaniy va ta'limi darajasiga bo'lgan talab to'xtovsiz o'sib bormoqda. Shu sababli, yoshlar o'zlarining g'oyaviy-axloqiy sifatlari, saviyalari hamda professional-kasbiy mahoratlari bilan fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini jamiyat afzalliklari bilan bog'liq bo'ladigan davlat va jamiyat, ishlab chiqarish tomonidan ishchi-mutaxassislarga qo'yilgan vazifalarini hal qilishga qodir malakali ishchi mutaxassislar tayyorlaydigan tizim – «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida shakllantirilayotgan uzuksiz ta'lim tizimi doirasida kasb ta'limga alohida o'rin berilishining samarasi sifatida kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tizimi yaratildi.

Bugungi kunda kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingen eng ilg'or usullar va yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Ayni vaqtida o'zining keng tatbig'ini kutayotgan, fanning boshqa sohalari bilan aloqadorlikda ishlab chiqilgan yangi konsepsiya va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Kasbiy ta'lim uzoq davr mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirildi, biroq, ushbu chora bitiruvchilar ning kasbiy mahoratining shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahorat va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borishi hamda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublika xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida kasbiy ta'limni samarali tashkil etish, ishchi kasblariga maxsus tayyorlash, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Kasbiy mahorat deyilganda, bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsnинг mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasi aks ettirishida namoyon bo'ladi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez

o‘zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o‘ta olishi va faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsnинг shunday sifatlaridirki, ular bo‘lajak mutaxassisning hayotiy hamda mehnat muvvafaqqiyatlarini belgilab beradi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’limni rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogika fanining asosiiy vazifasi jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish sharoitlariga moslasha oladigan, iqtisodiyotimizni buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan mutaxassislarni tayyorlash, ushbu jarayonda asosiy omil sifatida berilaydigan axborotlar hajmini e’tirof etish emas, balki ularga nisbatan ijodiy yondashuvni shakllantirish va mustaqil fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir. Shu sababli bugungi kunda barcha fan sohalari, jumladan, kasb ta’limi bo‘yicha yangi o‘quv darsliklari, qo‘llanma va tavsiyalarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu o‘rinda kasb ta’limiga bo‘lgan e’tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- ta’lim islohotlari natijasida akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va boshqa turdagи o‘quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlanishi;
- oliy o‘quv yurtlarida kasb ta’limini o‘qitilishning yo‘lga qo‘yilayotganligi, bu borada alohida fakultet va bo‘limlarning tashkil etilishi;
- kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog‘-lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;
- kasbiy ta’lim muassasalarining aholiga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish borasidagi faoliyat turlarining ortib borishi, o‘z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi; mehnatni tashkil qilishning ilg‘or shakllarini joriy etishi va boshqalar.

Ularning kasbiy pedagogika talabalar ta’limi, tarbiyasi, o‘qishi hamda rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rganadi, ta’lim-tarbiya, peda-

gogik va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. U pedagogik nazariyalar to'g'risidagi bilimlarni, innovatsion texnologiyalarni loyihalash uslublarini umumlashtiradi. Kasbiy pedagogika fani shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchining yangi talablar darajasida faoliyat yuritishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

1.3. «Kasbiy pedagogika» fanining maqsad va vazifalari

Kasbiy ta'lim uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'nalgan bo'lsada, ushbu tadbir bitiruvchilarining kasbiy mahoratini shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirilgan. Bu holat kasbiy mahorat va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Mustaqillikka erishgandan keyin Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Kasbiy mahorat deyilganda, bitiruvchining yuqori darajadagi kasbiy ko'nikma va malakalarini egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasida o'z aksini topadi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajada moslashuvchanligini va yangiliklarni tez o'zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o'ta olishi, faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kabi sifatlar bilan belgilanadi.

Kasbiy mahorat va layoqat shaxsning shunday sifatlariki, ular bo'lajak mutaxassisning hayotiy mehnat muvaffaqiyatlarini belgilab beradi. Mustaqil Respublikamizda ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida **kasbiy pedagogika fanining asosiy maqsadi** sifatida jahon talablari darajasida yangilanib borayotgan ishlab chiqarish

sharoitlariga moslasha oladigan, mamlakatimiz iqtisodiyotini buyuk davlat darajasiga ko‘taradigan mutaxassislarini tayyorlash va bu jarayonda asosiy omil sifatida beriladigan axborotlar hajmini emas, balki ijodiy yondashuvni shakllantirish, mustaqil fikrlash va tatbiq qilish sifatlarini tarbiyalashga e’tibor qaratish lozim. Shu sababli bugungi kunda barcha fan sohalari bo‘yicha, jumladan, kasb ta’limiga oid darsliklar, o‘quv qo’llanma va tavsiyalarning yangi avlodini yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu o‘rinda kasb ta’limiga bo‘lgan e’tiborning ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- ta’lim islohotlari natijasida litsey, kollej va boshqa shu kabi yangi turdagи o‘quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlanishi;
- oliy o‘quv yurtlarida kasb ta’limi bo‘yicha alohida bo‘lim va fakultetlarning tashkil etilishi;
- kasbiy ta’lim pedagogikasining boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog‘lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;
- kasbiy ta’lim muassasalarining aholiga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish turlarining ortib borishi, o‘z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yishi;
- mehnatni tashkil qilishning ilg‘or shakllarini joriy etishi va boshqalar.

Kasbiy pedagogika kasb-hunar ta’limi o‘quv yurtlari o‘quvchilarining ta’limi, tarbiyasi, o‘qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi, ta’lim va tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash me’zonlarini ishlab chiqadi, kasb ta’limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimi asoslaydi. U pedagogik nazariyalar to‘g‘risidagi bilimlarni, innovatsion texnologiyalarini loyihalash uslublarini umumlashtiradi. **Kasbiy pedagogika** fani insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko‘zda tutadi.

Kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingan eng ilg‘or usullar va yo‘nalishlar bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda o‘zining keng tatbig‘ini kutayotgan, boshqa fan sohalari bilan bog‘liq ravishda ishlab chiqilgan yangi konsepsiylar va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Kasbiy pedagogika umumiy pedagogika fanining tarmog‘i sifatida kasbiy - texnik ta’lim tizimining takomillashish jarayonida shakllanib boradi. U nisbatan yangi fan sohasi sanalib, bugungi kunda ko‘plab tushunchalari shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Har qanday fan sohasida bo‘lgani kabi kasbiy pedagogika o‘z kategoriyalari va tushunchalariga, sifat ko‘rsatkichlariga egaki, bular fanning asosini tashkil qiladi.

Kasbiy pedagogika fani boshqa fanlar bilan birgalikda kasbiy ta’limning turli tizimlarida quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- o‘quvchilarning yangi, yanada murakkab vazifalarni amalga oshirishlarini ta’minlash uchun ularning kasbiy mahoratini oshirishi;
- kasbiy-texnik ta’limning yangi konsepsiylarini amalga oshirish vosita va yo‘llarini yaratishga e’tiborni qaratish, faol-ijodkor shaxsni tarbiyalash;
- pedagogik bilimlarni egallashga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish;
- kasbiy ta’lim va tarbiyaning yangi, yanada samarali shakl va usullarini ishlab chiqish;
- rivojlanib boruvchi yangi pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta’lim oluvchilarning barcha imkoniyatlari va qobiliyatlarini ishga solishi uchun sharoit yaratish, kasbiy mahoratni egallashi uchun sarflanadigan vaqtini qisqartirishga erishish.

1.4. Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o‘z yo‘li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi, keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo‘ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

Har bir sohadagi kabi kasbiy pedagogika sohasidagi tushunchalar, ta’riflar talabalarga milliy mafkuraga mos, umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog‘i lozim.

Kasbiy pedagogikaning muhim tushunchalariga to‘xtalamiz.

Ma'lumot – o‘qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, o‘quvchida bilim, iqtidor va ko‘nikmalarining o‘zlashtrilganligini, bilish qobiliyati o‘sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsxiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobjiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

Ta’lim – ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan «o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘qituvchi» muloqoti bo‘lib, uning natijasida o‘quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiyligi shakllanish, rivojlanish amalga oshadi. Odamlarning ma'lumoti, faqat ta’limninggina natijasi bo‘lib qolmay, balki ota-onva oila tarbiyasi o‘z-o‘zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangori ekran va hokazo) ta’sirida amalga oshiriladi.

Insonning rivojlanishi – tashqi va ichki, boshqariluvchi va boshqarilshiga berilmaydigan omillar tomonidan shaxsning shakllanishi jarayonidir. Ularning tarkibida, albatta, maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya asosiy rol o‘ynaydi.

Maktabdagi o‘qitish jarayonida ta’lim, tarbiya va ma'lumot o‘zaro mustahkam bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. O‘qituvchi qaysi fanni o‘qitishidan qat‘i nazar, o‘sib kelayotgan avlodga fan asoslarini o‘rgatadi, bilimlarni bayon qiladi. Shu manbalarning mazmuniga qarab, tarbiya masalalarini ham hal qiladi, bolalarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptiradi, madaniy xulq-atvor ko‘nikmalarini tarbiyalaydi, ularning ongiga ilg‘or madaniyatlilik prinsiplarini singdirib boradi. Demak, ta’lim nazariyasining mavzu baxsi tarbiya va ta’lim masalalaridan tashkil topib, ularning hammasi bir vaqtida, bir jarayonda amalga oshirib boriladi.

Inson shaxsining shakllanishida ma’lum maqsadga qaratilgan o‘zi tushunib yetib, orzu qilgan (o‘zi mustaqil tarbiyalay oladigan) fazilatlar, sifatlar va xulqlarning shakllantirilishi katta ro‘l o‘ynaydi.

O'qitish – o'rgatish – bolalarning maxsus tashkil etiladigan faol mustaqil, bilish – tanish, mehnat, estetik, jismoiniy faoliyati bo'lib, tabiiy qobiliyatlarini va ruhiy jarayonlarini rivojlantirish, tajribalar, ko'nikmalar hamda bilimlarni egallash, o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Pedagogik faoliyat – estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqylan o'ylab ko'rilib, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

Tarbiyaning obyektiv qonunlari – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirishdek talablaridagi turg'un bo'lgan an'analardir.

Tarbiyaning asosiy qonuni – o'sib borayotgan yosh avlodni katta yoshdagilar ijtimoiy tajribasining egasi qilish uchun, ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishini ta'minlab berish uchun amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyatdir. Jamiyatning hayotiyligini ta'minlash, alohida olingan bir inson va har bir shaxsning mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning rivojlanishini, avlodlar orasidagi vorisligini amalga oshirish demakdir.

Pedagogika prinsipi – ijtimoiy munosabatlarning tekshirilgan amaliy va barqaror yo'nalishlarini o'zida aks ettiradigan nazariy umumlashtiruvchidir. Shuningdek, o'quv-tarbiyaviy jarayonni, bolalarning jismoniy, badiiy, ijodiy, mehnat va boshqa har qanday faoliyatiga pedagogik rahbarlikni tashkil etishga bog'liq bo'lgan qonuniy aloqalardir.

Pedagogik tajriba – o'qituvchi tomonidan pedagogikaning prinsiplari va amaliy qonunlarini ijodiy va faol ravishda o'zlashtirish hamda real shart-sharoitlarni, bolalarning, bolalar jamoasining, shaxsning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etishidir.

Pedagogik qarama-qarshiliklar (kelishmovchiliklar) – pedagogika amaliyoti jarayonida vujudga keladigan, eskirgan pedagogik ko'rsatmalar, qarashlar, konsepsiylar va pedagogik jarayonning

tarbiyaviy samaradorligini pasaytiradigan, shaxsni shakllantirish tizimlari bilan vujudga kelgan nomuvofiqlikdir.

Yangi taraqqiy etib borayotgan, o'sib borayotgan yosh avlodga hayot talablarining murakkablashib borishi, umuman, shu tarzda vujudga keladigan ehtiyoj ta'lim va tarbiyaning yangi mazmunga, shaklga ega bo'lgan uslublari bilangina, qanoatlantirilishi mumkin.

Tarbiyaning maqsadi – jamiyatning alohida bir olingen shaxsga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirsh, uning mohiyati, ideal talablarini, o'ziga xosligi va fazilatlarini, hayotga munosabatining, aqliy, jismoniy, axloqiy va estetik rivojlanishini nazariy umumlashtirishdir.

Shaxsning har tomonlama kamolotga yetishi – ma'lum bir hayotiy, tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qobiliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarining to'liq va batamom rivojlanishidir.

Pedagogik jarayon – ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zi taraqqiy ettirishi.

Bolalarni tarbiyalovchi jamoa – bir butun o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, jamoaviy yuqori darajadagi axloqiy, estetik hamda ijtimoiy munosabatlarni tarbiyalaydigan, maxsus tashkil etilgan tizim, bolar muhitida muloqot olib borishdir.

Havaskorlik – bolalarning mustaqil, ixtiyoriy, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradigan ichki faoliyati.

Tarbiyaviy muhit – insон shaxsini shakllantiruvchi tabiat, ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiy tafakkur, turmush va shaxslararo munosabatlarning doirasi kabi omillarning bir-birini boyitishi va muvofiq kelishi.

Pedagogik muhit – pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimi.

Ichki muhit – yuqori darajadagi o'ziga xos asabiy faoliyatlarning, xarakterlar o'ziga xosligining, hayotiy tajribaning, irsiy tafakkur

ko‘nikmalarini tizimining hamda bola uchun, odatdagi ruhiy holatlarda o‘zini namoyon etadigan ta’sirchanlik va haqiqatga munosabatlar majmuasining o‘zaro bir-biriga muvofiq kelishi, bir-birini to‘ldirishi va boyitishi.

Ta’lim va tarbiyani insonparvarlashtirish – pedagogik diqqat hamda e’tiborning markazida insonning muhim masalasi va muammosi, ya’ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek, muhim faoliyat yotadi.

Ta’limni gumanitarlashtirish – texnokratizmga va noinsoniy qiyofa va xususiyatlarga qarama-qarshi turish, inson shaxsining ma’naviy boyligini oshirish va taraqqiy ettirish maqsadida ta’limning gumanitar hamda tabiiy-matematik davriyiliklari orasida garmonik muvozanatni o‘rnatish.

Aqliy tarbiya – bolalarning ongi va tafakkurini bilimlar, ongli ko‘nikmalar hamda malakalar bilan boyitish. Aqliy kuchlar, sezgilar, ruhiy jarayonlar, iqtidorlar, biluvchanlik maqsadlari, dunyoqarash va faoliyat ozodligini shakllantirish.

Huquqiy tarbiya – huquqiy madaniyatni, o‘quvchilarda qonunga bo‘ysunuvchanlik xatti-harakatini shakllantirish.

Politexnik ma’lumot – hozirgi zamon ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy prinsiplari bilan, chiqindisiz va ekologik toza texnologiya bilan tanishish. Shu bilan birga, kompyuter texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan hamda avtomatlashtirilgan mehnatning hozirgi davrdagi jihozlari bilan ishlash malakasi bilan quollantirish.

Mehnat tarbiyasi – bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan quollantirish. Shu bilan birga, mehnatsevarlik, mehnat kishisining psixologiyasini rivojlantirish, mulkning har xil shakldagi turlarida mehnatining har xil shakllarini tashkil etish qobiliyatini namoyon etib, muvaffaqiyatga erishish, tadbirkorlik va ijodiy yondashuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirishdir.

Iqtisodiy tarbiya – o‘quvchilarni asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan tanishtirish jarayoni bo‘lib, ularni ishlab chiqarishni tashkil etish sohasidagi oddiy harakatlar, qilishi lozim bo‘ladigan ishlar ko‘nikmasi, malakasi bilan, taqsimot va ta’limot bilan, iqtisodiy tafakkurning rivoji bilan qurollantirish.

O‘zbekiston Respublikasi sotsial-iqtisodiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini chuqur o‘zlashtirish.

Ekologik tarbiya – o‘quvchilarni ekologik (atrof-muhit muhofazasi) bilimlari bilan qurollantirish, shuningdek, tabiatga nisbatan axloqiy-estetik, oqilona ekologik xatti-harakatlar ko‘nikmalarini, ekologik tafakkurini hamda ekologiya uchun faol kurashish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Axloqiy tarbiya – o‘quvchilarda umuminsoniy axloqiy prinsiplarga sodiq bo‘lishdek, jamiyat axloqiy talablari va me’yorlarini hisobga olgan holda o‘z xatti-harakaglarini tanlay olish mahoratini, axloqiy tafakkur va kundalik odatdagi axloqiy xatti-harakatlarining mustahkam tizimini shakllantirish.

Jismoniy tarbiya – bolaning hamma jismoniy xususiyatlarini: anatomik, fiziologik, asab va boshqa sistemalarini har tomonlama rivojlantirish, sog‘lom hayot kechirishning afzallikkleri, shart-sharoitlari, asoslari hamda jismoniy madaniyatning odatdagi zarur elementlarini mustahkam tarzda shakllantirish.

Estetik tarbiya – badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish, real hayotda san’atdagi estetik hodisalar» ko‘rinishlar, holatlarni his qila olish, qabul qila olish, baholay olish qibiliyatlarini shakllantirish shuningdek, ijodiyotda faol ishtirok etish.

Tarbiyalash usulublari (usullari) – katta yoshdagilar bilan bolalar o‘rtasidagi pedagogik, aqlan o‘ylab ko‘rilib, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ta’sirlarining jamiyat tomonidan shart deb qo‘yilgan usullari bo‘lib, bolalik davri, faoliyati, muloqoti, munosabatlarini tashkil etishga yordam beradi, ularning faolligini rag‘batlantiruvchi hamda xatti-harakatlarini boshqarish asoslari hisoblanadi.

Ta’lim usullari (uslublari) – bolalarning bilimlarni, ko‘nikmalar va malakalarni o‘zlashtirishini, umumiy ma’lumot hamda umumiy ta’limining vositalarini egallashi uchun aqliy kuchlari, qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydigan, pedagog bilan o‘quvchining o‘quv-o‘rganish jarayonidagi o‘zaro ta’sirlarining maxsus usullaridir.

Muloqot – o‘zaro munosabatlar, o‘zaro ta’sirlarni ta’minlashga, ma’lumotlarni almashtirishni o‘z ichiga olgan va munosabatlarni, ularning aloqalarini amalga oshiradigan, ma’lum yo‘nalishga asosan olib boriladigan faoliyat hisoblanib, kishilarning birgalikdagi faoliyatining bir turidir.

Pedagogik muloqot – o‘quv-tarbiya jarayoni davomida o‘qituvchi (pedagog)ning o‘quvchilar bilan kasbiy muloqoti hisoblanadi.

Malaka – o‘zining shakllanish jarayonida avtomatlashib ketgan, ya’ni ixtiyoriy ravishda to‘liq takrorlash qobiliyati, odatdagagi faoliyat sifatida shakllanib bo‘lgan hamda murakkab harakatlarning tarkibiga kiritilgan jarayonlarni psixologik tanlashga aylanib ketgan ish-harakati, faoliyatdir.

Qobiliyat – shaxsnинг individual - psixologik o‘ziga xosligining psixologik tarkibiy tuzilishiga kiritilgan, qaysidir bir faoliyatni muvaffaqiyatl bajarishga taalluqli bo‘lgan va bilimlar, malakalarni egallahning tezkorligini, yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.

Bilish, anglash – dunyo haqidagi yangi bilimlar hisoblanadigan subyekt va obyektning o‘zaro ta’sirini, vogelikning ruhiyatda qayta tasvir etilishi hamda aks ettirish jarayonidir.

O‘rgatish – organizmning tug‘ma reaksiyalariga to‘g‘ri kelmaydigan va tubdan oldingi faoliyatlar natijasida vujudga keladigan faoliyatlar hamda bilimlarning mustahkam holatda o‘zgarishidir.

O‘rganish – ta’lim jarayonining tarkibiy tuzilishlarida o‘quvchining shaxsiy faoliyati.

Uyg‘unlik – inson ichki dunyosining hamma tarkibiy qismlarini rivojlantirishdagi teppa-tenglik, muvofiqlik, hajmiy muvofiqlilik (o‘lchamadorlik)da bo‘lishligidir. Buning mumkin bo‘lishi uchun

insonning hamma o'ziga xosligi va fazilatlarining asoslarda bir sistemaga birlashadigan yaxlit asos, manba yotishi kerak.

Kasbga yo'naltirish – o'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida kamolotga yetishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, balki psixologik, tibbiy, huquqiy muammo hamdir.

Umumpedagogik tayyorgarlik – padagogikaning kategoriyalari va metodologik asoslari haqidagi bilimlarni shakllantirish, psixologik-pedagogik sezgirlik, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvurlar, tashkilchilik qobiliyatları, talabchanlik, odamshavandalik, maqsadga intiluvchanlik, qat'iylik, vazminlik va o'zini tuta olish, bolalarning, o'spirinlar hamda yosh yigit-qizlarning yoshiga ko'ra anatom-fizioologik rivojlanishning asosiy qonuniyatları haqidagi bilimlarni, o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini, pedagogik ishlar bilan qiziqvachanligni shakllantirishdir.

Professional (kasbiy-pedagogik) mohirlik har xil shart-sharoitlarda pedagogning o'z kasbiy faoliyatini bajarish qobiliyati bo'lib, uning asosida ijtimoiy-siyosiy, umummilliy, maxsus, psixologik-pedagogik, kasbiy-uslubiy bilimlar va malakalarning shakllangan tizimni qo'lga kiritish, o'zlashtirib olish yotadi.

Kasbiy-usulik mohirlik – o'qituvchi, mazkur fanni olib boruvchining mavjud bo'lgan pedagogik va uslubiy bilimlar asosida malakaviy faoliyatini bajara olish qobiliyatidir. Shunday qilib, pedagog ikki turdag'i: kasbiy va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining maktabda o'qitayotgan fani yuzasidan malakasiga hamda kasbiga ko'ra haqli ravishda pedagog deb ataydilar.

Ta'lim (o'qitish) usullari – ta'limning uslubiy tarkibiy qismlarini tashkil qilgan bo'laklardan iborat. Masalan, og'zaki bayon etish davomida doskaga yozib borish, ko'rgazmali qurollar yoki ular bilan tanishtirish jarayonida qiyoslashlardan foydalanish kabi va boshqalar; har bir uslub doirasida o'quv materiali mazmuniga, o'quvchilarning tayyorgarligiga, darsning jihozlanishiga, o'qitishning individual o'ziga xosliklariga bog'liq ravishda usullar almashinadi.

Ta’lim metodikasi – xususiy didaktika yoki ta’limning xususiy nazarlyasini o’zida namoyon etadigan pedagogika fanining tarmog‘idir. Uning vazifalari o’quv fani yuzasidan ta’lim berish hodisasini o’rganish jarayonida ularning orasidagi qonuniy aloqalarni ochish, anglangan qonuniyatlar asosida esa, o‘qituvchining ta’lim faoliyatiga va o‘quvchisining aglash, biluvchanlik faoliyatiga talablar me’yorini o’rnatishdan iboratdir.

1.5. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo‘nalishlar: o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi pedagogikasi, oliv ta’lim pedagogikasi va boshqalar

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi pedagogikasi – ta’lim-tarbiya oluvchilarga aniq yo‘nalishdagi kasbiy ma’lumotlarni o‘rgatuvchi fan.

Pedagogika fanining tarmoqlari: maktabgacha tarbiya pedagogikasi, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, maxsus pedagogika, harbiy pedagogika, kasbiy ta’lim pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, axloq tuzatish, davolash pedagogikasi, solishtirma qiyosiy pedagogika, fanlarni o‘qitish metodikasi, hamkorlik pedagogikasi, madaniy-axloqiy pedagogikasi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, injenerlik pedagogikasi, oliv ta’lim pedagogikasi, boshqaruv pedagogikasi, yangi pedagogik ta’lim.

Pedagogika amaliyotning istiqbollarini bashorat qilish va amaliyotga joriy etish uchun pedagogika fani tizimidagi fanlarning o‘qitilishi holatini chuqr tahlil qilish zarur. Pedagogika tarmoqlarining ayrimlari va ularning xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi o‘quvchilarni tarbiyalash va o‘qitish haqida baxs yuritadigan fan.

Milliy ta’lim-tarbiyani aks ettiruvchi, davr talablarini o’zida singdirgan pedagogika fanlari (nazariyasi) bo‘yicha o‘quv darsliklari, xrestomatik adabiyotlar yaratish zarur. Hozirgi kunda Respublikada 100 ga yaqin pedagogika fanlari doktorlari, professorlar faoliyat

ko'rsatmoqdalar, ana shularning kuchiga tayangan holda, umumiy pedagogika muammolarini tahlil qilib, eng muhimlarini yechish zarur.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi – maktabgacha yoshdag'i bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanuvchi fan.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning tushuncha, tafakkur, dunyo-qarashlarini shakllantiruvchi, ularni fikrlashga o'rgatuvchi, darsliklarni, qo'llanmalarни yaratib, amaliyotga tatbiq etish muhim pedagogik vazifadir. Buning uchun bolalarning xususiyati (yosh xususiyati, bilim darajasi, qiziqishi ijtimoiy muhit)ni yaxshi anglash zarur.

Maktabgacha yoshdag'i bolalar ikki guruhga bo'linadi.

Yosh davri: 1–3 yosh; maktabgacha davr: 3–7 yosh.

Inson aqliy qobiliyati umumiy rivojlanishining teng yarmi dastlabki 3–4 yoshida, 30 foizi 4–8 yoshlik davrida, qolgan 20 foizi esa 8–17 yoshlarida ro'y beradi.

K.D. Ushinskiy fikricha, 6 yoshli bolaning bir oy davomidagi jismoniy va aqliy kamoloti 10 yashar bolaning bir yillik o'sishidan ustun turadi.

5 yoshdag'i bolada paydo bo'lgan biron bir hissiyotni u ko'pincha umrbod esidan chiqarmaydi. 7 yoshdag'i odad 70 yoshida ham saqlanadi.

Bolada bilimga qiziqish 1,5–2 yoshdan boshlanadi.

Olti yoshli bolalarni maktabga jalb qilish mumkinmi?

Bola 6 yoshga to'lмаган bo'lsa, ya'ni 3–4 oy etmasa, bu holat bolani ijobiy o'qishiga salbiy ta'sir etadi; 6–7 yoshli bola har kuni, har soatda o'sadi. Bu davr uchun bir hafta ham muhim omil hisoblanadi. Bundan keyin bolaning yoshi bir tekis rivojlanadi. Masalan: 10, 11, 13 va 14 yoshli; 15–16 yoshli o'smirlarga umumiy psixologik xarakteristika berish mumkin, 6–7 yoshli bolalarga bunday qilib bo'lmaydi. Shu sababli maktabgacha tarbiya pedagogikasi 2–7 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanadi.

Pedagogika tarixi – o'tmish ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlarini o'rganuvchi fan.

O‘tmishda ta’lim-tarbiya qanday bo‘lganligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o‘zgarishi tufayli pedagogik g‘oyalalar, tarbiya ishlarining mazmuni, usullarining yangilanib borganligini, o‘tmishda ijod etgan olimlar: Abu Nasr Farobi, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar Hayyom, Az-Zamahshariy va boshqa olimlarning pedagogik qarashlari, faoliyatları natijasidan bilim olish mumkin.

Bugungi kun talabi asosida Avesto, Qur’oni karim, Hadislarda aks etgan pedagogik g‘oyalarni ilmiy-usulik jihatdan ochib berilmog‘i zarur.

«Eskini o‘zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo‘la oladi» deb ta’kidlagan Konfutsiy. Shu sababli Ta’lim-tarbiya, pedagogika fani tarixini chuqur bilish talab etiladi.

Maxsus pedagogika – pedagogika faqat sog‘lom o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi bilan emas, balki nogiron bolalar (kar, ko‘r, aqli zaif) ta’lim-tarbiyasini ham o‘rganadi. Bunday pedagogikani maxsus pedagogika deb ataladi:

Oligofrenopedagogika – aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta’lim-tarbiya beradi.

Tiflopedagogika – ko‘r bolalarni tarbiyalaydigan fan.

Surdopedagogika – kar va soqov bolalarni tarbiyalaydigan fan.

Nogiron bolalarga ta’lim-tarbiya berish o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu sohada maxsus tadtiqot ishlarini olib borilayotganligini inkor etmagan holda davr talablariga javob bera oladigan darslik, qo‘llanmalar yaratilishini yanada takomillashtirish zarur.

Nogiron bolalar nimani bilishi, nimani uddasidan chiqishi kerakligini kasbiy nuqtayi nazardan aniqlash lozim.

Harbiy pedagogika – armiya sardorlari va askarlarini Vatanimizning shon-sharafi va or-nomusi uchun yetuk kurashchi, zamonaviy harbiy qurol-yarog‘lardan samarali foydalana oladigan yoshlar ta’lim-tarbiyasi uning asosini, nazariya va amaliyotini o‘rgatuvchi fan.

Kasbiy ta’lim pedagogikasi – ta’lim-tarbiya oluvchilarga aniq yo‘nalish bo‘yicha kasbiy ma’lumot, bilim, ko‘nikma va malakalar beruvchi fan.

Ijtimoiy pedagogika – bolalar va o‘smlarning maktabdan tash-qari sharoitdagagi ta’lim-tarbiyasiga oid masalalarni o‘rganadigan fan.

Ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib borayotgan bir sharoitda mazkur pedagogika asoslарини ham nazariy, ham amaliy jihatdan ishlab chiqish zarur. Bu esa, bolalarning bo‘sh vaqtларидан unumli foydalanish, ularni mazmunli o‘tkazishlariga imkon yaratadi.

Axloq tuzatish – mehnat pedagogikasi – huquqbuzarlik holatlariga yo‘l qo‘ygan, jazoni o‘tash muassasalaridagi shaxslarni qayta tarbiyalashning nazariy hamda amaliy asoslari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi fan.

Terrorizm va diniy ekstremizm, hududiy ayirmachilik, giyoh-vandlik muammolarining xalqaro maydonda o‘sib borishi ularga qarshi kurashni talab etadi. Bunday sharoitda axloq tuzatish – mehnat pedagogikasi fani o‘z vazifasini talab darajasida ado etishi zarur.

Axloq tuzatish - mehnat pedagogikasining nazariy-amaliy asoslarini bataysil ochib berilishiga erishish uchun pedagog, psixolog, huquqshunoslik olimlarining hamkorligi zarur. Bu boradagi hamkorlikni yaratish, huquqni buzgan yoki huquq buzarklikka moyil bolalar va o‘smlar o‘rtasida kriminogen holatlarga qarshi immunitet hosil qilishda axloq tuzatish – mehnat pedagogikasining ahamiyati muhim. Bunday muammolarni hal etish umuminsoniy ahamiyatga ega.

Davolanish pedagogikasi – jismoniy jihatdan nogiron bolalarni bevosita ijtimoiy faoliyatga tayyorlash asoslarini o‘rgatuvchi fan.

Ushbu fanni mazmunan maxsus tayyorlangan mutaxassislar fan asoslарини, texnika va texnologiyaning rivoji nuqtai nazaridan yaratilishiga erishish maqsadga muvofiq.

Solishtirma qiyosiy pedagogika – jahon mamlakatlari ta’lim-tarbiya tizimlari asosini qiyosiy o‘rganadigan fan. Bu fan rivojlangan xorijiy davlatlar ish tajribasini o‘rganib amaliyatga tatbiq etish, ta’lim tizimining rivojlanishiga asos bo‘ladi.

Xorijiy davlatlar ta’lim tizimiga oid ma’lumotlarga yetarli darajada ega bo‘lmaslik, ular bilan hamkorlikning keng yo‘lga qo‘yilmasligi ta’lim tizimining rivojlanishiga salbiy ta’sir yetadi. Ta’lim tizimini rivojlantirish uchun bu borada xalqaro hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish va alohida tadqiqot ishlarini amalga oshirish zarur.

Fanlarni o‘qitish metodikasi – har bir fanning mazmunini aniqlab, ketma-ketligini belgilab, tanlangan materiallarni o‘rganishning shakl va usullarini hal etadi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya, kasb ta’limi va h. k.

Hamkorlik pedagogikasida bola tarbiyasi murakkab jarayonni o‘taydi. U o‘qituvchidan mas’uliyat, tinimsiz izlanishni talab qiladi. Biroq shunday omillar ham borki, ular ham bevosita bola kelajagini belgilash imkoniyatiga qodir. Bu omillardan biri, oiladagi tarbiya bo‘lsa, ikkinchisi – tashqi muhit, ya’ni mahalla ta’siri.

Bola tarbiyasiga: maktab, oila, mahalladagi muhit kuchli ta’sir etadi.

Bola tarbiyasida ana shu uchta omil (muhit)ni mushtarak holda olib borilishi, bolaning kelajakda yetuk va komil inson bo‘lib voyaga yetishishida yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Oila pedagogikasi – jamiyat qurilishining birinchi bosqichi oila. Oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari ijtimoiy muhitni belgilaydi. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan xalq maqoli oila muhiti mohiyatini ifodalab beradi. Oiladagi a’zolarning o‘zaro munosabatlari, yoshlar tarbiyasi masalalarini oila pedagogikasi tadqiq qiladi.

Madaniy-oqartuv pedagogikasi – ma’naviy-ma’rify ishlarni boshqarish muammolarini o‘rganadi.

Ta’lim tarbiya jarayonida ushbu jarayonda ishtirok etuvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, faoliyat sharoitlari, kasbiy vazifa va mas’ulyatlari alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan oliv o‘quv yurtlari pedagogikasi, umumiyl o‘rta ta’lim pedagogikasi, jamiyatda, jumladan, ta’lim-tarbiyada boshqaruv pedagogikasi maqsad va vazifalari bir-biriga yaqin bo‘lsa ham, obyekti nuqtai nazardan biroz farq qiladi. Ularning har biri uchun alohida, muhim pedagogik tadqiqot izlanishlarni amalga oshirish zarur.

Oliy ta’lim pedagogikasi umumiy pedagogika fanining bir tarmog‘i sifatida pedagogika sohasida ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan va ifodalangan umumiy pedagogika qonuniyatlarini va prinsiplariga asoslanadi.

Oliy ta’lim pedagogikasi umumiy qonuniyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiyaning xarakteri, mazmuni, shakllari ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida shu jamiyatda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan belgilanadi va davlat hujjatlarida ijtimoiy buyurtma sifatida ifodalanadi;

- oliy ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl-usullarining birligi va h. k.

Pedagogika fanida aniqlangan va qo‘llanib kelinayotgan ta’limning quyidagi umumiy prinsiplariga oliy ta’lim jarayonida ham amal qilinadi:

- o‘quv dasturlari, darsliklardagi bilimlarni ongli o‘zlashtirish prinsipi;

- faoliyk prinsipi, talabaning faoliyatiga tayanib o‘qitish prinsipi;

- oliy ta’limning mazmuni, shakl-usullari talabaning yosh xususiyatlariga mosligi;

- bilimlarni o‘zlashtirish va malakalarni egallashda izchillik va tizimlilikka rioya qilish;

- ta’limning amaliyot va ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘liqligi;

- ko‘rsatmalilik, zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalaridan foydalanish prinsipi.

Oliy ta’lim pedagogikasi fani O‘zbekistonda «shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi» e’tirof etilgan bir davrda barkamol shaxsning rivojlantirish qonuniyatlarini, talabalar shaxsini hayotga moslashtirishni shakl va usullari, mazmuni va prinsiplarini, psixik faoliyati qonuniyatlarini, uning ro‘y berishi mexanizmlari va omillarini jamuljam o‘rganadi.

Bugun oliy ta’lim pedagogikasining amaliy-nazariy muammolarini tadqiq qilish texnologik yondashuv asosida olib borilishi lozim,

chunki u ta’lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta’sir etuvchi omillari, qonuniyatlarini va mexanizmlarini qamrab oladi.

Oliy ta’lim pedagogikasi fani predmeti jamiyat ehtiyoji va rivojlanayotgan shaxs qiziqishiga hamohang holda tarbiyaviy jarayonni qurish qonuniyatlarini o’rganish va bu jarayonni amalgalash oshirish hisoblanadi.

Oliy ta’lim pedagogikasi oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonining pedagogik qonuniyatlarini, oliy ta’limda bilimlarni, ko’nikma va malakalarni egallash, bu jarayonlarda sodir bo’ladigan individual-psixologik tafovutlarni, talabalarda faol, ijodiy va mustaqil tafakkurini tarkib topishini, ta’lim-tarbiya ta’siri bilan talabalar tarbiyasi va psixikasida sodir bo’ladigan o’zgarishlarni o’rganadi. Shuningdek, o’quv materiallarini, talabalarga mos kelishi, ta’lim usullarini pedagogik va didaktik jihatdan samaradorligi, darslik va o’quv dasturlari, ko’rgazmali materiallariga qo’yilgan talablar, o’qituvchi va uning pedagogik faoliyat usullarini, o’qituvchi va talabalar orasidagi munosabatlarni o’rganish ham oliy ta’lim pedagogikasining muammolaridir.

Talabani shaxs sifatida shakllantirish, tarbiyalash, tarbiya vositalari, usullari oliy mакtab pedagogikasi faniga tegishli bo’lsa, talaba shaxsi psixikasining shakllanishi, rivojlanishi xususiyatlari, qonuniyatlarini oliy mакtab psixologiyasi faniga taalluqlidir. Talaba shaxsining psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmay turib, ularning qalbiga yo’l topish, uni bilimli va yetuk mutaxassis hamda komil inson qilib tarbiyalash juda qiyin. Ta’lim va tarbiya talaba shaxsiy taraqqiyotida birga amal qiladi, shuningdek, unga ta’lim-tarbiya beruvchi shaxs muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, ta’lim va tarbiya jarayonining qanday tashkil qilinishi ham shularga bog’liqdir.

Oliy ta’lim pedagogikasi talaba shaxsini ta’lim-tarbiya jarayonida o’rganar ekan, uning o’rganish obyekti o’spirinlik yoshi, ya’ni talabalik davri (17–22–25 yoshni o’z ichiga oladi) bo’lib, pedagog ta’sirida ta’lim-tarbiya jarayoni maqsadga muvofiq ravishda yushtiriladi.

Oliy ta'lif pedagogikasi o'z izlanishlarida taraqqiyotning umumiy qonuniyatlariga (qarama-qarshilik, integratsiya, plastiklik, ya'ni egiluvchanlik), umumiy pedagogika va psixologiya hamda oliy ta'lif pedagogikasida pedagogik-psixologik jarayonlar, holatlar, psixik xususiyatlarga xos bo'lgan tajriba natijalariga asoslanadi.

Oliy ta'lif pedagogikasining maqsadi va nazariy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jahon pedagogika fani hamda fan-texnika yangiliklarini oliy ta'lif jarayoniga tatbiq etish bilan ta'lif-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish va talaba shaxsini faollashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish;
- talaba shaxsining aql-idroki va fe'l-atvoriga, shaxs sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;
- ta'lif-tarbiya jarayonida talaba shaxsining aqliy qobiliyatları, ko'nikma va malakaları, ma'naviy, axloqiy, hissiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning shart-sharoitlarini aniqlash;
- o'z-o'zini tarbiyalashning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlash;
- mustaqil ta'lif olishning pedagogik masalalarini va usullarini ishlab chiqish;
- yagona pedagogik jarayonni tashkil etish va ta'lif mazmunini tanlash;
- fanlardan talabalarni o'zlashtirishining sifat darajasini diagnostika qilish usullarini ishlab chiqish va h. k.

1.6. «Kasbiy pedagogika» fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish

O'zbekiston Respublikasida kasb ta'lifi o'qituvchilarini tayyorlash pedagogika institutlari va universitetlari hamda boshqa barcha oliy o'quv yurtlarining kasb ta'lifi fakultetlarida amalga oshiriladi.

Kasb ta'lifi o'qituvchilarini tayyorlash o'quv rejasida gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, ixti-

soslik, qo'shimcha va tanlov fanlari bloklaridagi fanlarni o'qitish orqali amalga oshirish nazarda tutilgan. Umumkasbiy fanlar blokini psixologik-pedagogik, loyihalash-konstrukturlik-texnologik, ekspluatatsion (Xizmat ko'rsatish), konstrukturlik kurslariga ajratish mumkin.

Kasb ta'limi o'qituvchilarining psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarligi psixologik-pedagogik turkumdagi yoshlar fiziologiyasi va gigiyena, psixologiya, pedagogika kasb ta'lim pedagogikasi, pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, kasb ta'limi metodikasi, kasb tanlashga yo'llash kabi fanlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganishda amalga oshadi.

Kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda «Kasb ta'lim pedagogikasi» ixtisoslashtiruvchi fanlardan biridir. Bu fan boshqa fanlar (pedagogika, psixologiya, kasb ta'limi metodikasi, kasb tanlashga yo'llash va hokazolar)ni takrorlamaydi, balki ular bilan yaqin bog'lanishda bo'ladi. Shu sababli «Kasbiy pedagogika» fanini boshqa psixologik-pedagogik turkumdagi fanlarsiz u fanlarda olgan bilimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayrim psixologik-pedagogik turkumdagi fanlarni o'rganmasdan, ulardagи bilimlarni egallamasdan turib, «Kasb ta'lim pedagogikasi» fanini chuqur o'zlashtirib bo'lmaydi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi «Kasb ta'lim pedagogikasi» fanini o'rganar ekan, u quyidagi bir qator fanlarni o'rgangan, u fanlardan chuqur bilimga ega bo'lgan bo'lishi kerak:

- «Umumiy psixologiyaning obyekti, vazifalari». «Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida». «Psixika, haqida tushuncha, psixikaning orientirovka qiluvchanlik va boshqaruvchanlik vazifasi». «Bosh miya va psixika». «Psixika va ong». «Psixologiya va falsafa». «Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari». «Psixika va ongning tahlil qilish prinsiplari». «Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilmasi va uning prinsiplari». «Psixologiyaning sohalari».

- «Psixologiyaning usullari va uning tahlili». «Faoliyatning psixologik tahlili». «Motivlar va faoliyat».

– «Psixikaning taraqqiyoti». «Motivatsiya va emotsiya psixologiyasi». «Motivatsiya sohalarining umumiy tuzilishi». «Iroda psixologiyasi».

– «Shaxs psixologiyasi». «Shaxs, individ, individuallik tushunchalari». «Frustratsiya va shaxsning istiqbol rejalari». «Konformizm». «Dunyoqarash va e’tiqod».

– «Muloqot psixologiyasi va nutq». «Diqqat va uning turlari». «Sezgi va idrok». «Xotira va xayol». «Tafakkur». Muammoli «vaziyat va uni hal qilish». «Temperament, uning o’ziga xos xususiyatlari» kabi masalalarni o’rganuvchi **«Umumiy psixologiya faninini»**;

– Yosh va pedagogik psixologiyaning predmeti, uning rivojlanish tarixi, Sharq mutafakkirlarining qarashlari, yosh psixologiyasidagi maktablar, yosh psixologiyasini o’rganish usullari, ta’lim mazmuni va psixik taraqqiyot, yoshning umumiy xarakteristikasi, yosh taraqqiyotini davrlashtirish.

Maktabgacha yosh davri xarakteristikasi. Kichik maktab yoshi davri psixologiyasi. O’smir psixologiyasi, o’spirin psixologiyasi. Ta’limni va bilimlarni o’zlashtirishni boshqarish psixologiyasi. Ta’lim va aqliy taraqqiyot. Tarbiya usullari va formalari. Bo’lg“usi o’qituvchi shaxsi sifatlari. Pedagogik qobiliyat: nazariya va amaliyot kabi masalalarni o’rganuvchi **«Yosh va pedagogik psixologiya fanini»**;

– pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obyekti, usullari.

«Ta’lim to‘grisidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasaturi». Ta’limning uzviyligi va uzlusksizligi. Uzlusksiz ta’lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko’ra tarmoqlari, boshqa fanlar, shu jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs, ta’lim va tarbiya. Xorijiy mamlakatlardagi tarbiyaga qisqacha izoh. Yagona pedagogik jarayon. Didaktika – ta’lim nazariyasi. Didaktikaning vazifalari. Ta’limning rivojlanish yo‘nalishlari (konsepsiysi): uzlusksiz ta’lim konsepsiysi, texonologizatsiya konsepsiysi, ta’lim paradigmalari.

Didaktik prinsiplar (tamoyillar). O'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. Ta'limning psixologik, fiziologik asoslari. Ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar. Ta'lim jarayonida motivatsiya.

Ta'lim usullari, vositalari va texnologiyalari. Umumiy va xususiy usullar. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga qaratilgan usul va texnologiyalar. Metod tanlash va motivatsiya. O'quv adabiyotlari va ularning turlari. Elektron o'quv adabiyotlari.

Ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik texnologiyalar. Ta'lim shakllari. Ta'limni tashxis etish.

Tarbiya nazariyasi. Tarbiya jarayoni, muhiti(sotsium), tarbiya prinsiplari, tarbiyaga qo'yiladigan talablar. Tarbiya usul va texnologiyalar. Milliy tarbiya masalasi. Tarbiya turlari. Tarbiya va milliy g'oya. Tarbiya va ma'naviyat. Oila tarbiyasi.

Ta'lim tizimini boshqarish. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari. Ta'lim muassasasi, uni boshqarish. Boshqaruvda vasiylik va homiylik masalalari.

Maxsus (korreksion) pedagogika, uning maqsad va vazifalari, uning pedagog faoliyati uchun ahamiyati.

Pedagogika tarixi. Ta'lim, tarbiya va ta'lim muassasasi to'g'risidagi g'oyaning paydo bo'lishi. Eng qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi davrlarda tarbiya, mакtab va pedagogik fikrlash taraqqiyoti. Islom madaniyati va tarbiya. Tarbiya to'g'risida sharq mutafakkirlarining qarashlari. Turkistonda ta'lim va tarbiya. O'zbekistonda maktab, maorif, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish tarixi. Mustaqillik davrida ta'lim va tarbiya. Juhonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogik fikrlarning xususiyatlari kabi masalalarni o'rjanuvchi «**Pedagogika nazariyasi va tarixi fanini»;**

– kasbiy ta'limda pedagog faoliyatining umumiy tavsifi: maqsadga yo'naltirilganlik, o'quv motivatsiya va rag'batlantirish; yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish; pedagogik loyihalarni amalga oshirishda shakl, usul va vositalarni optimallashtirish;

– **pedagogik mahorat va pedagogik bilimdonlik tushunchasi:** o‘qituvchi shaxsining shakllanish jarayoni;

– **pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi:** o‘qituvchining inson-parvarlikka yo‘naltirilganligi, kasbiy bilimlar, pedagogik qobiliyatlar (kommunikativ qobiliyatlar, perseptiv qobiliyatlar, kreativlik, intuitsiya, empatiya);

– **pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari:** o‘z faoliyatini nazorat qilish ko‘nikmasi, shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsata olish ko‘nikmasi; pedagogning tashqi ko‘rinishi, madaniyati va nutq texnikasi, o‘qituvchining pedagogik odobi;

– **muloqot madaniyati va o‘qituvchi faoliyatining psixologiyasi:** o‘quv-tarbiyaviy ish jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik muloqot mahoratini, pedagogik tajribasini tahlil qila olish va uni amalga oshirish yo‘llarini bilish, o‘qituvchi faoliyatida sharq muloqotini asosini egallah; kasbiy-pedagogik muloqot texnologiyasi;

– **pedagogik vaziyatlar:** pedagogik vaziyatlarni va pedagogik masalalarni hal qilish texnologiyasi; tarbiya faoliyati texnologiyasi;

– **kasbiy ta’lim pedagogining ixtisoslik tavsifi:** kasbiy maktab pedagogining faoliyati: mohiyati, funksiyasi, tuzilishi, mazmuni; kasbiy ta’limda tarbiyaviy ish mazmuni va uni amalga oshirish; o‘quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini rejalash; sinf rahbarining ishini rejalash;

– **tarbiya jarayonini boshqarish:** kasbiy ta’lim tizimida innovatsion tarbiya tizimlarining tavsifi; zamonaviy kasbiy maktabda shaxsiy pedagogik tajribani orttirish tizimi, zamonaviy pedagogik g‘oya va tajribalarni rivojlantirish va ularni qo‘llash yo‘llarini egallah kabi masalalarni o‘rganuvchi «**Pedagogik mahorat faninini**»;

– **pedagogik texnologiya haqida tushuncha:** o‘quv jarayoni tuzilishida pedagogik texnologiya; an‘anaviy pedagogik texnologiya;

– **zamonaviy pedagogik texnologiyalarning afzalliklari, ularning qo‘llanilishi va tavsifi:** shaxsiy-yo‘naltiruvchi pedagogik texnologiya, o‘quvchi shaxsiga va faoliyatini oshirishga yo‘naltirilganlik; zamonaviy va an‘anaviy texnologiyani taqqoslovchi tahlil;

- o‘quv jarayonini optimallashtirish (faollashtirish). O‘qitishning interaktiv (faol) usullari: muammoli suhbat va ma’ruza, muammoli-izlanuvchi suhbat, aqliy xujum, rol va o‘yinli darslar, muammoli-izlanuvchi mashqlar, tadqiqot laboratoriya ishlari, loyiha usuli, analogiyalar usuli, holatni tahlil qilish usuli va boshqalar;
- pedagogik texnologiyalarni didaktik loyihalash: bosqichlari, maqsadlari, usullari, shakli, vositalari, baholash va nazorat mazmuni, ishtirokchilarining ta’lim jarayonidagi faoliyati, o‘quv jarayonini texnologik xaritasi;
- o‘zlashtirish nazorati va tuzilishi: ma’nosи, nazoratga qo‘yilgan talablar va vazifalar, nazorat instrumentlarini ishlab chiqish, faoliyatni baholash va tahlil: pedagogik texnologiyani samundorligini baholash – bu o‘qituvchi pedagogik mahoratining ko‘rsatkichi;
- ta’limda axborot texnologiyalari: kompyuterlar – o‘quv tarbiya jarayonlarni boshqarish va tashkil qilish vositasi; dasturlashtirilgan pedagogik vositalar, masofadan o‘qitish tushunchasi; elektron o‘qitish vositalari va ulargu o‘quv jarayonida qo‘llashda asosiy talablar kabi masalalarни o‘rganuvchi «**Pedagogik texnologiyalar fani va shu kabi fanlarni**».

Shu tariqa «Kasbiy ta’lim pedagogikasi» fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi ta’milnadi.

Nazorat savollari:

1. *O‘zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta’lim tizimida qanday asosiy islohotlar amalga oshirildi?*
2. *O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonidagi rivojlanish yo‘nalishlari nimalardan iborat?*
3. *«Kasbiy pedagogika» fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*
4. *Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari nimalardan iborat?*
5. *Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo‘nalishlar nimalardan iborat?*
6. *«Kasbiy pedagogika» fani qanday fan? U qaysi fanlar bilan uzviy aloqador?*

2-BOB. KASBIY PEDAGOGIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Tayanch iboralar: milliy g'oya, umumbashariy va milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, komil inson, odob, xulq, axlog.

2.1. Milliy g'oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, xalq pedagogikasi tajribasiga tayanish

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak insonparvar qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Milliy istiqlol mafkurasingning bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekidan dalolat beradi.

Milliy istiqlol mafkurasingning asosiy g'oyalari xalqning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi. O'zining ma'no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkurasi o'zining tub mohiyatiga ko'ra Vatanimiz ozodligi va mustaqilligini mustahkamlashni, Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunday ulug'ver vazifani bajarish har bir fuqaroden erkin fikrlash, Vatan taqdiri, istiqboli uchun mas'ullikni talab etadi. Erkinlik bo'lmagan joyda mas'uliyatsizlik, loqaydlik vujudga keladi.

Vatan ravnaqi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. Vatanning ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga va ularning ahvoliga bog'liq. Bu esa, har bir yurtdoshimiz izmi o'zining ma'naviy

kamoloti uchun yuksak mas’uliyatini his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi.

Milliy g‘oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan g‘oya hech qachon milliy g‘oya bo‘lmaydi. Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma’naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining assosi bo‘ladi.

Yurt tinchligi – bebaño ne’mat, ulug‘ saodat. Yurt tinchligi – burqaror taraqqiyot garovi. O‘zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o‘z orzu-intilishlari, maqsad-muddaołari ro‘yobga chiqishining kafolati deb biladi.

Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Birovga qaram bo‘lgan xalq hech qachon erkin va farovon yushay olmaydi. Shuning uchun mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. Yuksak ma’naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g‘oyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning muhim omili.

Xalq farovonligi – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi – xalqimizga munosib turmush sharoitini yuratishdan iborat. Ya’ni islohot inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Jamiyatimizdagи har qanday yangilanish, har qanday o‘zgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamdir. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyat-e’tibori bilan fuqarolarimizda har qaysi inson va oila badavlat bo‘lsa, jamiyat va davlat ham kuchli hamda qudratli bo‘ladi, degan tushunchani tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim.

Milliy istiqlol o‘zining g‘oyasi, eng oliy maqsadi, vazifalari va xususiyatlariga ega. Uning oliy maqsad – yurtimizda obod va ozod Vatan erkin va farovon hayot, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida xalqimizni jipslashtirish, kishilar ongida

mustaqil dunyoqarash va ogohlik hissini kamol toptirish, komil insonni voyaga yetkazish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

Komil inson. Erkin fuqarolik jamiyatini ma’naviy barkamol, ezgu g‘oyalari, hayotiy e’tiqodi bo‘lgan insonlargina buniyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga e’tibor qaratilmoqda.

Millatlararo totuvlik. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Millatlararo totuvlik g‘o-yasi umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilarni o‘zaro hurmat va hamjihatlik ruhida tarbiyalash – istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, milliy istiqlol mafkurasi xalqning, jamiyatning o‘z oldiga qo‘yan ezgu maqsad-muddaolari amalga osha borgani, taraqqiyot tajribalari ortgani sari boyib, takomillashaveradi. Bu mafkura erkin fuqarolik jamiyati, farovon hayot barpo etishga azm-u qaror qilgan, bu yo‘lda sobitqadamlik bilan olg‘a borayotgan xalq mafkurasidir. Mafkura esa, inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o‘zgartiradigan kuchli vositadir.

G‘oyaning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati juda muhim falsafiy-pedagogik masaladir. Inson o‘z g‘oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O‘zi yaratgan g‘oyalarni insonning ongi va o‘rni, tafakkuri va e’tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g‘oyalarni odamlarni oliyjanob maqsadlar sari yetaklaydi. G‘oyasi yetuk, e’tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina, mardlik namunalarni ko‘rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar tarixi asosida bitiladi.

Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari buyuk g'oya sohiblaridir.

Ming yillar o'tsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalalar – Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilm-u urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar.

Ahmad Yassaviy 60 yildan ziyod umrini yer ostida o'tkazganda ham, Najmuddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jism-u jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan qaytmagan. Nasimiyni tovonidan so'ysalar ham ishqilohiy deb jon bergen.

Jahon tarixidan, jumladan, xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'imasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga, albatta, ulug'vor g'oya kerak ekanligiga ko'plab misollar topiladi.

Muayyan bir g'oya dastlab, biron bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zaxmat chekkaniini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandhi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati uning yaqqol tasdig'idir. Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan g'oyalarni yaratish asnosida, tarbiyaga inson faoliyatini shakllantirishga doir qator pedagogik fikrlarni ham o'rta ga tashlaganlar. Mazkur g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadga erishish uchun xormaytolmay mehnat qilganlar va o'zgalarni ham shu yo'lga xidoyat qilganlar.

Xullas, insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluk-

siz jarayondir. Bu jarayon turli g‘oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o‘ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g‘oyalar asos bo‘lsa, vayronkor g‘oyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, g‘oyaviy jarayonlar tarixini o‘rganish, ular zamiridagi mazmun mohiyatni bilib olishni zaruriyatga aylantiradi.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, xulq, madaniyat, ma’naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi.

Odob – har bir insonning o‘zga bir inson yoki jamoa bilan bo‘lgan muloqotda hamda yurish-turishida o‘zini tuta bilishi.

Xulq – odobning inson qalbidagi ichki tuyg‘i, ko‘nikmaga aylangan ko‘rinishi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq - odob me’yorlari majmui.

Madaniyat – «jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiylar majmuasi».

Ma’naviyat – inson ongidagi moddiy va ma’naviy ko‘nikmalarini aks ettiruvchi barcha ijobiylar, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

2.2. VIII–XIII asrlarda O‘rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimining fundamental asoslari

Ajdodlarimiz qadimdan o‘ziga xos madaniyatni va ta’lim-tarbiya sohasida ham yuksak katta hayotiy tajribalarni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tgan. Dastlabki tosh quollaridan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat quollarini yasash, urug‘chilik davriga kelib, xo‘jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o‘z ichiga olgan davrgacha bo‘lgan tariximiz ota-bobolarimizning ta’lim-tarbiya sohasida boy hayotiy tajribalarga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

Ajdolarimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan qadimiylardan madaniyati tarkibidan ta’lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o‘rin olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san‘at namoyondalarining ijodiy merosi, san‘at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir.

Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o‘rganishda, quyidagi uch guruhgaga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘rgazmali ashyolar.
2. Xalq og‘zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.
3. Buyuk adiblar, allomalarining ijodiy merosi.

Ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, ular tomonidan amal qilingan urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari mazmuni xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalarning qahramonlari yaxshilikning tantana qilishi uchun yomonlik hamda nuring muqarrar mavjud bo‘lishi uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxtsaodatga chulg‘angan o‘lkalarini yaratadilar. Aksariyat afsonalarning qahramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkil etgan. Ibtidoiy turzum kishilarining orzu-istiklari, o‘y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko‘pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - «Avesto», Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asarlari orqali ma’lumdir.

Bizgacha yetib kelgan epik asar (afsona va rivoyat)larda, asosan ajdodlarimizning yurt ozodligi, vatan ravnaqi va qabila farovonligi yo‘lida olib borgan kurashlari o‘z ifodasini topgan, qahramonlar vatanni va xalqni sevadi. Or-nomusni muqaddas deb bilish, do‘sit va safdoshlarga sadoqat, burchni yuksak darajada anglash, unga sodiqlik, vatan va xalqi uchun o‘z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatga bardosh berish, o‘z sevgi-muhabbati yo‘lida aziyat chekishga tayyorlik kabi insoniy tuyg‘ular ularning asosiy xususiyatlaridir. Qahramonlik eposlarida ulug‘langan eng asosiy axloqiy xislatlari – jasurlik va mardlik bo‘lgan.

Jasurlik, kuchlilik va mardlik – qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo‘lgan eng muhim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning hayoti va qahramonliklari borasida ma’lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, donish-mandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo‘lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o‘zgalarga muhabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliyhimmat va mehnatsevarlik kabilalar ulug‘langan.

Eng qadimgi qo‘sinq va lirik she’rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo‘sinq va lirik she’rlar XI asrda yashagan ulug‘ olim Mahmud Koshg‘ariy tomonidan yaratilgan «Devonu lug‘atit-turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan.

Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi manbalarda pandasihat va o‘gitlar aytilgan asarlar ham ko‘plab uchraydi. Ana shunday asarlar jumlasiga Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» asari ham kiradi. Alloma mazkur asarni 1076–1077-yillarda yozgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan manbalarning barchasi VIII–XIII asrarda O‘rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta’lim tizimining fundamental asoslari hisoblanadi.

2.3. O‘rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta’lim haqida

Zardushtiyarning muqaddas kitobi «Avesto»da ham kasb-hunar ta’lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: «tarbiya hayotining eng muhim turgagi, tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avval yaxshi o‘qishni, keyin esa, yozishni o‘rganish bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin» deyilgan.

Imom al-Buxoriyning tarbiya haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o‘lim keltiruvchi fojia sifatida qoralanadi. U odamlarni to‘g‘ri so‘zli

bo‘lishga, va’ daga vafo qilishga da’vat etib, munofiq kishining uchta belgisini ko‘rsatadi, ular yolg‘on gapishtirish, va’daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytgan Imom al-Buxoriyning ta’lim-tarbiya xususidagi ta’limotida axloqiy qarashlar muhim o‘rin tutadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash ularga kasb-hunar o‘rgatish uchun birinchi galda, sharq mutafakkirlarining duru-gavhariga teng ma’naviy meroslari misol bo‘la oladi. Abu Nasr Farobi, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Firdavsiy, Amir Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli va shular singari boshqa aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta’limotlariga tayanib ish ko‘rilsa, tarbiya ta’sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

O‘rtalik asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Farobi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta’limoti ta’lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faylasufi Aristotel keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan yirik mutafakkir Farobiyni «muallim us-soniy» («ikkinchisi muallim») deb ataydilar. Farobi o‘z asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, o‘qituvchi kasb-hunari, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya berish usullari haqida fikr yuritadi.

«Fozil odamlar shahri», «Baxt va saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ilmning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g‘risida» kabi asarlarida kasb-hunar qilish asosida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Sharqda mashhur bo‘lgan allomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino bolalarni maktabda o‘qitish va ularga kasb-hunar berish zarurligini qayd etar ekan, ta’lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

- yoshlarga ta’lim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda yengildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;

- jamoa bo‘lib maktabda o‘qishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning bilimga moyilligi, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

2.4. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X–XII va XIV–XVI asrlarda kasbiy ta’lim

IX–X asrlar O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Arxitektura, g‘isht kesib naqsh solish yuksak rivojlandi, binolarning ichki tomonlariga ganch, yog‘och o‘ymakorligi yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maktablarning peshtoqlari devor va romlar ganch naqshlar bilan nafis bezatilgan. Shu davrda naqqoshlik san’ati bilan bog‘liq kasblar, ularni yoshlarga o‘rgatish g‘oyalari rivojlangan. Shu davrlarda Samarcand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq, amaliy san’ati namunasi bobokalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunli va tarixan bebaaho san’at asarlari jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va ma’naviy merosini tashkil etadi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo‘g‘ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o‘rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Shuning uchun ham XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki, bu davr madaniyati o‘z tamoyillari, yo‘nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX–XII asr madaniyatining davomi sanaladi.

XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o'sdi ta'lim-tarbiyaga, yoshlar kasb-hunar egallashlariga katta e'tibor berildi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko'plab shaharlaridan Samarqandga hunarmandlar, olim-u fozillar, san'atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlardan ilm-ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini, ularning ta'lim-tarbiya, kasb-hunar bo'yicha qarashlari shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga havas kuchaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa, Samarqand va Hirotda shaharlari madaniyat, ilm-ma'rifat markaziga aylandi.

Amir Temur sultanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki uning e'tiqodiga ko'ra bilimdon va tadbirdor insongina mamlakatning rivojlanishiga hissa qo'sha oladi. Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirdor kishilarni tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Bu borada ta'lim tizimining o'ziga xos o'rni bo'lishi kerakligini anglagan holda, maktab va madrasalar qurdiradi.

XV–XVI asrlarga kelib, qadimiy Turkiston jahonga qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon singari allomalarni voyaga yetkazdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq-odobga, kasb-hunarga oid qarashlari pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahonga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan.

Qariyb bir yarim asr davomida mo‘g‘ullar istibdodi ostida xonavayron bo‘lgan Movarounnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo‘g‘ul istilochilar zułmidan qutula boshladi. Natijada, Sarbadorlar uzoq muddat, hatto, hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

2.5. Turkistonda VIII–XIII asrlarda jamiyat ta’lim asos bo‘lgan barcha yangi g‘oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo‘shqin bo‘lgan davrda kasbiy ta’lim tajribasi

VII asr boshlarida Islom g‘oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o‘z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabit eta boshladi. Butun Arabiston yarim oroli, shuningdek, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz orti hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qator mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII asr o‘rtalaridan boshlab, arablar Movarounnahrga ham humum qilish rejasini tuza boshladilar. Arab istilochiları VIII asrning o‘rtalariga kelib, Movarounnahrni to‘la zabit etishga erishdilar.

Movarounnahrda Islom dini ta’limoti g‘oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan Shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo‘ysunish, yagona va qudratli Ollohga sig‘inish, shuningdek, Ollohning yerdagi rasuli (elchisi) bo‘lgan Muhammad alayhissalom ko‘rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqr singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin hozirladi. Natijada, Movarounnahrda islomi qadriyatlar tarkib topa boshladi.

Istilochilik yurishlari davrida arablar mahalliy xalqning boy madaniy merosini yo‘q qildilar. Bu haqida buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: «qutayba esa, Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va (bilimini) boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo‘q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) Islom davridan keyin haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qoldi. Keyin: Qutayba ibn Muslim al-Vohishiy xorazmliklarning kotiblarini halok etib, bilim-

donlarini o'ldirib, kitob va daftalarini kuydirgani sababli ular savod-siz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga tayanadigan bo'ldilar»¹.

Islom dini ana shunday g'oyaviy-siyosiy kurashlar jarayonida shakllandi va rivojlandi.

Mazkur davrlarda shakllangan yangi arab tili arab xalqlari yashagan hududlarda iste'molda bo'lgan avvalgi tillar negizida shakllanib, takomiliga yetdi va madaniy til bo'lib qoldi.

Ulkan hududni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining hukmronligi davrida ijtimoiy hayot, turmush tarzi, shuningdek, ilm-fan va madaniyat yanada rivojlandi. Ushbu davrlarda qadimgi yunon va rim madaniy merosi negizida bir qator fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boyidi. Yunon va rim mutafakkirlari tomonidan yaratilgan va astronomiya, tibbiyot, kimyo, matematika va geografiyaga oid deyarli barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

Arab istilochilarining Movarounnahrdagi g'alabasidan so'ng barcha mustamlaka mamlakatlар qatori u yerda ham Islom dinining asoslari xususida ma'lumot beruvchi muqaddas kitob – «Qur'on» nozil bo'lgan til - arab tilini o'rganish joriy etildi. Musulmon maktablarida asosiy manbaning tili hamda fan sifatida arab tilining o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Mavjud fanlarning asoslari arab tilida o'rganila boshlandi. Arab xalifaligi tasarrufiga olingan barcha mamlakatlarda masjidlar qoshida maxsus maktablar tashkil etildi. Biroq, o'g'il bolalargina mazkur maktablarda savod o'rganish huquqiga ega bo'ldilar. Maktablar, shuningdek, keyinchalik bunyod etilgan va maqomi jihatidan hozirgi oliy o'quv yurtlariga teng bo'lgan madrasalarda ta'lim va tarbiya ishlari Shariat qoidalariga muvofiq yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu o'quv maskanlarida Islom ta'limoti xususida ma'lumotlar beruvchi ilohiyot fanlari bilan bir qatorda dunyoviy fanlarning asoslari ham o'qitilgan. Machitlar qoshida faoliyat yuritgan maktablarda imomlar, madrasalarda esa, mudarrislar yoshlarga ta'lim va tarbiya berish ishi bilan shug'ullanganlar.

¹ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl. asarlar –Toshkent, Fan, 1968. 72-84-betlar.

«Qur'on» – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. Qur'oni karim kishilarni tinch-totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiyilik va bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishga undaydi. Shunga ko'ra u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'on»ning axloqiy qimmati uning insonni ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi lozim bo'lgan talablarni bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Shu bois u necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyatlaridan biri sifatida e'zozlanadi.

Islom dini ta'limoti asoslarini yorituvchi Qur'oni karimdan keyingi asosiy manba Hadis hisoblanadi. Hadislarni to'plash va ularga muayyan tartib berish, assosan, VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o'rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishi (muhaddis)lar tartib berган. VIII–XI asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan. Mazkur bilimlarni o'rganishning o'ziga xos yo'naliши bo'lib, «Hadis ilmi» nomi bilan yuritilgan. Keyingi yillarda Muhammad alayhis-salomning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome' as-sahih» («Ishonarli to'plam»), «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning «Ash-Shamoil an-nabaviya» asarlari nashr etildi. «Hadis» yoki «Sunna» so'zлari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalarini haqidagi rivoyatlardan iborat.

Islom olamida oltita ishonchli to'plam (as-sahih as-sitta) eng nu-fuzli manbalar sifatida e'tirof etilgan. Ushbu manbalarning mualiftari IX asrda yashab ijod qilgan quyidagi muhaddislar bo'lganlar: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810), – 256 (870), Imom Muslim ibn al-Hajjoj 206 (819), – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824), – 279(892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817), – 275(880), Imom Ahmad an-Nasoiy (215 (830), – 303 (915) va Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja 209 (824), – 273(886).

Muhaddislar tomonidan yaratilgan va ishonarli manbalar deya e’tirof etilgan «Al-kutub as-sitta» («Olti kitob») quyidagilardan iborat:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan «Al-jome’ as-sahih» asari.
2. Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan yozilgan «As-sahih» asari.
3. Imom ibn Mojja tomonidan yozilgan «Sunnan».
4. Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy tomonidan yozilgan «Sunnan» asari.
5. Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziyy tomonidan yozilgan «Aj-jami al-kabir» asari.
6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan «Sunnan».

Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome’ as-sahih» asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi Hadislar jamlangan bo‘lsa, «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonaları») nomli asarda ham ijtimoiy turmushda hamda insonlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tashkil etish chog‘ida amal qilinishi lozim bo‘lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada batassil ma’lumotlar berilgan.

Muhammad ibn Iso at-Termiziyy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda o‘z ifodasini topgan Hadislar ham Imom Ismoil al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan hadislari kabi insonni halollik, adolat, e’tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatilik, mehr-shavqat, yoshi kattalar, ota-onasi va qarindoshlarga hurmat g‘oyalarini ilgari surish xususiyatiga ko‘ra shaxs ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo‘lib, ushbu fazilatlar sirasiga o‘z-galarga mehr-oqibat ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-onasi, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo‘lish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, Vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, do‘stlik, olivjanoblilik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo‘ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o‘zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari

intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z aksini topganki, bularning barchasi Qur’oni karimda qayd etilgan ko‘rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

So‘fiylik ta’limoti VIII asr oxiri va IX asr boshlarida paydo bo‘lib, butun musulmon mamlakatlari, shu jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. So‘fiylik butun Sharq ma’naviy hayotida inson kamoloti xususidagi g‘oyalarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

So‘fiylik musulmon sharqi xalqlarining ko‘p asrlik ma’naviy hayotining g‘oyaviy asosini belgilab bergan ta’limot bo‘lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go‘zallikni idrok etish yo‘li, haq va haqiqatni himoya qilish vositasi bo‘lib xizmat qildi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma’mun II o‘z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Bayt-ul-hikma» –Donishmandlar uyi tarixda «Ma’mun akademiyasi» deb nom qoldirgan. Bu akademianing rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masixiy, tabib Abulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug‘ullanganlar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o‘z faoliyatini to‘xtatib, olimlar tarqab ketadi.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma’naviy ko‘tarilish Sharq Renessansi – Uyg‘onish davrining boshlanishiga olib keldi.

Movarounnahrda ilm-fan va ma’rifat sohasida o‘z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o‘z ilmiy merosida ta’limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e’tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalarning insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

VII–XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan heqiyos rivojlana bordi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish keskin orta boshladи. O'sha tarixiy davrda al-Xorazmiy, Forobiy, al-Farg'oniy, al-Beruniy, ibn Sino, az-Zamaxshariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi. Ular bilan yonma-yon dunyoviy ilmlar tug'ildi. O'sha ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarni o'stirishda o'z davrida va keyinchalik ham asosiy rol o'ynadilar, inson kamolotiga doir heqiyos ta'limotni yaratdilar.

Forobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso-al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Yuqorida ko'rib o'tilgan mutafakkirlarning jamiyatdagi ta'lim-tarbiya va kasb-hunar egalishsga asos bo'lgan barcha yangi g'oyalari, madaniyat va fanga rivojlanish davridagi kasbiy ta'lim tajribasi hisoblanadi.

Nu, orat savullarlari:

1. Milliy g'oyalning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, xalq pedagogikasi tajribasiga tayanish mohiyati nimalardan iborat?
2. VIII–XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari nimalardan iborat?
3. O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqidagi fikrlarini yoritib bering.
4. Movarounnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X–XII va XIV–XVI asrlarda kasbiy ta'lim mazmuni qanday bo'lgan?
5. Turkistonda VIII – XIII asrlarda jamiyat ta'lim asos bo'lgan barcha yangi g'oyalari, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqin bo'lgan davrda kasbiy ta'lim mazmuni qanday bo'lgan?

3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI

Tayanch iboralar: milliy pedagogik meros, kadrlar tayyorlash tizimi, ta'lif tizi-mi isloq qilish.

3.1. Ta'lif tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma- bosqich amalga oshirish, tadrijiylik

Milliy pedagogik merosga tayanish.

Ta'lif tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lif tizimimiz juda katta milliy pedagogik merosga ega. Juhon tarixiy-pedagogik jarayoni va uning hozirgi bosqichi umuminsoniy hamda milliy masalalarni chuqr va har tomonlama o'r ganishini ta-qozo etadi. Sharq buyuk olimlarining pedagogik qarashlari bu borada katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, al-Forobi, Ibn Sino, al-Beruniy, al-Xorazmiy va boshqalarning g'oyalari hamda pedagogik qarashlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotining dunyoviy jarayoniga, xususan, Ovro'paga ko'p darajada ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga o'z navbatida uning ta'sirini ham o'ziga ola bildi.

O'rta asrlarda sharq qomusiy olimlari tomonidan Turonda yangi davrning (I-III asrlar) ko'pgina ilmiy tasavvurlari asoslari yaratilgan edi. Ular qadimgi Sharq na Antik dunyoning boy ilmiy merosiga suyanib, bir qator fan tarmoqlarining: falsafa, jo'g'rofiya, tarix, riyoziyot va falakiyot ilmini shakllanishiga, ishlab chiqilishiga hissa qo'sha oldilar.

Bunday fikrni tasdiqlash uchun bir necha dalillarning o‘zi kifoya. Bu borada sharq ulug‘ mutafakkirlarining g‘oyalari ahamiyatga mo‘likdir. Al-Forobiy, ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy va boshqalarning g‘oyalari dunyo ijtimoiy-pedagogik jarayoniga ko‘p jihatdan ta’sir etib, ma’lum darajada uyg‘onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergan.

Abu Ali ibn Sinoning pedagogik g‘oyalarga to‘la «Ziyarakli-Tirik o‘g‘lon» asari al-Forobiyning «Fanlar sanog‘i» asari ispan olimlarning adibi Ibn Tufaylaning ispan pedagog olimi Gundisalvalarning pedagogik qarashlariga asos bo‘lgan.

Oksford universitetining professori Rodjer Bekon (XII asr) al-Forobiy va Ibn Sinolarning xulosalarini chuqurlashtirib, o‘zining «katta», «o‘rtacha» yoxud «kichik» qomusiy kitoblarini yozadi. Bu asarlar, shubha yo‘qli, Ovro‘pada tarqaladi va ma’lum darajada XV–XVI asrlarda pedagogikadagi pansofik harakatga turtki beradi. Pansofik harakatining yorqin namoyandalaridan biri chet el pedagogi Yan Amos Komenskiy edi. XVI asrda yashab ijod qilgan Ya. Komenskiy pedagogikaning didaktikasini rivojlantirishga, ta’limda mas’ul o‘quv rejasi, o‘quv yili, sinf-dars tizimini tatbiq etishga katta hissa qo‘shtan. Albatta, hozirgi, mutaxassislarни ommaviy tayyorlash sharoitida ta’limni tashkil etishning sinf-dars tizimidan boshqa shakli taklif etilgani yo‘q. Lekin O‘rta sharqda, IX asrda hali Ovro‘paning ko‘p joylarida, jumladan, Rossiyada husnixat ishlatilmagan bir vaqt-da ko‘hna Xivada – Ma’mun akademayasida qancha-qancha tibbiy, tabiiy, astronomiya, matematika, koinot ilmlari bo‘yicha yirik fan namoyondalarini al-Beruniy rahbarligida sinf-dars tizimisiz tayyorlanganligi kishini hayratga soladi. Bundan ko‘rinadiki, sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi ishlari hozirgi zamon ta’lim tizimiiga asos bo‘lganligi bilan birga, hozirda va kelgusida ta’lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari xulosalarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular ilgari surayotgan pedagogik g‘oyalarni bevosa o‘rganila-

yotgan fan mantiqidan ajratilmagan ta'lim-tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va uslublariga xos g'oyalar alohida kitoblarda berilmay, balki bevosita amalda, bironqa fanda aniq bilim, iqtidor va ko'-nikmalarni shakllantirish jarayonida yoritiladi.

Ularning ushbu yaratuvchilik ishlarida pedagogik jihatda ahamiyatli bo'lgan ko'plab g'oyalar va qoidalar aytib o'tilgan. Masalan, ular tomonidan birinchi bo'lib riyoziyot fani, umuman olib qaralganda, arifmetika belgilab, aniqlab berildi.

Qomusiy olimlar bilish jarayoniga hayotiy-amaliy yo'nalish bag'ishladilar. Qurshab turgan olamdag'i hodisalar va narsalarning mohiyatini bilish insonlarga ularning kundalik ishlarida, kosiblik, va savdo-sotiq faoliyatlarida, dehqonchilikda, dengizda suzishda, davlatni boshqarish hamda huquqiy masalalarni hal etishda xizmat qilishi lozim. Ular fanga va ilmiy tuzilmasiga shaxs shakllanishining muhim omillari sifatida qarar edilar. Fan bilan shug'ullanish, ilmiy bilimlarni egallash ular tomonidan odamni haqiqatga yetish uchun har doim intilishga undovchi, shuningdek, fan bilan shug'ullanishni kishilar o'rtaida haqiqiy insoniy munosabatlarni o'rnatishga yo'llovchi qudratli kuch sifatida tushuntirib, izohlab o'tganlar. Fanni va ilmiy tuzilmaning ushbu vazifasiga berilgan yuqori baho qomusiy olimlarning pedagogik kategoriyalari maqsadlarining asoslariga, mazmuniga, ta'lim va tarbiyaning uslublariga, prinsiplariga qiziqishlarini belgilab berdi.

Ularning qoidalari va xulosalarining o'ziga xosliklari, o'ziga xos xususiyatlari ular tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalar fanning o'z mantiqidan ajralgan emas edi. Tarbiya va ta'limning usullari, prinsiplari, mazmuni, maqsadlari kabi masalalar yuzasidan ular o'z fikr-qarashlarini taomil bo'yicha o'zlarining maxsus asarlarida emas, balki fanning bir aniqlangan tarmog'iiga oid qat'iy bilimlarni bayon etish bilan bog'liq ravishda keltirib o'tganlar. O'rta asr buyuk donishmandlarining g'oya va qoidalari hozirga qadar o'zining ahamiyatini yo'qotmagan, o'tkinchi bo'lmagan tarixiy, umuminsoniy

boylikdir. Tarixiylik jihatidan ijodiy yondashilganda, ular hozirgi zamон pedagogikasini boyitishi mumkin.

Sharq olimlarining quyidagi milliy meroslaridan hozirgi kunda ham keng foydalaniladi:

1. Al-Forobiy Platon va boshqa yunon faylasuf-donishmandlarining pedagogik g‘oyalariga amal qilib, o‘zida shaxsni iqtidoriy, aqliy va nazariy tarbiyalashni aks ettiradigan ma’navi tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi. Aristotelning izdoshi al-Forobiy ham insonning aqliy kuchi bilan dunyoni bilish mumkinligini tan oladi va himoya etadi, ya’ni mantiqiy mashqlar va mashg‘ulotlar yordamida rivojlanadigan va mukammallashadigan iqtidorni tan oladi.

2. Al-Forobiyning fikricha nazariy bilimlar «ular qanday va qayerdan paydo bo‘lganlari» noma'lum bo‘lgan fanlar bilimlarini o‘zida namoyon etadi. Al-Forobiyda fanni egallashning metodologik va usulik masalalari o‘zaro bog‘lanib ketgandir, chunki har qanday fanning boshlanishiga, manbalariga, usullar majmuasini: fikrlash, o‘rganish, tadqiq etish, o‘rgatish va ta’limni qo‘llash yordamida erishiladi. Bu o‘zining ahamiyatini hozirgi davrning didaktikasi uchun ham yo‘qotmagan bunyodkorona yondashuv edi.

Ta’lim tizimini isloh qilishdagi yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalga oshirish, tadrijiylik.

Ta’lim tizimini isloh qilishdagi yangi maqsad va vazifalar 1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy darturi»da belgilab berilgan.

Ta’lim tizimini isloh qilishning **maqsadi** – mavjud ta’lim tizimini o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar ta’lim tizimi darajasiga yetkazish va shu asosda yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni, ro‘yobga chiqarish uchun quyidagi **vazifalar** belgilangan:

– «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar

tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni yo'lga qo'yish;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar jarayonlariga moslash;

– ta'lim tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik kadrlarning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

– ta'lim tizimini isloh qilish yo'nalishi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda belgilash;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, uni isloh qilishni ta'minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish va undan ta'limni isloh qilish jarayonida foydalanish.

Ta'lim tizimini isloh qilishdagi vazifalar quyidagi yo'nalishlarda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

– ta'lim tizimidagi kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, ularning kasbiy nufuzini oshirish;

– davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

– ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi yutuqlarini hisobga olgan holda, kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

– majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'-limiga to'liq o'tilishini ta'minlash.

Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish.

Kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mustaqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi. Ta'lim oluvchining shaxsiga, unda ta'lim va

bilimlarga bo‘lgan ishtiyoyini kuchaytirishga, mustaqil ish tutishni, iftixor va insoniy qadr-qimmat tuyg‘usini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi.

Pedagog kadrlarning obro‘-e’tibori, mas’uliyati va kasb ko‘nik-masini oshirish yuzasidan sobitqadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ta’limning yangi shakl va uslublari, o‘quv, shu jumladan, differensiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

3.2. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagи IX sessiyasida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqning boy ma’naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslangan mu-kammal ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Ta’limning «O‘zbek modeli» dunyoga keldi, bu model xalqaro miqyosda eng obro‘li mutaxassislar tomonidan tan olinmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning qoidalariга muvofiq holda, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiyy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun mohiyati.

Qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun beshta bo‘lim 34 ta moddadan iborat bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini amalga oshirishning huquqiy asoslari to‘liq belgilab berilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mohiyati.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini mohiyatini anglash uchun bu dasturni qabul qilishga qanday sabab va oqibatlar turtki bo‘lganligini ko‘rib chiqmog‘imiz, 1997-yilgacha mavjud bo‘lgan eski ta’lim-tarbiya tizimining kamchiliklari va muammolarini tahlil qilib ko‘rmog‘imiz kerak. Eski kadrlar tayyorlash tizimining kamchilik va muammolari quyidagilardan iborat edi:

- kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi;
 - o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi;
 - sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik material-larning kamligi;
 - ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida puxta o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi;
 - ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibi, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilinmaganligi;
 - amaldagi ta’lim tizimi zamонави, taraqqiyot topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmayotganligi;
 - mutaxassislar tayyorlash, ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog‘lanmaganligi;
- Yuqoridagi kamchilik va muammolarni hal qilishni ko‘zda tutgan quyidagi omillar mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishga turtki bo‘ldi:
- Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;
 - mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgartirishlarning amalga oshirishi, respublika iqtisodiyoti, asosan, xomashyo yo‘nalishidan riqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayotganligi;

– davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topganligi;

– milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, vatanparvarlik, o‘z Vatani uchun iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boy milliy mada-niy-tarixiy an‘analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

– O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respubli-kaning jahondagi mavqeい va obro‘-e’tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqida hukumat darajasidagi bu fikrni O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Vazirlar Mahka-masining «O‘zbekistonning 1996-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraq-qiyoti yakunlari hamda 1997-yildagi iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari»ga bag‘ishlangan majlisidagi nutqida bayon etdi:

«1997-yilda biz yaxshi, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor berishimiz kerak.

Ta’lim tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish vaqt yetdi, professio-nal bilimlarni egallah imkoniyatlarini kengaytirish, ma’mur-me-nejerlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, yangi sharoitlarda, yangi zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qobil ishchi va mutaxassis-larni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish lozim.

Biz bugun shunga tayyormizmi? Buning uchun zarur kuch va resurslarimiz bormi?

Mana shu minbardan turib, qat’iy aytamanki, ha O‘zbekiston ana shunday kuch-quvvat va resurslarga ega» («Ma’rifat» gazetasi, 1997-yil 1-mart).

Nazorat savollari:

1. *Ta’lim tizimi islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shart-sharoitlari va ularning mazmuni nimalardan iborat?*
2. *«Ta’lim to‘g’risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*
3. *«Ta’lim to‘g’risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?*

4-BOB. KASBIY TA'LIMNING DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Tayanch iboralar: uzlusiz ta'lim, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, olyi ta'lim, olyi o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashgari ta'lim.

4. 1. «Uzlusiz ta'lim» tushunchasi

Uzlusiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzlusiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun shartsharoitlarni yaratadi.

Uzlusiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

4.2. Uzlusiz ta'lim tuzulishi

Uzlusiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha hisoblanadi. Uzlusiz ta'lim

ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta’lim quyidagicha tuzilishga ega:

- maktabgacha ta’lim – bola olti-yetti yoshgacha bo’lgan maktabgacha ta’lim muassasalaridagi yoki oiladagi ta’lim;
- umumiy o’rta ta’lim - ta’limning bu turi boshlangach ta’limni (I–IV sinflar) va o’rta ta’lim (V–IX sinflar)ni qamrab oladi;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (Akademiy litsey va kasb-hunar kolleji);
 - oliy ta’lim (Bakalavriat va magistratura);
 - oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim (katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar);
 - kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
 - maktabdan tashqari ta’lim.

4.3. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari

Uzluksiz ta’lim quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o’rta ta’lim;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim bolaning sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta’lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarining yangi tarmog‘i shakllanib bormoqda. Bu o‘rinda, «Xonodon bog‘chasi» hamda «Bolalar bog‘chasi – boshlang‘ich mакtab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tasviriy san’at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o‘rgatuvchi guruqlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim to‘qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiylardan iborat. Umumiy o‘rta ta’lim boshlang‘ich ta’limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o‘zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lish, shuningdek, kasb tanlash ko‘nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o‘quvchilarning umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish vazifasi mакtab jamoasi va ota-onalar hamkorligida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O‘qish muddati uch yil bo‘lgan majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzlusiz ta’lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o‘rta ta’lim negizida tashkil etiladi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining ikki muhim yo‘nalishi bo‘lgan akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Oliy ta’lim o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha xalq xo‘jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta’lim muassasalariga

riga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

Bakalavr darajasiga ega bo‘lgan shaxs oliy ta’lim tizimi yo‘nalishidagi o‘zi tanlagan soha bo‘yicha oliy ma’lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo‘ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta’lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’lim bo‘lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma’lum ixtisoslik bo‘yicha ta’lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas’uliyatli lavozimlarida faoliyat ko‘rsatadi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabrdagi «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida»gi 365-sonli qarorida oliy ta’limdan keyingi ta’lim unga qo‘yiladigan davlat talablarini va uni amalga oshirish tartib qoidalarini belgilab berdi.

Unga asosan, Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari (keyingi o‘rinlarda Davlat talablari deb ataladi) «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Preddentining «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» 2012-yil 24-iyuldagisi PF-4456-son Farmoniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish

to‘g‘risida» 1998-yil 5-yanvardagi 5-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimiga majburiy talablarni belgilaydi.

Davlat talablarini barcha oliv ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun majburiy hisoblanadi.

Davlat talablariga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor istiqbolli yo‘nalishlaridan, yangi axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etishdan, shuningdek, oliv malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasidagi jahon yutuqlari va tendensiyalaridan kelib chiqqan holda, tuzatishlar kiritilishi va qo‘srimchalar qo‘shilishi mumkin.

Ushbu Davlat talablarida quyidagi ta’riflar qo‘llaniladi:

- oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- jamiyatning oliv malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minalashga yo‘naltirilgan uzlucksiz ta’lim turi;
- katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar instituti;
- ishlab chiqarishdan bo‘shagan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha fan doktori darajasi izlanuvchilari uchun oliv ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tashkil etiladigan oliv malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo‘yicha oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli;
- mustaqil izlanuvchanlik ishlab chiqarishdan bo‘shamagan holda, doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun oliv ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot muassasalarida tashkil etiladigan oliv malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo‘yicha oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli;

– katta ilmiy xodim-izlanuvchi – oliy ta’lim muassasasiga yoki ilmiy tadqiqot muassasasiga katta ilmiy xodim-izlanuvchi lavozimiga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

– mustaqil izlanuvchi – oliy ta’lim muassasasiga yoki ilmiy-tadqiqot muassasasiga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi uch yilgacha davom etadigan o‘qish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar instituti;

– mustaqil izlanuvchilik.

Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutlariga katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar lavozimiga qabul qilish oliv ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot muassasalari tashkil etadigan maxsus komissiyalar tomonidan tanlov asosida amalga oshiriladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutlarida o‘qishga talabgorlarni tanlab olish kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutlariga xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qabul qilish qonun hujjatlariga va (yoki) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e’tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo‘nalishda faoliyat yurituvchi ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o‘qish natijalariga ko‘ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo‘ladilar.

Maktabdan tashqari ta’lim maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda yo‘lga qo‘yilib, bolalar hamda

o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

4.4. Kasbiy ta'lim turi va tizimi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan – akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zлari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik litseylar, asosan, oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa, o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingen kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi turdag'i ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tan-

langanligi, shuningdek, o‘quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e’tiborga loyiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini qo‘lga kiritadilar.

4.5. Kasbiy ta’lim rivojlanishining asosiy omillari

Kadrlar tayyorlash tizimida kasbiy ta’lim rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

– O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlaganligi;

– Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

– mamlakat iqtisodiyotida tub o‘zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan, xomashyo yo‘nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo‘liga izchil o‘tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayotganligi;

– davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topganligi;

– milliy o‘zlikni anglashning o‘sib borishi, vatanparvarlik, o‘z Vatani uchun iftixor tuyg‘usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an‘analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

– O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, respublikaning jahondagi mavqeい va obro‘-e’tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Shu bilan birga mayjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashning huquqiy asoslari bo‘lgan 1992-yil 8-dekabrdan qabul

qilingan asosiy qonun – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1997-yilda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 6-oktabrdagi «Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida»gi Farmoni, 2008-yil 1-apreldagi «Real iqtisodiyotning soha va tarmoqlari talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoyishi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida»gi 5-sonli, 1998-yil 24-fevraldagi «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to‘g‘risida»gi 77-sonli, 1998-yil 13-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 204-sonli, 2000-yil 16-oktabrdagi «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘rsida»gi 400-sonli, 2006-yil 27-iyuldagagi «Umumta’lim maktablari bitiruvchilarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o‘qishini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 427-sonli va boshqa qarorlari kasbiy ta’lim rivojlanishining asosiy omillari bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qarorlarda quyidagi va boshqa kasbiy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan vazifalar belgilab berilgan:

- ta’lim islohotlari natijasida akademik litsey, kasb-hunar kollejlarini va boshqa turdagagi o‘quv muassasalarining shakllantirilishi va rivojlanishi;
- oliv o‘quv yurtlarida kasb ta’limini o‘qitilishning yo‘lga qo‘yilayotganligi, bu borada alohida fakultet va bo‘limlarning tashkil etilishi;
- kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog‘lanib borishi, istiqbolda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bilim sohalari tutashuvida yangi konsepsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi;

– kasbiy ta’lim muassasalarining aholiga ta’lim xizmatlarini ko’rsatish borasidagi faoliyat turlarining ortib borishi, o’z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi; mehnatni tashkil qilishning ilg‘or shakllarini joriy etishi va boshqalar.

4.6. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘rta maxsus ta’limning o‘rni va ahamiyati

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha hisoblanadi. U ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Bu vazifalarni bajarishda uzluksiz ta’lim tizimida o‘rta maxsus ta’limning o‘rni va ahamiyati katta. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’lim tizimining tarkibiy qismlari-bosqichlari bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim o‘rtasidagi bog‘lovchi zveno hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimini o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, usiz ta’limning uzluksizligi buziladi, uzluksiz ta’lim o‘z mazmunini yo‘qatadi. Shu o‘rinda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi umumiy o‘rta ta’limning mazmun mohiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi umumiy o‘rta ta’lim negizida o‘qish muddati uch yil bo‘lgan majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’lim tizimidagi mustaqil turidir. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi yo‘nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o‘quvchilar tamonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey – davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beradi. O‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqaqlashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi hisoblanadi.

Akademik litseylarda o‘quvchilar o‘zлari tanlab olgan ta’lim yo‘-nalishi bo‘yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ko‘nikmalarni o‘qishni muayyan oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro‘-yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji – tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi; o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingen kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darjasи, pedagogik tarkibining tanlanganligi, o‘quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi turdagи ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o‘quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko‘rsatishining me’yortiv bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- soha uchun oliy ta’lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali: mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari uchun ta’lim va kasb-hunar dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- akademik litseylarning o‘quvchilari mehnat faoliyati ko‘nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

- kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro‘yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning jug‘rofiy va demoreja shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi ta’lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilonaga joylashtirilishini ta’minlash, ularga o‘quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;
- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Nazorat savollari:

1. «Uzluksiz ta’lim» tushunchasining mazmuni qanday?
2. Uzluksiz ta’lim tuzulishi qanday?
3. Uzluksiz ta’lim tizimi va turlari nimalardan iborat?
4. Kasbiy ta’lim turi va tizimi nimalardan iborat?
5. Kasbiy ta’lim rivojlanishining asosiy omillari nimalardan iborat?
6. Uzluksiz ta’limi tizimida o‘rta maxsus ta’limining o‘rnii va ahamiyati qanday?

5-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELINING O'ZIGA XOSLIGI

Tayanch iboralar: milliy model, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish, tamoyillar, ta'limning ustuvorligi, kadrlar tayyorlash tizimi, ta'lim tizimini isloh qilish.

5.1. O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim siyosatining tamoyillari

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qounining 3-moddasida o'z aksini topgan.

Ushbu moddada «Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor» deb e'lon qilingan. Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratligi ko'rsatilgan:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterga ega ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiyoq o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi Ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi deyilganda – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilish; milliy va umumbashariy qadriyatlar

ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi tushuniladi. Ta'limning demokratlashuvi deyilganda – o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishining davlat tizimiga o'tilishi tushuniladi.

Ta'limning uzluksizligi va izchilligi. Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosidir. Bu shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Hozirgi kunda mustaqil ravishdagi to'q qiz yillik umumiy o'rta ta'lim hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturiga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi. Bu tizimning majburiyligi, hozirgi kunda bolalarni o'qishi 9 yil umumiy ta'lim va 3 yil o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini o'qitilishi majburiyligi kadrlar tayyorlash milliy dasturida aytib o'tilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi. Prezidentimiz Islom Karimov: «Yurtimiz yigit-qizlari tahsilning oxirgi yillarini taraqqiy topgan davlatning o'quv muassasalariga borib o'qishlarini tashkil qilishimiz maqsadga muvofiq ish bo'lardi», - deb ta'kidlaydi. Oliy ta'lim muassasasini isloh qilayotganda, ularning boshqa davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari bilan aloqasini mustahkamlash zarur. O'z domlalarimiz bilan cheklanib qolmay, chetdan ham domlalar chaqirishni yo'lga qo'yishimiz kerak.

Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi. O'zbekiston Respublikasida hamma ta'lim olish huquqiga ega. Hatto, jismonan yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lган, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

Ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv. Zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlash kerakligi, o‘quv yurtlarimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bo‘lishi shartdir. O‘quv yurtlarining rahbarlari va professor-o‘qituvchilarining ta’minoti va ishi haqiga ham shu jumladan, e’tibor berildi. O‘quv reja va dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirib, istiqbol va kelajagimizni ko‘zlagan holda tuzib olishimiz va joriy etishimiz zarur.

Bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o‘qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma’lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi.

Ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlash-tirish. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning 28-moddasida ta’lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. «Ta’lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin», - deb ko‘rsatilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirishni amalga oshirish mumkin.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini kasb-hunar ta’limida qo’llash, kasb-hunar ta’limini samarali amalga oshirish va uni «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq isloh qilish va rivojlantirish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil takomillashtirish ta’minlanadi.

5.2. Milliy dasturning kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, qayta tuzish vazifalari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda, milliy

tajribanining tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar maddaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘lljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

Mazkur dasturning maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro‘yogda chiqarish qo‘yidagi **vazifalar** hal etilishini nazarda tutadi:

– «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlanishni ta’minalash;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash;

– kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mu-taxassislar bilan ta’minalash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;

– kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

– ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minalash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

– uzlusiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budgetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– kadrlar tayyorlash sohasida o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlanirish.

5.3. Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlanirishda uzlusiz ta’lim tizimi asosiy o‘rin tutadi. Uzlusiz ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar kadrlar tayyorlashni rivojlanirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu sababli kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari uzlusiz ta’lim sohasidagi islohotlar bilan hamohang bo‘lishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlanirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

– ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

– davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining har xil turlarini rivojlanirish;

– ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda umumiyl o‘rta, o‘rta

maxsus va kasb-hunar hamda oliy ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish, ularning uzlusizligi va izchilligini ta'minlash;

– umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar, hamda oliy ta'limni «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida yo'lga qo'yilishini ta'minlash;

– ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tar-kibiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi o'rta maxsus va oliy ta'lim bo'yicha kasb-hunar va mu-taxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadr-larini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'limlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

– ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish;

– kadrlar tayyorlashda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

– ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

– ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy, moddiy-tex-nika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;

– uzlusiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashti-rishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqarish va joriy etish;

– ta'lim, kadrlar tayyorlash va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

– ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilar va bo'lgusi kadrlarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

5.4. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro‘yoga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997–2001-yillar) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiliy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq, ta’lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta ko‘rish va tubdan yangilash;

– pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

– ta’lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma’naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo‘yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;

– o‘quv-uslubiy majmualarning hamda ta’lim jarayoni didaktik va axborot ta’mnotinining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

– o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi uchun zarur moddiy-texnika, o‘quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

– ta’lim va kadrlar tayyorlashga budjetdan tashqari mablag‘lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta’lim muassasalarini bilan birgalikda nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta’lim xizmati ko‘rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

– ta’lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo‘lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

– xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek, respublika ta’lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo‘yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

– Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yosdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e’tiborga olgan holda, amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan, o‘quvchi o‘rinlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta’minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida milliy, dasturni ro‘yobga chiqarish, yo‘nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinci bosqich (2001–2005-yillar) – Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limiga, shuningdek, o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqaqlashtirilgan ta’limga o‘tish to‘liq amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ta’milanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’milanadi. Uzlksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta’lim xizmat ko‘rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to‘liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005-va undan keyingi yillar) – to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’milanadi.

Milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o‘zini o‘zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzlusiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olinadi.

5.5. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta’lim-tarbiya jarayoniniga qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro hamkorligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to‘qqiz yillik umumiyligi o‘rtalama uch yillik o‘rtalama maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etilishi bilan belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida umumiyligi ta’lim dasturlaridan o‘rtalama maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga o‘tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzlusiz ta’lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o‘zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o‘zida ijtimoiy ta’sirlar yordamida ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o‘zlashtirilgan bilim, faoliyat ko‘nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo‘lish uchun shaxs o‘z oldiga muayyan maqsadni qo‘ya olishi hamda unga erishish yo‘lida tinimsiz

izlanishi, o‘qib-o‘rganishi lozim. Shundagina, u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo‘lib shakllanadi.

O‘z-o‘zini anglash tuyg‘usiga ega bo‘lish, ta’lim sohasidagi xizmatlardan to‘laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo‘la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o‘ziga bog‘liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat tomonidan ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o‘tish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadi, o‘z bilimi hamda tajribasini o‘rgatadi.

Davlat va jamiyat ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o‘zi uchun, balki, davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravaqa uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolarini yuksak ma’naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o‘rtasidagi aloqa ikki tomonlama xusuksiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o‘z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta’lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o‘zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash yo‘lidagi faoliyatini ham uyg‘unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini os-hirish huquqlarning ro‘yobga chiqarilishiga;
- majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini olishga;
- davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni olish huquqiga;
- davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga;
- ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida ja-moatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;
- ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab quvvatlashga;
- sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishiga.

Uzluksiz ta’lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma’lumotlarini o‘zlashtiradi, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta’limni tashkil etish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ko‘rsatib berilgan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta’limning ustuvorligi;
- ta’limning demokratlashuvi;
- ta’limning insonparvarlashuvi;
- ta’limning ijtimoiylashuvi;
- ta’limning milliy yo‘naltirilganligi;

– ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;

– iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari ham aniq ko‘ratib berilgan. Bu yo‘nalishlar quyidagilar:

– kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash;

– pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining turlarini rivojlantirish;

– ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish;

– ta’lim dasturlarini tubdan o‘zgartirish;

– majburiy o‘rta umumiy ta’limdan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga o‘tilishini ta’minlash;

– yangi turdagи o‘quv muassasalarini vujudga keltirish;

– yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

– ta’limning barcha daraja va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

– ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta’lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish;

– ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish;

– ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;

– uzluksiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash-tirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish;

– chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish;

– turli millatga mansub bo‘limgan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;

– ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta’limi hamda tarbiyani takomillashtirish.

Uzluksiz ta’lim quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o’rta ta’lim;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- mактабдан ташқари та’лим.

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo‘lib, kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniylatlari to‘g‘risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta’lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta’limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo‘yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeyi va obro’sini oshirishni qamrab oladi.

Shu bilan birga, fan kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismalaridan biri sifatida, ta’lim mazmunini tubdan yangilashda: ta’lim standartlari, ta’lim dasturlari, darsliklar va qo‘llanmalar tayyorlashda, ilmiy-usulik ta’minotni amalga oshirishda bevosita va bilsosita ishtirok etadi.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta’minalash jarayonining qatnashchisi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatilgandek ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish oxir-oqibat, natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarish muassasasi, homiy sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda ishtirok etadi.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda, ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

5.6. Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish va rivojlantirish tamoyillari

Kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- Kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining me'yoriy asoslarini takomillashtirish va joriy etish;
- Kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash;
- Davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- Kasb-hunar kollejlari uchun umum ta’lim va kasb-hunar das-turlari, o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;
- Georeja-demokratik sharoitlar va mutaxassislarga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarini hisobga olib kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularni oqilona joylashtirish, ularga o‘quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmay qamrab olish;
- Kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash va boshqalar.

Uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta’limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta’limning demokratlashuvi – ta’lim va tarbiya uslublarini tanshashda o‘quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta’limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o‘tilishi;
- ta’limning insonparvarlashuvi – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;
- ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta’limning milliy yo‘naltirilganligi – ta’limning milliy tarix, xalq, an‘analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilish;
- ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni anglash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

5.7. Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari

Milliy dasturda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir bir qancha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Milliy dastur qabul qilingandan keyingi o'tgan davr mobaynida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi va oshirilmoqda:

– Milliy dasturning yo'naliш va bosqichlarini amalga oshirishning aniq, mexanizmlari, muddatlari, ijrochilari, moliyaviy va resurslar ta'minoti ifodalangan yechim va chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

– Milliy dasturni bajarish yuzasidan davlat va jamoat institutlarining faoliyati hamda vazifalarini belgilash;

– Milliy dasturning aniq, yo'naliшlarini ishlab chiqish jarayoniga malakali chet el ekspertlarini jalb etish;

– Milliy dasturni bajarishda davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyati muvofiqlashtirilib, xalqaro tashkilotlar qatnashuvini tashkil etish;

– Milliy dasturning monitoringgi va bajarilishini ekspertiza qilish asosida uning ayrim qoidalari va tadbirlariga tuzatishlar kiritish;

– Ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda, kadrlar tayyorlash milliy modeli ro'yobga chiqarilishini ta'minlash masalalari yuzasidan seminarlar va konferensiyalar o'tkazish orqali milliy dasturning prinsipial yondashuvlari hamda asosiy qoidalarini keng ko'lamba tushuntirish ishlarini olib borish;

Milliy dasturning maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga jamoat birlashmalari va markazlari, respublika aholisi keng tabaqlarining faol ishtirokini ta'minlsh;

– Ommaviy axborot vositalarida milliy dasturning bajarilishini muntazam yoritib borish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yuzasidan Respublika komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya tomonidan uning zimmasiga dasturni bajarishga doir barcha ishlar va tadbirlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish bo'yicha yuklatilgan quyidagi vazifalar amalga oshirildi va oshirilmoqda:

- uzlusiz ta’limning tegishli turlari uchun davlat ta’lim standartlariga qo‘yiladigan umumiy talablarni ishlab chiqish;
- umumiy o‘rta ta’lim uchun davlat ta’lim standartlarini va boshqa zarur me’yortiv hujjatlarni ishlab chiqish;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlardan iborat ta’lim tizimini joriy etish dasturlarini ishlab chiqish;
- o‘rta umumiy ta’limga ega bo‘lgan o‘quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi bilan to‘la qamrab olish tadbirlarini, bu tizimni hududlarning demoreja, jo‘g‘rofiy xususiyatlari va kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirish, uning moddiy-texnika asosini yaratish;
- akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ishlaydigan o‘qituvchilar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta’lim muassasalarini tashkil etish hamda ularning samarali ishlashini ta’minlash;
- oly ta’lim muassasalari tizimini Milliy dastur talablariga binoan isloh qilish, bu borada tegishli davlat ta’lim standartlarini yaratish va joriy etish;
- mактабгача та’лим ва тарбиya muassasalari faoliyatini takomil-lashтирish, bolalar tarbiyasida va ularni maktabga tayyorlashda oila, mahalla hamda jamoat tashkilotlarining mas’uliyatini oshirish;
- ta’lim muassasalarini zarur darsliklar va adabiyotlar bilan ta’-minlash, bu ishga yirik olimlar yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish, ta’lim va ilm-fan sohasining nashriyot bazasini rivojlan-tirish;
- professor va pedagog kadrlarni rivojlangan mamlakatlardagi yetakchi ta’lim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida maxsus respublika jamg‘armasi tashkil etish va uning faoliyatini ta’minlash;
- uzlusiz ta’lim tizimida chet tillarni faol o‘rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni, o‘rgatishning jadallashtirilgan uslublarini

joriy etish, o'zbekcha-chet tillar lug'atlarini, davlat tilidagi maxsus adabiyotlarni nashr etish;

– uzluksiz ta'lif sohasi o'qituvchilari va pedagog kadrlarini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– ta'lif muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiyalash, kadrlar tayyorlashning malaka talablarini aniqlash hamda sifatini baholash ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha ta'lif tizimi boshqaruviga bog'liq, bo'limgan yagona davlat xizmatini tashkil etish;

– ta'lifni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash, ommaviy axborot vositalarining ta'lif sohasidagi vazifalarini belgilash;

– kasb-hunar ta'lifi sohasida kadrlarga bo'lgan talab va taklifni o'rghanishni tashkil etish, ta'lif xizmati ko'rsatish va kasbiy mehnatning raqobatga asoslangan bozorini hamda kadrlar tayyorlash sohasida marketingni shakllantirish.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lif siyosatining qanday asosiy tamoyillari bor, uning mazmuni nimalardan iborat?
2. Milliy dasturning kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni nimalardan iborat?
3. Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy yo'naliishlari qanday?
4. Milliy dasturni amalga oshirish bosqichlari va uning mazmuni qanday?
5. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari qanday?
6. Uzluksiz ta'lif tizimini amalga oshirish va rivojlantirish tamoyillari qanday?
7. Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari qanday?

6-BOB. TA'LIMNI STANDARTLASHTIRISH. O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MAZMUNI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Tayanch iboralar: Standart, standartlashtirish, ta'limni standartlashtirish, ta'limini davlat standartlari, kasbiy tafsifnoma, o'quv reja, tayanch o'quv reja, akademik litsey, kasb-hunar kolleji ta'limi sifatini nazorat qilish.

6.1. Sivilizatsiya rivojlanishining boshlang'ich davrlarida standartlashtirish ko'rsatkichlarining vujudga kelishi

Ta'limni standartlashtirish – bu butun dunyo kasb-hunar ta'limini islohotlashtirishdagi eng yirik tendensiyalardan biridir. Uni krizisni yengib o'tishning asosiy vositasi sifatida hisoblaydilar.

Jamiyatda sodir bo'layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga, xususan, o'rta maxsus kasb hunar ta'limiga boshqacha yondashishni talab qiladi. Shunday ekan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi standartlarini ishlab chiqmasdan turib, jahon bozoriga chiqqa oladigan, kasbiy mohirlik darajasi yuqori bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlab bo'lmaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy amalga oshirish vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma'naviy, ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va tatbiq etishdir.

Xalqaro talablarga javob beruvchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini (DTS) ishlab chiqish birinchidan, O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda kasb-hunar ta'limi ekvivalentligini hamda o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro mehnat bozorida to'siqlarsiz ishtirok etishini ta'minlaydi, ikkinchidan, ta'lim xizmatlari sifatiga aniq (qat'iy) talablarni belgilab qo'yish natijasida, kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi hamda ta'lim muassasalari ishining samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2000-yil 16-oktabrdagi 400-sonli «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dav-

lat standartlarini tasdiqlash» to‘g‘risida»gi qaroriga asosan, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlari tasdiqlandi. Tarmoq standartlari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan bosqichma-bosqich yangidan tashkil etilayotgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ularni aprobatsiya qilish (ma’qullah) tugagandan so‘ng tasdiqlanadi. Keyingi sahifadagi jadvalda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlari tizimi keltirilgan.

O‘MKHTni standartlashtirishning maqsad va vazifalari tamoyillari va nazorat turlari yuqorida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan O‘MKHT DTS «Asosiy qoidalar», standartida belgilab berilgan.

O‘MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- O‘MKHTning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqr iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta’minalash;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlari tizimi

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- O‘MKHTning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsnинг, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- O‘MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta’minalash;

- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta’-minlash.

6.2. Standart, standartlashtirish me'yorlari tushunchalari

«Standartlashtirish» tushunchasi universal bo'lib, quyidagicha ta'riflanadi:

Standartlashtirish – mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalaniladigan qoidalarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan faoliyat.

Shuni ta'kidlash joizki, standartlashtirish bu faoliyatning yangi turi emas, balki dunyo singari qadimiydir. Bu tushunchani to'g'ri ma'noda tushunish lozim, modomiki, tabiatning o'zi misli ko'rilmagan standartlashtirish namunalarini ato etadi. Masalan, standartlashtirish nuqtai-nazaridan qaraganda, kislorodning atomi yoki suv molekulasidan ko'ra mukamma'lroq narsa yo'qdir.


Tartibga solishning maqbul darajasi deganda, murosaga keltiruvchi yechimni topishga yo'naltirilgan me'yorlar, qoidalari, talablarni barcha qiziqqan tomonlar bilan kelishilgan holda maqsadga muvofiqligini va uni qabul qilishning imkoniyati borligi tushuniladi.

STANDART – konsensus asosida ishlab chiqilgan va faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror foydalaniladigan qoidalari, umumiy prinsiplar yoki tavsiflari belgilangan va ma'lum sohada eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan, tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan hujjat.

Kasb-hunar ta'limi standarti – me'yoriy hujjat bo'lib, tegishli malakadagi mutaxassislar tayyorlash sifatini, kasbiy va umumta'lim tayyorgarlik darajalarini ketma-ketlikda amalga oshirishning talablari, qoidalari va tamoyillarini o'rnatadi.

Kasb-hunar ta'limi standarti o'zining aniq yakuniy maqsadiga ega: kishilarning ma'lum bir kasbiy faoliyat sohasida o'z bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarini qo'llashga tayyorliklarini shakllantirish. Kasb-hunar ta'limi standartini ishlab chiqishning metodologiyasi zaminida ma'lum bir kasbdagi mutaxassislarni tayyorlashning yakuniy

«Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
to‘g‘risida»gi Qonunlar



masalalar majmuasini shakllantirish faoliyatiga tizimli yondashuv qo‘yilgan. Shu munosabat bilan kasb-hunar ta’limi muayyan kasb mutaxassisining majmuaviy yakuniy maqsadi – uning faoliyatini yaxlit tizim sifatida tasavvur qilib, standart darajasida o‘rnataladigan talablarni o‘zlashtirish zarurligidan kelib chiqishi lozim.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini murakkab tashkil etilgan ta’lim tiziminining yaxlit bir «tizimcha»si deb qaralib, u malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimchalari bilan bog‘langan bo‘lishi zarur.

Xalqaro talablarga javob beruvchi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat standartlarini (DTS) ishlab chiqish:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda kasb-hunar ta’limi ekvivalentligini hamda o‘z navbatida mamlakatimizni xalqaro mehnat bozorida to‘siqlarsiz ishtiroy etishini ta’minlaydi;

Ikkinchidan, ta’lim xizmatlari sifatiga aniq (qat‘iy) talablarni belgilab qo‘yish natijasida kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi hamda o‘quv muassasalari ishining samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

6.3. O‘MKHT tarmoq standarti komponentlari

O‘MKHT tarmoq standarti quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- 1) qo‘llanish sohasi
- 2) me’yoriy ilovalar
- 3) ta’riflar
- 4) standartning maqsad va vazifalari
- 5) kasbiy tavsifnomalar
- 6) kasbiy tayyorgarlik mazmunining majburiy minimumi
- 7) namunali o‘quv rejasi
- 8) standart talablarining bajarilishini nazorat qilish

Birinchi komponentda, ushbu tayyorlov yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tarmoq standartining qo‘llanish sohasi ko‘rsatiladi.

Ikkinci komponentda, tarmoq standarti loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan hamda asos bo‘ladigan me’yoriy hujjatlar ro‘yxati ko‘rsatiladi.

Uchinchi komponentda, standartning maqsadi va vazifalari hamda bilimlarni o‘zlashtirish va malaka darajalari keltiriladi. Standartdan foydalanuvchilar davlat, ish beruvchilar, ta’lim tizimi va shaxs hisoblanib, maqsad va vazifalar ularning talablaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Standartning **to‘rtinchi komponentida** standartda foydalanilagan asosiy atamalarning ta’rifi va ularga izoh berilgan.

Beshinchi komponentda, ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda mutaxassisning kasbiy xususiyatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda mutaxassisning kasbiy tavsifnomasi ishlab chiqish zarur.

Tarmoq ta’lim standartining eng asosiy komponenti «**Kasbiy tavsifnoma**» bo‘lib, bu komponentda ish beruvchining talablari aks ettiriladi. Ko‘pchilik rivojlangan Yevropa mamlakatlarida ish beruvchilar har bir kasb bo‘yicha kasbiy standarlarni o‘zları ishlab chiqishadi. Ish beruvchilar ishlab chiqib kasbiy standartlar asosida ta’lim beruvchilar kasb – hunar ta’limi standartlarini ishlab chiqishadi.

Kasbiy tavsifnomani ishlab chiqish uchun, avvalo, shu mutaxassis, ishchi o‘rni tahlil qilinishi, mutaxassisning amalga oshirayotgan kasb faoliyat turlarining ketma-ketligi, ish jarayonining texnologiyasi, kasbga qo‘ylgan maxsus talablar va shu kasb mutaxassisi egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va bilimlar haqida ma’lumotlar bo‘lishi lozim. Tarmoq ta’lim standartining eng asosiy komponenti «**Kasbiy tavsifnoma**» bo‘lib, bu komponentda ish beruvchining talablari aks ettiriladi. Ko‘pchilik rivojlangan Yevropa mamlakatlarida ish beruvchilar har bir kasb bo‘yicha kasbiy standarlarni o‘zları ishlab

chiqishadi. Ish beruvchilar ishlab chiqib kasbiy standartlar asosida ta'lif beruvchilar kasb-hunar ta'limi standartlarini ishlab chiqishadi.

Kasbiy tavsifnomani ishlab chiqish uchun, avvalo, shu mutaxassis, ishchi o'rni tahlil qilinishi, mutaxassisning amalga oshirayotgan kasb faoliyat turlarining ketma-ketligi, ish jarayonining texnologiyasi, kasbga qo'yilgan maxsus talablar va shu kasb mutaxassisi egal-lashi lozim bo'lgan ko'nikma va bilimlar haqida ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Oltinchi komponent, Kasbiy tayyorgarlik mazmunining majburiy minimumi quyidagi ko'rinishga ega («Oshpaz» ixtisosligi misoldida):

Umumiylablar (ishlab chiqarishning texnologik sxemasiga asosan faoliyat turlari)	Maxsus talablar	Malakalar	Bilimlar
Oshpaz			
Oziq-ovqatlarni tayyorlash uchun uskunalarini hozirlash.	Uskunaning tipi. Uskunani ishga hozirlash, texnika xavfsizligi va mehnatni muhofazasiga rioya qilish. Sanitariya va gigiyena. Uskunani o'rnatish bo'yicha talablar.	Taom tayyorlaydigan mexanik va issiqlik (Elektr, gaz, olovli va elektron) uskunalarini, shuningdek, nazorat o'chov asboblarini hozirlash. Uskunalarining nosozliklarini joylarini aniqlash. Ish binosida nisbiy namlikni olib turish, ish joylarini tashkil etish, texnika xavfsizligi, sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilish.	Mexanik va issiqlik uskunalarini tayyorlash, yoqish va o'chirish. Issiqlik uskunalarini ishini me'yorlash, elektr hitlarini tavsifnomasi (joylashgan joyi, binolarning yonmayonligi va hokazo). Avariya yoritishi asboblarining, Ish joyini tashkil etish qoidalari. Texnika xavfsizligi qoidalari. Mehnat muhofazasi, sanitariya va gigiyena talablar.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarni ishlab chiqish asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi «O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 400-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘MKHT DTS «Asosiy qoidalar» standartida O‘MKHT tayanch o‘quv rejasini ishlab chiqish bo‘yicha quyidagilar keltirilgan:

1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartining tayanch o‘quv rejalarini ta’lim mazmunidan kelib chiqib, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha alohida tuziladi.

Tayanch o‘quv rejalarini o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining ishchi o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

2. Tayanch o‘quv rejasida o‘quv yili 40 hafta va 2 semestrdan iborat. Har bir semestr 20 haftani o‘z ichiga oladi.

DTS tasdiqlangandan so‘ng 40 hafta semestrlarga 20 haftadan taqsimlanganligi amalda ma’lum bir noqulayliklarga olib kelganligi sababli bugungi kunda, 1-semestr 17 hafta va 2-semestr 23 hafta qilib qabul qilingan. Bu, asosan, 1-semestr dekabr oxirida o‘quvchilarning yangi yil arafasida 1-semestrni tugatib, ikki haftalik ta’tilga chiqishlarini ko‘zda tutilib qilindi.

3. Tayanch o‘quv rejalarida umumiyligi 4560 soatdan 80-220 soat ta’lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar uchun ajratiladi.

4. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarining haftalik yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. Bundan 16 soati mustaqil ishlashga ajratiladi.

5. Ta’lim muassasalari ilmiy-pedagogik kengashlariga ishchi o‘quv rejalarini tuzishda tayanch o‘quv rejalarini ta’lim standartlari talablari doirasida 15–20% gacha o‘zgartirish huquqi beriladi.

6. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o‘quv rejalarini qo‘yidagi jadvallarda keltirilgan.

AKADEMIK LITSEYLAR O'QUV REJASI MODELI

	Fanlar	Soatlar soni	Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobida
I.	Umumta'lif fanlari	1940	42,5%
II.	Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar	1400	30,7%
III.	Qo'shimcha chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar	650	14,2 %
IV.	Maxsus fanlar Davlat attestatsiyasi Fakultativ kurslar	230 70 270	5% 1,6 % 6%
V.	Jami:	4560	100%

Izoh: Akademik litseylarning o'quv rejalari tayyorlov yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida tuzilib, chuqurlashtirilib va qo'shimcha chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar uchun ajratilgan soatlar miqdori umumiy ajratilgan soatlar hajmiga nisbatan 5% gacha o'zgarishi mumkin.

KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUV REJASI MODELI

	Fanlar	Soatlar soni	Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobida
I	Umumta'lif fanlari	1960	42,5%
II.	Kasbiy ta'lif fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar)	1180	25,9 %
III.	O'quv amaliyoti	600	13 %
IV.	Ishlab chiqarish amaliyoti	648	14,3 %
V.	Diplom ishi	76	1,7 %
VI.	Kollej ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar	116	2,6 %
	Jami:	4560	100%

Izoh: Kasb-hunar kollejlarning o'quv rejalari tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida tuzilib, kasbiy ta'lif fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar)ga, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotiga ajratilgan soatlar miqdori umumiy ajratilgan soatlar hajmiga.

6.4. Standartlashtirish turlari.

O'MKHT davlat ta'lim standartlariningsh funksiyalari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin uni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchilar qatorida qabul qilgan qarori 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlari ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 5-sonli qaroridir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalarini faoliyatini baholashti tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlarining maqsad va vazifalari. Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishi ni nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqr iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsnинг, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
- kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;
- ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzlusizligini ta’minlash, ta’limning barcha turlari va bosqichlarida o‘quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlilikni ta’minlash;

Davlat ta’lim standartlarining vazifalari:

- ta’lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ta’limga va uning pirovard natijalariga, ta’lim oluvchilarining bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqtiga-vaqtiga bilan baholash tartibi va targ‘ibotiga, shuningdek, ta’lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me’yoriy bazani yaratish;
- xalqning boy ma’naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarining ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta’limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta’lim va tarbiyani kelishib olish ularning o‘zaro bog‘liqligini, uzlusiz ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta’minlash;
- o‘quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, uzlusiz ta’lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta’minlanishiga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarining malakasiga nisbatan me’yorlar va talablarni belgilash;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning holis tizi-mini, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

– milliy standartlar talabining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

6.5. O‘MKHT DTS maqsadi, funksiyalari, vazifalari, tamoyillari

O‘MKHT standartlarining joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

– O‘MKHTning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta’minlash;

– mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

– O‘MKHTning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoyalishuvi, ta’lim oluvchilarining huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;

– sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

– kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

– O‘MKHT jarayonini va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzlusizligini ta’minlash;

– mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlari ning vazifalari:

– O‘MKHT sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari turlariga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni belgilash;

– O‘MKHTga va uning pirovard natijalariga, ta’lim oluvchilarining bilimi va kasb malakasi darajasini vaqtı-vaqtı bilan baholash tartibiga, shuningdek, ta’lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me’yoriy negizni yaratish;

- xalqning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- O’MKHT o‘quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlashga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruv-chilarning malakasiga nisbatan me’yorlar va talablarni belgilash;
- kadrlarni maqsadli va sifatlari tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash.

O’MKHTni standartlashtirish tamoyillari:

- ta’limning uzluksizligi va uzviyligi;
- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi fan-texnika va texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish;
- ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mujassamligi;
- matnlar bayonining aniqligini va yagona qiymatliligini;
- fan va texnika hamda texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga respublikadagi va chet ellardagi ilg‘or tajribalarga mos kelishi;
- O’MKHT maqsad va vazifalarining amalga oshirilishi.

6.6. DTSga, uni ishlab chiqish va amalda qo‘llashga qo‘yiladigan talablar

Quyidagilar DTS ishlab chiqishga qo‘yiladigan asosiy talablar hisoblanadi:

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari maqsadlari, vazifalari va qoidalari so‘zsiz amalga oshirilishiga qaratilganlik;
- Ta’lim va kasb-hunar dasturlarida milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy madaniy an’analari, xalqning intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tamoyillarini hisobga olish;
- Ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrash, yuksak kasbiy malaka shakllanishini ta’minlash;
- Xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fan rivojlanishi darjasи, kadrlar tayyorlashga nisbatan amaliyot tomonidan qo‘yiladigan talablar hisobga olinagan holda ta’lim standartlarining ilmiy asoslanishi;

- Ta’lim turlari va bosqichlari bo‘yicha standartlarning kelishilganligi va izchilligi, shaxsning har tomonlama rivojlanishini hisobga olgan holda, ularning mujassamligini ta’minlash;
- O‘quv yuklamasi maqbulligiga qaratilganlik, ta’lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog‘liq ravishda, ta’limning ta-baqlashtirish imkoniyatlarini hisobga olish;
- Ta’lim oluvchilar va bitiruvchilarni tayyorlash, ta’lim faoliyatining sifatini baholash mezonlari va tartibotini belgilash;
- Standartning texnologikligi – uning bajarilishini nazorat qilish va uning me’yorlari va talablari buzilishining oldini olish imkoniyati;
- Standartlarga tajribada tekshiruvdan o’tgan ta’lim faoliyatining ilg‘or me’yorlarini kiritish;
- Davlat ta’lim standartlari O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtirishi kerak.

6.7. DTSni ishlab chiqish va amalga kiritish bosqichlari

Ta’limning standartlashtiriladigan turlari. DTS – ta’limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- Umumiyl o‘rta ta’lim, shu jumladan boshlang‘ich ta’lim;
- O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari);
- oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talabları belgilanadi.

Tarmoq ta’lim standartlarini ishlab chiqish bosqichlari.

Standartlarni ishlab chiqishda, ular qaysi modelga mo‘ljallangan bo‘lishidan qat’i nazar, hal qiluvchi omillar, standartlarning sifati, tan olishi va hayotga tatbiq etilishishga ko‘rsatadi. Standartlarni ishlab chiqishda quyidagilar zarur:

1. Turli xil kasblarda joriy va kelgusi ehtiyojlarni aniqlash.
2. Umumiyl xususiyatlarga tayangan holda hududiy o‘ziga xosliklarni hisobga olish.

3. Kasb-hunar ta’lim standartlarini ishlab chiqish va mas’ullarni hisobga olish, hamda ekspertlar guruhini jamlash, standartlarni ishlab chiqish.

Kasb-hunar ta’limi standartlarini ishlab chiqishda quyidagi eks-pertlar ishtiroy etishi zarur:

- O’MKHTR instituti ilmiy xodimlari;
- O’MKHT o‘quv muassasalari o‘qituvchilari;
- Ish beruvchilar vakillari, ishlab chiqarish (ijtimoiy hamkorlar);
- Kasbiy fanlarga bog‘liq izlanishlar bilan shug‘ullanuvchi eks-pertlar (olimlar);
- Tarmoq vazirliklari, ishlab chiqaruvchilar palatasi vakillari va hokazo.

Ta’lim standartlarini ishlab chiqishda rivojlangan Yevropa va MDH davlatlari tajribalarini o‘rganib chiqib hamda shaxsiy tajribalarga tayangan holda O’MKHT standartlarini ishlab chiqish uchun quyidagi bajarilayotgan ish tartibini tavsiya etamiz.

1-bosqich. O’MKHT standartini ishlab chiqishga buyurtma berish.

Buyurtma mehnat bozori ehtiyojlarini tahlil qilish asosida ma’lum tayyorlov yo‘nalishlari, kasb va ixtisosliklar bo‘yicha beriladi. Buyurtmalar tarmoq vazirliklari va mahalliy hokimiyat bilan keli-shilgan holda beriladi.

2-bosqich. Buyurtmani ko‘rib chiqish va qabul qilish.

Buyurtmani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish.

Standartni ishlab chiqish yoki yangilash to‘g‘risida buyurtmani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Buyurtmani ko‘rib chiqish mazmun nuqtai nazaridan va mehnat bozori talablariga ko‘ra, davlatning ta’lim siyosati ekspertlarini hisobga olgan holda (ya’ni «Ta’lim to‘g‘risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlari asosida) amalga oshiriladi.

3-bosqich. Ishchi (ijodiy) guruhini tashkil etish.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qaroriga binoan standartlarni ishlab chiqish ijodiy ishchi guruhi tashkil etiladi. Ushbu ishchi guruhiba quyidagilar kiradi:

- tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha ish beruvchilar vakillari;
- fan vakillari (tarmoq vazirliklari va ularning ilmiy tekshirish institutlari shu soha bo‘yicha ekspertlari);
- ta’lim muassasalari vakillari;
- O‘MKHTRI vakillari.

4-bosqich. Standart loyihasini tayyorlash.

Standart loyihasini tayyorlashdan oldin, mutaxassisliklarning kasbiy tavsifnomasini aniqlash uchun mehnat bozorini tahlil qilish zarur. Keyinchalik standartning har bir komponenti qaytadan ko‘rib chiqiladi.

6.8. Bozor munosabatlariiga o‘tish sharoitlarida kasbiy ta’lim sifatiga talablar, «Ta’lim sifati», «Ta’lim sifatini nazorat qilish», «Ta’lim sifatini baholash» tushunchalari

Kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish.

Ta’lim boshqaruvi organlariga bog‘liq bo‘limgan, kasb-hunar ta’limi sifatini attestatsiyadan o‘tkazuvchi davlat xizmati tashkil etiladi. Mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbol talablariga monand davlat ta’lim standartlari ishlab chiqiladi. O‘quv yurtlari faoliyatini, professor-pedagog kadrlar sifatini hamda ta’lim oluvchilarining bilimini reyting asosida baholash tizimi tatbiq etiladi. Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilishning davlat va jamoat shakllari rivojlantiriladi. Ta’lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyalash tizimi takomillashtiriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish.

O‘MKHT sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

Ichki nazorat – O‘MKHT muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘qitish sifatining ichki nazorati ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tasdiqlagan «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risida»gi nizom asosida reyting-nazorat shaklida o‘tkaziladi.

Nazoratning reyting tizimi quyidagi nazorat tadbirlari o‘tkazilishini ko‘zda tutadi:

– **joriy nazorat** – og‘zaki so‘rov, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, texnikaviy diktant, kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazo, ya‘ni o‘qituvchi o‘z amaliyotida qo‘llaydigan barcha so‘rov turlarini o‘z ichiga oladi.

– **oraliq nazorat** – fanning ma’lum bir qismi, bo‘limi yakunlangandan so‘ng o‘tkaziladi. Oraliq nazoratning o‘tkazilish tartibi, shakli ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

– **yakuniy nazorat** – semestr tamom bo‘lganda va o‘quv dasturining tegishli bo‘limi tugallangandan keyin amalga oshiriladi. Yakuniy nazoratning o‘tkazilish tartibi, shakli ta’lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

Tashqi nazorat – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat Test Markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta’lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan tayyorlangan «Ta’lim muassasalari va pedagogik kadrlarning davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizom» va amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Davlat-jamoat nazorati – ta’limni boshqaruvchi vakolatli davlat organi va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi;

Yakuniy davlat attestatsiyasi – davlat imtihonlari va malakaviy bitiruv diplom ishi (loyiha)ni himoya qilish bilan yakunlanadi.

6.9. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari turlari va ulardagi ta’lim-tarbiya jarayoni

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasiga binoan ta’lim muassasalarining maqomi quyidagicha belgilangan:

– Ta’lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi;

– Ta’lim muassasasi yuridik shaxs bo‘lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta’lim muassasasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkregatsiyasidan, o'tgan paytdan boshlab, yuridik shaxs dars va ta'lif faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi;

– Ta'lif muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi;

– Ta'lif muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin;

– Ta'lif muassasalari o'quv-tarbiya majmulariga hamda o'quvilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli;

– Ta'lif muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lif xizmatlari ko'rsatish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug'ullanishga haqli.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari ham yuqorida ko'rsatilgandek ta'lif muassasasi maqomiga ega. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tegishli tarmoq DTSlar asosida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatadi.

1. Akademik litseylar.

2. Kasb-hunar kolleji.

Bu ta'lif muassasalarida yoshlarga majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beriladi.

Akademiy litsey – davlat ta'lif standartiga muvofiq o'rta maxsus ta'lif beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual kasbga yo'naltirilgan ta'lif olishini ta'minlaydigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasasi hisoblanadi.

Kasb-hunar kolleji – tegishli davlat ta'lif standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bera oluvchi, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni

egallash imkonini beradigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasasi hisoblanadi. Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibini tanlanganligi, o‘quv jarayonining tashkil etilish jihatidan yangi turdag'i ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Akademiy litsey va kasb-hunar kollejlaridagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni.

Umumiy o‘rta ta’lim negizida o‘qish muddati uch yil bo‘lgan majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzluksiz ta’lim tizimidagi mustaqil turdir. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishi – akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Nazorat savollari:

1. Sivilizatsiya rivojlanishining boshlang‘ich davrlarida standartlashtirish ko‘rsatkichlarini qanday bo‘lgan?
2. Standart, standartlashtirish me‘yorlari tushunchalarini izohlab bering.
3. O‘MKHT tarmoq standartining komponentlarini izohlab bering.
4. Standartlashtirishning qanday turlari bor? O‘MKHT davlat ta’lim standartlaring funksiyalari nimalardan iborat?
5. O‘MKHT DTS maqsadi, funksiyalari, vazifalari, tamoyillari nimalardan iborat?
6. DTS, uni ishlab chiqish va amalda qo‘llashga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?
7. DTSni ishlab chiqish va amalga kiritish bosqichlari qanday?
8. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitlarida kasbiy ta’lim sifatiga talablar qanday bo‘lgan?
9. «Ta’lim sifati», «ta’lim sifatini nazorat qilish», «ta’lim sifatini baholash» tushunchalarini izohlab bering.
10. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari turlari va ulardag'i ta’lim-tarbiya jarayoni qanday?

7-BOB. O'ZBEKISTON XALQ XO'JALIGINING ASOSIY TARMOQLARI

Tayanch iboralar: xalq xo'jaligi, moddiy ishlab chiqarish, nomoddiy ishlab chiqarish, ishlab chiqarish komplekslari, mehnat unumdorligi, kichik biznes, tayyorlov yo'naliishlari, kasblar, iqtisodilarning asosiya qurilishi, umum davlat tasniflagichi, kichik mutaxassis, nazariy ta'limi, ishlab chiqarish ta'limi.

7.1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat-qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes

Xalq xo'jaligi mamlakatimizda ishlab chiqarish vositalariga multchilik asosida vujudga kelgan ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidir.

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga muvofiq xalq xo'jaligi faoliyatning ikki katta sohasini – ishlab chiqarish (moddiy ishlab chiqarish) va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini o'z ichiga oladi.

Ana shu sohalarning tarkibi o'zaro munosabati va bir-biriga bog'liqligi mamlakatimiz xalq xo'jaligi strukturasini tashkil etadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasiga moddiy boyliklarni ishlab chiqaradigan yoki iste'molchilarga yetkazib beradigan hamma tarmoqlar kiradi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish jamiyat uchun zarur ishlab chaqarish vositalari (mashinalar, materiallar, inshoot va hokazolar) hamda iste'mol mollari (oziq-ovqat mollari, kiyimlar, poyabzal va hokazolar) yaratiladi. Yuk transporti, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha aloqa, savdo, umumi ovqatlanish, moddiy texnika ta'minoti tayyorlanish va sotish hamda moddiy ishlab chiqarish sohasiga kiradi, chunki bular mahsulotlarni yaratishda yordam beradi va ularning qayta qurilishini ta'minlaydi.

Moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i sanoatdir. Mamlakatimiz iqtisodiy qudratining asosi og'ir sanoat bo'lib, u ishlab chiqarish vositalarining (materiallar, mashinalar, asbob-uskunalar, priborlarning) ishlab chiqarishini ta'minlaydi. Yengil va oziq-ovqat sanoatida iste'mol mollari (oziq-ovqat mahsulotlari, gazlama, poyabzal, kiyim va hokazolar) tayyorlanadi. Aholi uchun maishiy,

madaniy va xo‘jalikka mo‘ljallangan xilma-xil tovarlarni tayyorlash bilan assosiy mahsulot chiqarishdan tashqari sanoatning barcha tarmoqlari shug‘ullanadi.

Qishloq xo‘jaligi sanoatni xomashyo bilan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlaydi. U o‘simlikshunoslik (dalachilik, sabzavotchilik, mevachilik, yem-xashak tayyorlash va hokazolar) hamda chorvachilik (qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parandachilik, baliqchilik va hokazolar)ni o‘z ichiga oladi.

Qurilishning vazifasi ishlab chiqarish binolari, inshootlar, turar joylar, yo‘llar, kasalxonalar, maktablar va boshqa obyektlarni qurish va qayta qurishdir. Transport, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa qurilishlar bir-biridan farq qiladi.

Transport xalq xo‘jaligi va aholini xilma-xil yuklarni tashish ehtiyojini uzluksiz hamda o‘z vaqtida ta‘minlaydi.

Aloqa jamiyatning ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatida, aholining madaniy maishiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. U axborotlarning uzatilishini ta‘minlaydi va pochta, telegraf, telefon, radio, televideniyani o‘z ichiga oladi.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlari strukturasi to‘xtovsiz takomillashmoqda. Masalan, sanoatda atom energetikasi va atom mashinasozligi kabi yangi tarmoqlar, elektron, mikrobiologiya sanoati va hokazolar vujudga keldi.

Xalq xo‘jaligini rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishi uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirish tarmoqlararo xalq xo‘jaligi komplekslarini vujudga keltirishdir. Bunday komplekslarning bir nechta turlari bor.

Mashinasozlik kompleksi mamlakat xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini mehnat vositalari bilan ta‘minlaydi, shunga ko‘ra, ularning rivojlantirish sur’atini va ishlab chiqarish samaradorligini ham ko‘p darajada belgilaydi. Bu kompleksga energetika, og‘ir mashinasozlik va transport, kimyo va neft, qurilish, yo‘l mashinasozligi, stanoksozlik va asbobsozlik, elektrotexnika, elektron sanoat, priborsozlik, avtomobil sanoati va boshqa ayrim tarmoqlar kiradi.

Mashinasozlik kompleksini, birinchi navbatda, stanoksozlik, hisoblash texnikasi ishlab chiqarish, priborsozlik kabi tarmoqlarni, elektrotexnika va elektron sanoatni jadal rivojlantirish mo‘ljallangan. Fan-texnika taraqqiyoti deganda, eng avvalo, mana shularning rivojlanishi tushuniladi.

Konstruksion materiallar ishlab chiqarish kompleksiga qora va rangli metallurgiya, kimyo va neft, selluloza va yog‘ochni qayta ishlash, qurilish materiallari kiradi.

Agrosanoat kompleksi – tarmoqlararo murakkab ishlab chiqarish iqtisodiy sistema bo‘lib, uchta asosiy texnikaning sohasini o‘z ichiga oladi.

Birinchisi – ishlab chiqarish vositalari, unga takror va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, chorvachilik va yem-xashak tayyorlash mashinasozligi, yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi, kombikorm va mikrobiologiya sanoati va sanoat turlari kiradi.

Agrosanoat kompleksidagi kapital qurilish ham ana shu sohaga taalluqlidir.

Ikkinchisi – bevosita qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi (o‘simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlari, agrokimyo va veterenariya, sanitariya xizmati, mehnatkashlarning yordamchi xo‘jaliklari).

Uchinchisi – qishloq xo‘jalik xomashyolarini (oziq-ovqat, go‘shtsut, un-yorma va hokazolarni) tayyorlash, saqlash va qayta ishlashni ta’minlaydigan ishlab chiqarish tarmoqlari, shuningdek, mahsulotlarni realizatsiya qilish bilan bog‘liq tashkilotdir. Agrosanoat kompleksining asosiy vazifalari qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarishini uzluksiz o‘sirishga erishish, mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi xomashyolari bilan ishonchli ta’minalashdir.

Xalq xo‘jaligi kompleksini dinamik va proporsional rivojlantirish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish tomon keskin burilish yo‘liga o‘tish, uning sifati va samaradorligini oshirish vazifasini qo‘ydi. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy vositalari fan-texnika taraqqiyoti jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tubdan o‘zgartirish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bazasida xalq xo‘jaligini chu-

qur rekonstruksiyalashdir. Bunday rekonstruksiyalash barcha tarmoqlar va xalq xo‘jaligi komplekslariga, birinchi navbatda, mammakat iqtisodiyotining poydevori – og‘ir sanoatga taalluqli bo‘lib, mashinasozlikning rivojlanishi birmuncha tezlashtirish chiqarilayotgan mahsulotlarning texnikaviy darajasini tubdan yuksaltirish talab qilinmoqda.

Agrosanoat kompleksi tarmoqlarini jadal va proporsional rivojlantirish qishloq xo‘jaligini industrial bazasiga o‘tishini tugallash, barcha tarmoqlarini xo‘jalik ekinlarini hosildorligining va chorvachilik mahsulordorligini ta‘minlashga mo‘ljallangan.

Yengil sanoat va bevosita aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ishlaydigan tarmoqlarni, transport va aloqani jadal rivojlantirish zarur. Kapital qurilishni sifat jihatdan yangi industrial va tashkiliy darajaga ko‘tarish rejalashtirilmoadaki, busiz xalq xo‘jaligini texnik rekonstruksiyalash mumkin emas.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishi eng kam mablag‘ sarflab, eng katta xo‘jalik natijalariga erishish demakdir. Bu esa, o‘z navbatida xo‘jalik ishlab chiqarishga qo‘silgan, ya’ni xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya ishchilarning mehnat haqi uchun sarflangan har bir so‘m maksimal darajada foyda keltiradigan yo‘sinda yuritish kerakligini bildiradi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirishning ikkita: ekstensiv va intensiv yo‘llari bor.

Birinchi yo‘l korxonaning, ulardagi yangi ishchilarни jaib qilish. Materiallar to‘plash hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirishdan iboratdir.

Ikkinchi yo‘li esa yanada mukammal texnologiyadan, texnikadan foydalanish, ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil etish, intizomni mustahkamlash, mavjud resurslarni tejab ishlatish orqali ko‘zlagan natijaga erishishdir.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishda, xo‘jalik masalalarini oqilona hal qilishda rejalashtirish katta rol o‘ynaydi. Rejalashtirish zamonaviy sharoitda xalq xo‘jaligini boshqarishning markaziy zve-

nosidir. Xalq xo‘jaligi rejalarining bir qancha turlari mavjud bo‘lib, besh yillik va yarim yillik rejalaridir. Har qanday korxona faoliyati rejaga asoslanadi. Yuqori tashkilotlar (vazirliliklar, idoralik) korxonalar rejalarining faqat eng zarur ko‘rsatkichlarini: mahsulot ishlab chiqarish hajmi va muddati, buyumlarining asosiy turlari hamda boshqa ba’zi narsalarni tasdiqlaydi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun qishloq mahsulotlarini xarid qilishda erkinlik va davlat rejalarini belgilanadi. Xo‘jalik va turli ekiladigan maydonlarini, chorva mollari boshini, har xil ishlarini amalga oshirish muddatlarini o‘zlarini mustaqil holda rejalashtiradi.

Davlat har qanday korxonani tashkil qilishda uning ishlashi uchun zarur binolar, materiallar, texnika, pul mablag‘lari ajratiladi. Korxona esa, bulardan foydalanib ishchilarini to‘playdi, materiallar, asbob-uskunalar sotib oladi, o‘z mahsulotlarini realizatsiya qiladi, boshqa korxonalar bilan shartnoma tuzadi, o‘zining moliyaviy ishlari yuritiladi.

Har bir buyum korxonaga qanchadan tushadi? Korxona o‘ziga berilgan binolar, inshootlar, mashinalar, stanoklar uchun davlatga asta-sekin, qismlarga bo‘lib qarzini to‘laydi. Buni amortizatsiya (narxini qoplash) xarajatlari deyiladi. Tayyorlangan mahsulotlarni tashish va realizatsiya qilishi uchun ham muayyan sarf-xarajatlarni taqozo etadi. Barcha ishchi va xizmatchilarining mehnati uchun haq to‘lash kerak. Xarajatlarning bir qismi yoritish, isitish binolari ham shu bilan bog‘liqdir.

Korxona foydani ko‘paytirishdan manfaatdormi? Foyda nimalarga ishlatiladi? Foydaning qancha qismi davlat ixtiyoriga o‘tadi (bu budjetga ajratishdir). Ular yangi zavodlar, fabrikalar, turarjoy binolari, maktablar, kasalxonalar, kinoteatrlar, yo‘llar qurishga, talabalarning ta‘limiga, boshqarish apparati xodimlarining maoshlariga, barcha kishilar uchun meditsina xizmati ko‘rsatishga, Vatanimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga sarflanadi.

Korxona xo‘jalik hisobi sharoitida muvaffaqiyatli ishlashi uchun mehnatni yaxshi tashkil etish, tejamkorlikning g‘oyat jiddiy rejimi

zarur. Bundagi vazifa xomashyo, materiallar, yoqilg'i, elektro-energiya, yer-mulk va ishchilardan kam miqdorda foydalanib, ko'p mahsulot olishdan iborat bo'lib, ishlab chiqarishdagi tejamkorlik reji-mining ma'nosi ham shundadir. Bu rejim oddiy narsalardan vujudga keladi.

Ishlab chiqarishda buyumlarni kam material ketadigan qilish, qimmat tabiiy materiallar o'rniga sun'iy materiallar ishlatish, buyumlarning chidamliligini oshirish, kam chiqindiliqi, resurslari iqtisod qiladigan texnologiyani joriy etish orqali materiallarni tejashga erishiladi.

Har bir ishchining ish vaqtidan ratsional va to'liq foydalanish – ishlab chiqarishdagi tejamkorlik rejimini kuchaytirishning asosiy shartlaridan biridir. Ish vaqt vaqtida foydalanish bir yo'la ko'p mahsulotlar tayyorlash, shu orqali uning tan narxini arzonlashtirish va korxonaning foydasini ko'paytirish imkonini beradi. Ish vaqt mehnat sarflanishning eng muhim o'lchovidir. Mehnat sarflashning samaradorligi mehnat unumdorligidir. U vaqt birligi ichida tayyorlangan buyumning miqdorida o'z ifodasini topadi.

Mehnat unumdorligi anchagina omillarga, ya'ni texnika va ilg'or texnologiyani joriy etishga, ishlarni sifatli tashkil qilishga, mehnat intizomini mustahkamlash, ishchilarning malakasini oshirish va hokazolar orqali sarflanadigan ish vaqtini qisqartirishga bog'liq. Mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini yuksalishining asosiy omillaridir.

Kichik biznesning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: budjet orqali bevosita yordam puli. Pul hajmi kichik biznes sug'urta qilinmagan zararlarni qoplash uchun belgilangan bo'lishi kerak. Yordam puli innovatsiyaning xavfli loyihibalarini qoplaydi va katta biznes talab qilmaydigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

Davlat bank kreditlarni olishda kafil sifatida chiqadi. Shuning uchun mayda biznesga kredit olish ancha yengilroq kichik biznes soliq imtiyozlariga ega bo'lishi kerak. Agar firma ijtimoiy tarmoqqa

yoki ishlab chiqarish rivojlanishiga ajratilgan mablag‘ini ko‘paytirsa, soliq solinadigan ulushni qisqartirishi mumkin.

MDH mamlakatlarida kichik biznesni davlat tomonidan mablag‘ bilan ta’minalash budgetda pul kam bo‘lganligi uchun arzimagan miqdorda amalga oshiriladi.

Davlat pul mablag‘laridan tashqari:

1. Qonuniy hujjatlarni ishlab chiqarish bilan;
2. Konsultativ xizmatlarni ko‘rsatish bilan yordam beradi.

Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish va uni keng targ‘ib qilish va yoyish niyatida davlat axborot, maslahat, ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion fondlar va boshqa tashkilotlar tuzib, iqtisodiyotning ushbu sohasini rivojlantirishga yordam beradi.

7.2. O‘MKHTdagi tayyorlov yo‘nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi

Tasniflagich loyihasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi Markazining Davlat ta’lim standartlari bo‘limi va O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish instituti tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur tasniflagich loyihasi:

– O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot, moliya, qishloq va suv xo‘jaligi, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, xalq ta’limi, madaniyat ishlari bo‘yicha, ichki ishlar, favqulotda holatlar va adliya vazirliklarida;

– O‘zbekiston Respublikasi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va davlat mulkini boshqarish, statistika, raqobatchilikni rivojlantirish va monopoliyadan chiqarish, soliq, davlat chegaralarini qo‘riqlash qo‘mitasi, tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, mineral manbalar va geologiya, qurilish va arxitektura, jismoniy va sport, davlat kadastri va kartografiya, geodeziya, yer resurslari davlat qo‘mitalarida;

– O‘zbekiston Respublikasi tashqi aloqalari bo‘yicha, iqtisodiy aloqalar, O‘zbekiston Respublikasi axborotlashtirish va aloqalar, axborotlar va matbuot standartlashtirish, metrologiya va sertifikasiya.

fikatlashtirish, O'zkommunxizmat, avtomobil va daryo transport vositalari «O'zarxiv» agentliklari va O'zbekiston Respublikasi mualiflik huquqlari agentliklarida;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazida;

O'zbekiston Respublikasi: uchish xavfsizligini nazorat qilish, elektroenergiyani nazorat qilish, tog' va sanoat xavfsizlik ishlari olib borishini nazorat qilish, yuklarni temir yo'l orqali tashish xavfsizligini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiyalari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va muhim suv xo'jalik obyektlarini va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Davlat inspeksiyasi, gaz va neft mahsulotlaridan foydalanishni nazorat qilish, davlat kon inspeksiyalarida ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori asosida tayyorlangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining me'yoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklari Tasniflagichning tasniflash obyektlari hisoblanadi.

Mazkur tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlov yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar nomi va kodi hamda ixtisosliklar ro'yxati keltirilgan.

Qo'llanish sohasi: mazkur tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassislarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-

hunar ta'limalda davlat ta'limal standartlari, o'quv rejalar, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiquvchilar, ta'limal muassasalari rahbarlari, respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlari mutaxassislar, vazirliliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar uchun mo'ljallangan.

Mazkur tasniflagichni ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjat-larga asoslangan:

O'z DST 1. 02-92 O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar.

GOST 1. 5-93. Davlatlararo standartlashtirish bo'yicha ish yuritish qoidalari. Standartlarning tuzilishi, bayon qilinishi, rasmiylashtirilishi va mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

O'z DST 1. 8-94. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Rahbariy hujjatlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va tavsiyalar.

O'z DST 6. 01-95. O'zbekiston Respublikasining texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarini kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Asosiy qoidalar.

O'z DST 1. 9-95. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. Soha standartlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

O'z DST 6. 01. 2-95. O'zbekiston Respublikasi texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni kodlashtirish va tasniflashning yagona tizimi. Tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibi.

Ta'liming xalqaro standart klassifikatsiyasi (TXSK) YUNESKO, 1997-yil.

Z DT 008: 2000 s 01. 08. 2000 O'zbekiston Respublikasi mashg'ulotlar milliy standart tasniflagichi.

Mazkur tasniflagichda quyidagi ta'riflar qo'llanilgan:

Tayyorlov yo'naliishlari, kasblar va ixtisosliklarning umum davlat tasniflagichi (TYKIUT) – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha tayyorlov

yo‘nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro‘y-xati.

Malaka – mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma‘lum ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nik-malarning mavjudligi.

Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko‘rsatkich bo‘lib, toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kichik mutaxassis – bu ta’lim dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtir-gan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

Kichik mutaxassis:

– nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga, kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega;

Mazkur jamiyatda o‘zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta’minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyatga, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlarga va shaxsiy sifatlarga ega.

Kichik mutaxassislar quyidagi vazifalarni bajaradi:

– kompyuter va boshqa texnikalardan, texnikaviy va fizikaviy fanlar sohasiga foydalanish usullarini qo‘llash bilan bog‘liq texnik topshiriqlarni bajaradi; texnik-jihoz va transportlarni ishlataladi; mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar hamda muhandis-texnik jihozlar va asboblarga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ta’mirlash, metall-konstruksiyalarni, dastgohlarni o‘rnatish va boshqa ishlarni amalga oshiradi;

– xomashyo qazib olish va qayta ishslash, metallurgiya, qurilish, binolar va inshootlarni ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish sohasida o‘z kasbiy bilimlarini tatbiq etadi; bosish (qoliplash) ishlarini bajaradi; oziq-ovqat mahsulotlari, to‘qimachilik mahsulotlari, yog‘och va metall buyumlar, shu jumladan, badiiy hunarmandlik bуumlarini ishlab chiqaradi va qayta ishlaydi;

– bolalar bog‘chasi va boshlang‘ich maktablarda ta’lim va tarbiya ishlarini amalga oshiradi.

– sog‘liqni saqlash, gigiyena, insonlarga g‘amxo‘rlik qilish, qishloq xo‘jaligida o‘simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish, yetishtirish bo‘yicha zarur ishlarni amalga oshiradilar;

– kadrlarni joy-joyiga qo‘yish va ularning ijtimoiy ta’minoti, soliqqa tortish va turizmga aloqador davlat xizmatlari, buxgalteriya hisobi, huquqiy, statistik, ish yuritish korxonalarini boshqarish, tijorat, moliya va savdo-sotiq sohasidagi bilimlarni texnik qo‘llash bilan bog‘liq ma‘muriy va ishlab chiqarish vazifalarini bajaradilar.

Odamlar va yuklarni milliy chegaralardan o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ijtimoiy masalalar bo‘yicha yordam ko‘rsatadilar va maslahat beradilar.

Sport va boshqa qiziqarli tadbirlarni tashkil etadilar va o‘tkazadilar, madaniyat va san‘at sohasida ijodiy faoliyat ko‘rsatadilar;

Diniy marosimlarni o‘tkazishda aholiga yordam ko‘rsatadilar.

Kasbiy faoliyat sohasi (KFS) – kasbiy bilim, malaka va ko‘nik-malarning qo‘llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalari nomlari bilan moslashtiriladi.

O‘MKHT ta’lim muassasalaridagi tayyorlov yo‘nalishlari aniq kasbiy faoliyat sohasida mutaxassislarga kasbiy ta’lim berish doirasidir. Mutaxassislar kasbiy faoliyatining aniq sohasi bo‘yicha tayyorlov yo‘nalishlarining nomi mehnat faoliyati mazmuni va xususiyati orqali aniqlanadi.

Kasb maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma’lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallagan, unga jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va yuridik huquqlarni ta’minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg‘ulotining) turidir.

Ixtisoslik – birorta kasb doirasida ma’lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko‘nikma va malakalar majmuasi.

O‘MKHT tayyorlov yo‘nalishlari va kasblar kodi kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va ixtisosliklar bo‘yicha tayyorlov yo‘nalishlari ixtisoslashtirilgan ro‘yxatining raqamli belgisidir.

Tasniflagichda quyidagi to‘qqizta bilim sohasi nazarda tutilgan:

100000 – ta’lim;

200000 – gumanitar fanlar va san’at;

300000 – ijtimoiy fanlar;

400000 – fan;

500000 – muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;

600000 – qishloq xo‘jaligi;

700000 – sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot;

800000 - Xizmatlar;

Tasniflagichda ta’lim bosqichlari va ta’lim sohalari, tayyorlov yo‘nalishlari va kasblar yettita raqamli kod bilan belgilanadi.

Ta’limning xalqaro klassifikatsiyasiga binoan, ta’lim bosqichi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi 3 raqami bilan belgilanadi. Masalan: 3144610, 3210210, 3380110 va boshqalar.

Birinchi raqam – ta’lim dasturi bosqichi kodi;

Ikkinci raqam – bilim sohasi kodi;

Uchinchi raqam – ta’lim sohasi kodi;

To‘rtinchi va beshinchi raqamlar – tayyorlov yo‘nalishi kodi;

Oltinchi va yettinchi raqamlar – kasblar kodi.

Uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliv ta’lim (bakalavriat)da uzviylikni ta’minalash maqsadida O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limidagi tayyorlov yo‘nalishlari kodlari oliv ta’limining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari kodlariga moslashtirilgan.

Tasniflagichdan quyidagi vazifalarni hal etishda foydalilanildi:

– hududiy bandlik dasturlarini ishlab chiqish;

– Milliy va hududiy mehnat bozorlarida ijtimoiy mehnat sohasidagi jarayonlarni taxminlash va tartibga solish;

– Ish kuchining samaradorligini va ish kuchiga ketadigan sarflarni aniqlash;

– Mehnatga haq to‘lashni tartibga solish va me’yorlashtirishni takomillashtirish;

– Xalq xo‘jaligining kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minalash va asoslangan uzluksiz ta’lim dasturini ishlab chiqish;

– Mehnat statistikasi sohasida axborotning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlash.

«Kichik mutaxassis» malakasi toifasiga kirmaydigan shaxslarni mutaxassisliklarining belgilanishi.

Tasniflagichning 4-ustunida intellektual layoqati (aqliy rivojlanish xususiyatlari) buzilgan shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan birdan-bir ixtisosliklar bitta yulduzcha (*) bilan ko'rsatilgan. Ushbu mutaxassisliklar O'zbekiston Respublikasi mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligi tomonidan tasdiqlangan aqliy va jismoniy jihatdan kamchilikka ega shaxslarni o'qitish mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar asosida belgilangan. O'qish muddati kasallik darajasiga qarab 1 yildan 2 yilgacha.

Tasniflagichning 4-ustunida ikkita yulduzcha (**) bilan jismoniy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va imkoniyatlari cheklangan shaxslarni o'qitadigan birdan-bir ixtisosliklar ko'rsatilgan. Mazkur mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan, jismoniy rivojlanishida kamchiligi bor va bolalikdan nogiron shaxslar uchun mo'ljallangan maxsus maktablarning bitiruvchilari uchun tuzilgan hamda kasblar va mutaxassisliklar ko'rsatilgan ro'yxat asosida belgilangan. O'qish muddati 2 yil.

Tasniflagichning 4-ustunida uchta yulduzcha (***) bilan akademik litseylarning bitiruvchilari egallaydigan kasbga yo'naltiruvchi ixtisosliklar belgilangan. O'qish muddati 3 yil (chuqurlashtirilgan umumta'lim tayyorgarligi bilan qo'shib olib borilgan holda).

Tasniflagichning 4-ustunida to'rtta yulduzcha (****) bilan 11 yillik umumta'lim maktablarining bitiruvchilari oliy o'quv yurtiga kirolmagan hollarda, yangi bozor munosabatlariiga o'tish davrida ularni ijtimoiy himoya qilish maqsadida mo'ljallangan ixtisosliklar ko'rsatilgan. Tasniflagich bunday shaxslar toifasiga nisbatan to'qqiz yillik ta'limga to'liq o'tgunga qadar amal qiladi. O'qish muddati 1 yil.

O'qishni tugatadigan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan belgilangan namuna-nada tasdiqlangan diplomlar va sertifikatlar beriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lomidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichiga o'zgartirishlar kiritish tartibi.

Mazkur tasniflagich tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning asos bo'luvchi ro'yxati bo'lib, u qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish uchun ochiqdir.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga taqdim etiladi.

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan amalga oshiriladi.

7.3. O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi

Hozirgi ishlab chiqarishga kelayotgan mutaxassislarning uchdan bir qismi avval mактабда mehnat va kasbgacha tayyorlanmoqdalar, keyin kasb-hunar kollej tizimida kichik mutaxassis darajasigacha tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida fan-texnika taraqqiyotining jadallahuvi kichik mutaxassislar turli soha va ularning tarmoqlari bo'yicha madaniy texnik-texnologik saviyasini oshirishga, ularning tayyorgarligini tubdan yaxshilashga e'tiborni kuchaytirishga taqozo etmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va qarorlar, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi har bir kichik mutaxassis mehnatining mazmunini tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Ularning aqliy va jismoniy faoliyati unsurlari o'rtasidagi nisbat ancha o'zarmoqda. Hozirgi zamon kichik mutaxassis mehnati intellektual mazmun bilan tobora boyimoqda va ilmiy asosda tashkil topmoqda. Aqliy hamda amaliy ishlarning o'zaro uзвиy bog'lanishi bilan xarakterlanmoqda.

Shunga ko'ra, kichik mutaxassislarning hozirgi ishlab chiqarishda ishtirok etishlari murakkab va tez o'zgaradigan aniq mehnat sha-

roitlarida chuqur bilimlarini ijodiy qo'llashlarini talab qilmoqda. Shuning uchun umumta'limiy va keng politexnik asosdagi kasb tayyorgarlikka ega bo'lish majburiyati vujudga kelmoqda. Kasb-hunar kollej tayyorgarchilikka kadrlar ta'limi tizimini jiddiy qayta qurish jarayoni o'tmoqda. Shuningdek, bu ish faqat bizda muayyan bilimlar majmuasini o'zlashtirgan kishi sifatida emas, balki eng avvalo, g'oyaviy maqsadga, yuksak axloq va mehnat madaniyatiga ega bo'lган O'zbekistonning mustaqil davlat va jamiyat fuqarosi hamda faol quruvchisi sifatida tarbiyalangan insonning o'zini umumiy kamol toptirish bilan ham bog'liqdir.

Mehnat va kichik mutaxassis tayyorgarlik ta'limining o'zaro bog'lanish jarayoni o'quvchilarga, xususan, bo'sh o'zlashtiradigan va eng yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'quvchilarga tabaqalashtirib va guruhiy yondashishni taqozo etadi.

Hozirgi paytda, kasb-hunar o'quv muassasalarida malakali mutaxassislarini tayyorlash ikkita mustaqil qismdan iborat, ya'ni nazariy va ishlab chiqarish ta'limi.

Nazariy ta'lim.

Kasb-hunar bilim yurtlarining o'quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta'limi ko'zda tutilgan. **Nazariy bilimning vazifasi**, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bitta maqsadga, ya'ni yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashga qaratiladi. Shuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta'limi o'quv muassasalaridagi o'quv jarayonining mustaqil, ammo o'zaro aloqador qismlari hisoblanadi.

Ta'limda nazariy dars soatlari bilan amaliy mashg'ulotlarning soatlari ma'lum nisbatda bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilar o'rganiyatotgan fan bilan tanish emasligini, o'zlashtiriladigan bilimlar ular uchun yangiligini nazarda tutish zarur.

Shunday qilib, **nazariy ta'lim** o'quvchilarning umumiy bilim, ijtimoiy, umumkasbiy va maxsus fanlarni o'rganishlarini o'z ichiga olib, ularda o'rganiyatotgan kasbni ongli tarzda mustahkam va churqorroq egallashlari uchun zarur hajmdagi bilimlar tizimini shakl-

Iantirish hamda ishlab chiqarish malakasini yanada oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

Ishlab chiqarish ta'limi.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi – kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishadigan o'quvchilarni muayyan kasb sohasida bevosita faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan, ya'ni bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o'rgatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Ishlab chiqarish ta'limi – malakali tayyorlash jarayonining g'oyat muhim tarkibiy qismi bo'lib unga umumiyl o'quv vaqtining katta qismi ajratiladi.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy muammolari:

1997-yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da kasb-hunar ta'limiga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, uni har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutadi va bu muammo shu kunning asosiy ekanligini ta'kidlaydigan uning nazariy va amaliy tomonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kasb-hunar ta'limida ishlab chiqarish ta'limi ishlab chiqarish va o'qitish muammolari bilan chambarchas bog'langan.

Ishlab-chiqarish ta'limining asosiy muammolaridan biri bo'lib:

- uning mazmunini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish ta'limida nazariy va amaliy bilim berish mazmunini qayta ko'rish;
- ishlab chiqarish ta'limi tizimi bo'lib, u mazmun, o'qitish usullari va o'qitish jarayonini birgalikda hal etishni taqazo etadi.

Kasbiy ta'lim muammolari.

Kasbiy ta'lim umumiy ta'limdan o'zining ta'lim maqsadi, o'rgatish maqsadi, o'zlarining dasturlari va dastur mazmunining tanlanishi, o'qitishda amaliy faoliyat bilan bog'lanish (ustaxonalarda kengash, koxonalarda ishslash va o'qitish usullari) va boshqalar bilan farq qiladi.

Kasbiy ta'limda kasbiy fanlar dasturini ishlab chiqishda kasbiy tavsifnomalaridan kelib chiqiladi. Umumta'lim va kasbiy ta'lim jarayonlari, asosan, bir-biriga o'xshash bo'lsada, ko'p hollarda bir

xil didaktik prinsiplar, usulik usullar qo'llaniladi, kasbiy ta'limda nazarisi va amaliy o'qitish jihatlari bilan tubdan ajraladi. Chunki bu yerda ta'lim jarayoni ko'pincha ishlab chiqarish bilan birlgilikda olib boriladi, u yerda ular o'rganiladi, ishlab chiqariladi, faoliyat ko'rsatiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi bosqichlari.

O'quvchilarning ko'pchilik kasblari bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi uchta asosiy bosqichgiga:

- a) o'quv ustaxonalarida, o'quv maydonlarida, o'quv labaratoriylarida, bilim yurtining o'quv xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish ta'limi;
- b) ishlab chiqarish sharoitlari (korxonalarda, qurilishlarda, xo'jaliklarda) ishlab chiqarish ta'limi;

v) ishlab chiqarish tajribasiga bo'linadi. Har bir bosqich o'ziga xos maqsadga va o'quv jarayonida o'z o'rniiga ega bo'lib, kasb xususiyatiga qarab ular turli muddatli bo'ladi va u ishlab chiqarish ta'limi das-turi bilan belgilanadi. O'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limi ustozи rahbarligida amalga oshiriladi. Bu ustoz o'ziga biriktirilgan guruhga bilim yurtidagi ta'limning boshidan oxirigacha rahbarlik qiladi.

Pedagogikada ta'lim jarayoni (o'quv jarayoni) deganda, o'qituv-chining hamda uning rahbarligidagi o'quvchilarning bilimlar, ko'ninkmalar va malakalar tizimini ongli va mustahkam o'zlashtirishga, ularni hayotga tatbiq etish masalasini shakllantirishga mustaqil fikr yuritishga, bilish qobiliyatlarining rivojlantirishga aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini egallashga qaratilgan izchil va o'zarо bog'liq harakatlarning majmui tushuniladi.

O'quv jarayonining bir qismi hisoblangan ishlab chiqarish ta'limi uchun uning barcha umumiy qonuniyatlari ham xosdir. Ishlab chiqarish ta'limining o'ziga xos jihat, avvalo, shundan iboratki, bunda o'quv jarayoni o'quvchilarning unumli mehnati davrida amalga oshiriladi. Bu esa, o'quv jarayonining o'ziga xosligini (uning mazmuni, o'quvchilarning o'quv faoliyati, ustozning ta'lim berish faoliyati, ta'lim vositalarini, ya'ni uning barcha asosiy tarkibiy qismlarini) keltirib chiqaradi.

Ishlab chiqarish ta'limining mazmuni tegishli kasbdagi ishchining mehnat faoliyatini hamda malaka darajasini (razryad, sinf, kategoriya

va hokazolarni) tahlil qilish asosida belgilanadi. Bunday tahlil shuni ko'rsatadiki, ishchining mehnat faoliyati kasbidan qat'i nazar quyidagilarni rejalashtirish; tayyorgarlik; amalga oshirish; nazorat va ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish vazifalarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish topshiriq bilan tanishishni, manbalarni, texnologiya jarayonlari, asboblar, moslamalarni tanlashni, zarur hisoblash ishlarini, ishni ijro etish rejasini tuzishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga tayyorgarlik-materiallar, asboblar, uskunalarini ishga taxt qilishdir.

Ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish qo'lda bajariladigan operatsiyalarni bajarish, ishlayotgan uskunalarini boshqarish, apparatlar va qurilmalarda ro'y berayotgan texnologiya jarayonlarini sozlab turishdir.

Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish texnologiya jarayonining borishini, ishchining o'z faoliyati, uskunalar ishi, mahsulot sifatini tekshirishni va baho berishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish uskunalarga qarov, nosozliklarni bartaraf etish, ish o'rnini tashkil qilishdan iboratdir.

Demak, o'quv muassasasida o'quvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berishning asosiy vazifasi – ularga o'z kasblari uchun xos bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish va xizmat ko'rsatishga o'rgatishdan iborat.

Mutaxassis bajaradigan ana shu vazifalarning tegishli kasbga va malaka darajasiga muvofiq aniq mazmuni kasbiy mahorat tavsifnomasida aks etadi. Bu hujjat ishchining bajaradigan ish va kasblari bo'yicha umum davlat yagona ta'rif-mahorat ma'lumotnomasi asosida tuziladi. Unda o'quvchi bilim yurtidagi ta'limga olish davomida egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalarga asosiy talablar qayd etilgan. Mahorat tavsifnomasi bilim yurtida mutahassislarini tayyorlash mohiyatini belgilovchi asosdir. Hozirgi kunda bu vazifani davlat ta'limga standartlari boshqaradi. Bu asosda dastur tuziladi.

Ishlab chiqarish ta'limi mazmunini belgilovchi asosiy davlat hujjati bo'lgan ishlab chiqarish ta'limi dasturlarida bayon qilinadi. Ishlab

chiqarish ta'limi dasturida o'quv materialining murakkabligiga qarab mehnat jarayonlarini bajarishning o'zaro bog'liq yo'llari, operatsiyalari va usullari muayyan tartibda joylashtirilgan mavzularga (oddiydan murakkabga tomon) birlashtiriladi.

Nazorat savollari:

1. Xalq xo'jaligining qanday tarmoqlari mayjud? Ularni izohlab bering.
2. O'MKHTdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi tuzilishi va mazmunini izohlab bering.
3. O'MKHTda kichik mutaxassis tayyorlash tizimini izohlab bering.
4. Nazariy ta'lim mazmunini izohlab bering.
5. Ishlab chiqarish ta'limi mazmunini izohlab bering.

8-BOB. KASBIY TA'LIM TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI (CHET EL TAJRIBASI MISOLIDA)

Tayanch iboralar: kasbiy ta'lim, uzluksizlik, isloq qilish, intellektual salohiyat, qiyosiy izlanish, ta'limi tizimini oqilonqa boshqarish, yaxlit axborot makoni, xizmat ko'rstaish bozori, barqaror rivojlanish, barkamol avlod.

8.1. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni

Butun dunyo miqiyosidagi, ayniqsa, rivojlangan davlatlardagi ta'lim, jumladan kasbiy ta'lim sohasidagi ishlar, bu sohadagi yan-giliklar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari barcha mamlakatlar qatori bizning mamlakatimizda ham o'rganilib, ularning tajribasi o'z amaliyotimizga tatbiq qilib borilmoqda.

Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borish natijalarini jahon ta'lim jarayoniga tatbiq etishda mazkur davlatlarning tegishli tashkilotlari bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar ham bir qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan, YUNESKO tashkilotining tashkil topishi va fan texnika taraqqiyotini, ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir.

YUNESKO Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkiloti bo'lib, u 1946-yilda tashkil etilgan. BMT ikkinchi jahon urushidan keyin suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda davlatlar o'rtasida tinch hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan. BMT o'zining tuzilishiga ko'ra Bosh Assambleya (Yalpi majlis), xavfsizlik kengashi, xalqaro sudga ega. Bulardan tashqari, BMTning doimiy amalda bo'lgan faoliyatini Kotibiyat olib boradi va uning ishini Bosh Assambleya saylab qo'ygan bosh kotib boshqarib boradi.

Bosh Assambleya haryili jahon siyosatining dolzarb muammolarini muhokama qiladi va bu masalalar bo'yicha BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga yoki xavfsizlik kengashiga tavsiyalar beradi.

YUNESKO faoliyati o‘ta xilma-xil va ko‘p qirralidir. Uning ta’lim sohasidagi ishlari ko‘p yo‘nalishlarda olib boriladi. Jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta’limi rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatda ta’lim bo‘yicha olib borilayotgan siyosatni, ayrim ilmiy izlanishlarni ham moddiy ham ma’naviy rag‘batlantirish va boshqalar.

Fan va texnologiyani rivojlantirish borasida YUNESKO bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur, asosan, ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta’lim sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolari bilan bog‘liqdir.

Har bir jamiatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy jihat bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda, mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Ma’lumki, uzluksizlik va uzviylik ta’lim tizimda ortiqcha takroriylikka chek qo‘yib, avvalo, jamiatning ma’naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik tadqiqotlarning rivojlanishi va natijalarining o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, tadqiqot natijalarini jadallik bilan tarqalishini ta’minlovchi axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratilmoqda.

Ta’limga, jumladan kasbiy ta’limga tegishli ilg‘or chet el tajribasini o‘rganish bo‘yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi quyidagilardan iborat:

– kasb-hunar ta’limi tarixi, metodologik asoslari va rivojlanish istiqbollari, ilg‘or pedagogik tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish ta’lim jarayonida o‘qitish vositalarini keng qo‘llash, DTSlari, rejalar va dasturlar mazmunini tahlil etish va boshqalar bo‘yicha ilg‘or chet el tajribasini o‘rganish va ularni ta’lim tizimimizga qo‘llash va uni takomillashtirish;

– «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini izchil rivojlantirishni ta’minalash;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash va ta’lim tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minalash;

– kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish, uning amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi me’yortiv, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– ta’lim tizimiga chet-el investitsiyalari jalb etishni amaliyotga joriy etish va o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kasbiy ta’limiga tegishli ilg‘or chet el tajribasini o‘rganish bo‘yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning mazmuni.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga tegishli chet el tajribasini o‘rganish bo‘yicha izlanilar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilishi mumkin:

– Kasb-hunar ta’limining uzlucksizligini ta’minalash uni mazmunan isloh qilish va takomillashtirish;

– Kasb-hunar ta’limi tizimini oqilona boshqarish;

– Kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;

– Kasb-hunar ta’limi tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish va xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish;

– Kasb-hunar ta’limining fan, ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish;

– Kasb-hunar ta’limi va kadrlar tayyorlash sohasidagi chet ellar bilan xalqaro hamkorlikni ta’minlash va boshqalar.

8.2. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlariada kasbiy ta’lim

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko‘p sonli ilmiy muassasalar ishlab turganligi, Germaniya, Fransiya, AQSH, Yaponiyada ta’lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar pedagogik tadqiqot markazlari shug‘ullanayotganligi sabab ko‘pchiligining faoliyati o‘quv dasturini takommillashtirish va qayta qurishga qaratilganligiga e’tibor qaratiladi.

O‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish ikki asosiy yo‘nalishda: ekstensiv va intensiv usul bilan amalga oshirilgan bo‘lib, talabalar ushbu yo‘nalishlar mohiyatini o‘rganishlari lozim.

Birinchi holatda o‘quv muddati uzaytiriladi, o‘quv materiallari hajmi ko‘paytiriladi; ikkinchi holda esa, mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o‘rinda ikkinchi yo‘l, ko‘pchilik mutaxassislarning e’tiroficha maqbul hisoblanadi.

1961-yilda «Bosh yangi bazis» tamoyillari asosida AQSHda o‘rtamaktablarni isloh qilish boshlangan edi.

Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to‘rt yil), matematika (to‘rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo‘nalishdagi majburiy ta’lim joriy qilindi.

Har bir yo‘nalish o‘z navbatida bir necha qismga bo‘linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qo‘llashdan iborat barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi. 1985-yildan e’tiboran barcha yuqori bosqich kollejlarning to‘qson foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi

dasturlar bilan ish olib bormoqdalar. Natija: majburiy tayyorgarlik bo'yicha ta'lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur churqlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashtirildi.

XX asrning 80-yillarda majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto, ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingiliz tili va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa, iqtisoslashadirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi.

80-yillardan boshlab, Buyuk Britaniyada ham AQSHdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingiliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan fanlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir.

Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy fanlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan kimyo, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv dasturlari ham amalga oshirilyapdi. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmoqda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, axolishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi fanlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari Ikkinci jahon urushidan keyinoq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Aftidan, rivojlangan davlatlarda o'quv dasturining rivojlanishi mana shu yo'nalish asosida qurilmoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli

ham chet mamlakatlarda maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan yilga oshib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 80-yillarda AQSH o'quvchilarining 50-yil-larga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushib ketgan, Fransiyada ham 3 litsey bitiruvchilari va litsey sohasida faoliyat ko'rsatuvchidan biri muvaffaqiyatsizlikka uchrayotganligi ta'kidlanadi.

Ta'limda ro'y berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi.

To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassalarida, maktab va litseylarda amalga oshrilmoqda. AQSHda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan, Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'r-satuvlari tashkil etgan. O'quv jarayonlarini tabaqlashtirib olib borish bo'yicha chet mamlakatlarning ko'pchiligidagi tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

Chet el amaliyotida o'quvchilarini tabaqlantirish, odatda, boshlang'ich ta'lim kursidan keyin amalga oshirilayotganligi, fransuz pedagoglari esa, sinf o'quvchilarini uch tabaqaqaga:

1. Gomogenlar – matematika va gumanitar yo'nalishda ish olib borsa bo'ladigan o'quvchilar;

2. Yarim gomogen – tabiiy sikldagi fanlarni o'zlashtira olishga moyil o'quvchilar;

3. Gegeron – barcha fanlardan har xil saviyada o'zlashtiradigan o'quvchilarga ajratganlariga to'xtab o'tiladi.

Xulosa qilib aytganada, XX asrning 80-yillarida chet davlatlarda o'zlashtirmayotgan va ulgurmeyotgan o'quvchilarning ko'payib ketishi tabaqlashtirilgan ta'limga ehtiyoj tug'ilganligiga olib keldi.

8.3. Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim

Rossiyada umumiyligi ta'lim o'z ichiga boshlang'ich, asosiy va o'rta (to'liq) ta'limni qamrab oladi. O'rta maktabda o'qish muddati 11 yilni tashkil etib, bundan 1-4-sinflar boshlang'ich, 5-9-sinflar asosiy, 10-11-sinflar to'liq o'rta ta'lim dasturi asosida ta'lim oladilar. Ishchi

yoshlar uchun kechki maktablar tizimi ham saqlanib qolgan. Keyingi yillarda bunday ta’lim ancha qisqargan. Shu bilan birga, ikki yoki undan ortiq mahal o‘qiladigan maktablar ham qisqargan.

Iqtisodiy qiyinchiliklar Rossiyada umumiy ta’lim maktabining bir o‘quvchisiga sarflanadigan xarajat miqdori kamayishiga olib keldi. Ta’lim berishning yangi shakllari va nodavlat ta’lim muassasalari paydo bo‘ldi. O‘rta maktablar va o‘qituvchilar o‘quv dasturi va adabiyotlarni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ijtimoiy fanlarning mazmuni ancha o‘zgardi; siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik, iqtisodiyot, huquq kabi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo‘yicha qator fakultativ kurslar tashkil etildi, maktablarda informatika, ekologiya, hayot faoliyati xavfsizligi asoslari kabi yangi fanlar o‘qitila boshlandi.

Rossiyada umumiy o‘rta ta’lim maktablari soni 70 mingga yaqin bo‘lib, ularda 20 million o‘quvchilar tahsil olmoqda.

7 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘rta ta’limga jalb etilishi jihatidan Rossiya jahonda yuqori o‘rinlardan birida turadi va bu 81% ni tashkil etadi.

Rossiyada kasbiy ta’lim

Rossiyada kasbiy ta’limning uchta darajasi bor: boshlang‘ich daraja – boshlang‘ich kasbiy ta’lim beruvchi o‘quv yurtlari (PTU) mutaxassisligi bo‘yicha ishchi va xizmatchilarni yetishtirib chiqaradi. Bularda o‘qish muddati, o‘quvchining ma’lumot darajasiga bog‘liq. 9-sinfni tugatganlar 2-3 yil, 11-sinfni bitirib kelganlar 1 yoki 2 yil tahsil olishadi. Texnikum maqomiga teng bo‘lgan 3-4 yillik o‘quv yurtlari ham mavjud.

O‘rta daraja – amaliyotchi mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. U ikki asosiy ta’limiy dastur: asosiy (bazaga tayangan) va oshirilgan darajada amalga oshiriladi. Asosiy daraja dasturini egallagandan so‘ng, bitiruvchiga «texnik» ixtisosligi beriladi. Oshirilgan darajada yana 1 yil chuqurlashtirilgan holda o‘qib chiqadi, unga «katta texnik» ixtisosligi beriladi. Bunday ixtisoslik beradigan o‘quv muassasalarini texnikum yoki kollejlardir.

Oliy daraja – universitet, akademiya yoki institutlarda beriladi. Oliy ta’limning mazmuniga qo‘yilgan talablar, o‘quv yuklamasi miqdori va bitiruvchining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar kasbiy oliy ta’limning davlat standartlari bilan belgilanadi.

Oliy ta’limdan keyingi ma’lumot

Fan nomzodi darajasi Rossiyada diplomli olimning birinchi tashrif qog‘ozni hisoblanadi. Nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun oliy ma’lumotga ega bo‘lish, nomzodlik minimumlarini (ular uchta) topshirish, dissertatsiya yozish, uni dissertatsiya kengashda himoya qilish va Rossiya Federatsiyasi ta’lim vazirligi qoshidagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi nazoratidan o’tkazish lozim bo‘ladi. Nomzodlik darajasi quyidagi shakllarda olinishi mumkin:

Kunduzgi aspirantura;

Sirtqi aspirantura;

Tadqiqotchilik;

Mustaqil tadqiqotchilik.

8.4. Qiyosiy tahlil natijalari asosida respublikamizda kasbiy ta’limning rivojlanish omillarining o‘ziga xosligini hisobga olgan xulosalar

Yuksak taraqqiyotni ta’minlashda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rnii va ahamiyatini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

- Milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsata boshladi.
- kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarish jarayonida shaxsning jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilab olishi faollashmoqda.
- Ta’limning milliy modelini amalga oshirish jamiyatda erkin fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib kelmoqda.
- Kadrlar tayyorlashning milliy modeli jamiyatning potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish omili sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning modelini amalga oshirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy bosqichga ko‘tarishga qaratilgan bo‘lib, bu esa, o‘z navbatida fuqarolik jamiyatasi asoslarini shakllantirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amaliyatga tatbiq etish O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillariga hamohang bo‘lib, ularning har ikkalasi barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgandir.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlanishining konsepsiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini to‘la ta’minalashga xizmat qiladi.
- Mamlakatimizda ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublari ishlab chiqilib, joriy etilmoqda.
- Ta’lim va kadrlar tayyorlash borasida ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish, akkreditatsiya qilishning samarali tizimi yuzaga keldi.
- Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta’limning talab darajasidagi sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amaliy samarasi va barqaror rivojlanishining kafolatlari, ustuvor yo‘nalishlarini ta’minalaydigan normativ, moddiy-texnik va axborot bazasi yaratildi.
- Uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etilmoqda.
- Kadrlar tayyorlash sohasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik rivojlanmoqda.

Xulosa qilib shuni e’tirof etish kerakki, mamlakatimizda qabul qilingan barcha ijtimoiy dasturlar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq

farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq ravishda qabul qilingan barcha farmonlar, qarorlar va dasturlar mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra, davlatimizning yuksak maqsadlarga erishishining ishonchli kafolati bo'lib, o'z mustaqil fikriga ega, mustahkam irodali, chuqr bilimli, hech kimdan kam bo'Imagan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Nazorat savollari:

1. *Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rghanish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmunini malardan iborat?*
2. *Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarda kasbiy ta'lim mazmuni nimalardan iborat?*
3. *Hamdo'stlik mamlakatlarida kasbiy ta'lim mazmuni nimalardan iborat?*
4. *Qiyosiy tahlil asosida vujudga kelgan kasbiy ta'limning rivojlanish omillari va erishilgan natijalari nimalardan iborat?*

9-BOB. O'RTA-MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING ISHLAB CHIQARISHGA MOSLASHUVI

Tayanch iboralar: kasbiy ishlab chiqarish faoliyati, kasbiy moslashuv, pedagogik e'tiqod, pedagogik mahorat, pedagogik etika, ilmiy-ijodiy faoliyat, maqsadga qaratilganlik, intellektning yuksak darajasi, faoliyat sohasi, mulqot sohasi, o'zini anglash sohasi.

9.1. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishining ijtimoiy jihatlari

Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lif tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi – murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umume'tiborli va ma'naviy qiziqishiga molik jarayonga aylandi. Ta'lif tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.

Kasbiy ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv yordamida inson hayotiga, ijtimoiy munosabatlар rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatish mumkin. Mutaxassislarning ishlab chiqarishga moslashuvining ijtimoiy uyg'unlashuvi jamiyatni taraqqiy ettirishning muhim omili hisoblanadi.

KHKlarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi mupakkab muammolar qatorida ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv ham o'ziga xos o'rinn tutadi. Ayniqsa, ta'lifni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuv muammosi yanada yorqin va aniq namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak mutaxassislar tayyorlashning mazmuni kasbiy, amaliy, psixologik, usulik, tadqiqiy faoliyat turlari bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv bilan boyib bormoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunida ta'lif va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda

ekanligi ta'lif to'g'risidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biriga aylandi. Bo'lajak mutaxassisning ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv muammolarini o'rganish ijobiliy hal qilish uchun avvalambor bu tushunchaning mohiyatini va ijtimoiy-ma'naviy asoslarini aniqlash va uni takomillashtirish yo'llarini bilish zarur.

Bugungi ilmiy dunyoqarash ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvga «ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi ijtimoiy tizim elementi» sifatida yondashiladi.

«Ishlab chiqarishga moslashuv» tushunchasini oydinlashtirishda inson faoliyatining natijasi sifatidagi talqinini tushunishgina emas, balki uning ijrochisi sifatida insonning o'ziga urg'u bepiladi, muayyan moddiy-ma'naviy qadriyatlar esa subyekt kasb-hunarni rivoj-lantipishning vositasi va usullari sifatida qaraladi. Shu jihatdan olganda moslashuv atamasini «individning me'yoriy rivojlanishi» sifatida tushunish mumkin.

Kasbiy moslashuv ikki assosiy shaklda namoyon bo'ladi: birinchidan, insonning ular tomonidan yaratiladigan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga ishtiroki natijasi, ikkinchidan, inson shaxsining yaratgan haqiqiy boyliklari.

Inson kuchi qudrati mehnat faoliyati, ong, axloqiylik ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimi bilan belgilanadi, jamiyatning birinchi tahliliy kesimiga muvofiq, bir tomondan, ijtimoiy turmush, bazis bilan va ikkinchi tomondan ijtimoiy ong va ustqurma bilan belgilanar ekan, an'anaviy ravishda jamiyatning moddiy va ma'naviy tayyorgarligi ilgari suriladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv sifat jihatlari o'z navbatida faoliyat bilan bog'liqdir.

Faoliyat umuman olganda, – bu jonli tizimlarning tashqi muhit bilan o'zaro hamkorligi asosidagi adaptiv yo'naltirilgan faolligi. Inson faoliyatiga kelganda esa, uni odamlarning ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyati sifatida belgilash mumkin. Moslashuv esa – mana shu faoliyat usulining o'zginasidir.

Haqiqatdan ham istalgan ishlab chiqarishga moslashuv, u ijtimoiy faoliyat bo‘ladimi, individual faoliyat bo‘ladimi, qanday bo‘lmasin faoliyatni taqozo etadi, biroq har qanday faoliyatni emas, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ishlab chiqarish sohalaridagi ijobjiy o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi «faoliyat usuli»nigina ishlab chiqarishga moslashuv sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarishga moslashuvni rivojlantirish usuli sifatidagi faoliyat, eng avvalo, ma’naviy, **kasbiy-ijodiy faoliyatni** o‘z ichiga olaadi. Mana shu faoliyat davomida madaniy qadriyatlar yaratiladi. Aynan ishlab chiqarish jarayoniga moslashuv insonning faol faoliyati shaklida ijtimoiy rivojlanish va inson shaxsi shakllanishing omiliga aylanadi. Chunki shaxs faqat ma’naviy faoliyat jarayonida shakllanadi.

Shaxsning chinakam ishlab chiqarishga moslashuvi to‘g‘risida **ko‘plab ta‘limiy sifatlar, shu jumladan qadriyatlar birgalikda, jamuljam namoyon bo‘lgan taqdirdagina so‘z yuritish** mumkin. O‘zligini anglash faoliyati shaxsning yuksak faolligi ko‘rsatki-chlaridan biri hisoblanadi. Busiz shaxsning mustahkam qadr-qimmatli yo‘nalishlarini va yangicha tafakkurni tarbiyalash mumkin emas. O‘zligini anglash faoliyatning umumiylarini, qadriyatlarni tushunishdagi muayyan birlilik kishilarning o‘zaro bir-birlarini tushunishlari uchun ham shart-sharoit yaratadi, mezonlarning umumiyligini belgilab beradi. Ana shu mezonlar yordamida shaxs o‘zini, o‘z fazilatlari va nuqsonlarini baholaydi, tegishlicha jamiyatdagagi munosabatlar shakllanadi, o‘zaro ishonch va ijodiy faoliyat uchun qulay muhit yaratiladi. Shunday qilib, o‘zini anglash faoliyati – bu inson tomonidan o‘z turmush tarzini, aniq hayotiy vaziyatlardagi xatti-harakatlarini erkin tanlashining, u yoki bu ijtimoiy masalalarni hal etish chog‘ida o‘z nuqtai nazarini aniqlashning ma’naviy shartsharoiti.

Shaxs faoliyati ma’naviy ishlab chiqarish sohasi bilan belgilangan holda ham ongning, ham o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi va namoyon bo‘lishini, shuningdek, tafakkur faoliyatini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyat me'yorlari dunyoqarash bilan bog'liq ko'rsatma-larning maxsus uzatuvchisi bo'lishi mumkin. Kasb-kor faoliyati va unga moslashuv me'yorlari kasb-hunar faoliyati va muomala jarayonida dunyoqarash tusini kasb etib, odatiy faoliyat me'yorlari va kasb-kor tafakkuri me'yorlarining o'zaro munosabati muammolari orqali shakllanadi.

O'quvchi bilimining kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuvni egallab olish vositasi sifatida talqin qilinishi taraqqiy parvar pedagogik tamoyillar uchun an'anaviy hisoblanadi.

Yan Amos Komenskiy o'quvchilarga ishlab chiqarish faoliyatiga moslashish vositasi bo'lgan bilim beruvchi o'qituvchilik kasbini nihoyatda muhim deb hisoblar edi. U «yuksak faoliyatli, bilimli, axloqiy kishigina o'qituvchi bo'lishi mumkin», deb yozgan edi. Ta'limning muvaffaqiyati, eng avvalo, o'qituvchining faoliyatiga, uslubiy yo'llarni bilishiga, ishdagi g'ayratiga, bolalar muhabbatiga bog'liq deb hisoblar edi: «Hech kim o'zida bo'lмаган narsani boshqa birovga berishi, o'zi rivojlanmagan, tarbiyaliali, bilimli bo'lмагани holda, boshqani rivojlantira olishi, tarbiyalashi, bilimli qilishi mumkin emas. U o'z tarbiyasi va bilimi ustida ijodiy ishlagan taqdirdagina tarbiyalashga qodir bo'ladi».

K.D. Ushinskiy o'quvchining kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuviga katta ahamiyat berar ekan, u «ko'p narsa o'quv yurtidagi tartibga bog'liq, biroq eng asosiysi hamma vaqt tarbiyalanuvchi bilan yuzma-yuz qoluvchi tarbiyachining shaxsiga bog'liq bo'ladi: tarbiyachi shaxsining yosh qalbga ta'sirini darsliklar bilan ham, axloqiy pand-nasihatlar bilan ham, jazolash va rag'batlantirish tizimi bilan ham almashtirib bo'lmaydi. ...Har bir ustozda... faqat o'qitish uquvagina emas, balki xarakter, izchillik va ishontirish muhimdir..., tarbiyada hamma narsa tarbiyachi shaxsiga asoslanishi kerak», - deb uqtiradi.

A.V. Barabanshikovning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv muammosiga qarashlari e'tiborlidir. U ushbu muammoni quyidagicha talqin qiladi: «pedagogik e'tiqod va mahorat, peda-

gogik etika va kasbiy-ishlab chiqarish fazilatlar o‘quv-tarbiya ishlari uslubi va o‘quvchining o‘z ishiga, o‘ziga munosabati sintezidir». Faoliyatning integrativ funksiyasini qayd etib va uning butun jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini belgilab, quyidagi fikrni ilgari suradi: «**Umumiy faoliyat** uning **kasb mahoratining** asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ular o‘rtasidagi aloqa shunchalik bevositaki, to‘liq asos bilan: kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv pedagogik jarayon sharoitida umumiy faoliyatning o‘ziga mos tarzda namoyon bo‘lishidir deyish mumkin».

Shaxsning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashuvini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni G‘arb va Sharqning xorijiy pedagog olimlari asarlarida ham uchratamiz.

Shu munosabat bilan S. Shmidtning quyidagi fikrlariga qo‘shilmaslik mumkin emas: «Shuni aytishim kerakki, yillar o‘tgan sari har qanday mutaxassis o‘qituvchi bo‘lavermaydi, degan fikrga kelmoqdaman. O‘qituvchilik hammaga ham nasib etavermaydigan noyob xislat. Ko‘p narsani bilish, o‘quvchilar bilan muomala qila olish, o‘qitishning turli usullarini egallab olish mumkin, hatto tashqaridan qaraganda o‘z ishining ustasi bo‘lish mumkin, biroq o‘quvchilarga nisbatan doimiy jonli qiziqish bo‘lmasa, ularning fikrlashlari bilan qiziqmasang, ular bilan munosabatda bo‘lishga ehtiyoj, intilish sezmasang, qalban o‘quvchilardan yiroq bo‘lsang, sen – pedagog emassan». S. Shmitning g‘oyalari amerikalik olimlarning ushbu muammoga qarashlariga hamohangdir. Amerikalik tadqiqotchilar madaniy merosni uzatish, o‘tmish va bugungi kun qadriyatlarini saqlab qolish, faoliyatga oshno qilish, shaxsni yuksaltirishni ta’limning an‘anaviy maqsadi deb hisoblaydilar.

AQSHda ta’lim oldiga qo‘yiladigan maqsadlardan kelib chiqib, amerikalik olimlar o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan bir qancha talab-larni qayd etishadi. **Dyuining fikricha**, o‘qituvchi o‘z vazifasini «...talabaning faoliyatini xayrixohlik bilan, majbur qilmasdan boshqarishi zarur». O‘qituvchining o‘quvchilar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishi, uning odobi va shaxsiy fazilatlarini kasbiy-ishlab chi-

qarish faoliyatga moslashuvning asosiy komponentlaridan biri», - deb tan oladi.

O‘qituvchining ma’naviy boyligi, uning axloqiy sofligi insonparvarlikning garovi bo‘lib xizmat qiladi. Chunki o‘qituvchining ziyo-liligi – bu, eng avvalo, uning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvga bo‘lgan munosabatidip. U birinchi navbatda ta’lim darajasi, ish turi, kasb-hunar tayyorgarligi bilan emas, balki shaxsning nechog‘li qadriyatlarga yo‘nalganligi bilan belgilanadi.

Kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga **moslashuvini shakllantirishning asosiy sharti**, bizning fikrimizcha, unda kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirishgina emas, balki uning o‘z «meni»dan iborat kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvini idrok etishga tayyorligi ham hisoblanadi.

Nemis pedagoglari kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga **moslashuvni ilmiy-ijodiy faoliyat sifatida belgilaydi**. Ilmiy-ijodkorlik muammoni mustaqil hal etish malaka va ko‘nikmalarini tarkib topdiradi, ilmiy mehnat uchun zarur bo‘lgan shaxs sifatlarini shakllantiradi, o‘quvchilarda ijtimoiy hayotga tayyorgarlikni rivojlantiradi.

O‘quvchi ijodiyoti muammolarini tadqiq etuvchi Drager kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvning **quyidagi prinsiplarini ko‘rsatadi**:

- ijodiy tafakkur va harakat birligi;
- ijodiy faoliyatda individuallik va ijtimoiylikning birligi;
- onglik va intellektuallik birligi.

Ijodiy fikrlash muammoni ko‘ra bilishdan, vazifa bilan uni hal etishning mavjud bo‘lmagan yo‘li o‘rtasidagi, tan olingan ijtimoiy yoki individual zaruriyat bilan uni amalga oshirishning mavjud bo‘lmagan imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatni anglashdan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv haqida yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish uning asosiy belgilarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Ular quyidagilardir:

- **birinchidan**, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini ifodolaydi va o‘quvchining mala-kasi ishlab chiqarish faoliyatining sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi;

- **ikkinchidan**, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv o‘quvchi tafakkurining shakllanish jarayoniga asoslanish bilan birga o‘z navbatida unga ta’sir ko‘rsatadi;
- **uchinchidan**, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv o‘zida nafaqat yakunni, balki kasbiy faoliyat jarayonida o‘quvchining qayta o‘zgarishi jarayonini ifodalaydi.

Mutaxassislarning o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning ijtimoiy jihatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatiga moslashish-kirishib ketish vositalari: o‘quvchi bilimi, ko‘nikma va malakasi, qat’iy psixologik asoslar, kasbiy mahorat, kasbiy-ishlab chiqarish fazilatlari mutaxassisning jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, ishlab chiqarish sohalaridagi ijodiy o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi va ta’minlovchi ma’naviy, kasbiy-ijodiy faoliyat;

– kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv-kirishib ketish prinsirlari: ijodiy tafakkur va harakat birligi, ijodiy faoliyatda individuallik va ijtimoiylikning birligi, onglilik va intellektuallik birligi.

9.2. Kichik mutaxassislarning o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari

V.A. Suxomlinskiy ko‘p yillik amaliy tajribani, kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvga oid qiziqarli fikrlarni umumlashtirib va tahlil qilib bunday deb yozadi: «Agar o‘quvchi o‘z ishini chuqur o‘ylab tahlil qilsa, unda o‘z tajribasini nazariy anglashga qiziqish, bilimi bilan o‘zining kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvi o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini izohlashga qiziqish paydo bo‘lmasligi mumkin emas». Bo‘lg‘usi mutaxassis – o‘quvchining kasbiy tayyorgarligiga, uning yosh fiziologiyasi va psixologiyasi asoslariga oid bilimlarni egallab olishiga katta ahamiyat bermasdan kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvni amalga oshirib

bo‘lmaydi, ya’ni «qat’iy psixologik negizsiz kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv yo‘q», deb hisoblaydi.

Nemis olimlari ham mehnatning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvi darajasi oshishiga ko‘maklashuvchi shaxs fazilatlariga e’tiborni qaratadilar. Masalan, M. Vilke o‘quvchi shaxsi kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuvning sifatlarini yanada aniqlashtiradi: «**Maqsadga qaratilganlik, fidoiylik, eng muhim jihatlarga e’tiborni jamlash, o‘zini qo‘lga ola bilish. Intellektning yuksak darajasi, tez fikrlay olish, mantiqiy o‘ylash, yaxshi eslab qolish, shuningdek, noan’anaviy fikrlash, real va noreal fantaziya haqida hukm chiqara olish».**

Psixolog olimlarning fikricha har qanday shaxsning shakllanishi, asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) **faoliyat sohasi**, ya’ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo‘lib, bu jarayonda faoliyatlar jabhasi, sohasi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarni, malaka va ko‘nikmalarni, bilimlarni talab etadiki, ularni qoniqtirish yo‘lidagi faolligi unda o‘ziga xos ijtimoi-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) **muloqot sohasi**, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o‘smirlik davrlaridagi muloqot tizimalari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo‘ladi, jamiyatda o‘z o‘rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) **o‘z-o‘zini anglash sohasi**, ya’ni «Men» obrazining yil sayin o‘zgarib borishi jarayoni bo‘lib, avval o‘zini boshqalardan farqliligini, o‘zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so‘ngra esa, o‘z-o‘zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxs ijtimoiylashuvining uch bosqichlari mavjud.

Birinchi bosqich – mehnat faoliyatigacha bo‘lgan bosqich bo‘lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o‘qish yillari kiradi. Bu davrdagi ijtimoiylashuvning ahamiyati va o‘ziga xosligi

shundaki, bu davrda, asosan tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich -- mehnat faoliyati davri – bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirilgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faol faoliyatda, shaxslararo munosabatlar tizmida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir.

Uchinchi bosqich – mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga asosan, shaxsning aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotgan davri kiradi. Bu davrda ham shaxsning ijtimoiylashuvi davom etaveradi, chunki endi ilgarigi davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs strukturasida ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi.

Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari shaxs ijtimoiylashuvining ikkinchi bosqichida aniq namoyon bo'ladi.

Mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga qay darajada kirishib ketishi ularning yuqorida ko'rib o'tilgan ijtimoiy sifatlaridan tashqari shaxsning psixologik sifatlari shaxs bo'lgan toifalari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasiga ham bog'liq.

Shaxs toifalari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi

Psixologlarning fikricha, (G. Asmolov, P. Shixerev, V.A. Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy buyurtmalarni o'zgartirish uchun shu buyurtmaning sababi bo'lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning faol ongli faoliyatida sodir bo'ladi.

Shunday qilib, shaxs ijtimoiylashuv jarayonida turli moslashuvlarni ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Shunday faollikning

natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko'ramiz. Ya'ni, faol birgalikdagi faoliyat, o'zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun ham barcha sifatlar faoliyatda namoyon bo'ladigan hamda muloqotda ko'rindigan sifatlar guruhiga bo'linadi. Masalan, tashqi muhit bilan faol munosabat perseptiv himoya sifatlari, ya'ni o'ziga xavf soluvchi yoki solishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiluvchi xususiyatlar shakllanadi. Bu sifatlarni ba'zi mualliflar perseptiv qobiliyatlar (V.A. Labunskaya) deb atasalar, boshqalari «ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qibiliyati» (A. Bodalev), «kuzatuvchanlik», «ziyraklik» (Yu. Jukov) va hokazo deb atashgan. Boshqa sifatlar «muloqotda namoyon bo'luvchi sifatlar»dir. Ular turli ijtimoiy tizimlar bilan bog'liq bo'lib, shaxsning turli sharoitlarda to'g'ri muloqotga kirishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalik o'zgalarning ichki dunyosi gaplari, xatti-harakatlariga qarab bilish qibiliyati va boshqalar shular jumlasidandir. Shu fazilatlarni qanchalik namoyon eta olishiga qarab shaxs turlari farqlanadi.

Ekstrovert va introvert toifali shaxslar.

Bu turlar muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ko'ra farqlanadi. Masalan, **ekstrovert** o'ta muloqotga kirishuvchan, o'zini odamlar guruhisiz tasavvur qila olmaydigan shaxsdir. Uning uchun muloqot haqiqiy ehtiyojidir, boshqalarning uni tushunish-tushunmasliklaridan qat'i nazar, u doimo o'z fikr-istiklarini o'rtoqlashgisi keladi. Ekstrovert uchun ma'lum kishi bilan muloqotda bo'lish emas, umuman kim bilan bo'lsa ham muloqotda bo'lish xohishi muhim. Shuning uchun ham u umuman begona odam bilan gaplashib, kirishib keta oladi. Gaplashgisi kelmagan begonaning psixologiyasini tushunishi qiyin («Qanday qilib gaplashishni xohlamaslik mumkin?», – deb o'ylaydi u). Ekstrovertning qiziqishlari ham tez-tez o'zgarib turadi, do'stlari, o'rtoqlarini ham almashtirib turishga intiladi. Bundan tashqari, u o'ta

kirishuvchan bo‘lganligi uchun ham har qanday sharoitda vaziyatdan chiqish usullari to‘g‘risida tez xulosaga keladi, o‘ta qiziquvchan, dunyoda bo‘layotgan hodisalar, «mish-mishlar»ni bilish uning uchun zarur. Ekstrovert kek saqlamaydi, bugun urushgan odami bilan ertaga hech narsa bo‘lmaqdan apoq-chapoq bo‘lib ketishi mumkin. Shu sababli ham bu tur shaxslarning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib ketishi, har qanday sharoitga moslashishi oson.

Introvert esa, ekstrovertning teskarisi. U ko‘proq ichki dialog formasidagi muloqotni afzal ko‘radi, ya’ni yolg‘izlikda mulohaza yuritish, o‘zi haqida o‘ylash va shunga o‘xshaganlar uning uchun asosiy ishdir. Shuning uchun ham unda muloqotga kirishish juda sust, odamlarning uni tushunmay qolishlaridan doimo xavotirda bo‘ladi. Introvert kitoblar olami, falsafiy fikrlashlar qulidir, chunki u odamlar guruhida sodir bo‘lib turadigan ziddiyatlardan cho‘chiydi, o‘zini olib qochadi. Agar muloqotda bo‘ladigan bo‘lsa, 2-3 kishidan ortiq bo‘lmaq guruhni afzal ko‘radi. Shunda ham har kuni emas, ba’zanba’zan uchrashib turish, gaplashganda ham «shaxsiy» mavzularda emas, umumiy gaplar haqida suhbatlashishni yaxshi ko‘radi. Chunki u ekstrovertdan farq qilib, o‘z «men»ining boshqalarga o‘xshamasligini doimo esda tutadi. Introvert doimiy belgilangan me’yorlar olamida yashaydi, qiziqqan narsasi bilan umrini oxirigacha bo‘lsa ham shug‘ullanishga tayyor, umr yo‘ldoshiga va do’stlariga sodiq, vafodor. Kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib-moslashib ketishi ham xuddi shunday.

Mobil va rigid toifali shaxslar.

Bu shaxs turlari muloqotga kirishish me’zoniga ko‘ra farqlanadi. Masalan, **mobil** tur har qanday ish bilan mashg‘ul bo‘lgan sharoitda juda tez muloqotga kirishadi, lekin boshqa narsalarga ham diqqatini ko‘chirishi mumkin. U tez gapiradi, doimo shoshadi, yuz ifodalari ham tez o‘zgaradi. Suhbat mavzusini ham tez-tez o‘zgartirib turishga moyil. Gaplashib ketishi qanchalik oson bo‘lsa, gapni tugatib, xayrashib ketishi ham oson. Suhbat tugagandan

keyin qolgan ishini davom ettirib ketaveradi. Shuning uchun ularning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib ketishi birmuncha oson kechadi.

Rigid suhbatdosh esa, uning aksidir. Bunday shaxs qat'iyatli, dadil bo'lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab qiladi. Chunki u o'yamasdan tavakkal ish qila olmaydi. Masalan, u xat yozayotgan paytda kirib qolsangiz, to biror bo'lagiga nuqta quymagunicha, sizga qaramaydi. Qaragandan keyin esa, tezgina suhbatga kirisha olmaydi. Rigid shaxs juda yaxshi suhbatdosh. Mobil turdag'i suhbatdosh bilan gaplashayotganda u teztez gapni bo'lib, suhbatdoshga tashabbusni bergisi kelmaydi, rigid esa, juda diqqat bilan tinglaydi. Lekin o'zi gapirganda, sekin, mantiqan to'g'ri gapirishni yaxshi ko'radi, gapini bo'lishlarini sira istamaydi. Agar suhbatni bo'lsangiz, keyingi safar siz bilan gaplashmay qo'ya qolishni afzal ko'radi. Agar u bilan urishib qolsangiz, ancha vaqtgacha uning jahli chiqmaydi, sizni oxirigacha eshitib, sekin javob beradi, undagi ranjish, jahl chiqishi odatda siz ketgandan keyin keladi. Agar uning suhbatdoshi toqatsiz odam bo'lsa, ikkalasining chiqishishi qiyin, chunki u uzoqdan kelib tushuntirishni yaxshi ko'radi. Demak, bu turlar ham har xil, har birida ham yaxshi, ham yomon sifatlar bor.

Bunday shaxs qat'iyatli, dadil bo'lsa ham, bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi juda qiyin, u ma'lum muddatni talab qilganligi uchun ularning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib-moslashib ketishi sekinlik bilan kechadi.

Dominant va tobe toifali shaxslar.

Dominant tur muloqot jarayonida sira ham boshqalardan past kelishni xohlamaydi, savol berilsa, xohlasa javob beradi, bo'lmasa, indamasligi ham mumkin. U doimo suhbatdoshga ta'sir ko'rsatishi, uning bo'ysunishini xohlaydi. Unda egoizm hissi kuchli, o'zi xato fikr yuritsa, xatoligini suhbatdosh sezsa ham uni bo'yniga olmaydi. Dominant tur – qat'iyatli. Suhbat davomida u sizning fikringizni yarim yo'lda tushunsa, sizni oxirigacha tinglashni istamaydi, gapni bo'lib, mayinlik bilan gapni tugatib qo'yishi mumkin. Agar ikkala

suhbatdosh ham dominant bo‘lishsa, unda ular o‘rtasida osongina raqobat hissi yuzaga chiqishi, kelishmay qolishlari mumkin. Shuning uchun janjallahшиб qolmaslik uchun dominant shaxsning mustaqilligi, dadilligiga ko‘nish, unga o‘z nuqtai nazarini oxirigacha bayon etish imkoniyatini berish lozim.

Dominant tur – qat’iyatl shaxs bo‘lganligi uchun ularning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib-moslashib ketishlari oson kechadi.

Tobe turli shaxs esa, suhbatdoshning qarashlariga moslashadi, doimo yon berishga tayyor, shuning uchun u kam janjallahadi, lekin yomon ko‘rib qolgan odami bilan umuman gaplashmaydi. Suhbat sharoitidagina, u asta-sekin o‘zining dadilligini ko‘rsatishi, ochiq gaplashishi, ba‘zan e’tirozlar bildirishi mumkin. Tobe shaxsli bolalarni rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir, shuning uchun ham ularni maqtab turish, gapirayotganda ko‘zlar, yuz ifodalari bilan ularni ruhan qo‘llab turish kerak. Biror qarorga kelish kerak bo‘lib qolsa, bu shaxs qarorni, yaxshisi, siz qabul qilishingizni xohlaydi, chunki javobgarlikni bo‘yniga olishni istamaydi. Tobe shaxsli bolalarning kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga kirishib-moslashib ketishi jarayonida ham moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlab turshni kutadi.

Yuqorida keltirilgan turlarni kuzatar ekanmiz, barchasida yaxshi va yomon, noqulay sifatlar borligini ko‘ramiz. Hayotda ko‘pincha, sof u yoki bu tur vakili uchramaydi, lekin u yoki bu vaziyatlarda takrorlanadigan fazilatlarga qarab odamlarni turlarga bo‘lamiz. Bundan tashqari, bir marta ko‘rishda odam haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Mutaxassislarning o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv-kirishib ketishning sifatlari: maqsadga qaratilganlik, fidoiylik, eng muhim jihatlarga e’tiborni jamlash, o‘zini qo‘lga ola bilish, intellektning yuksak darajasi, tez fikrlay olish, mantiqiy o‘ylash, yaxshi eslab qolish, shu-

ningdek, noan'anaviy fikrlash, aniq va noaniq fantaziya haqida hukm chiqara olish;

– kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv-kirishib ketishga yo'nalghanlik: shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va aniq vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar (mas'uliyat, maqsad va ideallar, qiziqish va dunyoqarash) majmuiga ega bo'lishlik;

– kasbiy-ishlab chiqarish faoliyatga moslashuv, kirishib ketishiga ta'sir etuvchi shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar: ma'naviyat va ma'rifat, mafkura, oila, ijtimoiy ustanovkalar (Elementar ustanovka, ijtimoiy negizli ustanovka, ijtimoiy ustanovkalar, qadriyatlar tizimi).

9.3. Hozirgi kunda, jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga tatigulik mazmun va samara kasb etmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimiz Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarorida ta'kidlanganidek, yurtimizda «demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotimizni bozor munosabatlariga o'tkazish va rivojlangan davlatlar qatoridan munosib joy olish yo'lida erishgan marralarimiz jahon ahlini haqli ravishda hayratda qoldirmoqda»¹.

Barcha sohalardagi kabi ta'lim tizimini rivojlantirish, isloh qilish yo'lidagi amalga oshirilgan ishlarimiz ham diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, bosqichma-bosqich isloh qilish yo'llari quyidagi hujjatlarda belgilab berildi hamda ular

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 6-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori // Xalq so'zi, 2011-yil 7-aprel, №68 (5235).

asosida eng muhim yo'nalishlarda amalga oshirildi va natijalari ijrosi ta'minlandi.

Ta'lif to'g'risidagi qonun (1992-yil 2-iyul)

Mustaqil davlatimiz rahbariyati, eng avvalo, ishni ta'lif sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yaratib berishdan boshladi. Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar ichida, birinchilardan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1992-yil 2-iyulda «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunini tasdiqladi. Bu dasturilamal hujjatda ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lif tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning haq-huquqlari, burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi. Binobarin, bu muhim davlat hujjatining qabul qilinishi ta'lif sohasida amalga oshiriladigan barcha islohotlarning muqaddimasi hamda huquqiy kafolati edi¹.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan yangi jamiyat barpo etishning besh tamoyili bugungi kunga kelib ijobiy natijasini ko'r-satmoqda. Yurtimizda shaxs, inson, jamiyat, davlat yangilanmoqda, barcha ijtimoiy jarayon ta'lif va madaniyat, ma'naviyat o'ziga xos tarzda shakllanib bordi. 1992-yilda Prezidentimiz «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» kitobida bu masalaga alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlagan edi, «Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz, barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbekiston diyorida tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi, insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi. Ta'lif O'zbekiston xalq ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi»².

¹ Yo'ldoshev J. Ta'lifimiz istiqlolli yo'lida. – Toshkent: Sharq, 1996-yil. 4-5-bet.

² Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. – T. : O'zbekiston, 1996-yil. 81-82-bet.

Bu so‘zlar ta’lim tizimiga berilgan ijtimoiy buyurtma bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, ta’lim sohasidagi davlat siyosatida ham o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr)

Asosiy qonun O‘zbekiston xalqining xohish-irodasidan kelib chiqib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda, yoshlar ongiga singdirishning huquqiy asoslarini o‘zida ifoda etgan. Konstitutsiya barcha fuqarolar qatori yoshlarning huquq va erkinliklarini, shu bilan birga ularning ta’lim olish va kasb-hunar egallashlarini ta’minlashning huquqiy va me’yoriy jihatlarini ham o‘zida aks ettirdi. Jumladan, uning 41-moddasida: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiyligi ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» deb belgilab qo‘yilgani fikrimizning dalilidir. Bugungi kunda, O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlarning urf-odatlari, tili, madaniyati, milliy an‘analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlangan. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda barcha fuqarolar, millati yoki elatidan qat‘i nazar teng huquqli, ular bilim olish, o‘z imkoniyati va qiziqishlari bo‘yicha kasb-hunarli bo‘lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi (1997-yil 29-avgust) Qonun (yangi tahriri) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Prezidentimiz Islom Karimov 1996–1997-yillarga kelib, ta’lim-tarbiya tizimidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish va bu sohani tubdan isloh etish bo‘yicha muhim dasturiy hujjatlar qabul qilish lozimligini kun tartibiga qo‘ydi. Shu boisdan ham, tezda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturini tuzish» komissiyasi tashkil etilib, unga Yurtboshimiz bevosita rahbarlik qildi.

Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasi (1997-yilda 29-avgust) «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusidagi nutqida 1991–1997-yillar davomida mamlakatimizda amalga oshirilgan

ta'lism-tarbiya tizimidagi islohotlarni tanqidiy baholadi va kelgusidagi islohotlar istiqbolini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 6-oktabr-dagi «Ta'lism-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islohqilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi Farmoni.

Mavjud ta'lism-tarbiya tizimini tubdan islohqilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida ushbu farmon bilan «Ta'lism to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

«Ta'lism to'g'risida»gi Qonun (yangi tahriri) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinganidan so'ng Respublikamiz butun ta'lism tizimi, jumladan, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishini ham tubdan islohqilishning aniq strategik dasturiga ega bo'ldi.

“Ta'lism to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi va hayotga tatbiq qilinishi, hech shubhasiz, mustaqillik yillardagi eng muhim yutuqlarimizdan biri bo'ldi. Dasturga ko'ra, yurtimizda ta'lism islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi va hozirgi kunda takomillashtirilmoqda.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yurtboshimizning bevosita rahbarligida ishlab chiqilib, amaliyotga izchil joriy etildi. Bu dastur AQSHdan so'ng dunyoda ikkinchi bor, faqat, O'zbekistonda qabul qilindi va bugungi kunda turli mamlakatlar bizning bu boradagi tajribalarimizni katta qiziqish bilan o'rganmoqda. Mamlakatimizda noyob kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'la amalga oshirilmoqda. 2009-yildan boshlab, yurtimizda 12 yillik majburiy ta'lism joriy etildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi.

I bosqich – 1997–2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-usulik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo'shimcha ravishda

65 milliard so‘m mablag‘ sarf qilindi. Bu bosqich kadrlar tayyorlash dasturining **moddiy-texnik ba’zasini** yaratish davri deb nomlandi.

II bosqich – 2001–2005-yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqqosda joriy etildi. Bu bosqich Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **sifat bosqichi** deb nom oldi.

III bosqich – 2005-yildan boshlanib, undan keyingi yillarni ham o‘z ichiga olmoqda. Bu bosqichda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ijrosi yakuniga yetkazilib, erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, tahlil etilmoqda hamda shu asosda yurtimizda yangi ta’lim tizimi yanada takomillashtirilmoxda. Shu boisdan, bu bosqich ta’lim tizimini **madernizatsiyalash davri** deb atalmoqda .

Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag‘ishlangan marosimidagi (2009-yil 5-dekabr) ma’ruza-sida ta’kidlaganidek, «bundan 12 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan Maktab ta’limini rivojlantirish umummiliy davlat dasturi ijtimoiy hayotimizda tub burilish yasadi»¹.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-fevraldagagi «akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to‘g‘risida»gi qarori.

Bu qarorga ko‘ra, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 60 kishidan iborat O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi (Markaz) tashkil etildi. 1998-yilda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari dastlab tajriba tariqasida faoliyati boshlandi. Akademik litseylarga barcha (9-sinf) bitiruvchilarining taxminan 10–15 foizi tanlov asosida qabul qilindi.

Kasb-hunar kollejlari uchun yuqori malakali pedagog va pedagog-muhandislar tayyorlash bo‘yicha 3 ta otaliq zona (mintaqaviy) bo‘yicha tegishli oliy o‘quv yurtlari biriktirildi: 1) Buxoro oziq-ovqat

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi. /Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharxlari –T. :O‘zbekiston, 2010-yil. 11-b.

va yengil sanoat texnologiyasi instituti; 2) Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti; 3) Namangan muhandislik-pedagogik institutlarida kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amaliy ijrosiga, shuningdek, bakalavr va magistr kadrlar tayyorlash masalasiga bag‘ishlangan O‘zbekiston Prezidentining o‘ndan ortiq farmon va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Xususan, 2004-yil 19-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2008-yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoyishi, 2004-yil 21-mayda «2004–2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida»gi farmonining qabul qilinishi milliy ta’lim rivojida yangi tarixiy bosqichni boshlab berdi.

Umuman, mustaqillik yillarida «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997) asosida uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim quyidagi yo‘nalishlari hayotga tatbiq etildi:

- maktabgacha ta’lim.
- umumiyo‘ rta ta’lim.
- O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi.
- oliy ta’lim.
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim.
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.
- Maktabdan tashqari ta’lim.

Uzluksiz ta’lim tizimining ushbu yo‘nalishlarida ta’lim-tarbiya, yuqori malakali kadrlar, ilmiy xodimlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari samarali amalga oshirilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlarining soni, ularda ta’lim oluvchi, faoliyat yurituvchilar soni nafaqat oshadi, balki ta’lim-tarbiya jarayoni sifati tubdan yaxshilandi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarining ommaviy turidan tashqari sog‘lomlashtirish, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘l-

gan bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus turlari ham barpo etildi. Maktabgacha ta’lim tizimida noan’anaviy maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘i ham kengaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda Respublikamizdag‘i umumta’lim maktablar soni 8333 tani tashkil etgan bo‘lsa, bugunga kelib, 10000 ga yaqinna tashkil etadi. Mavjud umumta’lim maktablarining deyarli barchasi yoki yangi qurilgan, kapital rekonstruksiya qilingan, joriy ta’mirlangan maktablar hisoblanadi.

1991-yilda o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining kadrlar bilan ta’minlangani; pedagoglar va muhandis-pedagoglar umumiy soni – 25540 nafar. shundan fan doktori, fan nomzodlari – 186, oliy ma’lumotli o‘qituvchilar – 19767 nafar. O‘rta maxsus ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassisliklar umumiy soni 156, hunar-texnika bilim yurtlariga qamrab olingan o‘qituvchilar umumiy soni 17562 nafar edi.

Bugunga kelib, respublikadagi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari) soni 1500 tadan oshib ketdi. shundan 1400 tadan ortig‘i zamonaviy turdag‘i 100 tadan ortig‘i moslashtirilgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining kadrlar bilan ta’minlangani; pedagog va muhandis-pedagoglar umumiy soni 112000 nafarga yaqin. shundan fan doktorlari 100 nafardan ortiq, fan nomzodlari 1100 nafardan ortiq, oliy ma’lumotli o‘qituvchilar 101600 nafarga yaqin.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitilayotgan kasblarning umumiy soni 250 tadan ortiq bo‘lib ta’limi muassasalriga qamrab olingan o‘quvchilarning umumiy soni 1036000 nafardan ortiq.

Respublikamizda oliy ta’lim muassasalarining soni 1991-yilda 53 ta (universitetlar 6 ta, institutlar 42 ta, filiallar 5 ta) ni tashkil etgan bo‘lsa va bugunga kelib ularing soni 76 ta (universitetlar 19 ta, institutlar 36 ta, akademiyalar 2 ta, konservatoriya 1 ta, raqs va xoreografiya oliy maktabi 1 ta, OTMlari filiallari 11 ta, Xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalarining filiallari 6 ta)ni tashkil etadi.

Oliy ta’limning 254 ta bakalavriat yo‘nalishi va 719 ta magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi, ular asosida namunaviy o‘quv rejalarini va fan dasturlari yaratilib, o‘quv jarayoniga tatbiq etildi. O‘quv adabiyotlarining zamona niyangi avlodiga qo‘yiladigan talablar dunyo tajribasi asosida ishlab chiqildi. Fanlar bo‘yicha o‘quv-usulik majmuaning zamona niyangi modeli yaratildi. Professor-o‘qituvchilardan iborat mualliflar tarkibi shakllantirildi. Ular tomonidan 2550 tadan ortiq fan yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv-usulik majmua yaratish ishlari olib borilmoqda. 9 ta oliy ta’lim muassasasidagi axborot texnologiyalari markazlari zamona niyangi videokonferensiya uskunalarini bilan jihozlandi. Oliy ta’lim muassasalarida 1500 dan ortiq elektron darslik va o‘quv qo‘llanma yaratildi, kutubxona tizimini avtomatlashtirish va elektron kataloglar yaratish bo‘yicha loyi halar 44 ta oliy ta’lim muassasasida amalga oshirildi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning amalga oshirilishi ja miyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy, ta’lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 24-iyuldaggi PF-4456-son «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida g‘olib bo‘lgan Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari asosida mamlakatimizda ta’lim tizimini bosqichma-bosqich isloq qilish yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi vazifalar bajarildi:

- milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar ta’lim-tarbiyaga asos qilib olindi va milliy istiqlol g‘oyasi negizida takomillashtirildi;
- ta’lim tizimida kadrlar salohiyati tubdan yaxhilandi;
- davlat va nodavlat ta’lim muassasalari keng rivoj topdi;
- ta’lim tizimi tarkibiy jihatdan yangi texnologiyalar bilan boyitilib, modernizatsiyalashtirib borildi;

- majburiy umumiyligi o‘rtalimdan o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limiga o‘tish 2009-yildan boshlab to‘la ta’minlandi;
- ta’lim tizimida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashib, yangi turdagiligi o‘quv muassasalarini vujudga keldi;
- ta’lim tizimidagi mutaxassis kadrlar va boshqaruvi tizimi kadr-larining malakasi oshirib borildi;
- ta’lim oluvchilarining ma’naviy va axloqiy fazilatlari rivojlan-tirildi;
- ta’limni boshqarish tizimi, jamoat boshqaruvi shakllari takomil-lashib, ta’lim muassasalarini mintaqalashdirildi;
- ta’lim olishda davlat, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy muassasalar, nodavlat tashkilotlar faollashib bordi;
- ta’lim jarayoniga, kadrlar sifatiga xolis baho berish tizimi yaratildi;
- ta’lim tizimining moliyaviy, moddiy-texnik bazasi yangilandi va uni resurslar bilan ta’minalash mexanizmi shakllandi;
- uzluksiz ta’lim fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashib bordi;
- ta’lim tizimidagi muassasalarining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi kuchaydi;
- boshqa millat vakillari ta’lim olishi (7 tilda) uchun shart-sharoitlar yaratildi;
- ta’lim oluvchilarining huquqiy, iqtisodiy, ekologik kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim-tarbiyasi takomillashdi.

Nazorat savollari:

1. Kichik mutaxassislarining o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarishga kirishib ketish jarayonining ijtimoiy jihatlari nimalardan iborat?
2. Kichik mutaxassislarining o‘qishni tugatgandan so‘ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishning psixologik jihatlari nimalardan iborat?
3. Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta’lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishing mazmuni nimalardan iborat?

II BO‘LIM.

KASBIY TA’LIMDA O‘QITISHNI TASHKIL QILISH ASOSLARI

10-BOB. KASB TA’LIM PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK PRINSIPLARI

Tayanch iboralar: didaktika, didaktik prinsiplar, interfaol mashg‘ulot, usul, bilm, ko‘nikma, malaka, kasbiy mahorat, individual yondashish, onglilik, faollilik, davlat va jamoat boshqaruvi.

10.1. Kasb-hunar ta’limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar

Didaktika – grekcha «didaktikos» so‘zidan olingan bo‘lib, «o‘qitaman», «o‘qishni o‘rgataman» ma’nolarini anglatadi. Didaktika bu o‘qitish nazariyasidir. Didaktika o‘qitish jarayonining shakllari, usullari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi. Pedagogik nazariyaning ta’limotiga ko‘ra, didaktika va metodika bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Metodika ilmiy usullar haqidagi fandir. Bu fan didaktikaning bir bo‘limi. Bunda didaktika «nima o‘qitish?» va «nima uchun o‘qitish kerak?» degan savollar bilan shug‘ullansa, metodika esa, u bilan uzviy bog‘liq holda «qay tarzda» va «nimalar yordamida» o‘qitish masalalari bilan shug‘ullanadi. Bunda amaliy usullar tizimi maxsus sohaning mazmuniga bog‘liqligini hisobga olish zarur. O‘qitish metodikasi – turli yo‘llar va usullar tizimi bo‘lib, o‘quv didaktik materiallardan foydalangan holda, belgilangan maqsadlarga erishish uchun nazariy dars jarayonida qo‘llaniladigan usullar yig‘indisini anglatadi. Quyida ayrim didaktik tushunchalar

mazmuni keltirilgan va bu didaktik tushunchalar kasb-hunar ta'limi jarayonida qo'llaniladi.

Interfaol mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

Yo'l – (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Metod – grekcha so'z bo'lib, «yo'l», «axloq usuli» ma'nolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Motiv – odamni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

Pedagogika – ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarini o'r ganuvchi fan, u barkamol insonni voyaga yetkazish maqsadlariga xizmat qiladi.

Perseptiv qobiliyat – o'quvchining ruhiy holatini his qilish, tu shuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

O'rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'rgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlar orqali amalga oshirish jarayoni.

Hamkorlik pedagogikasi – ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

Kasbiy – pedagogik muloqot – pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo'lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, kommunikativ vositalar yordamida o'zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlik – bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi.

Kasbiy bilimdonlik – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy tayyogarlik birligi.

Bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy mahorat.

Bilim – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlarning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog‘liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog‘liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqadi va insonning ixtiyoridan tashqari mavjud bo‘ladi. Uni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma’lumot (axborot) orqali o‘tadi.

Ko'nikma va malakalar. Ko'nikma va malakalar deganda, biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo‘lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi. **Malakalar** ongli ravishda amalga oshirilgan faoliyatning tarkibiy qismiga kiruvchi avtomatik tarzda yuz beradigan harakatlardir.

Malaka – kishi egallagan bilimlari ko'nikma bosqichidan o‘tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi, ma’lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

Mahorat – o‘zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan, dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Kasb – muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyati turi. Kasb-hunar sirlarini egallashga umumiylamda maxsus ma’lumot, amaliy ish-harakat usullarini o‘zlashtirish orqali erishiladi.

Kasbiy mahorat – bitiruvchining yuqori darajada kasbiy ko'nikma va malakalarni egallaganligi tushuniladi, u shaxsning mehnat bozorida egallayotgan kasbi bo'yicha raqobatbardoshlik darajasi aks ettirishida namoyon bo‘ladi. Kasbiy mahorat ishchi kuchlarining yuqori darajadagi moslashuvchanligi, yangiliklarni tez o‘zlashtirishi, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga oz vaqt ichida o‘ta olishi va faoliyat sohasini mustaqil tanlay olishi kasbi sifatlar bilan belgilanadi.

Kasb o‘ziga mehnat faoliyatining tor doirasi bilan xarakterlanuvchi ixtisosliklarni mujassamlashtiradi. Ba’zi kasblarda bir qancha ixtisosliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘qituvchilik kasbi o‘qitiladigan o‘quv predmetlariga binoan: umumta’lim, umumtexnik,

maxsus fanlar o‘qituvchisi bo‘lishini ko‘rsatishi kifoya. Kasb va ixtisos shaxsning muntazam ravishda, ma’lum turdag'i ish bilan shug‘ullanishini ifodalaydi. Respublikamiz fuqarolariga kasb va ixtisos tanlashlariga keng imkoniyatlar yaratilgan.

O‘qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o‘z-o‘zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o‘zini boshqalarga qiyoq qilish asosida o‘z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o‘zi to‘g‘risidagi kreativ ko‘rinishlar va tasavvurlari to‘plami; individual kreativ o‘ziga xosliklarning bir butunligi va uyg‘unligi, ichki birligi; shaxsning o‘z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o‘zini namoyon qila olishi va o‘zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o‘zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o‘zining o‘rnini anglay olishi (V. A. Slastenin).

O‘qituvchining **kasbiy mahorati** cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

10.2. Kasb hunar ta’limida umumdidaktik tamoyillar onglilik va faoliik ilmiy-sistemalik nazariy va amaliy birligi ta’lim-tarbiya birligi ko‘rsatmalilik

Didaktika xususiy metodikalar bilan bog‘langan holda, barcha o‘quv fanlari uchun umumiyligini qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya’ni tarbiya bilan chambarchas bog‘liq ta’lim jarayonini tashkil etishga asos bo‘ladigan yetakchi qoidalar didaktik qoidalar deyiladi. Bu o‘qituvchilarning faoliyatini, o‘quvchilarni bilim faoliyatini, xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalar hisoblanadi.

Didaktika pedagogikaning ta’lim va o‘qitish nazariyasi bayon etiladigan muhim qismidir. Unda ta’limning ilmiy asoslangan mazmuni o‘qitishning usullari va tashkiliy shakllari (qanday o‘rgatish) beriladi.

O'qituvchi yoki usta faqat o'qitishning qonuniyatlarini bilishgina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim yetakchi boshlang'ich qonuniyatlarni chuqur tushunish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta'lif tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan.

Didaktikaning asosiy tamoyillari quyidagilardir. Ta'lifning quyi-dagi tamoyillari mavjud.

1. Ta'lif va tarbiya birligi
2. Ta'lifning ilmiyligi
3. Ta'lifda tizimlilik va izchillik
4. Nazariya va amaliyot birligi
5. Yosh individual xususiyatlarni hisobga olish
6. Ta'lifning politexnik xususiyatga egaligi
7. Ong'lilik va faollik
8. Ta'lifda ko'rsatmalilik
9. Bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi.

Ta'lif va tarbiya birligi – ta'lif jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash sodir bo'ladi. Masalan: gazlamadan biror buyumni bichishni o'rgatishda, buyumni bichish bo'yicha bilimlar, ko'nikmalar va malakalar hosil qilish bilan birga gazlamadan tejamkorlik bilan foydalanishni o'rgatish hisobiga iqtisodiy tarbiya shakllanadi. Yoki tikuv buyumiga moslab bezaklar tanlab, sifatli tikishni o'rgatish bilan o'quvchilarda badiiy tarbiya, tikuv mashinasida o'tirib tikayotganda tikuv mashinasiga qarash, sozlangan mashina bilan ishlash, ish kiyimiga qarash, ish joyini batartib bo'lishiga e'tibor berish orqali axloqiy tarbiya shakllanadi. Kasb ta'lifi jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lif bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta'lifning ilmiyligi – bu tamoyilni amalga oshirish o'quvchilarga ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, fanning eng yangi yutuqlarini

hisobga olgan texnikaviy ma'lumotlarni yetqazishdir. Kasb-hunar ta'limi o'qituvchisi o'quv ustaxonalaridagi ma'lumotlarda sof ilmiy terminlardan foydalanishi, fanda qabul qilingan ramziy belgilari, formulalar, o'lchamlarni qo'llashi lozim. Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilar har xil materiallarga ishlov berish, andoza tayyorlash, modellashtirish ishlarini bajaradilar. Bunda o'quvchilarda faqat ko'nikma va malaka hosil bo'lib qolmay, balki ularda o'rganayotgan mehnat operatsiyalarining ilmiy asoslari haqida tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan: biror buyumni modellashtirish uchun o'quvchilar eng avval modellash elementlari bo'yicha ilmiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, kasb ta'limi mashg'ulotlarida ilmiy asoslarni o'quvchilarga uzviy olib borish maqsadga muvofiq. Tabiiy-ilmiy qonuniyatlarga tayanadigan ma'lumotlarni bayon qilish zarur bo'lib qoladi. Masalan: o'quvchilarga mashinashunoslik elementlarini o'rgatish zaruriyati tug'iladi. Bu vaqtida «mexanizm», «mashina» tushunchalari bilan tikuvchilik jihozlari fanini uzviy bog'lab olib borish imkonini beradi.

Ta'limda tizimlilik va izchillik – tizimlilik va izchillik ta'limda ma'lum mantiqiy izchillik bo'lish zarurligini bildiradi, chunki bilimlar vorislik xarakteriga ega. Ular o'zidan oldingi materialiga asoslanadi. Bilim olishdagagi tizimlilik nazariya va amaliyot bilan bog'liq bo'lган xilma-xil usullarni qo'llashni taqozo etadi. Chunonchi: a) olinayotgan bilim bilan o'quvchilarning shaxsiy tajribasi va kuzatishlarining aloqasi; b) nazariya bilan amaliyotning aloqasi (korxonalarga eks-kursiya); v) turli masalalarni hal qilish, nazariy hamda amaliy xarakterdagi vazifalarni bajarish, texnologik hujjatlarni ishlab chiqarish; g) korxonalarda, qurilishlarda va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish amaliyoti.

Bilimlarni tizimli bayon qilish o'quv materialini qismlarga bo'lib o'rganish, ya'ni materialni o'tilgan material bilan bog'lash, asosiylarini ajratish, o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish, o'rganilganlarni tizimga solib umumlashtirish demakdir. Bilimlarni mavzular va fanlar

bo‘yicha tizimga solish uchun katta-katta bo‘limlar va alohida fanlar bo‘yicha takrorlash, o‘quvchilar bilimi, malaka va ko‘nikmalarini butun o‘quv yili davomida muntazam ravishda hisobga olib borish zarur. Har bir o‘quv fani ichidagi aloqalar tizimi bilan bir qatorda quyidagi hollarda foydalilaniladigan fanlar aro aloqani ta’minlash lozim.

Material bayonidagi, malaka va ko‘nikmalarni egallahsdagi izchillik o‘quv fani hamda o‘quv jarayonining mantiqidan kelib chiqadi. Agar o‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarni qat’iy izchillik asosida egallasalar ulardan oson va yyengil foydalana biladilar, unutganlarini qayta esga tushira oladilar. O‘quvchilarga ishlab chiqarish ta’limi berish jarayonida o‘rganilayotganlarni tizimlashtirish, ya’ni o‘rganilgan operatsiyalar, ish turlari o‘rtasida zaruriy aloqa o‘rnatish lozim.

Bu tizimlilik va izchillik ishlab chiqarish ta’limi dasturining operatsion kompleks qurilish tizimi bilan ilgari o‘zlashtirilgan operatsiyalar asosida yangi operatsiyalarni o‘rganish o‘quv ishlab chiqarish vazifalarni to‘g‘ri tanlash bilan ta’minlanadi.

Nazariya va amaliyot birligi – nazariyani amaliyot bilan bog‘lab olib borish eng asosiy va yetakchi tamoyil. Kasb-hunar ta’limi jarayonida ko‘pincha nazariyani amalda qo‘llash uchun sharoit yaratiladi. O‘quvchilar amaliy faoliyatga tayyorlash, nazariy bilimlarni egallah jarayonidan boshlanadi. Nazariy bilimga ega bo‘lgandan so‘ng, bilimlarni mustahkamlash laboratoriya ishi va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda davom ettiriladi. Nazariyani amaliyot bilan bog‘lashning har xil shakllaridan foydalinish orqali biz o‘quvchilardagi bilim sifatini oshirishga erishamiz. Shuningdek, o‘quvchilarda fan asoslariga, mehnatga, tanlagan kasbiga qiziqish, kishilar mehnatinini qadrlash kabi xislatlar orttiriladi.

Yosh individual xususiyatlarni hisobga olish – kasb ta’limi bo‘yicha o‘quv materialini mazmuni fan va texnik taraqqiyotini hozirgi darajasiga mos ravishda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutish kerak.

- Dars mavzulari o‘quvchilarga mos va tushunarli bo‘lishi uchun:
- a) o‘tilayotgan mavzuning ma’nosini va hajmi, amaliy mashg‘ulotlari o‘quvchilar tayyorgarligiga, jismoniy rivojlanganligiga va yoshiga mos bo‘lishi kerak;
 - b) mavzular soddadan murakkablashib borishi kerak, shuningdek, o‘quvchilar bilim doirasini yangiliklar bilan to‘ldirib borishi zarur;
 - v) ayrim o‘quvchilarga individual yondashish kerak, chunki o‘quvchilarning ayrimlari yangi mavzuni oson tushunsa, ayrimlari qiyinchilik bilan tushunadilar;
 - g) ko‘rgazma qurollardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish.

Ta’limning politexnik xususiyatga egaligi – nazariyani amaliyot bilan bog‘lab o‘tishda politexnik tamoyil asosiy rolni o‘ynaydi. Kollej ustaxonalaridagi kasb ta’limining mazmuni, ya’ni mashinalar, mexanizmlar, asboblarning tuzilishi, ishlash prinsiplari, shuningdek, texnologik jarayonlar, mehnat usullari va amaliy mashg‘ulotlarning bajarish yo‘llari haqidagi texnikaviy ma’lumotlar politexnik xarakter kasb etadi.

Politexnik tamoyil shu bilan ham xarakterlanadiki, o‘quvchilarga mavzuga mos ravishda ishlab chiqarish sohalaridagi avtomatlar, moslamalar, ishlab chiqarish jarayonlari haqida tushunchalar berib borishni bildiradi. Masalan: tikuvchilik korxonalarida yyengil ko‘ylaklarni tikishda yoqaga ishlov berish, cho‘ntak, burmalarga ishlov berish, shuningdek, issiqlik ishlovi berish; yorib dazmollash, presslash tushunchalari o‘quvchilar ongiga singdirib boriladi. Demak, o‘qituvchi ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarni mehnat ta’limi darslari bilan bog‘lab olib boradi, natijada o‘qituvchi texnika va fandagi yangiliklarni o‘quvchilarga yetkazadi.

Onglilik va faollik.

O‘quvchilarning onglilik va faollik tamoyilini shunday yo‘lga qo‘yish zaruriyatini ifoda etadiki, bunda o‘quvchilar o‘quv vazifalarini aniq tushunadilar. Bilimlarni faol o‘zlashtirib, qo‘llab, voqealarni hodisalarini mushohada etadilar, ular orasidagi muhim bog‘lanishlarni

ocha oladilar. O‘qishga ongli munosabatlarda bo‘lib, vazifalarni bajarishda mustaqil bo‘ladilar. Bilim, malaka va ko‘nikmalarning o‘quvchilar tomonidan ongli egallanishi uchun nazariy va ishlab chiqarish ta’limining doimiy aloqasi zarur. O‘quvchilar ongliliginning oliy shakli nazariy materialni o‘zlashtirish, sinfda ustaxona yoki laboratoriya, ishlab chiqarishda, ish vazifalarini bajarishda ko‘rsatadigan ijodiy faolligidir.

Faollik – bu o‘quv jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni ongli maqsadga muvofiq bajarishga intilishning namoyon bo‘lishi. O‘quvchilarni bilim, malaka va ko‘nikmalarni faol egallashga rag‘-batlantiruvchi turli usullar mavjud. O‘quvchilar bilimlarni egallash bo‘yicha hech qanday qiyinchiliksiz, ishtiyoq bilan ishlaydigan jarayon eng yuksak maqsad hisoblanadi. Odatda, o‘quvchilar o‘zlarining juda qiziquvchanliklari bilan ajralib turadilar. Pedagoglar ulardagи bu xislatni qo‘llab-quvvatlashlari va rivojlantirib borishlari lozim.

O‘quvchilar o‘z bilimlarini amalda qo‘llay olsagina onglilikka erishadi. Ayrim o‘quvchilar vazifalarni qanday bajarishni o‘ylab ham ko‘rmaydi. O‘qituvchi tushuntirganini yodlab oladi. Shuning uchun o‘qituvchi:

- a) o‘quvchilarning ongli ravishda tushunishini, ongli munosabati va bilish faolli darajasini bildiradigan belgilarni bilishi kerak;
- b) materialni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradigan aqliy harakatlarni fikrlash jarayonlarini shakllantirish uchun sharoit yaratishi kerak;
- v) o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazishda faollikni oshirish yo‘llaridan foydalanishni rejalashtirish kerak.

Ta’lim olish onglilik faollik bilan uzviy bog‘liqdir. O‘quvchilarning aktivligini oshirish o‘z mehnat natijasini foydalni ekanligini ongli anglash demakdir. Masalan: o‘quvchini bajarayotgan ishini kollej ko‘rgazma zaliga foydalanish, uni tezroq bitkazishga harakat qiladi.

O‘quvchilarning yuqori faolligiga:

a) mashg'ulotning mazmuni, maqsad, vazifalarini aniq bayon qilish;

b) o'quvchilarga ijodiy xarakterdagi mehnat topshiriqlarini berish;

v) ta'limning eng samarali usullaridan foydalanish orqali erishish mumkin.

Onglilik va faollik tamoyillari o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlashni o'stirish zaruriyatini paydo qiladi.

Ta'limda ko'rsatmalilik – bu tamoyil o'quvchilarning mehnatga oid o'quv materiallarini o'rganilayotgan narsa va hodisalarini jonli idrok etish, o'zlashtirishni nazarda tutadi. Kasb ta'limi darslarida ish-lab chiqarish korxonalariga uyushtirilgan sayohatlar, mehnat usullari, plakatlar, sxemalar, jadvallar, buyum namunalarini ko'rsatishdan, o'quv kinofilmari, diafilmlarni namoyish qilishdan ko'rsatma vosis-tasi sifatida foydalanish mumkin. Ko'rsatmalilik tushunchasiga idrok etishning ko'rish turi emas, balki eshitish, sezish turlari ham kiradi. Kasb ta'limi darslarida ko'rsatmalilikka katta ahamiyat berish kerak, ammo darsni haddan tashqari ko'rsatma qurollari bilan to'ldirib yuborish yaxshi emas, bu ba'zan foyda o'rniga zarar ham keltirishi mumkin.

Ko'rsatmalilikdan foydalanishda, bir qator usulik talablarga rioya qilish zarur:

a) ko'rsatma qurollar darsning o'quv materialiga mos bo'lishi kerak;

b) barcha ko'rsatma qurollarni birdaniga namoyish qilish va osib qo'yish shart emas, chunki bu o'quvchilar diqqatini tarqatib yuborishi mumkin;

v) kasb ta'limi o'qituvchisi ko'rsatma qurolni ko'rsatishda ularni o'quvchilar tomonidan idrok etish jarayoniga rahbarlik qilishi zarur.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustah-kamligi va puxtaligi.

Mazkur tomonlari shunday o'quv jarayonini taqozo etadiki, unda o'quvchilar o'zlarining bo'lajak faoliyatları uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni iloji boricha asosliroq egallaydilar:

ularni xotirada qayta tiklay oladilar hamda nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanadilar.

Bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkam egallashda o'zlash-tirilgan malaka va ko'nikmalarga qayta murojaat etish, ularga yangi nuqtai nazar bilan qarab aniqlik kiritib, yangi dalillar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega. Har bir mashg'ulotda yangi materialni o'til-gan material bilan bog'lash uchun takrorlash o'tkazish, mashg'ulot oxirida esa, egallangan manbani asosiy masalalar bo'yicha sharhlash maqsadga muvofiqdir. Takrorlash vaqtida dalil va misollardan foyda-lanish, o'r ganilgan manbani yanada chuqurroq tahlil qilish muhimdir. Amalda didaktikaning barcha tomoni bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lган holda yuzaga chiqadi. Ular aniq material va ta'limgar sharoitini hisobga olgan holda ijodiy qo'llanilishi zarur.

10.3. Ta'limgar sharoitining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limgar qo'llash

O'zbekiston Respublikasi «Ta'limgar to'g'risida»gi qonunning 3-moddasida ko'rsatilishicha ta'limgar sharoitining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

– **Ta'limgar sharoitining insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi.** Ta'limgar sharoitining insonparvarligi deyilganda – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limgar nisbatan bo'lган turli-tuman ehtiyojlarining qondirilish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zarob munosabatlарining uyg'unlashuvi tushuniladi. Ta'limgar sharoitining demokratlashuvi deyilganda – o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limgar sharoitining davlat tizimiga o'tilishi tushuniladi.

– **Ta'limgar sharoitining uzlusizligi va izchilligi.** Uzlusiz ta'limgar kadrlar tayyorlash tizimining asosidir. Bu shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Hozirgi kunda mustaqil ravishdagi to'qqiz

yillik umumiy o'rta ta'lim hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturiga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

– **Umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi.** Bu tizimning majburiyligi, hozirgi kunda bolalarni o'qishi 9 yil umumiy ta'lim va 3 yil o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini o'qitilishi majburiyligi kadrlar tayyorlash milliy dasdurida aytib o'tilgan.

– **O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini:** akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

– **Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.** Prezidentimiz Islom Karimov: «Yurtimiz yigit-qizlari tahsilning oxirgi yillarini taraqqiy topgan davlatning o'quv muassasalariga borib o'qishlarini tashkil qilishimiz maqsadga muvofiq ish bo'lardi», – deb ta'kidlaydi. Oliy ta'lim muassasasini isloh qilayotganda, ularning boshqa davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari bilan aloqasini mustahkamlash zarrur. Mahalliy ustozlar bilan cheklanib qolmay, chetdan ham profeddor-o'qituvchilar chaqirishni yo'lga qo'yishimiz kerak.

– **Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.** O'zbekiston Respublikasida hamma ta'lim olish huquqiga ega. Hatto jismonan yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarни o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

– **Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqlashtirilgan yondashuv.** Zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlash kerakligi, o'quv yurtlarimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bo'lishi shartdir. O'quv yurtlarining rahbarlari va professor-o'qituvchilarning ta'minoti va ishi haqiga ham shu jumladan e'tibor

berildi. O‘quv reja va dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirib istiqbol va kelajagimizni ko‘zlagan holda tuzib olishimiz va joriy etishimiz zarur.

– **Bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish.** «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o‘qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma’lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi.

– **Ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.** «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning 28-moddasida ta’lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta’lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin deb ko‘rsatilgan. Shundan kelib chiqqan holda, ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirishni amalga oshirish mumkin.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini kasb-hunar ta’limida qo‘llash, kasb-hunar ta’limini samarali amalga oshirish va uni «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq isloh qilish va rivojlantirish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil takomillashtirish ta’milanadi.

Nazorat savollari:

1. Kasb-hunar ta’limi jarayonlari tahlili mazmuni nimalardan iborat?
2. Kasb-hunar ta’limi qanday asosiy didaktik tushunchalari mayjud, ularning mazmuni nimalardan iborat?
3. Kasb-hunar ta’limida umumididaktik tamoyillari-onglilik va faollik ilmiy sistemalik, nazariy va amaliy birligi, ta’lim tarbiya birligi, ko‘rsatmalilik tamoyillarining mazmunini yoritib bering.
4. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb- hunar ta’limida qo‘llash mazmuni nimalardan iborat?

11-BOB.

KASBIY PEDAGOGIKADA QO'LLANILADIGAN ILMIY TADQIQOT USULLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

Tayanch iboralar: pedagogik izlanishlar, ilmiy tadqiqot usullari, nazariy usul, kuzatish, ta'limdi tashkil qilish shakllari, ta'lim vositalari, tasviriy ko'rsatmalar; audiovizual vositalar.

11.1. Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullari

Kasb ta'limi pedagogikasi muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatish xususiyatlari, samarali usullarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash, texnik vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir.

Ilmiy pedagogik izlanishlari jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlar o'rganish va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganishi davomida quyidagilarni aniqlashi kerak.

– o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot mualifining fikr-mulohazasi:

– o'rganilayotgan muammo to'g'risida an'anaviy usuldan farqliroq kiritgan takliflari;

– qanday asosiy masalalar adabiyotlar yoritilmagan;

– muammoni yechishda keyingi olib boriladigan izlanishlar.

O'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammoga quyidagilar kiradi:

– o'qituvchi dars jarayonida qanday qiyinchilikka duch kelish;

– kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

2. Gipoteza qurish, ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni beradi.

3. Izlanishi natijalarini rasmiy lashtirish va o‘quv jarayoniga qo‘llash.

Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumiyy va maxsus usullari qo‘llaniladi.

Umumilmiy usullarga nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

Nazariy usul – adabiyotlardan o‘rganish va tahlil qilish hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to‘plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma‘lumotlardan foydalaniadi.

Kuzatish – odatda, tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi. Bu usul tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko‘zda tutib idrok etishni taqozo etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqt, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar turlarga bo‘linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarning xatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo‘yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi hujjatli materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo‘llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir teleko‘rsatuv)ni qo‘llash bilan tobora ko‘p qo‘llanilmoqda.

Suhbat usuli – so‘rashning bir turi bo‘lgani holda, tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo‘lish vaqtida og‘zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo‘llaniladi.

Suhbat usulida – o‘qituvchilar va talabalar jamoasi bilan otonalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo‘llaniladi. Suhbat usulidan farq qilib, intervyu olish

usuli savollarni oldindan belgilangan izchilllikda intervyu yo‘li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so‘rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning ko‘p usullari mavjud:

- guruuhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h. k. ‘

Talabalar ijodini o‘rganish – ularning o‘ziga xos individual taribdagи faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

Pedagogik so‘rash usuli – tadqiqotchingin boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu usulning asosini tashkil qiladi. So‘rash savollarning mantiqiy o‘ylangan tizimini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat’iy formadagi javobni (“ha”, “yo‘q”) ham taqozo etishi mumkin.

Test, so‘rovnoma – bu so‘rovnoma, ya’ni anketa usuli qo‘llanganda, yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, talabalarning yakka yoki guruuhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istiklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi.

Test savollaridan ko‘zlangan maqsad oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri – bu test yordamidagi sinovi hisoblanadi.

Test yordamida sinov talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma’naviyati hamda yoshlarning qaysi yo‘nalish va mutaxassislikka layoqati, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan ba’zi bir yutuqlari va kamchiliklarida keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta’kidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligiga sabab, uning qisqa va lo‘ndaligi, to‘g‘ri javobni umumiy javoblar ichida borligi va ularning talabalarga ko‘rsatma bo‘lib xizmat qilishi, uning

topishmoqli o‘yinga o‘xshashligi va javobni topishda xotira, intuitsiya va topqirliklar qo‘l keladi. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovlar usuli – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish usuli. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, test savollarining ma’lumotlarini kompyuterda matematik statistika usullari bilan ishslash imkon beradigan qilib tuziladi.

Eksperiment-tajriba-sinov usuli – ushbu tajriba asosida ta’limtarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish usuli – ta’lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurollar, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarining qurilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari – o‘qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta’lim va uni mashina orqali boshqarish, o‘qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta’lim berish kabi jarayonlardir.

Sotsiologiya tadqiqot usuli – anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo‘lgan munosabatlarni aniqlash, talabalar orasidagi do’stlik munosabatlarni o‘quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan, tasavvufga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma’naviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar ta’minlanganlik darajasi, o‘quv taqsimoti, o‘qituvchilarning o‘qitish darajasi, o‘quv qo‘llanmalarning sifati, kompyuter bilan mashg‘ulot o‘tkazish turlarini o‘rganish, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg‘ulotlar turi, stipendiyalar

miqdori, stipendiyalar talabalarning xarajatini qanchalik qoplaydi, haq to‘lanadigan ishlarda talabalar qatnashishi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma’lumoti, ish joyi, talabalarning ko‘p shug‘ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta’sir etuvchi omillar, mutaxassis bo‘lib yetishishida hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson bo‘lish uchun kerakli bo‘lgan ma’naviy sifatlar, o‘zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Ushbu usullardan tashqari kasbiy ta’limda maxsus empirik usullardan ham foydalaniladi.

Kasbiy pedagogikada tadqiqotning maxsus empirik usullari keng tarqalib, unda hodisa va jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan asbob uskunalar va apparatlar obyektiv miqdoriy kattaliklarni olish maqsadida qo‘llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik usullarini, shartli ravishda, 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Ish harakatlarining natijaviy tavsiyatini o‘rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi);

2. Biomexanik usullar;

3. Psixofiziologik usullar.

Ish harakatlarining natijaviy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq tadqiqotlarda, shu jumladan, ularni o‘zlashtirish jarayonida xronometraj katta rol o‘ynaydi. Ish me’yori, maqbul vaqt, shu jumladan, ishlab chiqarish ta’limining turli davrlarida talabalar vaqt me’yori, ish tartibotini aniqlash maqsadida, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o‘rganish talabalar yoki ishchilarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xronometrajdan foydalaniladi.

Ish kunini tasvirga olish xronometrajning bir turi bo‘lib, unda ish kuni davomida yoki ishlab chiqarish ta’limi darajasida barcha vaqt sarflari o‘lchanadi va tahlil qilinadi. Bu bilan ish vaqtining sarfi va uning sabablari, shuningdek, ishni tashkil etishning holati ajratib ko‘rsatiladi. Xuddi shu maqsadlarda, shuningdek, o‘z-o‘zini tasvirga

topishmoqli o‘yinga o‘xhashligi va javobni topishda xotira, intuitsiya va topqirliklar qo‘l keladi. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovlar usuli – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish usuli. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murrakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchiligi anketalar mazmuniga berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, test savollarining ma’lumotlarini kompyuterda matematik statistika usullari bilan ishlash imkon beradigan qilib tuziladi.

Eksperiment-tajriba-sinov usuli – ushbu tajriba asosida ta’limtarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish usuli – ta’lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning doimiy o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ko‘rgazmali qurollar, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarining qurilishi, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari – o‘qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta’lim va uni mashina orqali boshqarish, o‘qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta’lim berish kabi jarayonlardir.

Sotsiologiya tadqiqot usuli – anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo‘lgan munosabatlarni aniqlash, talabalar orasidagi do’stlik munosabatlarni o‘quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga, xususan, tasavvufga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarining ma’naviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar ta’minlanganlik darajasi, o‘quv taqsimoti, o‘qituvechilarning o‘qitish darajasi, o‘quv qo‘llanmalarning sifati, kompyuter bilan mashg‘ulot o‘tkazish turlarini o‘rganish, ilmiy va kasbiy mahoratini oshirishdagi mashg‘ulotlar turi, stipendiyalar

miqdori, stipendiyalar talabalarning xarajatini qanchalik qoplaydi, haq to‘lanadigan ishlarda talabalar qatnashishi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma’lumoti, ish joyi, talabalarning ko‘p shug‘ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta’sir etuvchi omillar, mutaxassis bo‘lib yetishishida hal qiluvchi omillar, talabalarning onglilik darajasi jarayoni, komil inson bo‘lish uchun kerakli bo‘lgan ma’naviy sifatlar, o‘zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Ushbu usullardan tashqari kasbiy ta’limda maxsus empirik usullardan ham foydalaniladi.

Kasbiy pedagogikada tadqiqotning maxsus empirik usullari keng tarqalib, unda hodisa va jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan asbob uskunalar va apparatlar obyektiv miqdoriy kattaliklarni olish maqsadida qo‘llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik usullarini, shartli ravishda, 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Ish harakatlarining natijaviy tavsiilotini o‘rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi);

2. Biomexanik usullar;

3. Psixofiziologik usullar.

Ish harakatlarining natijaviy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq tadqiqotlarda, shu jumladan, ularni o‘zlashtirish jarayonida xronometraj katta rol o‘ynaydi. Ish me’yori, maqbul vaqt, shu jumladan, ishlab chiqarish ta’limining turli davrlarida talabalar vaqt me’yori, ish tartibotini aniqlash maqsadida, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o‘rganish talabalar yoki ishchilarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xronometrajdan foydalaniladi.

Ish kunini tasvirga olish xronometrajning bir turi bo‘lib, unda ish kuni davomida yoki ishlab chiqarish ta’limi darajasida barcha vaqt sarflari o‘lchanadi va tahsil qilinadi. Bu bilan ish vaqtining sarfi va uning sabablari, shuningdek, ishni tashkil etishning holati ajratib ko‘rsatiladi. Xuddi shu maqsadlarda, shuningdek, o‘z-o‘zini tasvirga

olish qo'llanilib, unda talaba yoki ishchi o'z ishini o'zi kuzatadi va olingen natijalarni maxsus kuzatish varaqasiga kiritadi.

Biomexanik usullar – bu ish harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir: ularning mukammallik darajasi, ishchining asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'siri, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Tarixiy ilk biomexanik usuliga tsiklogramma kiradi. Tsiklogramma harakat elementlarining ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligini o'zida aks ettiradi. Tsiklogramma usullarida asboblarga, qo'l yoki oyoqlarga elektrik lampochkalar biriktiriladi. Ishchi jarayoni fotoapparat bilan suratga olinadi. Fotoplastinkada lampochka tasvirining yorug' nuqtalar ko'rinishida qolgan izi, mos ravishdagi harakat trayektoriyasini beradi. Olingen trayektoriyaning tahlili harakatning tezligi, tezlanishi, yo'nalishi va boshqa tashkil etuvchilarni aniqlash imkonini beradi.

Psixologik usullar o'quv va mehnat faoliyati jarayoni natijasida inson organizmi turli organlarning funksional holatini o'rganish uchun qo'llaniladi. Bulardan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'llaniladi.

Elektromiografiya – harakatlanuvchi muskullar elektrik potensialini yozish. Istalgan muskul harakati bosh miyadan elektrik impuls ko'rinishida uzatiladigan ta'sirlar natijasida ishlaydi. Muskullarning elektrik faolligi uning qisqarish kuchini aniqlaydi. Muskullarning elektrik potensiali maxsus elektrodlar yordamida kuchaytirgichga, o'zidan-o'zi yozgichga uzatiladi va u yerda miogramma – elektrik signallarning qog'ozda yozilishi qayd qilinadi.

Elektrokardiografiya – yurak tomirlarining elektrik potensiallarini qayd qilishdir. Yurak tomirlari ham mushaklar kabi bosh miyadan keluvchi elektrik signallar ta'siri ostida qisqaradi. Ularni qayd qilish elektrokardiografiya deb aytildi.

Elektrodermografiya – terining elektrik potensialini qayd qilish. Inson tanasidan ter oqib chiqishi ham miyaning elektrik signallari ta'siri ostida amalga oshadi. Elektrodermogramma birinchi navbatda insonning ish jarayonidagi emotsiyonal holati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Markaziy asab tizimining funksional holatini aniqlash uslubi o'quv mehnat faoliyatining talaba organizmi holatiga ta'sirini o'rghanish uchun qo'llaniladi, masalan, diqqat darajasi, ish jarayonida toliqishning rivojlanishi, mashqlar ta'siri ostida markaziy asab tizimida sodir bo'ladigan siljishlar va hokazo.

Ko'pincha shartli reaksiyalar usuli qo'llaniladi, ya'ni talabalarga nurli, tovushli yoki boshqa xildagi signallar uzatiladi. Unga javob tariqasida talaba uncha murakkab bo'limgan qandaydir holatini amalga oshirishi kerak, masalan, tugmachaga bosish. Bu harakatni bajarish vaqt va xarakteri bo'yicha ushbu vaziyatda talaba markaziy asab tizimining holati va turli mezonlar ta'siri ostida undagi o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

11.2. Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari va vositalari

Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (o'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etish davrida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlarga ega bo'lganligi bois hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. O'rta asrga kelib, kasbiy ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan. Chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chet pedagogi Ya.A. Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariiga binoan turlanadi:

1. Tahsil oluvchilar soniga ko'ra – ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.

2. O‘qitish joyiga ko‘ra – ta’lim-tarbiya muassasalarida va ta’lim muassasalaridan tashqarida (o‘quv ustaxonalarda, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).

3. O‘quv vaqtining davomiyligiga ko‘ra – 45 daqiqligida, juftlik (90 daq.), qisqartirilgan (70 daqiqligida), qo‘ng‘iroqsiz.

Amaliyotda sinf-dars tizimi keng ko‘lamda qo‘llanilganligi sababli dars ta’lim tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi. Sinf dars tizimining asosiy o‘ziga hos jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajadagi tahsil oluvchilar ishtirot etadi;
- ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq alohida-alohida qismlar ko‘rinishiga ega bo‘ladi;
- har bir dars o‘quv rejasiga kirgan ma’lum bir o‘quv predmetiga oid bo‘ladi;
- darslar muntazam ravishda almashib turadi;
- kasb ta’lim darslariga o‘qituvchi muhandis-pedagog, tajribali mutaxassis kabilalar rahbarlik qiladi;
- tahsil oluvchilar turli ko‘rinishdan o‘quv bilish faoliyatida ishtirot etadilar.

Quyidagilar sinf dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- qat‘iy tashkiliy tuzilmaga egaligi;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Chunki bir o‘qituvchi bir vaqtini o‘zida ko‘p sonli tahsil oluvchilar bilan ishlaydi;
- o‘zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratiladi.

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e’tirof etilgan:

- o‘rtacha tahsil oluvchiga mo‘ljallanganligi;
- har bir tahsil oluvchilar bilan individual ishslash imkoniyatining yo‘qligi.

Kash-hunar ta’limini tashkil qilish vositalari.

Hozirgi paytda ta’lim-tarbiya tizimida o‘qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo‘lganligiga qaramay, u yagona axborot manbai bo‘la olmas-

ligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omili sifatida turli xil ta'lim vositalaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o'qitishning texnikaviy vositalaridir.

O'qitishning texnik vositalari deganda, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta'minlab, uning samaradorligini oshirish, ta'minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o'qitishning texnik vositalarini, shartli ravishda, uch asosiy guruhga bo'lish mumkin.

1. Audiovizual vositalar (kinoprojeksiya, diaprojeksiya va epiprojeksiyalar, ovoz yozib olish, televideniya, radio);

2. Jihozlar, uskuna va asboblar;

3. Dasturli (kompyuterli) ta'lim vositalari.

O'qitishning texnik vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentlari bilan uzviy bog'liqlik va munosabatlarini hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg'ulot samarasini umuman yo'qqa chiqarish ham mumkin. Mashg'ulotda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi xarakterga ega bo'lib, ularni tanlash, ishlatish vaqt va joyi darsning umumiy rejasida maqsadlarga muvofiq ravishda belgilanadi.

O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda quyidagi texnikaviy-pedagogik talablar qo'yiladi:

1. O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda o'quv jarayonida ulardan majmuaviy tarzda foydalanishni hisobga olish zarur;

2. O'quv xonasining istalgan joyidan yaxshi ko'rish va eshitish imkoniyatining mavjudligi;

3. O'quv xonasida shovqin, yoritilganlik, namlik va shu kabilar me'yoriga e'tibor qilish;

4. Oddiy, arzon, xavfsiz, uzoq muddat buzilmay ishlashni ta'minlash;

Ta'lim-tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish, avvalo, didaktik prinsiplarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik prinsipinireal obyekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real obyekt yoki uning tasvirini ko'rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanadi, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ta'lim-tarbiya ishida ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyatni insonning fikrlash hususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash hususiyati ma'lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, hayotiy tajribasi kabilarga bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlaridan ajralib qolmasligini talab etadi.

Tasviriy ko'rsatmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- o'rganiladigan obyekt juda katta yoki kichik bo'lganda;
- o'rganiladigan obyektni bevosita ko'rish mumkin emas;
- tushuncha va xulosalarni reja tarzda ifodalash mumkin bo'lganda;
- murakkab obyektlarni soddalashtirish yoki ishslash tartibini ko'rsatish zarur bo'lganda;
- obyektning eng xarakterli zamon va makondagi holatini qayd etish va ko'rsatishda va shu kabilarda.

Ko'rsatmali qo'llanmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- barcha talabalarga yaxshi ko'rindigan darajada katta bo'lishi;
- o'quv xonasining istalgan joyidan bemalol o'qilishi;
- muhim detallar va yozuvlarning boshqa diqqatni o'ziga tortuvchi rang bilan alohida bo'yalishi;
- tasvirlar imkon qadar obyektning asl rangiga mos bo'lishi;
- tasvirlarning estetik did bilan rasmiylashtirilishi;
- matnning haddan tashqari ko'p bo'lmasisligi;
- tasvirlangan obyektlarning tabiiy vaziyatda ko'rsatilishi;
- masshtabga rioya qilishi;
- arzon, qulay, uzoq vaqt o'z holatida saqlanishi va shu kabilar.

Shu o'rinda ko'rgazmali qo'llanmadan foydalanish maqsad bo'lmay, balki natijaga erishish vositasi ekanligini unutmaslik zarur.

Ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg'ulotda ko'rgazmali

qo‘llanmalardan haddan tashqari ko‘p ham foydalanish yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok etish jarayonida tahlil oluvchilar sezgi organlarining (ko‘rish, eshitish, hidlash, ta’m bilish) ko‘proq jalb etish zarur. O‘qituvchining so‘zi bilan ko‘rgazmalilikning uyg‘unligi katta ahamiyatga ega. Ko‘rgazmali qo‘llanmadan foydalan-ganda beriladigan izoh shundan iboratki, tahlil oluvchilar diqqat-e’tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko‘zda tutadi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o‘rin tutadi. Eng muhimi shundaki, amaliyot o‘qituvchisi o‘quv va ko‘rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilonqa tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo‘lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir bo‘ladigan nuqsonlarni bartaraf eta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olish kerak, ya’ni o‘z kasbiy sohasining mohir ustasi bo‘lish tltb etiladi. Amaliyot o‘qituvchisi o‘z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o‘zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo‘lishi lozim. Ko‘pincha o‘qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proyektor slaydlari kabi vizual vositalarni o‘zları ishlab chiqadilar.

Nazorat savollari:

1. *Ilmiy tadqiqot usullari deganda nima tushuniladi?*
2. *Kasbiy pedagogikada qo‘llaniladigan qanday asosiy ilmiy tadqiqot usullari bor, uning mazmuni nimalardan iborat?*
3. *Kasb-hunar ta’limini tashkil qilish shakllari va vositalari deganda nima tushuniladi?*
4. *Kasb-hunar ta’limini tashkil qilishning qanday shakllari va vositalari bor, uning mazmuni nimalardan iborat?*

12-BOB. KASB-HUNAR TA'LIMINI TASHKIL QILISHDA O'QITUVCHINING ASOSIY VAZIFALARI

Tayanch iboralar: metodik, pedagogik va maxsus tayyorgarlik, kasb-hunarga moyillik, pedagogik texnologiyalar, texnikaviy tafakkur, texnikaviy ijodkorlik, mehnat ko'nikma va malakalar, usulik ishlari, uslubiy komissiya, o'quv-metodika xonasi.

12.1. O'qituvchining lavozim vazifalari

O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik vazifasini bajaradi. Bu umumiy qoida kasb ta'limi o'qituvchisiga ham taalluqlidir. Kasb ta'limida vaqtning qismini o'quvchilarning mustaqil amaliy ishlari egallashi o'qituvchining rolini yanada oshiradi. Chunki hamma narsa o'qituvchi tomonidan oldindan puxta o'yansa va yaxshi rejalashtirilsagina, o'quvchilar mustaqil ishlay olishlari mumkin.

Bu borada kasbiy ta'lim o'qituvchisining usulik, pedagogik va maxsus tayyorgarliklari yuqori pog'onaga ko'tarilishi lozim. Unda kasbiy ta'lim o'qituvchisi o'z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilish bilan birga, mustaqil mehnat ko'nikmalari va malakalarini egallagan bo'lishi, ularni o'quvchilarga mohirlik bilan yetkazib bera olishi kerak. Shu munosabat bilan aytish zarurki, faqat o'z sohasida yaxshi malaka orttirgan va ishining ustasi bo'lgan kishigina o'quvchilarga o'z ishini egallahda yordam bera oladi.

Kasb ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi, o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, to'garak mashhg'ulotlarni tashkil qilish;

- o‘quvchilarni bilim sifati, o‘zlashtirish darajasi va davomatiniz nazorat qilish;
- o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- o‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o‘quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va qo‘llash;
- muntazam ravishda malakasini oshirish.

Bilishi zarur:

- O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to‘g‘risidagi qonunlarni;
- o‘qitadigan fanning o‘quv reja, dastur va darsliklarning mazmunini;
- davlatning ichki va tashqi siyosatini, ta’lim va yoshlar to‘g‘risida hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni;
- mustaqil O‘zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini;
- o‘smirlarning yosh va maxsus psixologiyasini, pedagogikani, o‘smirlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini;
- pedagogik, ilmiy-usulik va tashkiliy boshqaruva vazifalarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan hajmda umumnazariy fanlar asoslarini;
- pedagogik sikl fanlarini;
- yosh fiziologiyasi va o‘quvchilar gigiyenasini;
- informatika va elektron hisoblash texnikasi asoslarini;
- o‘quvchilarning turli xil jamoalarini shakllantirish va boshqarish yo‘llarini;
- o‘quv xonalar va yordamchi xonalarni jihozlashga qo‘yilgan talablarni;
- ta’lim vositalarini va ularning didaktik imkoniyatlarini;
- ta’limni va pedagogik fan taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini va istiqbolini;
- mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va huquq asoslarini.

Kasb ta’limi o‘qituvchilari bundan tashqari mutaxassisligi bo‘yicha ishlab chiqarish texnologiyalarini, iqtisod asoslari, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi kerak.

Malaka talablari.

Oliy toifali o'qituvchi – fan doktori, nomzodi ish stajiga talab qo'yilmaydi, pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo'yicha magistr; pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 1-toifali o'qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim;

1-toifali o'qituvchi – pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo'yicha magistr, pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 2-toifali o'qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim;

2-toifali o'qituvchi – pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis o'qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga (magistr ish stajiga talab qo'yilmaydi) ega bo'lishi lozim;

o'qituvchi 2 pedagog (muhandis-pedagog) yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, ish stajiga talab qo'yilmaydi.

Kasbiy ta'lim o'qituvchisining yuksak mahorati va madaniyati, uning ish joyini to'g'ri tashkil eta olishi, ishga oid usullarini to'g'ri ko'rsata bilishi, buyum namunasini tayyorlay olishi, uning nutqi, o'quv-tarbiya jarayoning eng murakkab vaziyatlarida o'zini tuta bilishi, ularning hammasi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinadi va ularning mehnat tarbiyasiga ma'lum darajada ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy ta'lim o'qituvchisi talabchan bo'lishi kerak. Lekin uning yuqori talabchanligi o'z tarbiyalanuvchilarining insoniy qadr-qimmatini chuqur hurmat qilish bilan ajralmasdir.

Kasb ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda, yangi materialni bayon qilishda har xil usul va usullarni qo'llaydi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning tajribasi, jismoniy rivojlanishi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladigan boshqa omillarni hisobga olgan holda obyektlarni tanlaydi.

Bu holat kasbiy ta'lim o'qituvchisining o'quvchilarни texnikaviy tafakkurni rivojlantirish omillaridan biri hisoblanadi. Unda kasb

ta'limi o'qituvchisi muayyan tematika bo'yicha texnikaga oid kitoblarni tanlashda to'garak a'zolariga kollej kutubxonasi va otaliq qiluvchi korxona kutubxonasi yordam beradi.

Bunday tematik ko'rgazmalarning roli shundan iboratki, ular boshqa o'quvchilarini to'garak a'zolarining ijodiy faoliyati bilan tanishtiradi. Texnikaga oid kitoblar bilan shu tariqa tanishish shu vaqtga qadar mazkur muammo ustida bosh qotirmagan o'quvchilarining texnika to'garaklariga ham qiziqishlarni oshirmsasligi mumkin emas.

Shunday qilib, texnikaviy ijodkorlik o'quvchilarining ilmiy texnikaviy va umumiy ta'lim fanlaridan olgan bilimlarni chuqurlashtiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi, mustahkam mehnat ko'nikmalarini va malakalarini tarkib toptirishga yordam beradi, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka qiziqish uyg'otadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Bu ijodkorlik kollej o'quvchilarini istiqlol ruhda tarbiyalashning eng muhim vositasidir.

O'qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab, 3 bosqichga bo'lish mumkin:

- rejalashtirish bo'yicha vazifalar;
- amalga oshirish bo'yicha vazifalar;
- baholash va tahlil qilish bo'yicha vazifalar.

12.2. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar

KHKlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan ushbu jarayonning qay darajada to'g'ri rejalashtirilganligi va uning amalga oshirilganligiga bog'liq. Kasb ta'limi o'qituvchisi KHKlardagi ta'lim jarayonining rejalashtiruvchisi va amalga oshiruvchisi hisoblanadi. Kasb ta'limi o'qituvchisi ta'limni rejalashtirishda barcha rejalashtiruvchi hujjatlarni o'quv yili va mashg'ulotlar boshlangunga qadar tayyorlab qo'ygan bo'lishi zarur. Bu jarayonda quyidagi rejalashtirish bo'yicha bir qator vazifalarni bajaradi.

Rejelashtirish bo‘yicha vazifalarga quyidagilar kiradi:

- Davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlar asosida ta’limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejelashtirish;
- o‘quv reja va dasturlar asosida kalendar mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta’limni tashkillashtirish va o‘tkazish bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o‘quvchilarning qobiliyatları va bilimlarini baholash bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo‘limlarida o‘quvchilarni o‘qitish joylarini rejelashtirish;
- qo‘yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o‘tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejelashtirish;
- o‘quv ustaxonasida o‘qitish uchun yetarli sharoitlarni tayyorlash;
- o‘quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

Amalga oshirish bo‘yicha vazifalar:

- o‘quvchilarni o‘quv amaliyoti xonalari bilan tanishtirish;
- o‘quvchilarni amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga jaib etish;
- texnika xavfsizligi bo‘yicha va amaliy topshiriqlar, mashqlarga taalluqli yo‘l-yo‘riqlar hamda ish o‘rnida o‘quv suhabatlar o‘tkazish;
- uskunalar bilan ishlash yoki ishlab chiqarish va ta’mirlash ishlariiga taalluqli namoyishlar o‘tkazish;
- an’anaviy yoki noan’anaviy usullarga asoslangan amaliy mashqlarni o‘tkazish.

12.3. Nazorat va baholash bo‘yicha vazifalari

O‘quvchilar faoliyati, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholashdan maqsad – o‘quvchilar kasbiy ta’limi jarayonining borishi haqida xolis joriy ma’lumotlar olish, o‘quvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalari darajalari hamda ta’lim dasturining bajarilishini muntazam nazorat qilish, ta’limning muayyan davrida

o‘quvchilarni baholash uchun ma’lumotlar to‘plash, o‘quvchilarni bosqichma-bosqich attestatsiyadan o‘tkazish, o‘quvchilar kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini darajalarining DTS talablariga mos kelishini yakuniy tekshirish, o‘quvchilarga kasb va ixtisosliklar berish.

O‘quvchilar faoliyati, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholashda o‘z vaqtidalik va tizimlilik, xolislik va adolatlilik, har tomonlamalik va tabaqalashganlik, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish kabi talablar qo‘yiladi. Bu talablarni to‘liq hisobga olish uchun kasb ta’limi o‘qituvchisidagi bir qator hislatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. Yuqori g‘oyaviylik. O‘qituvchi o‘sib kelayotgan avlodning tarbiyachisidir. U o‘quvchilarni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalashi kerak.

2. Yuqori texnika malaka. Masalan, ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini tanlagan mutaxassislikka oid o‘quv yurtining talablari va mutaxassisliklarga oid bilim va ko‘nikmalarni egallaydilar. Shu munosabat bilan oliy o‘quv yurtining talablari bu mutaxassisliklarga oid kasbiy bilimlar asoslarini egallashlari hamda keyingi amaliy faoliyat jarayonida o‘z mahorati darajasini uzluksiz oshirib borishlari kerak.

3. Yuqori psixologik-pedagogik tayyorgarlik. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining o‘zi bilim va malakalarini yuksak saviyada egalabgina qolmay, o‘quvchilarda ham ma’lum malakalarini tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak. Bilim va malakalarini egallash jarayonining o‘z qonuniyatları bor, muktabdagı ta’lim shu qonuniyatlar asosida tashkil etiladi. Kasb ta’limi o‘qituvchisi psixologiya, didaktika va boshqa fanlarning o‘quv jarayoniga asos bo‘ladigan muhim qoidalarini chuqur o‘zlashtirib olishi kerak.

4. O‘z kasbiga muhabbat. O‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos tomonlarini chuqur bilish, o‘z kasbini faoliyatida erishgan yutuqlaridan zavqlanishi, qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun kuch va imkoniyat topa olishi kasb ta’limi o‘qituvchisining muhim fazilatlarini qatoriga kiradi.

Kasb ta’limi o‘qituvchisi oliy o‘quv yurtidagi tayyorgarligi har qancha asosli bo‘lsa ham, u tugallangan hisoblanmaydi. Ma’lumki,

hozirgi zamон ishlab chiqarishi judа tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Mehnat qurollari, texnologik jarayonlar uzlusiz takomillasib bormoqda. Bu kasb ta'limi jarayonida o'z aksini topmog'i kerak. Demak, kasb ta'limi o'qituvchisi fan va texnika sohasidagi taraqqiyotni uzlusiz kuzatib borishi, ulardan o'quvchilarni tushunarli shaklda xabardor qilib turishi kerak.

O'qituvchilar kasb ta'limi jarayonida foydalaniladigan usulik vositalar majmuasi ham o'zgarmay qolmaydi. O'z ishiga ijodliy yondashuvchi o'qituvchilar o'quvchilarga ta'sir qilishning yangi shakllarini, uzlusiz ravishda bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishning yangi usullarini topadilar. Yaxshi tajriba umumlashtiriladi va ko'pchilikning mulki bo'lib qoladi. Shunga ko'ra har bir o'qituvchi ilg'or pedagogik tajriba yoritiladigan vaqtli matbuotni kuzatib borishi va undan o'z ishida foydalanishi kerak.

Kasbiy ta'lim o'qituvchisining obro'yini ko'taradigan omillari quyidagi yo'naliшlariga qaratilgan.

O'z ishini yaxshi biladigan kasbiy ta'lim o'qituvchilarining shaxsiya nisbatan bo'lgan oquvchilarning hurmat-ehtiromi, oquvchilarning har biri to'g'risida mehribonlik va g'amxo'rlik qilish bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa, o'z navbatida uning obro'sini oshiradi.

O'qituvchining obro'si o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'sib va tarkib topib boradi. Mashg'ulotlar vaqtida uning shaxsi, xarakteri va mahoratining shunday sifatlari namoyon bo'ladiki, bular tarbiyalanuvchilarning umumiylar tarzda e'tirof etish va hurmat qilishga sazovor bo'ladi. Kasbiy ta'lim o'qituvchisi o'zining kollej o'quvchilari oldidagi obro'si to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishi lozim. Agar o'qituvchi o'z vazifalariga yuzaki qarasa, so'zlar bilan bo'lgan munosabatlarida obyektivlik bo'lmasa, uning obro'si tezda yo'qolishi mumkin.

O'quvchilarning moddiy ishlab chiqarish sohasida hayot va kasbga tayyorlanishda kasbiy ta'lim o'qituvchisi yetakchi rol o'ynaydi. U o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarning turli kasblarga bo'lgan qiziqishini aniqlash va rivojlantirish lozim. Buning uchun guruh rahbarini, shu

guruhdagi ishlardan boshqa fanlarning o‘qituvchilarini va o‘quvchilarning ota-onalarini jalb qilish kerak. Ular bilan muntazam uchrashib turish va suhbatlashish bu guruhdagi o‘quvchilarni yaxshiroq bilish, ularning qiziqishlari va yakka xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi.

Kasb ta’lim o‘qituvchisi o‘quvchilarni baholashda, ish joyini tashkil etishda, topshirqlarni bajarishda mustaqillikni tarbiyalashi, shaxsnинг halollik, kamtarlik, qat’iylik, dadillik, faollik, sabr-mattonat xislatlarini, o‘rtoqlik, do‘stlik, mas’uliyatini sezish hissi va hokazolarini tarkib toptirish lozim. Buning uchun bir qancha vazifalarni bajaradi.

Kasb ta’limi o‘qituvchisining baholash va tahlil qilish bo‘yicha vazifalari:

- o‘quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o‘quvchilarning xulqini baholash;
- ta’limning mavjud sharoitlari sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo‘yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o‘quv-didaktik materiallarning sifatini baholash;
- o‘zi bergan yo‘l-yo‘riq va namoyishlarni o‘zi baholash;
- berilgan topshirqlarning sifatini o‘zi baholash.

12.4. O‘qituvchining usulik ishlari

Metodik ishlarning asosiy vazifalari:

- o‘quv muassasasidagi o‘qituvchilar, ishlab chiqarish ustalari, injener-pedagoglarning pedagogik malakasini g‘oyaviy-siyosiy darajasini, kasbiy mahoratini oshirish;
- o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning yangi zamonaviy usul-larini o‘quv jarayoniga qo‘llash;
- o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalari ni qo‘llash, umumlashtirish, tanishish va boshqalar.

O'quv muassasalarida amalga oshiriladigan uslubiy ishlar ikki turga bo'linadi: jamoaviy va shaxsiy.

Jamoaviy usulik ishlarni o'quv muassasalaridagi: pedagogik kengash uslubiy komissiyalar, ilg'or pedagogik va amaliy tajribalar manbai, muammoli seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar (anjumanlar), pedagogik o'qishlar orqali amalga oshiriladi.

Shaxsiy usulik ishlarga o'quv muassasalardagi har bir o'qituvchiga injener-pedagog, ustalarning o'z malakalarini oshirish ustida olib borilayotgan tinimsiz mehnati tushuniladi.

Uslubiy ishlar, asosan, dars berishda o'quv jarayonini takomillashtrish, unga yangi usul va vositalarni qo'llashni amalga oshirish uchun mo'ljallangandir.

O'quv muassasasidagi keng qirrali va xilma-xil uslubiy ishlarni o'quv muassasasidagi o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini tashkillashtiradi. Ya'ni, o'quv muassasasi bo'yicha uslubiy ishlar rejasini tuzadi, ammo umumiy rahbarlikni direktor olib boradi.

Jamoaviy usulik ishlar mazmuni va tashkil qilish

1. Pedagogik kengash. Pedagogik kengash o'quv muassasasining asosiy organi bo'lib, u o'quv muassasasidagi asosiy masalalarni muhokama etish, xulosalar qabul qilish uchun tuzilgan bo'lib, «Pedagogik kengash haqidagi nizom» asosida faoliyat ko'rsatadi, va yillik reja asosida ish yuritadi. Pedagogik kengash ish rejasida, asosan quyidagi masalalar yoritiladi va amalga oshiriladi: o'quv muassasasi pedagog jamosining o'tgan davrda bajarilgan ishlar natijasi va oldinda turgan vazifalar; uslubiy ishlar rejasini va xodimlarning malakasini oshirish, ustalarning tarbiyaviy ish rejasini, yarim yillik, yillik imtihon natijalari; ta'til vaqtlarida o'quvchilar bilan sport ishlarini tashkil etish; kutubxona holati; ishlab chiqarish amaliyoti natijalari va boshqa ko'p masalalar pedagogik kengash ishida yil mobaynida tasdiqlanadi va har oyda bir marta o'tkaziladi.

Pedagogik kengash ish rejasidagi har bir masala bo'yicha mas'ul xodim tayinlanadi va u bu masalani kengashga tayyorlaydi, kerak bo'lsa, tayyorgarlik uchun boshqalarini ham jalb qilishi mumkin.

Pedagogik kengash qarorini rais-direktor va kotib imzo chekib tasdiqlaydi. Kengash qarorining bajarilishini direktor va uning o‘quv ishlari bo‘yicha muovini nazorat qilib boradi.

Pedagogik kengash hujjatlari: ish rejasi, bayonnomalar, ma’ruzalar va qarorlar direktor muovinida saqlanadi.

2. Metod komissiyalar:

Metod komissiyaning asosiy vazifasi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, o‘qituvchilarga, injener-pedagoglarga, ustalarga amaliy-uslubiy yordam berishdir.

O‘quv muassasasida uslubiy komissiyalar, tayyorlov yo‘nalishlari, fanlar va amaliyotlar bo‘yicha tashkil qilinishi mumkin. Uslubiy komissiya tarkibi va soni pedagogik kengash tavsiyasiga ko‘ra direktor buyrug‘i bilan tayinlanadi. Uslubiy komissiya tarkibiga malakali o‘qituvchilar, ustalar kiradi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi va o‘quv muassasalarida fanlar bo‘yicha uslubiy komissiya tuziladi: fizika va elektrotexnika; kimyo va biologiya; o‘zbek va rus tili; tarix va boshqalar, umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar, ishlab chiqarish ta’limi va boshqalar. Ba’zi holdarda uslubiy komissiyalar tuzishi mumkin, fanlarni guruhlashtirish bo‘yicha, misol uchun, tabiiy fanlar: fizika, kimyo, biologiya; gumanitar fanlar, maxsus fanlar va hokazo.

Uslubiy komissiyalar o‘z fanlari, sikl fanlari bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tatbiq etish, o‘qitish uslub, vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, fanlarning ketma-ketlikda o‘tishini belgilash, o‘quv uslubiy materialini muhokama qilish va o‘quv dasturini o‘rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ishlari ro‘yxati va ishlab chiqarish texnologik hujjatlar hamda nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, texnik vositalardan samaradorli foydalanish va boshqa muammolar bilan shug‘ullanadi.

Pedagogik kengash – muassasasining o‘quv jarayoni va uslubiy ishlarini muhokama etib, qaror qabul qiluvchi.

Pedagogik kengash a‘zolari: muassasa direktori (rais); uning muovinlari, o‘quv bo‘lim mudiri, uslubiy komissiya raislari va

yetakchi muhandis-pedagoglar, katta ustalar, kasaba birlashmasi va yoshlar ittifoqi raislari, ilmiy tadqiqot instituti va ishlab chiqarish korxonasidan yetakchi mutaxassislar. Bu tarkibdagi kengash a'zolari ko'rildigan masalalarni, ya'ni o'quv-tarbiyaviy jarayon masalalarni, o'quv ishlab chiqarish jarayoni hamda uslubiy ishlarga oid muammolarni hal etadi va tavsiyalar qabul qiladi.

Pedagogik kengashning asosiy uslubiy vazifasi o'quv muassassida uslubiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalar qabul qilish, kasbiy malakalarini oshirish ish rejalarini tasdiqlash va hokazolar.

Pedagogik kengash o'z faoliyatini ilm o'quv muassasasining uslubiy ishlar ish rejasiga asosida amalga oshiradi.

Pedagogik kengashning hamma a'zolari o'quv-tarbiyaviy jarayonga, uslubiy ishlarga oid masalalarni uning ish rejasiga taklif etishi mumkin.

Pedagogik kengashning qarori o'quv muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va qarorni hamma bajarishi shart.

Metodik kengashlar – bu jamoaviy uslubiy ish turi bo'libgina qolmay, balki alohida muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi (pedagogik, uslubiy).

Metodik kengashlarning – instruksiyali, axborotli va hisobotli turlari mavjud.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar – o'qituvchilar tomonidan va boshqa mutaxassislarni jalg qilgan holda, o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga mo'ljallangan mavzu bo'yicha qilingan nazariy va amaliy ishlar natijasining muhokamasi, qaror, tavsiyalar qabul qilish.

Pedagogik o'qishlar – ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, umumlashtirish va tatbiq etish maqsadida o'tkaziladi hamda o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid masalalarni muhokama qiladi.

Pedagogik o'qishlar tashkil qilishda o'quv muassasalarida ko'r-gazmalar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Didaktik vositalar

o‘quv uslubiy qo‘llanmalar o‘quvchi ish rejalaridan namunalar, dars-lar rejasи, konspekti, uslubiy qo‘llanmalar va boshqalar.

Pedagogik o‘qish jarayonida tashkiliy ko‘lamda eng yaxshi ma’ruza tanlab olinib uni tuman, viloyat pedagogik o‘qishlariga va chop etishga tavsiya etiladi.

Ilg‘or pedagogik tajriba, asosan, o‘quv muassasasi muhandis-pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Bu ilg‘or pedagogik tajribalar o‘quv muassasasida va yana boshqa joyda o‘rganilishi va oshirilishi mumkin.

Muammoli seminarlar – bu seminarlarning asosiy vazifasi, ba’zi muammolarni chuqurroq o‘rganish bo‘lib, bunda muhandis-pedagoglar, ustalar ma’ruzalar o‘qishadi va muhokama qilinadi.

Metod komissiyalar – o‘quv muassasasida fanlar, ya’ni bir-biriga yaqin fanlar bo‘yicha eng kamida beshta muhandis-pedagog va usta bo‘lgan taqdirda tuzilishi mumkin, ba’zi hollarda chilangarlik, metallarga ishlov berish mutaxassislari bo‘yicha ham tuzilishi mumkin.

Agarda o‘quv muassasasida bitta fandan 3 dan ortiq muhandis-pedagoglar bo‘lsa, fan bo‘yicha ham tuzilishi mumkin. Masalan: materialshunoslik, matematika, fizika va boshqalar. Uslubiy komissiya raislari eng tajribali o‘qituvchi, ustalardan shakllanadi.

Metod komissiyalar o‘z fanlari, maxsus fanlari bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil qilish, yangiliklarni dars jarayonida tatbiq etish, o‘qitish, uslubiy vositalarini takomillashtirish, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, fanlarning ketma-ket o‘tilishini belgilash, o‘quv uslubiy materiallarni muhokama qilish va boshqalar bilan shug‘ullanadi.

Fanga oid muammolarni uslubiy komissiyalar hal qiladi. Ya’ni ular: o‘quv muassasalarini o‘rganish, takomillashtirish, ishlab chiqarish ro‘yxati va mahsulotlar ishlab chiqarish texnologik hujjatlari; nazorat ishlari mazmunini tahlil etish, o‘quvchilarning o‘zlashtirishini tahlil etish, muhokama etish; ilg‘or pedagogik, ishlab chiqarish tajribalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish, texnik vositalardan samaradorlik bilan foydalanish va boshqalarni amalga oshiradi.

Metod komissiyalar o‘z ishlarini istiqbolli tematik va ish rejalarini asosida amalga oshiradi va bu rejalarida asosiy masalalar bo‘lib quyidagilarni rejalashtirish zarur: yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik, imtihonlarga tayyorgarlik, o‘quvchilar malakasini oshirish, usulik ko‘rgazmalar ishlab chiqish, ma’ruzalar mavzularini aniqlash, referatlar tematikasini belgilash, tashkiliy tadbirlar, ochiq darslar, ta’lim, o‘zaro darslar kirish va boshqalar.

O‘qituvchilarning shaxsiy usulik ishlari (mustaqil) va uning mazmuni.

Muhandis-pedagogning mahoratini uning tinimsiz ishlash, maqsadga yo‘naltirilgan tizimli ijodiy mehnatining natijasidir. Shuning uchun ham o‘qituvchi agarda o‘z ustida ishlab bormasa, uning o‘qituvchilik xususiyati yo‘qolib boradi. Bu bo‘lmasligi uchun, ya’ni u har doim o‘z fani mutaxassisligi bo‘yicha maxsus va pedagogik bilmalarini oshirib borishi kerak. Agarda, u o‘zining tajribasi bilan cheklanib qolsa ham bo‘lmaydi.

Pedagogik mahoratini oshirib borishning majburiy xarakteridan biri, o‘z pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashishga va yangilikka intilib borishi kerak.

Pedagoglarning o‘quv tarbiyaviy jarayonidagi faoliyat va pedagogik mahoratini oshishi ko‘p jihatdan u ishlaydigan muhitga, jamoa-sining shakllanganligiga ham bog‘liq.

Kasb-hunar ta’limi tizimida o‘qituvchilarning malakasini oshirish turlariga: malaka oshirish kurslari va o‘z ustida mustaqil ishlash (shaxsiy) kiradi. Bular o‘z navbatida uzviy bog‘langan.

O‘z ustida ishlashning eng yuqori shakliga o‘qituvchilarning ilmiy ishi kiradi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalarida o‘quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishni ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning, muhandis-pedagoglarning o‘z ustida mustaqil ishlab o‘zlarining malakalarini oshirib borish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir xodimdan o‘z ustida mustaqil ishlash ish rejasi bo‘lishi talab qilinadi. Bu ish rejasi quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lishi qabul qilingan:

I. Siyosiy-g‘oyaviy darajasini oshirib, siyosiy adabiyotlar, muam-moli seminarlarda faol qatnashish, kuzatishlarda qatnashish.

II. Pedagogik malakani oshirish, fanlar bo‘yicha ilmiy-amaliy, uslubiy adabiyotlarni o‘qish, dokladlar yozish, ochiq darslar o‘tkazish.

III. Pedagogik bilim va uslubiy tayyorgarligini oshirish.

IV. Ma’naviyat va nafosat ko‘rsatkichlarini shakllantirish.

Mustaqil o‘z ustida ishslash va usulik ishlar, asosan, ham yuqoridagi to‘rt bo‘limdan iborat bo‘ladi.

Mustaqil ishslash orqali o‘z malakasini oshirishni yana boshqa tur-laridan biriga seminarlarga, pedagogik o‘qishlarga, konferensiyalarda o‘z ilmiy natijalari, amaliy ish tajribasiga tayyorgarlik ko‘rish hisoblanadi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quv usulik (pedagogika) xonasining asosiy vazifalari:

- ilg‘or pedagogik tajribaning targ‘ib qilinishini tashkil etish;
- umumta’lim, maxsus va amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilariga pedagogik mahorat va o‘quv-tarbiyaviy faoliyat sifatini oshirishda yordam ko‘rsatish;
- o‘quv-tarbiyaviy va usulik ishlar masalalari bo‘yicha material-lar; to‘plash va ularni tartibga solish;
- kasb-hunar kollejida ilmiy-pedagogik axborotlar to‘plash.

O‘quv metodika xonasining faoliyat mazmunini quyidagilar tashkil qiladi:

- kasb-hunar kolleji xodimlarining o‘zaro pedagogik tajriba al-mashishi bo‘yicha seminarlar tashkil etish;
- pedagogik va boshqa mavzularda ma’ruzalar tashkil etish;
- metodik ko‘rgazmalar tashkil etish;
- pedagogik mashg‘ulotlar tashkil etish;
- kasb-hunar kollejida pedagogik o‘qishlar tashkil etish;
- umumta’lim, maxsus fanlar va amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilar uchun pedagogik maslahatlar tashkil etish;
- pedagogik yangiliklar bo‘yicha konferensiyalar tashkil etish;
- kasb-hunar kollejida muayyan mavzular bo‘yicha usulik ishlar yakuniga bag‘ishlangan konferensiyalar tashkil etish;

– kabs-hunar kolleji xodimlarining pedagogik mehnat fidoiyilar bilan uchrashuvlar tashkil etish;

O‘quv usulik xonasi quyidagilar bilan jihozlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- namunaviy hamda ishchi o‘quv rejalar va dasturlar;
- rejalashtirish, hisobga olish va hisobot hujjatlarining namunalari;
- o‘quv xonasi, laboratoriya va ustaxonalarni jihozlash me’yorlari, kataloglar, ro‘yxatlar, pasport;
- me’yoriy va yo‘riqli hujjatlar: nizomlar, ko‘rsatmalar, yo‘riqnomalar va hokazo;
- kasblar bo‘yicha o‘quv-ishlab chiqarish ishlari ro‘yxati;
- ilmiy pedagogik adabiyotlar, pedagogik jurnallar, gazetalar va boshqa davriy nashrlar;
- metodik ishlanmalar, o‘qituvchilarning ma’ruzalar matnlari;
- yo‘riqlar va texnologik xaritalar to‘plami;
- nazariy va amaliy kasbiy ta’lim fanlari bo‘yicha test topshiriqlari to‘plami;
- O‘MKHT ilmiy va o‘quv usulik tashkilotlarining usulik tavsiyalari;
- ta’limning «faol» shakllari va usullaridan foydalanish bo‘yicha materiallar;
- darsliklar, o‘quv va usulik qo‘llanmalar, ma’lumotnomalar.

Nazorat savollari:

1. Kasb-hunar ta’limi o‘qituvchisining lavozim vazifalari nimalardan iborat?
2. O‘qituvchining ta’limni rejalashtirish bo‘yicha vazifalar nimalardan iborat?
3. O‘qituvchining nazorat va baholash bo‘yicha vazifalari nimalardan iborat?
4. O‘qituvchining usulik ishlari nimalardan iborat?

13-BOB. KASBIY FAOLIYAT VA UNING OBYEKTTLARI

Tayanch iboralar: kasbiy faoliyat, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyat, hamkorlik faoliyati, interaktiv harakatlar, o'qituvchi shaxsi.

13.1. O'qituvchining pedagogik faoliyati

O'qituvchining pedagog – tarbiyachi sifatidagi faoliyati, uning boshqa soha bilimlаридан xabardor bo'lishi, o'z faniga doir fundamental bilimga ega bo'lishi hamda maktab o'quvchisining shakllanib kelayotgan shaxsi psixologiyasi, uning qobiliyatлari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lishi, kishilik olamida sodir bo'layotgan sotsial voqeahodisalarni to'g'ri idrok etishi va ularga to'g'ri baho bera bilishi, guruh jamoasini yaxlit va har bir o'quvchini puxta o'rgana bilishi, ularning xulq-atvori va sotsial faoliyatini oldindan aytib bera olish mahorati g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Pedagog kasb mahoratining ortib borishida pedagogga nisbatan maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar, ota-onalardan kutiladigan sotsial munosabatlar juda muhimdir. Pedagogning obro'si uning darsdagи faolligi, maktab jamoasida olib boradigan ishlari, ota-onalar bilan muloqoti – xullas, o'z axloqiy idealiga muvofik xatti-harakatlari bilan belgilanadi. U o'z o'quvchilarida buyurilgan ish uchun yuksak darajadagi sotsial mas'uliyatni his qilish odatini, olijanoblikni tarbiyalashi, uning intellektual kamolotiga erishib, ma'naviy jihatdan musaffo kishi bo'lib tarbiyalanishiga erishmog'i kerak.

Pedagog faoliyatida, uning o'quvchilar turli yosh bosqichlarida ular bilan qanday uslubda ish olib borishi katta rol o'ynaydi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'quvchilarga rahbarlik qilishda tez-tez uchrab turadigan quyidagi besh xil ish uslubi alohida ajratib korsatiladi:

1. Avtokrat (o'zini ustun qo'yish, «balanddimog»).
2. Avtoritar (ma'muriy buyruqboz).
3. Demokratik (jamoaga suyanib ish olib boruvchi).

4. Liberal - loqayd (amalda rahbarlikdan chetda, o‘z vazifasini nomigagina bajaradi).

5. Noizchil (o‘quvchilar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarda vaziyatga qarab ish tutadi, «uning kim tarafdoi ekanini bilib bo‘lmaydi!»).

Real hayotda pedagog faoliyatida uning rahbarlik usuli har turli subyektiv va obyektiv omillarning ta’siri ostida shakllanib boradi. Bunday omillar – pedagogik faoliyatning bir subyekti sifatida pedagogning yuksak darajadagi pedagogik madaniyati qaror topishi uchun zarur shartlardandir.

Pedagog bilan o‘quvchi o‘rtasidagi turli xil vaziyatlardagi o‘zaro munosabatlarni tahlil kilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muhit va kommunikativ madaniyat pedagogning o‘quvchilar bilan qiladigan muomala usuli (tarzi) va uning pedagogik takti (nazokati) ga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xullas, pedagoglik kasbini tanlagan kishi, avvalo, sog‘lom bo‘lishi, ya’ni tashqi ko‘rinishida birdan ko‘zga tashlanadigan nuqsoni yo‘q (bukri, oqsoq, g‘ilay bo‘lmasligi), so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo‘lishi darkor. Shuningdek, yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarga ega bo‘lishi zarur.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob bera oladigan, bolalarga ta’lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Pedagoglik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Professiogramma quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- Pedagog shaxsining xususiyatlari;
- Pedagogning ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yilgan talablar;
- Maxsus tayyorgarlik hajmi va mazmuni;
- Ixtisosga oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.

Pedagog shaxsining xususiyatlari g‘oyaviy sohada: ilmiy dunyo-qarash va e’tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruratni chukur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchni anglash, ijtimoiy-siyosiy

faollik. Pedagoglik kasbi sohasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagoglik ishini sevish, ruhiy-pedagogik ziyyaraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish. Keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila olish, o'z ma'lumotini oshirishga intilish va hokazo.

Yuqoridagi shaxs sifatlariga ega bo'lish bilan bir qatorda muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir pedagog pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyatga ham ega bo'lishi shart. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'lishi kerak. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va udaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa, yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson asab tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur

13.2. Faoliyat uslubi, usullar, holatlar, shakllar

Ta'lim muassasalaridagi o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi hamkorlikning quyidagi sakkizta shakli mavjud:

- faoliyatga kirish;
- mustaqil harakatlar (o'qituvchi bilan ta'lim oluvchilar hamkorlikda bajaradilar);
- o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga ta'lim oluvchilarni jalg etadi;
- taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan ta'lim oluvchilar ana shu namuna assosida harakat qiladi);
- madad harakatlari (o'qituvchi ta'lim oluvchilarga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi);
- o'zini o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiyl maqsadni ko'rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);

- o‘zini o‘zi qo‘zg‘atuvchi harakatlar;
- o‘zini uyuştiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi faoliyat usullari birgalikdagi xatti-harakatlar shaklida namoyon bo‘lib, unga muloqot davrlari singari mazkur faoliyatning oddiy birliklari deb qarash mumkin. Birgalikdagi harakat davri qo‘yiladigan ushbu almashuvni o‘z ichiga oladi: o‘qituvchi harakat boshlaydi, ta’lim oluvchilar uni davom ettiradi yoki tugallaydi.

Ta’lim muassasalaridagi hamkorlikdagi faoliyatning xususiyatlarni o‘rganish va tajribalarda sinab ko‘rishning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarlarning bilimlarni o‘zlashtirishdagi qiynichiliklarining sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta’lim jarayonida yoki hamkorlikdagi faoliyat bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlardan ko‘rinadiki, hamkorlik faoliyati uchta o‘zaro bog‘liq fazadan iborat ekanligi ko‘rsatilgan, jumladan birinchi faza – «faoliyatni egallah» - deb nomlangan bo‘lib, u o‘z ichiga quyidagi hamkorlik shakllarini qamrab olgandir:

- o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilarlar o‘rtasidagi birgalikda amalga oshadigan harakatlarni turkumlarga ajratuvchi tizim;
- ta’lim oluvchilarlarning o‘qituvchi faoliyatiga taqlid qilishga asoslangan harakatlari yig‘indisi;
- ta’lim oluvchilarlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan harakatlar majmuasi; hamkorlik faoliyatining ikkinchi fazasi – ta’lim oluvchilarlarning o‘qituvchi faoliyatiga muvofiqlashtirilgan hamkorlik harakatlari majmuasi;
- ta’lim oluvchilarlarning o‘z-o‘zini boshqaruvchi harakatlari tizimi;
- ta’lim oluvchilarlarning o‘z-o‘zini qo‘zg‘atuvchi xatti-harakatlari (harakatga undovchi omillar) va boshqalar. Hamkorlik faoliyatining uchinchi fazasi – hamkorlik faoliyatidan yangi bir taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilish, takomillashishda, shuningdek, o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar hamkorligi sheriklik darajasiga o‘sib o‘tishda o‘z ifodasini topadi.

Uchta fazaning oxirgisi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin:

– teng huquqlilik asosiga qurilgan umumiy hamkorliqdagi o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilarning faoliyatga madad beruvchi (o‘zaro ta’sir o‘tkazish negizida ijodiy izlanishlar namoyon etilsa) harakatlar;

– ma’naviy harakatlar (o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorlik zaminiga qurilgan harakatlari muayyan ma’no, mohiyat, intellektual harakat, anglashilgan turtki, maqsadga yo‘naltirilgan vosita, o‘zaro mohiyatni oydinlashtiruvchi munosabat kabilar);

– interaktiv harakatlar (o‘zaro fikr almashishga, o‘zaro fikrlarni to‘ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta’sir o‘tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasi);

– predmetli refleksiv harakatlar (bu yerda mana bunday holat yotishi ehtimoldan xoli emas; birinchidan, har qanday hamkorlik muayyan narsaga qaratilgan sodda va lo‘nda intellektual harakatlardan tuzilishi; ikkinchidan, aniq muammolar yoki o‘quv predmetlari mohiyati bog‘liq harakatlar zanjiriga yo‘nalgan bo‘lishi mumkin, lekin har bir intellektual harakat anglashilgan, o‘z-o‘zini boshqarishga bo‘ysundirilganligi bilan ajralib turishi lozim);

– interaktiv harakatlar (o‘zaro ta’sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta’sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo‘naltirish noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko‘mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin);

– ma’noviy refleksiv harakatlar (refleksiv tushunchasi anglaganlik darajasini bildirgan ma’noda qo‘llaniladi, shuning uchun bu o‘rnida mantiqiy izchillikdagi harakatlar, aqlni charxlash mashqlari tarzida ishtiroy etib, muayyan aqliy yuklamani o‘zida aks ettirishi lozim, bu yerda harakatlar ortiqcha operativ belgilardan xalos bo‘lishi shart). Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, yuqorida fikrlarni empirik materiallar asosida chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq.

O‘quv topshirig‘ini bajarish bo‘yicha hamkorlikdagi ishni tashkil etish.

1-bosqich:

O‘quv materiali, bajarish qoidalari, natijalarni baholash ko‘rsatkich va mezonlari, guruhda ishslash qoidalari bilan tanishadilar.

Guruhsda ishlash qoidalari:

- Har kim o‘z o‘rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
- Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi zarur;
- Har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi zarur;
- Har kimdan yordam so‘ralsa, yordam qilishi zarur;
- Har kim aniq tushunishi zarur, boshqalarga yordamlashib, o‘zimiz o‘rganamiz.

2-bosqich. Guruhsda ishlash:

- Guruhdag'i ishni rejalashtirishadi;
- Guruh ichida topshiriqlarni taqsimlashadi;
- Yakka tartibda topshiriqlarni bajarishadi;

Guruh muzokarasini o‘tkazish qoidalariiga asoslanib, yakka tar-tibda erishilgan natijalarini muhokama qilishadi va guruh ishining umumiy natijasini shakllantirishadi;

- Taqdimot uchun birgalikda olib borilgan ish natijalarini tayyorlashadi; Ushbu material qismini aniqlash maqsadida o‘zaro tekshiruv savollarini tayyorlashadi.

3-bosqich. Taqdimot:

- Guruh a’zolari birgalikda bajargan ish natijalarini ko‘rgazmali vositalar yordamida taqdimot etadilar;
- Boshqalar ushbu material qismini o‘zlashtirganligini aniqlash maqsadida o‘zaro tekshiruv savollarini beradilar.

13.3. Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar

Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyalarini amaliyatga tatbiq etish Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiya, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi-ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘sirish, ma’rifat ziyyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak»¹.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur?

O‘qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs sanaladi.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar:

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqr anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.
2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yan-giliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.
3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqr, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

¹ Karimov I.A. «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati». – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati., 1993., 27–28-bet.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lif-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, usul va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riliği;
b) nutqning aniqligi;
v) nutqning ifodaviyligi;
g) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan xoli bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

d) nutqning raxonligi;
j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rqli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalananmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O‘quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o‘quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihoxlik, samimiylilik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkaslar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyalarini amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi kadrlar muhim ro‘l o‘ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis¹ maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o‘qituvchilarning o‘rni beiqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiylar ma’naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo‘la olishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari:

1. *O‘qituvchining pedagogik faoliyati mazmuni nimalardan iborat?*
2. *O‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlik faoliyatining qanday asosiy uslubi, usul, holatlar va shakllari bor, ularning mazmuni nimalardan iborat?*
3. *Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan zamонавиy talablar nimalardan iborat?*

¹ Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh taxririysi, 1999. – 143-bet.

14-BOB. PEDAGOGIK FAOLIYAT VA PEDAGOIK QOBILIYAT

Tayanch iboralar: pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat, konstruktiv-didaktik qobiliyatlar, kasbiy bilimlar, shaxsiy sifatlar.

14.1. O‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ

1. O‘quvchi shaxsni rivojlanishini loyihalashga, o‘quvchilar bilan ishlash usullarini tanlab olishga imkoniyat beruvchi konstruktiv-didaktik qibiliyatlar;
2. Akademik qibiliyatlar;
3. Perseptiv qibiliyatlar;
4. Nutq qibiliyatları;
5. O‘quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qiluvchi tashkilot-chilik qibiliyatlar;
6. Avtoritar qibiliyatlar;
7. Kommunaktiv qibiliyatlar;
8. Pedagogik xayol;
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati;

14.2 O‘qituvchining pedagogik qobiliyati

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatni yuqori darajada bajarish imkoniyatini beradigan shaxsiy sifatlar kompleksidir.

Bunday shaxsiy sifatlarga quyidagilar kiradi:

- o‘qituvchi shaxsining yo‘nalishi;
- o‘qituvchining kasbiy bilimlar;
- o‘qituvchining pedagogik qobiliyati.

O‘qituvchi shaxsining yo‘nalishi.

Pedagogik mahoratning shakllanishi o‘qituvchi shaxsining yo‘nalishi-o‘quvchiga munosabat, ta’lim jarayoniga, ta’limning mazmuni

va mohiyatiga munosabat, ta'lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'trnini tushunish, ta'lim va tarbiyada mavjud imkoniyatlardan foy-dalanish muhim ro'l o'ynaydi.

O'qituvchi, avvalo, o'z kasbini sevishi o'quvchilar imkoniyatiga ishonishi, o'quvchilarni bilim olish, shaxs sifatida mukammalashga chin dildan harakat etadigan shaxs bo'lishi kerak.

Islom Karimov o'zining qator nutq va asarlarida o'qituvchi shaxsiga yuqori baho berdi. O'qituvchi shaxsi bolaga ta'sir etadigan asosiy omil ekanligini ko'rsatib, tarbiyaning o'zi tarbiyalangan shaxs bo'lishi kerakligini ko'rsatdi. O'qituvchi milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lishi ta'lim va tarbiyani mukammal tashkil etishi, yoshlarni bozor iqtisodiyoti amalga oshirilayotgan sharoitda yashash va faoliyat ko'rsatishga o'rgatish talab etiladi.

O'qituvchida tarbiya obyektiga nisbatan gumanistik yo'naliish ustun bo'lishi zarur.

O'qituvchining kasbiy bilimlari.

O'qituvchi o'zi ta'lim berayotgan fanini chuqur va mukammal bilishi va o'quvchilar bilan muloqot ehtiyojiga ega bo'lishi shart.

Har bir o'qituvchi o'zi o'qitayotgan fanning o'tmish tarixini hozirgi ahvolini va kelajagini mukammal bilishi kerak. Keng va asosli bilimga ega bo'lgan pedagog har bir darsini erkin o'tadi va qiyalmaydi. O'quvchilarning har bir savoliga javob bera oladi. Dars jarayonida kelib chiqqan muammoni o'quvchilar bilan erkin muhokama etadi va unga o'zining to'g'ri, aniq munosabatini bildiradi.

O'z fanini mukammal bilgan o'qituvchi mukammal savollardan o'zini chetga olmaydi.

O'qituvchi butun faoliyati davomida o'z ustida ishlashni bilimini kengaytirishi talab etiladi. Pedagogning g'oyaviy-siyosiy bilimi, nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy va texnologik bilimi mukammal bo'lishi kerak.

Talaba kasbiy bilimlarni chuqur egallash bilan birga amaliy pedagogik faoliyatini ham kengaytirishi kerak.

Pedagogik qobiliyat.

Pedagogik qobiliyat faoliyat davomida shakllanib, mukammalashib boradi.

Pedagogik qobiliyat o‘qituvchining o‘z faoliyatiga qanchalik yaroqlik ekanligini ko‘rsatuvchi sifatlardir. Turli tadqiqotchilar pedagogik qobiliyat haqida o‘z fikrlarini bildirishgan. Ularni umumlashtirib, 9 ta qobiliyat ko‘rsatilgan. Shular asosida pedagogik faoliyat muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin.

14.3. O‘qish va o‘qitish bo‘yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo‘naltirilgan pedagogik qobiliyatlar

1. O‘quvchi shaxsni rivojlanishini loyihalashga, o‘quvchilar bilan ishlash usullarini tanlab olishga imkoniyat beruvchi konstruktivididaktik qobiliyatlar;

2. Akademik qibiliyatlar;

3. Perseptiv qobiliyatlar;

4. Nutq qobiliyatları;

5. O‘quvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalg qiluvchi tashkilotchilik qobiliyatlar;

6. Avtoritar qobiliyatlar;

7. Kommunaktiv qobiliyatlar;

8. Pedagogik xayol;

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

I. DIDAKTIK QOBILIYATLAR. Mehnat ta’limi o‘qituvchining o‘quv materiallarini o‘quvchilarga tushunarli qilib aytib berish, o‘quvchilardan mustaqil ravishda faol fikrleshga qiziqish uyg‘otish qobiliyati.

II. AKADEMIK QOBILIYATLAR – fanning tegishli sohalarga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatlar.

Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanini o‘quv kursini hajmigina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi.

III. PERSEPTIV QOBILYATLAR. Mehnat ta’limi o‘qituvchining tarbiyalanuvchi ichki dunyosiga kira olish qobiliyat, o‘quvchilarning ruhiy holatlarini juda yaxshi tushunishi. O‘quvchilarni darsga tayyor yoki tayyor emasliklarini ko‘zidan biladi.

IV. NUTQ QOBILYATI – nutq yordamida, mimika, vositasida o‘z sikri mushohada his-tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyat. Bu o‘qituvchilik kasbining eng muhim qobiliyatlaridan biridir.

V. TASHKILOTCHILIK QOBILYATI – o‘quvchilar jamoasini yusushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etish, ruhlantirish qobiliyatları. O‘z ishini to‘gri rejalashtirish, vaqt ni boy bermaslik, vaqt ni to‘g‘ri taqsimlash, belgilangan muddatda ulgurish xususiyatlari ortiqcha vaqt sarflamagan hollarda, vaziyatga qarab to‘g‘ri qarorlar qabul qilish.

VI. AVTORITAR QOBILYAT – o‘qituvchi o‘quvchilarga bevosita hissiy irodaviy ta’sir ko‘rsatish va obro‘ qozonish qobiliyat. Avtoritar qobiliyatlar o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir kompleksiga, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat’iyligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish mas’uliyatini his etishga bog‘liq bo‘ladi.

VII. KOMMUNAKTIV QOBILYAT – bolalarga aralashish, ular faoliyatiga qo‘silib ketish qobiliyat, o‘quvchilarga turli yondashish yo‘lini topa olish, pedagogik munosabatlar o‘rnata olish pedagogik qobiliyatlarining mavjudligidir.

VIII. PEDAGOGIK HAYOL – o‘z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘rishda o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishi haqidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsni tarbiyalab yetish-tirishda, tarbiyalanuvchini qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat.

IX. DIQQATNI TAQSIMLASH QOBILYATI – o‘quvchi uchun diqqatini barcha xususiyatlari, hajmi, kuchi, iroda qila olishi ham muhimdir. Diqqatni ayrim bir vaqtda faoliyatning bir qancha turlari

o‘rtasida taqsimlash qobiliyati mehnat ta’limi o‘qituvchining ishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari:

1. *O‘qituvchi pedagogik faoliyatining qanday tarkibiy qismlari bor, uning mazmuni nimalardan iborat?*
2. *O‘qituvchining konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ pedagogik faoliyatlarning mazmuni nimalardan iborat?*
3. *O‘qituvchining pedagogik qobiliyati asosiy yo‘nalishlari qanday, uning mazmuni nimalardan iborat?*
4. *O‘qish va o‘qitish bo‘yicha qobiliyatlар, tarbiya jarayoniga yo‘naltirilgan pedagogik qobiliyatlар mazmuni nimalardan iborat?*

15-BOB. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY MAHORATI

Tayanch iboralar: pedagogik mahorat, kasbiy mahorat, kasbiy yetuklik, pedagogik texnika, pedagogik tajriba, pedagogik murabbiylik, usulik ishlasmalar, usubiy ishlar.

15.1. O'qituvchining faoliyati, uning tarkibiy qismlari

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimida o'quv tarbiyaviy jaryonni takomillashtirish natijasida barkamol, malakali mutaxassislarini tayyorlash, ularni raqobatbardosh, yetuk bo'lib yetishishlarida ta'lim muassasalarida olib boriladigan, amalga oshiriladigan uslubiy ishlar muhim o'ringa egadir. Uslubiy ishlar ta'lim-tarbiya jarayoni bilan shug'ullanadigan har bir o'qituvchi muhandis-pedagog, rahbar hodimlarning o'z malakalarini oshirishda katta ahamiyatga egadir. Chunki, kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'kidlangandek davr talabiga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun, avvalambor, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarining o'zлари yetuk, yuqori malakali bo'lishlari shart. Bu talabga javob berish uchun har bir o'qituvchi, muhandis-pedagog, rahbar uslubiy ishlar bilan shug'ullanishi va ularda qatnashishi zarur.

O'quv-tarbiya jarayoni ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash masalalaridan biri bo'lib **ta'lim mazmunini** takomillashtirish masalasi turadi. Chunki, ta'lim mazmuni o'quv reja, dasturlar, davlat hujjatlari bo'lib, ularni takomillashtirib borish va to'la-to'kis amalga oshirish natijasida ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligi sababli bu masala uslubiy ishlarda asosiy bo'lib hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan so'ng, ta'lim tizimida yangi bo'g'in o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimi paydo bo'ldi va hozirgi kunda 1500 dan ortiq kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar tashkil qilindi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida 280 dan ortiq tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislarini tayyorlash amalga oshirilmoqda. Bu tayyorlov yo'nalishlar bo'yicha o'quv rejalarini va dasturlar tayyorlangan bo'lib, ular tajriba-sinovdan o'tmoqda. Bu o'quv rejalarida umumta'lim fanlar, maxsus fanlar, umumkasbiy fanlar, ishlab chiqish ta'lifi amaliyoti ko'rsatilgan bo'lib, ularni takomillashtirishda uslubiy ishlarni amalga oshirilishi katta ahamiyatga egadir.

Metodik ishlar o'quv muassasalaridagi o'quv tarbiyaviy jarayonning holatini o'rghanish, ilg'or pedagoglar tajribasini o'rghanish, ularni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshiriladi.

O'quv muassasalari maxsus fan o'qituvchilarining faoliyati fagaqtgina nazariy va amaliy bilimlar berish ya'ni darslar o'tish bilan cheklanib qolmaslik ular faoliyatida har bir o'quvchi bilan shaxsiy ishslash, o'z ustida mustaqil ishslash, o'quvchilar guruhi bilan ishslash, o'z fani bo'yicha tashkiliy ishlarni olib borish, kabinet, laboratoriya, o'quv ustaxonalarini tashkil qilish va jihozlash, ota-onalar bilan ishslash, fanlar bo'yicha uslubiy komissiyalar ishida qatnashish va hokazolar bilan bog'liq.

Maxsus fan o'qituvchilar o'quvchilar guruhi bilan ishslash, ularning ishlarini tashkil qilish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z ustida har doim tinimsiz ishlashi kerak, buning uchun ular bilimini oshirib va takomillashtirib borish zarur. Chunki, oliy o'quv yurtlarida olgan bilimlari yetarli bo'lmay qoladi. Bu o'z ustida ishslashlar, izlanishlar, yaratishlarning asosida uslubiy ishlarni yotadi. Shuning uchun ham maxsus fan o'qituvchilardan o'z mustaqil ishlarini tashkilashtirishda, ularni ilmiy asosda tashkil etish lozim.

Ma'lumki, o'quv muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayoni ta'lifi, tarbiyaviy jarayon bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham muhandis-pedagoglar o'z ishlarini ilmiy asosda tashkil etishda ularning quyidagi tarkibiy qismlari (elementlari) tadbirlarini amalga oshirish zarur:

– o'quv jarayonida o'quvchilarni davr ruhida g'oyaviy saviyasini oshirish, ularda milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish;

- o‘quv jarayoniga fan va texnikaning sifat yutuqlarini joriy etish;
- o‘quv jarayonini tashkil qilish shakllarini maqbullashtirish, ya’ni dars turlarini qo‘llash (dars, birlashgan darslar) ilg‘or ishlab chiqarish ustalari bilan birgalikdagi darslar;
- ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishni maqbullashtirish (o‘quv-chilarda bilimga bo‘lgan chanqoqlik, qiziqishlarni boshqarish, tashkillashtirish);
- o‘quv jarayonini texnikaviy ta’limotini maqbullashtirish;
- o‘qituvchi va o‘quvchi mehnat sharoitini maqbullashtirish.

15.2. Pedagogik mahorat, pedagogik mahorat haqidagi ta’riflar, uning komponentlari: insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o‘rganish

Ta’lim muassasasining pedagog va maxsus fan o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirishda imkoniyatlari nihoyatda ulkan. Ammo ularni yagona maqsadga yo‘naltirish, ular faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish ta’lim muassasasi rahbaridan chuqr bilim va tajribani talab qiladi.

Pedagog kadrlarni malakasini oshirish tizimida ta’sirchanligi va ularga yaqinligi, vaqt, kuchni, moddiy resurslarni iqtisod qilish hamda boshqa jihatlardan qulaylik bilan ajralib turgani o‘z ish joylarida, ya’ni ta’lim muassasasida malaka oshirishdir. Ta’lim muassasasida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish o‘z ichiga quyidagilarni oladi: usulik ishlari, ishlab chiqarish kengashlari; ilmiy-amaliy seminar, konferensiyalar; pedagogik o‘qishlar; umumta’lim fan va maxsus fanlar usulik komissiyalari; ilg‘or tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; darslarga kirish va tahlil qilish; ochiq ko‘rgazmali darslar tanlovlari, chet ellar bilan hamkorlik; kompyuter va axborot, informatsion-texnik vositalar orqali bilim, tajriba o‘rganish va masofada malaka oshirish, kollej rahbarlarining pedagoglar bilan yakka va jamoaviy usulik ishlari va boshqalar. Bu tizimning buncha ko‘p qirraligi pedagog kasbining murakkab va jamiyatda muhim ijtimoiy ahamiyatga molikligidan dalolat beradi.

Pedagog mahorat rus tili lug‘atida «biror sohada mohirlik darajasi» deb talqin etiladi.

Pedagog mahorat tushunchasiga yagona ta’rif ham yo‘q, chunki ba‘zi mualliflar bu fazilat – pedagogning yagona xususiyatlari deb hisoblashsa, boshqalar bu bilim, ko‘nikma, malakalar ekanligini aytadi, uchinchilari – bu ikkalasini birlashtiradi, xususiyatlarini aytса, boshqa hollarda faoliyatni amalga oshirish darajasini aytadi va hokazo.

Pedagog mahoratining asosi ilk davrdayoq pedagogning tegishli bilim yurtida tayyorgarligida shakllanadi. Shuning uchun mahorat asosi bo‘lib, yuqori kasb mahoratining zarur, ammo yetarli bo‘lmagan sharti hisoblanadi.

Ta’lim muassasasida ishslashning birinchi yilidanoq pedagog tajribaning intensiv shakllanishi boshlanadi, uning boshi pedagog amaliyat davriga to‘g‘ri keladi. Aynan pedagog faoliyat tajribasi pedagog oliv o‘quv yurti bitiruvchisi ta’lim mobaynida olmagan narsalarini to‘ldiradi va mujassamlashtiradi. Unda kasbiy-pedagog faoliyatini amalga oshirish tajribasi, ijodiy faoliyat tajribasi, shaxs fazilatlarini namoyon etish tajribasi birlashtiriladi va uyg‘unlashtiriladi. Amaliy pedagog faoliyat jarayonida barcha olingan bilimlar takomillashadi, shaxs fazilatlari va pedagogik qobiliyatlar rivojlanadi, kasbiy ko‘nikma va malakalar shakllanadi. O‘z malakasiga ko‘ra mohir pedagog darajasiga ko‘tarilguncha bir necha yil o‘tadi.

Pedagogning bilim, ko‘nikma va malakalari pedagogik mahorati asoslarining tarkibiy qismi sifatida 2 darajada bo‘lishi mumkin.

Kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik va kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida egallangan-pedagogik tajriba ahamiyati.

Ya’ni, birinchi holda, pedagog oliv ta’lim muassasalarida o‘qish paytida olingan boshlang‘ich pedagogik tajriba bo‘lishi mumkin, ikkinchi holda, kasb-amaliy kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida olingan pedagogik tajriba bo‘ladi.

Albatta, birinchi daraja qancha yuqori bo‘lsa, ikkinchisiga erishish oson, pedagogik mahoratga erishish qisqa bo‘ladi.

Shakllanishi lozim bo‘lgan pedagog mahorat poydevori quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni qamrab oladi: pedagogning shaxsi, bilimlari va pedagogik tajribasi, bunda har bir tarkibiy qism o‘zlashtirilishi mumkin. Demak, pedagog mahorat asoslari har bir pedagogda shakllantirilib, pedagog mahorat darajasiga ko‘tarilishiga imkon beruvchi negizni yaratib berishi mumkin.

Amaliy faoliyatda amalga oshiriladigan pedagogik mahorat asoslari kasbiy yetuklikning belgisidir.

Pedagog mahoratining to‘rtta mustaqil elementini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- O‘quvchilar jamoaviy va shaxsiy faoliyatini tashkil qila olish mahorati;
- Ishontirish mahorati;
- Bilimlarni berish va faoliyat tajribasini shakllantirish mahorati;
- Pedagogik texnikani egallash mahorati.

Demak, pedagogik mahorat faoliyat rivojlanishining, pedagogik texnologiyani egallashning yuqori darajasini ifodalab, shu bilan birga pedagogning umuman shaxsini, uning tajribasini, fuqarolik va kasbiy o‘rnini ham ifodalarydi.

15.3. Pedagogik mahoratga erishish usullari va pedagogik mahoratni oshirish manbalari

Pedagogik mahoratga erishish usullari:

pedagogik mahoratga erishish usullariga quyidagilar kiradi:

1. Malaka oshirishning turli shakllarida ta’lim olish;
2. Mustaqil ravishda o‘z pedagogik bilimlarini oshirish;
3. Ilg‘or pedagogik tajribalarini o‘rganish va ulardan foydalanish;
4. Shaxsiy pedagogik tajribani tahlil etish va umumlashtirish;
5. Metodik hay’at, sho’ba va birlashmalar ishida ishtiroy etish;
6. Ochiq darslarga kirish va ularni tahlil etish, o‘zaro darslarga kirish;
7. Pedagogik o‘qishlar, konferensiylar va seminarlar ishida ishtiroy etish;

8. Pedagogik murabbiylik;
9. Metodik ishlalmalar tayyorlash va boshqalar.

Pedagogik mahoratni oshirish manbalari.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog kadrlari amalga oshiradigan uslubiy ishlari juda xilma-xil bo'lib, ularning quyidagi turlari mavjud:

- jamoaviy uslubiy ishlar: pedagogik kengash, pedagogik o'qish, uslubiy komissiyalar, ilg'or pedagogik tajribalar, muammoli seminarlar, ilmiy amaliy konferensiyalar.
- Yakka tartibdagi (shaxsiy) uslubiy ishlar: rahbar, pedagog va tarbiyachilarining mustaqil uslubiy ishlari; rahbar, pedagog, tarbiyachi kadrlarining o'z ustida mustaqil ishlashi; rahbarlarning pedagog kadrlar bilan yakka tartibdagi uslubiy ishlari.
- O'quv-uslubiy (pedagogika) xonasi.

Nazorat savollari:

1. *O'qituvchining faoliyati uning qanday tarkibiy qismlari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborat?*
2. *Pedagogik mahorat mazmuni nimalardan iborat?*
3. *Pedagogik mahorat haqidagi ta'riflarni izohlab bering.*
4. *Pedagogik mahoratning qanday komponentlari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborat?*
5. *Insonparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika tushunchalarini izohlab bering.*
6. *Pedagogik mahoratga erishish usullari va pedagogik mahoratni oshirish manbalari nimalardan iborat?*

16-BOB. KASB TA'LIMI DUAL TIZIMI

Tayanch iboralar: mehnat bozori, kasbiy malaka, korxonadagi ta'lim, dual ta'lim tizimi, ijtimoiy hamkorlik, tor ixtisoslik, mustaqil o'quv maydonlari, shtatli ishchi o'rnlari, texnologik jarayon, ishlab chiqarish amaliyotini, ishlab chiqarish moslashuvchanligi.


16.1. Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash

Jahonda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning ijobiy tomonlarini hisobga olib hayotga tatbiq qilish bizning ochiq siyosatimizdir. Bu borada hamkorlikning o'rni muhim. Kadrlar tayyorlashda eng avvalo, so'nggi paytlarda bizning hayotimizga kirib kelayotgan mehnat bozori talablari tushunchasini hisobga olish muhim o'ringa ega.

Mehnat bozori xalq xo'jaligining turli sohalari uchun malakali kadrlarni talab qiladi. Unda oddiy mutaxassisdan, to yirik tashkilotchi rahbarlargacha barchasi uchun talab o'zi egallab turgan lavozimiga mos malakaga ega bo'lishi hisoblanadi. Kasbiy malakaga ega bo'lish esa, respublikamizda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va malaka oshirish orqali amalgalashadi. Mamlakatimiz mustaqilligi fuqarolarimizga o'zining malakasini oshirishga, faqatgina, respublikamiz hududida emas, balki jahonning barcha joylaridagi ta'lim muassasalarida xalqaro hamkorlik orqali erishish imkoniyatini yaratib berdi. Biz bu borada Olmoniya ta'lim muassasalari tajribasi haqida to'xtalmoqchimiz.

Olmoniyada yoshlar ikki turdag'i kasb-hunarga tayyorlanadi. Ak-sariyat yoshlar o'zлari tanlagan kasb-hunar tayyorgarligini qishloq xo'jalik yoki sanoat tashkilotlarida, savdo-sotiq sohalarida, boshqarmalarda, sog'liqni saqlash muassasalarida, advokatura idolarida, devonxonalarda yoki jamoat xizmati joylarida oladi. Ayni paytda o'qish davomida o'quvchilar kasb-hunar maktablariga qatnab nazariy bilimga ega bo'ladi.

Germaniyada kasb-hunar ta'limining dual tizimini quyidagi jadvalda ifodalash mumkin:



1-jadval.

Qator ixtisosliklar, masalan, sog'liqni saqlash yoki ijtimoiy sohalarda o'qish faqat bitta maktabda olib boriladi (maxsus ta'lim muassasasida yoki maxsus kasb-hunar maktablarida). Bu maktab kasb-hunar o'qitish deb ataladi. Hozirgi paytda yoshlar orasida ofis (idora) xodimi ixtisosligi bo'yicha o'qitiladigan kasb-hunar maktablarida o'qish ishtiyoqi kuchli bo'lib, ularda tanlov asosida amalga oshiriladi.

Ayni paytda, metallarga ishlov berish, qurilish va mehmonxona, restoran xizmati sohalari bo'yicha o'qish uchun o'rinnlar bemalol.

Shuni qayd qilish lozimki, barcha kasb-hunarli yoshlar davr talabiga ko‘ra o‘z bilim malakalarini doimiy oshirib borishlari zarur.

Germaniya Respublikasida aksariyat yoshlar deyarli tengqurlarning to‘rtdan uch qismi ishlab chiqarish kasb-hunar ta’limini o‘taydilar. Ular o‘zlari tanlagan kasb-hunarlarini korxona sharoitiga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitda «dual tizim» asosida egallaydilar:

– o‘qitish jarayoni bevosita amaliyot bilan birgalikda olib boriladi. Unda ta’limning, taxminan, 40%ga yaqin nazariy bilim berilsa, 60%dan ziyodrog‘i bevosita ishlab chiqarish korxonalari yoki qishloq xo‘jalik bilan bog‘liq sohalarida olib boriladi;

– o‘qish jarayonini tashkil qilishda tahsil oluvchilarning kasbiy malaka olishga bo‘lgan talab va ehtiyojlari jadal sur’atda amalga oshiriladi;

– o‘qish bevosita ishlab chiqarish bilan birgalikda amalga oshirilganligi sababli moliyalashtirish mexanizmi yengillashadi;

Dual ta’lim tizimining quyidagi qator ustunliklari mavjud:

– o‘qish jarayoniga korxonalar jalb qilinganligidan ijtimoiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilganligi sababli kuchli siyosiy aloqadorlik usulini paydo bo‘lishiga olib keladi;

– xalq xo‘jalogining davlat tuzilmasi, shuningdek, nodavlat xususiy tadbirkorlik nuqtai nazaridan ham foydali molivayiv usul hisoblanadi.

– xalq xo‘jalogining rivojlanishida zarur bo‘lgan o‘rta pog‘onada malakali kadrlarning bandlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Ayni paytda, dual ta’lim usuli kamchiliklardan xoli emas:

– ta’lim muassasalarida tahsil oluvchilarga kasb-hunar sirlari nisbatan tor ixtisoslik doirasida – o‘qitilganligi uchun jamiyatda va xo‘jaliklarda ishlash uchun keng imkoniyat yaratilmaydi;

– birgina yo‘nalishda malaka oshirilgani sababli ular yaqin ikkinchi bir yo‘nalishga moslashuv mexanizmi cheklangan;

– kasb-hunar ta’limini amalga oshirish o‘ziga xos berk xarakterga ega;

– tor mutaxassislik berilganligi mutaxassis shaxsning tashabbus-korligi va erkinligi chegaralangan bo‘ladi;

- taklif qilinayotgan o'quv muassasalarini ishlab chiqarish korxonalarining smeta xarajatlariga bog'liqligi uchun ko'p sondagi tinglovchilar malaka oshirishdan foydalana olmaydi.

1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, dual tizimda kasb-hunar ta'lmini amalga oshirishda o'quv muassasasi va zavod bir paytning o'zida shartnomaga asosan, o'quvchi bevosita reja asosida haftada 3-4 kun zavodda real ishlab chiqarish sharoitda amaliyotni o'taydi.

Ikkinchini tomondan, maktabda ayni shu tanlangan kasbiga doir fanlar bilan bir qatorda majburiy fanlarni o'quv dasturlar asosida bilim yurtida o'qib nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'ladilar.

Ishlab chiqarish bilan o'quv yurtlarining hamkorligi bo'lajak kichik mutaxassisni ish joyi bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Odatda, kasb-hunarning turiga, murakkabligiga bog'liq holda o'qish muddati 2-3,5 yilni tashkil qiladi.

O'qish tamom bo'lgandan keyin o'quvchi bitiruv imtihoni topshiradi. Bitiruv imtihonida maktab o'qituvchilari bilan birligida korxona vakillari ishtiroy etadilar.

Bu esa, bitiruvchining bilim, ko'nikma va malakalari haqida korxona vakiliga aniq xulosa qilish imkoninini beradi.

Ayni paytda bitiruvchining imtihoni yaxshi baholanishi unga korxonada o'z o'rnini topishga omil bo'ladi.

Kasbiy faoliyatiga ega bo'lish uchun tanlangan kasblar yo'naliishlari 2-jadvalda keltirilgan. Undan ko'rindaniki, o'quvchi quyi pog'ona o'qish turi gimnaziyalarni tugatsa, oliy gimnaziyalar orqali universitet talabasi va undan keyin esa, yuqori malakali ishlarga joylashishi mumkin.

Agar gimnaziyaning oliy pog'onasidan keyin institutlarda o'qisa, malakali ish joyiga ega bo'ladi. Institutdan keyin yana o'qishni davom ettirsa, yuqori malakali mutaxassis bo'lish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Malakali mutaxassis bo'lish uchun institutni tamom qilish shart emas. Bu yo'lda maktabni tamomlagach, kasbga tayyorlovchi o'qish kurslarini dual tizimda kasbiy o'qitishni, so'ngra texnikumni tamomlab o'z maqsadiga erishishi mumkin.

Maktabni biror sabab bilan tamomlay olmasa ham kasbga tayyorlovchi o‘qish kurslari, dual tizimda kasbiy o‘qitish bosqichlari orqali malakali mutaxassis bo‘la oladi.

Yoshlar, agar, maktabni tugatgach, o‘qishni davom ettirmasa, malaika talab qilmaydigan ishga joylasha olishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, agar har bir fuqaro uzluksiz ravishda o‘z malakasini oshirishga intilsa, malakali mutaxassis bo‘la oladi, aks holda uning turmush tarzi ham past bo‘ladi.


Shu o‘rinda bizning mamlakatimizda ta’lim islohoti “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘rsatilgan uzluksiz ta’limda qo‘yilgan asosiy maqsad yoshlarimiz o‘rta umumiy ta’lim undan keyin akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tamomlashi majburiy ekanligini alohida ta’kidlash zarur.

Har bir fuqaro o‘qish davomida ma’lum ixtisoslikka ega bo‘lishi, ya’ni kasb-hunar sohibi bo‘lishi, albatta, mehnat bozoridagi raqobat asosida o‘z o‘rnini topishi, bu esa, ayni paytda buning ijtimoiy himoyalash omili bo‘ladi.

Kasb-hunar kollejlarida o‘qish davomida kasbiy malakalarga ega bo‘lish, ta’lim muassasalarining kichik korxonalar, hissador jamiyatlari, zavod va fabrikalar, fermer xo‘jaliklari bilan hamkorlikda bo‘lishi bizning ta’lim islohotlarimizda ham xalqaro tajribalar natiyalari chuqur o‘rganilganligini ko‘rsatadi.

Shuni qayd qilish lozimki, hozir mavjud yangi turdagи kasb-hunar kollejlariga Olmoniya tajribalari qo‘llanilmayapti (2-jadval). Bizga ma’lumki, kasb-hunar kolleji bitiruvchilari ichki va tashqi mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi uning bilim, ko‘nikma va malakalari ish beruvchilar talabini qondirishda dual o‘quv tizimini ta’lim jarayonida joriy qilish imkoniyatlari mavjud.

Yangi turdagи ta’lim muassasalari kasb-hunar kollejlarida tajriba sinov tariqasida dual tizimni o‘quv jarayoniga qo‘llana borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.



2-jadval.

16.2. Ta'limgni ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakli turlari

O'quvchilar ishlab chiqarish ta'limgini korxonalarda guruh ustasining rahbarligida o'tadilar.

O'qitishni tashkil qilishning eng ko'p tarqalgan shakllari quyidagilardir:

- guruhlarni korxona yoki tashkilot ajratgan mustaqil o‘quv maydonlarida o‘qitish;
- o‘quvchilarni alohida-alohida jamoalarga bo‘lib, ishlab chiqarish guruhlarida o‘qitish;
- o‘quvchilarni malakali ishchilar jamoalari tarkibida o‘qitish;
- o‘quvchilarni murakkab mashina va mexanizmlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha individual ish o‘rinlarida o‘qitish;
- korxonaning shtatlari ishchi o‘rinlarida ishlab chiqarish amaliyotini o‘tish.

Guruhi o‘quv ishini tashkil qilishning u yoki bu shakli qator shartlarda:

- o‘quvchilar o‘rganayotgan kasb va mutaxassisliklardagi ishchilarning mehnatlarini tashkil qilish shakllari;
- texnologik jarayonning tashkil qilinishi.

Guruhni mustaqil o‘quv maydonlarida o‘qitish, o‘quvchilar bajarayotgan topshiriqlar bir xil bo‘lganda o‘quv mashg‘ulotlarini tizimli tarzda o‘tish uchun eng qulay sharoitlar yaratadi va o‘quv ustasiga darsdan ishlab chiqarish ta’limini tashkil qilishning eng mahsuldar shakli sifatida foydalanish imkonini beradi. Shuning uchun o‘qitishning bunday turi va kasb xarakteri yoki korxonalardagi mehnatni tashkil qilish sharoitlari imkon bergan vaqtida qo‘llanadi.

Ko‘pgina korxonalardagi ayrim sexlar yoki maydonlar ma’lum turdagи mahsulotlarni chiqarishda mutaxassislashtirilganligi tufayli o‘quv maydonlarini korxonaning bir necha sexlaridan ajratishga erishish kerak va bunday hollarda o‘quvchilarni bir maydondan ikkinchisiga ko‘chirib o‘qitishni maxsus reja asosida o‘tkazish lozim. Agar bir ishlab chiqarish maydonida guruhi qo‘sib o‘qitish mumkin bo‘lmasa, bunday hollarda o‘quvchilarni alohida-alohida jamoalarga bo‘lib o‘qitiladi. Usta o‘quv guruhibi alohida jamoalarga ajratadi va har bir jamoa mustaqil o‘quv-ishlab chiqarish topshirig‘ini bajaradi.

O‘quvchilarning o‘quv jamoalaridagi ishlari bevosita ishlab chiqarish ta’limi ustasining rahbarligi ostida o‘tadi. O‘ta murakkab

va javobgarlikni talab qiluvchi ishlarni bajarishda o‘quvchilar jamoalariga yuqori malakali ishchilar biriktiriladi. Ishning jamoali shakli eng mahsuldor hisoblanadi. O‘quvchilar jamoasiga ma‘lum ishlab chiqarish rejasи beriladi va shu orqali ularda o‘z ishlariga, jamoaga xizmat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarish maydonining ishiga javobgarlikni his etishni tarbiyalash uchun zamin yaratiladi.

O‘qitishning jamoaviy shakli o‘quvchilarni tog‘ sanoati va qurilish kasblariga tayyorlashda, mehanika-yig‘uv ishlari chilangarlari hamda sanoat jihozlarini ta‘mirlovchi chilangarlarni, elektr ustalari va boshqa kasbdagi kishilarni tayyorlashda keng qo‘llaniladi.

Jamoalarni to‘ldirishda usta har bar o‘quvchining jismoniy rivojlanganligiga individual qobiliyati, tayyorgarligi va malakasini nazarda tutishi kerak.

O‘quvchilarni malakali ishchilar jamoasi tarkibida o‘qitish ishlab chiqarish sharoitlariga hamda o‘quvchilarni jamoalarga taqsimlab o‘qitish mumkin bo‘lmagan yoki maqsadga muvofiq bo‘lmagan hollarda, masalan, murakkab agregatlar va mashinalarga xizmat ko‘rsatish (elektrovoz, mashina mashinisti) kasblariga o‘rgatishda, kimyoviy ishlab chiqarish apparatchilari, tog‘ jinslarini erituvchi ishchilarning yordamchilarini va bashqalarni tayyorlashda qo‘llanadi.

O‘quvchilarni malakali ishchilar jamoalari tarkibida o‘qitishda o‘quv yurtining ustasi o‘quvchilarning faoliyatlarini alohida sinchkovlik bilan nazorat qiladi va sex rahbarlaridan faqat aniq belgilangan ishlarni bajarishlarini, ishlar belgilangan izchillikda berilishini hamda o‘qitishning tushunarligi va qurbi yetarliligi kabi didaktik prinsiplarning buzilmasligini talab qiladi.

O‘quvchilarni individual ish o‘rinlarida o‘qitish o‘quvchilar alohida mashina, stanok, mexanizm, apparat va shu kabilarga xizmat ko‘rsatish uchun biriktirib qo‘yliganda amalga oshiriladi. O‘qitishning bu shaklida o‘quv ustasi o‘z o‘quvchilarining ishini muntazam kuzatib turadi, instruktajlar uyushtiradi va kerakli yordamni beradi.

Shtatli ish o‘rinlaridagi ishlab chiqarish amaliyoti o‘qitishning oxirgi oyalarida o‘tkaziladi. Topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchilar-

ga yangi texnika bilan jihozlangan yoki eng ilg'or texnologiya hamda murakkabligi va tipikligi jihatidan muayyan mutaxassislikka muvofiq keluvchi xilma-xil ishlar bilan ta'minlangan agregatlar ajratiladi. Shtatli ishchi o'rnida ishlovchi o'quvchilarining mehnat sharoitlari korxonadagi malakali ishchilarining mehnat sharoitlaridan farq qilmasligi kerak. Shtatli ish o'rnidagi ishlab chiqarish amaliyoti o'quvchilarini korxonaga malakali ishchi bo'lib o'tishida zarur bo'l-gan zavod tartiblariga odatlantiradi, tajriba bilan qurollantiradi.

O'qitishning bu davrida usta ishlab chiqarishning talab qilinadigan me'yorlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini tizimli tarzda nazorat qilishi, ularga yo'l-yo'riqlar berishi, bunda ulardagi tashabbus va ijodga intilishini har tomonlama o'stirishi, o'quvchilar qiynalib qolganlarida ularga yordam ko'rsatishi kerak.

16.3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvchanligi

Tayanch ishlab chiqarish korxonalari ustaxonalarida mashg'u-lotlar. Talabalarning korxonada ishlab chiqarish ta'limini olishlaridan asosiy maqsad – ularning kasbiy ko'nikma va mahoratlarini oshirish, kasbiy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilg'or ishlab chiqarish tajribasi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorlash va shular asosida kasb-hunar kollejlarini tugatgandan so'ng ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat ko'rsatishga o'rgatishdan iboratdir.

Talabalarni korxona ustaxonalarida o'qitish – malakasi kichik mutaxassislarni tayyorlashdagi hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu yerda talabalar ishlab chiqarish holati, yangi jihozlar va texnologik moslamalar, zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar.

Korxonada ishlab chiqarish ta'limi talabalarning kompleks ishlarni bajarishda muhim ko'nikmalarini mustahkamlashlari va takomillashtirishlariga, texnologik jarayonlarni rejalashtirish mahoratiga

ega bo‘lishlariga, turli mahsulotlarning assortimentlari bilan keng tanishib chiqishlariga yo‘naltirilgan.

Korxonalarda o‘qitish vaqtida o‘quvchilarda ishga bo‘lgan talab-larni to‘g‘ri tushunish, uning hususiyatlari va bajarilish shartlarini hisobga olish, o‘z mehnatini tashkil qilish va rejalashtira bilish, kamchiliklarning oldini olish, texnologik jarayonlarni hamda mehnat unumдорligini oshirish uchun o‘z bilimlaridan to‘la foydalana bilshida o‘z aksini topuvchi kasbga oid mustaqillik to‘liq tarkib topadi. Kasbga oid mustaqillik yosh avlodda tarbiyalanishi kerak bo‘lgan mehnat natijalariga yuksak ma’naviy javobgarlikni his qilish, kasb sharafini his etish bilan birikib ketadi.

O‘quvchilar yuqori malakali ishchilar va ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan har kuni muomalada bo‘lar ekanlar, ularning tajribalarini o‘zlashtiradilar, korxonaning ijtimoiy va ishlab chiqarish hayoti bilan tanishadilar, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarish rejasi va korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini bajarishdagi faoliyatida faol ishtirok etadilar.

Har bir kasb va mutaxassislik bo‘yicha bevosita korxonada o‘qitish hajmi, mazmuni va muddatlari mutasaddi tashkilotlar tamonidan tasdiqlangan o‘quv dasturlariga muvofiq belgilanadi.

KHK o‘quv rejaga muvofiq korxonalarda ishlab ishlab chiqarish amaliyotiga ajratiladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti. Ishlab chiqarish amaliyoti kasbiy tayyorgarlikning yakuniy bosqichini tasvirlaydi va o‘qitishning so‘ng‘gi oyalarida o‘tkaziladi. Ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida yechiladigan vazifalarga quyilagilar kiradi: talabalarning ishlab chiqarish sharoitlariga ijtimoiy, psixologik va fiziologik jihatdan moslashishi; kasbiy bilim, ko‘nikma va mahoratlarni takomillashtirish; tanlangan kasb bo‘yicha ixtisoslashtirish; murakkab ishlab chiqarish ishlarini bajarishda mustaqil ishlash tajribasini to‘plash; progressiv texnologiyalar va zamonaviy jihozlarni, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini o‘rganish; yuqori unumli asbob va moslamalarni, ishlab chiqarish ilg‘orlari tajribasini o‘zlashtirish; korxona texnik

va texnologik hujjatlarni, ish o‘rinlarida mehnatni ilmiy tashkil qilish masalalarini o‘rganish; ko‘nikma va mahoratni shakllantirish, bilimlarni amaliyotda qo‘llash, murakkab ishlab chiqarish vazifalarini yechishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish amaliyoti tayanch ishlab chiqarish korxonasi ish o‘rinlarida tashkil etiladi. Korxona odatda, amaliyotga rahbarlik qilish uchun muhandis-texnik xodimlar va malakali mutaxassislarini ajratadi. Ta’lim olishning bu davrida talabalar korxonada mustaqil ishlashga to‘liq tayyorlanadilar.

Agar korxona o‘z bazasidagi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv yurti o‘quvchilarining barchasini o‘quv dasturlari va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beruvchi ish o‘rinlari bilan ta’minlay olmasa, o‘quv yurti bilan karxona o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosida ishlab chiqarish ta’limini boshqa korxonalarda o‘tkazishga ruxsat beriladi.

Korxonalarda o‘qitishga tayyorlash.

O‘quvchilarining korxonalarda ishlab chiqarish ta’limini muvafiqiyatli o‘tashlari uchun korxonalarda o‘quv dasturlariga muvofiq ishlab chiqarish va nazariy jihatdan tayyorlash ishlari o‘tkaziladi. Bundan tashqari, o‘quvchilarni, albatta, korxonadagi yong‘inga qarshi tadbirlar, xavfsizlik texnikasi va mehnatni muhofaza qoldilari bilan tanishtirish lozim.

Ishlab chiqarishda o‘qitish boshlanishida bir oy oldin o‘quv yurti korxona bilan ishlab chiqarishda o‘qitishga yuborilayotgan o‘quvchilarining miqdorini (Kasblar bo‘yicha) aniqlab har bir o‘quvchi o‘quv dasturi hamda ishchining malaka darajasiga muvofiq keluvchi malaka tavsifnomasi talablarida nazarda tutilgan barcha mustaqil ishlarni bajarishni o‘rganishi uchun ishlab chiqarish ta’limini o‘tkazish rejasini belgilaydi.

O‘quvchilarining ishlab chiqarish ta’limini tashkil etish uchun korxona quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

– o‘quvchilarga haq to‘lanadigan ish o‘rinlari beradi (o‘qitish sifatini oshirishda maqsadga muvofiq deb topilsa), mustaqil o‘quv

maydonlari va ishlab chiqarish obyektlarini ajratadi, o‘quvchilarni dasturlar talablariga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish ishlari bilan ta’minlaydi;

– o‘quvchilarning mehnat qilishlari uchun sharoitlarni yaratadi, o‘rganayotgan kasbi va mutaxassisliklariga aloqasi bo‘lgan texnika va jihozlardan foydalanishga ruxsat beradi;

– ish topshiriqlarini (ishda bekor turib qolishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘quvchilarning ishlab chiqarish topshiriqlarini) o‘z vaqtida bajarishlari uchun kerak bo‘ladigan materiallar, yarimfabrikantlar, texnikaviy hujjatl, jihozlar, asbob va moslamalar bilan ta’minlaydi, o‘quvchilarning yanti texnika va mehnat unumдорligi usullarini egallashlari uchun sharoit yaratadi;

– o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq berish va texnologik jarayonlarda rahbarlikni tashkil qiladi, shuningdek, kerakli o‘quv yurti o‘quv ustalariga ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazishlarida yordam berish uchun yuqori, malakali ishchi va muhandis-texnik xodimlarni ajratadi;

– o‘quvchilarning bajargan ishlarini qabul qilish, hisobga olish va texnikaviy nazoratni mazkur ishlab chiqarishda qabul qilingan tartibda uyushtiradi;

– o‘quvchilarga o‘qitish davomida ishlab chiqarish hisobidan maxsus ish kiyimi, maxsus poyabzal, shaxsiy himoya vositalari, o‘rganilayotgan kasb va mutaxassislik ishchilar uchun belgilangan tartibda ayrim imtiyozlar beradi;

– o‘quv yurtining o‘quvchi va o‘quv ustalariga mehnatni muhofaza qilish hamda ishlab-chiqarish sanitariyasining talablariga javob beradigan ishlab chiqarish-maishiy, binolarini ajratadi;

– ishlab chiqarish ta’limi o‘quv ustalariga vaqtincha foydalanish uchun (o‘quvchilarga ishlab chiqarish ta’limini berish davrida) maxsus ish kiyimi, maxsus poyabzal va shaxsiy himoya vositalari beriladi.

Xavfsizlik texnikasi muhandisi yoki uning vazfasini bajaruvchi shaxs o‘quvchilarni texnika xavfsizligi qoidalari va yong‘inga qarshi tadbirlar bilan tanishtiradi. O‘quvchilar ish boshlashlaridan oldin sex,

maydon ma'muriyati ma'lum ish o'rnida o'quvchilar bilan (alohida-alohida, jamoa, guruh shaklida) tegishli suhbatlar o'tkazadi. Ishlab chiqarish ta'limini qayd qilish jurnalida, suhbat o'tkazilgan sana, uning mavzusi va unda ishtirok etgan o'quvchilarning ism-shariflari yozib qo'yiladi.

Zarur hollarda korxona yoki tashkilot o'quvchilarni ish joyiga olib kelish va ishdan olib borib qo'yishni o'z hisobidan (yoki o'z transport vositalari bilan) ta'minlaydi.

O'quvchilarga o'quv dasturi talablarida nazarda tutilgan kerakli malakani egallashlarida korxona ma'muriyati tegishli yordam berishi muhimdir. Buning uchun o'quv ustasi katta usta bilan birlgilikda korxona rahbarlari va ishlab chiqarish mas'ularini kasbga oid xarakteristika (malaka tavsifnomasi) va o'quv dasturlari mazmuni bilan tanishtirishi lozim. Ana shular asosida ish o'rinni tanlanadi va joylashtirish belgilab chiqiladi.

Ishlab chiqarish amaliyotini to'g'ri tashkil qilish o'quv ishlarini tashkil qilishning qanday shakllari tatbiq qilinishi mumkinligini aniqlash uchun o'quv yurtlarining rahbarlari va o'quv ustalari quyidagi qo'llanishlari mumkin:

- korxonadagi ishlab chiqarish jarayoninida qo'llanilayotgan mehnatni tashkil qilish shakllarini o'rganishlari;

- ishlab chiqarish ta'limini qaysi sex yoki maydonlarda tashkil qilinsa yaxshiroq bo'lishini aniqlash, ishlab chiqarish ta'limi dasturini rejali tarzida o'rganish, yuksak texnologiya va mehnatning usullarini egallashlariga imkon beruvchi ishlarining bajarilishiga erishishlari;

- o'quvchilarni har bir ish o'rnida o'quv dasturlari talablariga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish ishlari bilan ta'minlashlari;

- korxonada har bir guruh o'quvchilari uchun o'qitishni tashkil qilish shakllarini aniqlashlari kerak.

Ish o'rinnarini tanlashda ishlab chiqarish ta'limi ustasi barcha ish o'rinnarining iloji boricha sexda kompleks tarzda joylashgan bo'

lishini, o'quvchilar ishlashlari uchun kerak bo'lgan jihozlar tutash mutaxassisliklari bo'yicha bajaradigan turli ishlarning xarakteriga muvofiq kelishini, hamda ishlarning asta-sekin murakkablashtirishga imkon berishni nazorat qilib boradi. Uchastka va ish o'rinalidagi texnologik jarayonlar ishlab chiqarish texnologiyasining hozirgi zamon talablariga javob berishi, ishlarning hajmi guruhdagi barcha o'quvchilarni band qilishi kerak. O'quvchilar uchun mo'ljallangan ish o'rinalari xavfsizlik texnikasi talablarga javob berishi kerak.

Ish o'rinalini tanlab bo'lgach, o'quv ustasi o'quvchilarni bir ish o'rnidan ikkinchisiga ko'chirish rejasini har bir o'quvchi hozirgi zamon texnikasini egallashi, o'z mutaxassisligi bo'yicha eng xarakterli bo'lgan ishlarni amaldagi me'yorlarga muvofiq bajarishni bilib oliishihi nazarda tutgan holda ishlab chiqadi. Rejani tuzishda ayrim o'quvchilarni bo'sh qolgan ish turlari bilan ko'proq band qilish zarurligini hisobga olish kerak.

Shundan so'ng, o'quv ustasi o'quvchilar jamoalarini to'ldiradi va rejaga asoslanib, o'quvchilarni bir maydon (ish o'rni)dan boshqasiga ko'chiradi. O'quvchilarni bir ish o'rnidan boshqasiga ko'chirish rejasini o'quv ustasi oldindan sex ustalari bilan kelishib oladi va unitasdiqlash uchun sex boshlig'iga tavsiya qiladi.

O'quvchilar jamoalarini to'ldirish vaqtida jamoalarning kuchini deyarli tenglashtirishga harakat qilish lozim. Bu har bir jamoaning yaxshiroq o'quv-ishlab chiqarish muvaffaqiyatlariga erishishlariga imkon beradi yoki o'z navbatida tarbiyaviy ishlarni o'tkazishda, turli xil musobaqalar tashkil qilish va unga yakun yasashda muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni ishlab chiqarish ta'limi uchun korxonalarga ko'chirish, o'quvchilarni ishlab chiqarish sharoitlarida o'qitishga o'tkazish – kasbga tayyorlashda eng muhim bosqichidir. Buni malakali ishchining mustaqil ishi muqaddimasi desa bo'ladi. O'quvchilarning sex rahbarlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, o'quv yurtlarini ilgari bitirib chiqqanlar, taniqli kishilar va boshqalar bilan uchrashuvlar tashkil qilish maqsadga muvofiqidir. Sex boshlig'i va ishlab chiqarish

ilg‘orlari korxonaning ajoyib an’alarini gapirib berishlari hamda o‘quvchilarni bu an’alarini davom ettirishga da’vat etishlari mumkin.

O‘quvchilarni ish o‘rinlariga taqsimlashdan oldin korxonaning xavfsizlik texnikasi bo‘yicha injeneri, maydon ustasi bilan birqalikda ularni ishslashning xavfsiz usullari, korxonaning yong‘inga qarshi texnikasi bilan tanishtiradilar.

O‘quvchilar ishlab chiqarish ta’limi davrida bajargan ishlari uchun korxona, qurilish, tashkilot o‘quv yurtiga joriy ishbay asosidagi narxlarda yoki mazkur korxonada (tashkilotda) qo‘llaniladigan vaqtincha oylik tarifida mehnatga mukofotli, rag‘batlantirish tizimini va ish haqiga koeffitsientlar qo‘sishni qo‘llagan holda pul summasini o‘tkazadi. Har oyda, ish haqi to‘lash uchun belgilangan muddatda, ushbu summa o‘quv yurtining joriy hisobiga o‘tkaziladi.

O‘quvchilarni ishbay ish bilan ta’minalash kerak, bu mehnat unumdorligini oshirishga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Agar o‘quvchilar korxona aybi bilan ishsiz turib qolsalar, ularga korxona ishchilariga ishsiz turib qolganlarida to‘lanadigan tartibda haq to‘lanadi. Agar o‘quvchilar korxona aybi bilan tizimli tarzda ishsiz turib qolsalar, o‘quv yurti korxonani bundan xabardor qilib, o‘quvchilarda ishlab chiqarish ta’limini o‘tashlari uchun boshqa korxonaga yo‘llashga haqlidir.

Korxonalarda o‘qitishga rahbarlik qilish.

O‘quv guruhi ishlab chiqarish amaliyotini korxona sexlarida o‘tashga o‘tganda ishlab chiqarish ta’limi ustasining roli va javobgarligi yanada ortadi. U faqat o‘z ishini yaxshi bilibgina qolmay, qo‘yilgan maqsadga erishishda tezkorlik va qat’iylik ko‘rsata olishi, mashg‘ulotlarni uyuştirish va o‘tkazish usullariga taalluqli masalalarni hal qilishda va shu kabilarda to‘g‘ri yo‘l topa bilishi kerak. Usta bu davrda o‘quv-ishlab chiqarish jarayonini ishlab chiqarishning real sharoitlariga doimo moslashtirib boradi, o‘z faoliyatini korxona xodimlari bilan muvofiqlashtiradi. Shuning uchun ishlab chiqarish ta’limi ustasining roli bu davrda saqlanibgina qolmay, balki yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. U o‘z guruhidagi o‘quvchilarning

ta'lim va tarbiyasi sifatiga javobgardir. Butun amaliyot davomida ishlab chiqarish ta'limi ustasi o'quvchilarning korxonada olayotgan ta'lim va tarbiyasiga usulik rahbarlikni hamda tizimli tezkor nazoratni amalga oshiradi. U dasturni har bir o'quvchi tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishi uchun kerakli choralarini ko'radi, o'quvchilarni ishlab chiqarish topshiriqlari bilan o'z vaqtida ta'minlanishlarini nazorat qiladi, o'quvchilarning ishlarini kuzatadi, ular tomonidan ishlab chiqarish me'yorlarini, korxonaning ichki tartib qoidalariga rioya qilishlarini va o'quvchilar bajarayotgan ishlarning texnikaviy talab-larga muvofiqligini tekshiradi.

O'quv ustasi ishlab chiqarish ilg'orlari, tajribali ishchilar bilan mustahkam aloqa bog'laydi, o'qitish ishlarini korxonaning jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda olib borishga intiladi. Korxonalarda olib boriladigan ishlab chiqarish ta'limi davrida o'quvchilarga beriladigan yordamning eng tezkor shakllaridan hisoblanuvchi kirish, kundalik va yakuniy yo'l-yo'riqlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ishlab chiqarish sharoitlarida guruh, jamoa va har bir o'quvchi bilan ishslash imkoniyatini beradi. Biroq, yo'l-yo'riqlar o'tkazishning bir necha o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir.

Kirish yo'l-yo'rig'i mashg'ulot mavzusining o'quv vazifalari, ishlab chiqarishning xarakteri va o'quvchilar mehnatini tashkil qilish sharoitlariga muvofiq belgilanadi. Guruh yoki jamoaga kirish yo'l-yo'rig'i berishdan maqsad, o'quvchilarning qilinadigan ishlarni bajarish usullarini egallashlarida kerakli yordamni berishdir.

Nazorat savollari:

1. *Kasb-hunar ta'imini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash qanday amalga oshiriladi, uning mazmuni nimalardan iborat?*
2. *Ta'limini ishlab chiqarish orqali amalga oshirishning qanday asosiy shakllari bor, uning mazmuni nimalardan iborat?*
3. *O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligining mazmuni nimalardan iborat?*
4. *O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilar ishlab chiqarish moslashuvchanligi qanday amalga oshiriladi?*

III BO‘LIM. KASB TA’LIMI MUASSASALARINI BOSHQARISH

17-BOB. KASB-HUNAR TA’LIMINI BOSHQARISH

Tayanch iboralar: boshqaruv tizimi, boshqaruv organlari, boshqarishning ilmiy asoslari, boshqarish tamoyillarini, xo‘jalikni rejali yuritish, kadrlarni to‘g‘ri tamlash, sohasida yagona davlat siyosati, uslubiy ta‘minlash, nizom, ustav, o‘quv-tarbiyasi ishlari, ilmiy-uslubiy ishlari.

17.1. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslari

Mustaqil O‘zbekiston davlatini har tomonlama rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash ko‘p jihatdan zamon talabiga javob beradigan rahbar va mutaxassislarini tayyorlash sifatiga bog‘liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv kadrlarini tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarining roli katta, albatta. Kasbiy oliy ta’limning asosiymaqsadlaridan biri, bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash, ya‘ni o‘quvchilarda zamonaviy fikrni shakllantira oladigan, xo‘jalik yuritish va boshqaruvda yangicha usullarni qo‘llay oladigan, shuningdek, rahbarlik san’ati sirlarini o‘rgana oladigan darajada nazari va amaliy bilimlar berishdan iboratdir.

Barcha sohalardagi islohotlarni amalga oshirishda boshqaruv apparatining roli muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv apparatining tuzilishi deganda, boshqaruv apparati va ular orasidagi bog‘lanish tushuniladi. Boshqaruv apparatining tarkibi bir-biri bilan bog‘langan teng huquqli birikmalar va bo‘g‘inlar bilan to‘ldirilishi uning tizimi deyiladi.

Tashkiliy qism bu boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, boshqaruvchi tizim, subyekti tashkiliy tuzilishining shakli demakdir. U boshqaruv tizimining negizi sifatida maydonga chiqadi va kadrlar bilan boshqarishni tashkil qilish rasmiy qoidalarini tartibga soladi. Ana shuning uchun ham uning boshqaruv tizimidagi roli benihoya kattadir.

O‘zbekistonda boshqarishning ilmiy asoslari paydo bo‘lishi, o‘zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo‘lib, uning asosiy tamoyillari XIII–XIV asrlarga kelib O‘rta Osiyo Amir Temur hukmronligi davrida to‘la shakllangan edi. Bu davrda yuqori intizom, ijtimoiy himoya va oliv darajadagi boshqarish tizimiga ega bo‘lgan davlatning bunyodga kelishi o‘rta asr davridagi boshqarish uslublari o‘zida eng ilg‘or g‘oyalarni mujassamlashtirilganidan darak beradi. Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, uning insonparvarlik, kasbiy va ratsional usul bilan tashkil etilishi, uning negizida inson manfaatlari yotganligi, davlat siyosatining boshqaruvga ijobiy ta’siri dunyoda buyuk davlat paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Ma’lumki, boshqarish deb, ko‘zda tutilgan maqsad uchun qilinadigan harakat tushiniladi. Har qanday boshqarish asosida ko‘zda tutilgan maqsad yotadi. Boshqarishda boshqaruvchi tizim va boshqariluvchi tizimga amal qilinadi. Shunday ekan, boshqarish biror bir tizimni ikkinchi bir tizimga o‘zgartirishga aytildi. Boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizimga ta’sir ko‘rsatishda amal qilishi kerak bo‘lgan qonun qoidalarga boshqarish tamoyillari (prinsiplari) deb ataladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, boshqarishning quyidagi tamoyillarini keltirish mumkin va u tamoyillar bozor iqtisodiyoti sharoitida ham amal qiladi:

1. Demokratik tamoyili.
2. Siyosiy rahbarlik tamoyili.
3. Xo‘jalikni rejali yuritish tamoyili.
4. Ilmiylik tamoyili.
5. Kadrlarni to‘g‘ri tanlash tamoyili.

Boshqarishning tamoyillari bilan birga uning vazifalari ham mavjud. Boshqarishning vazifasi kishilarning subyektiv faoliyatini, birinchi navbatda boshqarish sohasidagi faoliyatini obyektiv qonunlarning talablariga ana shu qonunlar belgilab beradigan progressiv tendensiyalarning talablariga muvofiqlashtirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy qonunlarning mohiyatini, ularni amal qilish sharoitini bilish xalq xo'jaligining hamma bosqichlarida ilmiy asosda boshqarishni tashkil etishning eng muhim omili hisoblanadi. Shunday ekan boshqarishning quyidagi vazifalari (funksiyalari) amal qiladi:

1. Rejalahshtirish;
2. Muvofiqlashtirish;
3. Ishlab chiqish;
4. O'zgartirish kiritish;
5. Nazorat qilish.

O'zbekistonda ta'limdi boshqarish tizimi davlat xarakteriga ega. Bu jarayonga hamma bab-baravar, shuningdek, hukumatning mahalliy organlari vakillari jalb etiladi. Ishbilarmon doiralar, jamoat tashkilotlari va fondlar ta'limenti boshqarishda ishtirok etmaydilar. Ularning ishtiroti ta'limenti moliyaviy va moddiy jihatdan ta'minlashga ma'lum darajada imkoniyat tug'dirgan bo'lur edi.

Ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining (1997-yil) 3-moddasida, belgilangan ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda, O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limenti boshqarish respublika qonunlari belgilaydigan vakolatlar doirasida faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday davlat organlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi;
- O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi (1998-yil martgacha) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (OO‘MTV) (1998-yil martdan);
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ta’lim Vazirligi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari (Toshkent shahar, viloyatlar hokimiyatlari);
- Xalq ta’limi hududiy boshqarmalari (1998-yil martgacha);
- O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmalari (1998-yil martdan);
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlarga quyidagilar kiradi:
 - Ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
 - Ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
 - Ta’limni rivojlantirish dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish;
 - Ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
 - Ta’lim muassasalarini akkreditatsiyalardan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash;
 - Boshqa davlatning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasining hududida ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;
 - qonun hujjatlari muvofiq xorijiy davlatlarning ta’lim to‘g‘risida hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
 - davlat ta’lim standarlari tasdiqlash;
 - davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
 - davlat grantlari miqdorini va ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
 - davlat oliy ta’lim muassasalari rektorlarini tayinlash;

- ta'lim oluvchilarni akkreditsiya qilingan bir ta'lim muassasa-sadan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;
- ta'lim muassasalarini faoliyatini muofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayorgarlikga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;
- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalari, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayonlariga joriy etish;
- o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
- ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularni malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish.

Vazirlar Mahkamasi 1998-yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Ushbu Markazni tashkil etishdan maqsad, kadrlar tayyorlash Miliy dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish hisoblanadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish;
- akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarning turlarini va yo'naliishlarini belgilash, ularni respublika hududlarining georeja, demoreja va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, oqilona joylashuvni ta'minlash;

- akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarni loyihalash va qurilishga bosh buyurtmachi funksiyani bajarish;
- mayjud o'quv yurtlarini qayta tiklash va kapital ta'mirlash sifatini ta'minlash;
- davlat ta'lif standartlarini ishlab chiqarish va amalga oshirishni nazorat qilishni ta'minlash;
- akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari pedagogik va muhandis-pedagogik xodimlarni tanlab olish, ularni tayyorlash malakasini oshirish, malaka darajasida faoliyatlarini nazorat qilish;
- malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha mamlakatdagi va dunyodagi ilg'or tajribalarni tahlil qilish, umumlashtirish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming moddiy va ta'limiy bazasi sifatiga qo'yildigan talablarni ishlab chiqarish;
- akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini axborotlar bilan ta'minlash, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish hamda o'quv jarayoniga joriy etishni tashkil qilish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatlarini boshqaradigan me'yoriy aktlar loyihalarini ishlab chiqish;

Mahalliy davlat hokimiyati organlari (hokimiyatlar) quyidagi funksiyalarni bajaradilar:

- ta'lim muassasalarning faoliyati mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydilar;
- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;
- o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarni vakolat doirasida moliyalash miqdorini va imtiyozlarini belgilaydilar;
- ta'lim sifatida va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishni ta'minlaydilar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi hududiy boshqarmalari Qoraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimiyatlari tarkibida tashkil etiladi va bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi (Markaz)ga bo‘ysunadi. Ular o‘z tuzilmasiga va shtatlar soniga ega bo‘lib, quyidagi funksiyalarini bajaradilar:

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini faoliyatlarni muvofiqlashtirish, boshqarish va uslubiy ta’minlash;
- davlat ta’lim standartlarini amalga oshirish;
- akademik litseylar, kasb-hunar kollejlarining qurilishi binolar va inshootlarni qayta tiklashni tashkil etish va nazorat qilish;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini iste’molchi korxonalar bilan (ularning mulkchilik shaklidan qat’i nazar) mujassamlashuvini, patronat va vasiylikni tashkil etishni ta’minlash;
- hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda, mavjud akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini qayta o‘zgartirish, hamda yangi tashkil etish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- ta’lim muassasalarini darsliklar, o‘quv adabiyotlari va didaktik materiallar, shuningdek, kompyuter texnikasi bilan ta’minlash va jihozlash.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish tuzilmasining keyingi bo‘g‘ini o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini o‘quv yurtlari hisoblanadi.

Hududiy boshqaruvi organlari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi darajasiga qo‘yiladigan talablarga o‘quv yurtlari tomonidan rioxqa qilinishga javob beradilar va ularni nazorat qiladilar, litsey va kollejlarga ularning faoliyatlarini rivojlantirishda kerakli tashkiliy-huquqiy yordam ko‘rsatadilar, hudud, ishlab chiqarish va o‘quv yurtlarining rivojlanish manfaatlarini muvofiqlashtirishga imkon beradilar.

Shunday qilib, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish tuzilmasi uch darajali hisoblanadi (respublika, hududiy va nuqtali-o‘quv yurti).

17.2. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni

O‘quv yurtlarida, birinchi navbatda kadrlar tayyorlash sifatiga javobgar bo‘lgan mustaqil bo‘linma (tashkiliy shakli va kimga bo‘ysunishdan qat’i nazar) sifatida, o‘quv jarayonini boshqarish, xo‘jalik-moliyaviy faoliyat va boshqa kasbiy tayyorgarlikning zaruriy darajasini ta’minlaydigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish ta’lim muassasasining Nizomi va Ustavi asosida amalga oshiriladi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari haqida Nizom

«Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari to‘g‘risida»gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-may-dagi 204-sonli Qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizom mazmunida quyidagi maslalar yoritilgan bo‘ladi.

1. Umumiy qoidalar.
2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariiga o‘quvchilarni qabul qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
4. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish.
6. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini mablag‘ bilan ta’minlash va moddiy-texnika ta’minoti.
7. Xalqaro hamkorlik.

Ta’lim muassasasining Ustavi rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasida, amalda bo‘lgan «Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi (maktabi)ning muvaffaq namunaviy Ustavi» Xalq ta’limi Vazirligining 221-sonli (1998-yil 17-dekabr), «O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining Ustavi» esa, O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 5-sonli (1998-yil 5-yanvar) Qarorlari bilan tasdiqlangan. Mazkur Ustavlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ta'lif muassasasi Ustavini ishlab chiqish tartibi to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Ta'lifni boshqarishning vakolati mas'ul davlat organi tomonidan tasdiqlanadi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralarida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ta'lif muassasasining Ustavida ta'lif muassasasining joylashgan o'rni, uning turi, ta'lif tili, guruh raqobarlari, o'qituvchilarining huquq va burchlari, ta'lif oluvchilar va ularning ota-onalarining huquq va burchlari, shuningdek, ta'lif muassasasining iqtisodiy tuzilishi va xo'jalik faoliyati, boshqarish tartibi aniq belgilanishi ko'rsatib berilgan.

Ta'lif muassasasining Ustavi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. Qisqacha ta'lif muassasasi haqidagi ma'lumotlar.
2. Ta'lif muassasasining maqsad va vazifalari.
3. Ta'lif muassasasini boshqarish.
 - a) ta'lif muassasasini boshqarishning oshkoraliq, demokratik va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi;
 - b) pedagogik-jamoa Kengashi;
 - v) direktor, uning huquq va burchlari;
 - g) direktoring o'quv-tarbiyasi ishlari bo'yicha o'rinnbosarining huquq va burchlari;
 - d) ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarining huquq va burchlari.
4. O'quv-tarbiyasi va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish:
 - a) ta'lif mazmunining Davlat ta'lif standartlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida belgilanishi;
 - b) o'quv jarayonini tashkil etish;
 - v) iqtidorli yoshlar bilan ishslash;
 - g) ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish tartibi;
 - d) qo'shimcha pulli mashg'ulotlarni joriy etish;

j) kunlik ish tartibi (seminar, mashg‘ulotlarning davom etishi, tannaffuslar, uy vazifalarini berish tartibi va hokazolar).

5. O‘qituvchi. Huquq va burchlari.

6. O‘quvchi. Huquq va burchlari.

7. O‘quv-ishlab chiqarish ta’limi ustalari, ma’muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.

8. Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyat va mas’uliyatlari.

9. Ta’lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo‘jalik ta’minoti.

O‘quv yurtlari darajasida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo‘yicha barcha ishlarni olib borish;

- o‘quv rejalari tuzilmalarni va dastur mazmunini belgilash;

- korxonalar, bandlik xizmatchilar, hududiy boshqaruv organlari va boshqalar bilan shartnomaga asosida ishchilar tayyorlash hajmlari va kasb-malaka tuzilmalarni belgilash;

- qo‘srimcha tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish va boshqa xizmatchilarni amalga oshirish uchun korxonalar, hamda tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;

- mustaqil ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish;

- o‘quv moddiy bazaning kelgusida rivojlantirishini hisobga olib, moliyaviy mablag‘larni taqsimlash va sarflash masalalarini mustaqil hal qilish.

Ma‘lumki, birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingan edi. Ushbu qonunning 10-moddasida ta’lim turlari bayon etilgan bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, muktabdan tashqari ta’lim kabilarni o‘z ichiga olishi nazarda tutiladi.

Qonunning 28-moddasida «Ta’lim muassasasini uning rahbari boshqaradi. Ta’lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin» deb ta’kidlangan. Shunday ekan, ushbu ta’lim muassasalarining bir

turi bo‘lgan kasb-hunar ta’limi ta’lim muassasalarini ham uning rahbari (direktor) boshqarishi belgilab qo‘yilgan. O‘rtalik maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini o‘quv yurti rahbari (direktor) bilan birga uning muovinlari boshqaradi. KHKlarda direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha, ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha va ishlab chiqarish ishlari bo‘yicha muovinlari, akademik litseydalarda esa, direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha, ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha muovinlari faoliyat yuritadi.

Nazorat savollari:

1. *O‘rtalik maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini boshqarishning qanday umumiyyat asoslari bor, uning mazmuni nimalardan iborat?*
2. *O‘rtalik maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarini boshqarishning qanday ilmiy asoslari bor?..*
3. *O‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqaruvida faoliyat ko‘rsatuvchi qanday vakolatli davlat organlari mayjud, ularning vakolatlari nimalardan iborat?*
4. *O‘rtalik maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga rahbarlik qiliuvchi vakolatli davlat organlari ishining mazmuni, vakolatli davlat organlari?*
5. *O‘quv yurtlari darajasida boshqaruv bo‘yicha qanday vazifalar hal etiladi, uning mazmuni nimalardan iborat?*

18-BOB. O'QITUVCHI VA RAHBARLARDA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUV MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH

Tayanch iboralar: *pedagogik boshqaruv, psixologik boshqaruv, menejment, menejer, ta'lim muassasasi menejmenti, me'yoriq-huquqiy baza, pedagogik jamoa, ijtimoiy boshqaruv, boshqarish dasturi, bozorning potensiali.*

18.1. Pedagogik, psixologik boshqaruv to‘g‘risida ma’lumot

Ta’lim muassasasi menejmenti haqida umumiyl tushuncha. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa, intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma’lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko‘rsatish demakdir.

Xo‘sish, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta’lim muassasasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushuniшимизда ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahlidinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

«Menejment» va «menejer» atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o‘z mulklari va xodimlarni o‘zlariboshqarganlardidan ko‘ra tanlangan yo‘nalish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlardidan so‘ng paydo bo‘ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga eri-

shish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so'z yuritilganda, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so'z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida bat afsil to'xtalib o'tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etishicha, ta'lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

- uzlusiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib borilishi;
- barcha darajadagi ta'lim boshqaruvi organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi;
- ta'limning me'yortiv-huquqiy bazasi rivojlantiriladi;
- moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;
- ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi;
- muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuning (1997-yil) 3-moddasida, belgilangan ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda, O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

18.2. Pedagogik jamoa – ta'lif muassasasini boshqarashning obyekti

O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasasini boshqarishning asosiy obyekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy mohiyati quyidagi ikki masalani yechishga qaratiladi: pedagoglar faoliyatini yo'naltirish va uni faol-lashtirish. Birinchi masalani hal qilish boshqaruv subyekti xodimlar faoliyatini talab etiladigan yo'nalishga soluvchi maxsus dasturni ishlab chiqish orqali amalga oshiradi. Ikkinci masalani hal etish shaxsning hissiy-ijtimoiy talablari (moddiy va ma'naviy, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, mehnatni tashkillashtirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish)ni rag'batlantirishga qaratilgan qulay sharoitlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyatni faollashtirishda boshqaruv dasturining sifati, ya'ni, uning aniqligi, real sharoitga asoslanganligi, pirovardida yuqori natija berishi, ishlanganlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir sohaga oid dasturlar alohida xususiyatlarga ega bo'ladilar, biroq ularning barchasida quyidagi qonuniyat kuzatiladi: bajariladigan ish qay darajada ko'proq ijodiy mehnatni talab qilsa, jamiyat shu darajada insonparvarlashib va demokratlashib boradi, cheklashlar qay darajada kam bo'lsa, tashabbuskorlik asosida ishslash darajasi ortib boradi.

18.3. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi

Ushbu qonuniyat o'qituvchilardan tashabbus, mustaqil qaror chiqara olish hamda o'z vazifasiga ijodiy yondashuvni talab qiluvchi pedagogik faoliyatga ham taaluqlidir. Shu sababli bu sohada bajarilishi qat'iy talab etiladigan direktiv dasturlarning kamroq qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bunday dasturlarda ish

tartibi, hujjatlarni yuritish va mehnat faoliyatining oxirgi natijasiga aniq talablarni belgilash orqali cheklanish ro'y berishi mumkin. Ta'lim natijasiga nisbatan talab qat'iy belgilanadi va u davlat ta'lim standartlarida rasmiylashtiriladi. Pedagogik faoliyatning sifat ko'rsatkichi esa, mos ravishda ta'lim oluvchilar faoliyatining ushbu talablar darajasiga muvofiqligida o'z aksini topadi. Demak, direktiv boshqaruv dasturlaridan voz kechish pedagoglarga cheklanmagan hajmdagi erkinlikning berilishini anglatmaydi. Ushbu yo'nalishda asosiy e'tibor ta'lim jarayoni mazmuni va usullaridan uning yakuniy natijasiga ko'chirilishiga qaratilgan.

Bajarilishining majburiyligi nuqtai nazaridan boshqaruv dasturlarini informativ va direktiv turlarga ajratish mumkin. Jumladan, matbuotda nashr etilayotgan turli ilmiy-usulik tavsiyalar informativ dasturlar hisoblanadi va ularning bajarilishi majburiy deb belgilanmaydi. Pedagoglar ulardan faqat o'zлari uchun zarur deb bilgan qismini bajarish huquqiga egalar. Informativ dasturlar talablarining bajarishi to'laligicha pedagogning xohishi, ehtiyoj va istaklaridan kelib chiqib belgilanadi. Direktiv hujjatlarning bajarilishi majburiy bo'lib, u tegishli tartibda nazorat qilinadi. Jamiyatimizning demokratlashib borishi natijasida informativ dasturlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borishi kuzatilmoqda.

Ta'lim muassasasini boshqarish konsepsiysi ko'plab boshqaruv g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan tashkiliy model sifatida tasavvur qilish mumkin.

Faoliyat nuqtai nazaridan yondashilganda, boshqaruv modelida quyidagi tarkibiy unsurlarni ko'rsatish mumkin: motiv, maqsad, rejalashtirish, joriy axborotlarni tahlil qilish, qabul qilish, harakat, natijalarni baholash va tizimga tegishli tuzatishlar kiritish. Boshqaruvchanlik faoliyatining mazkur umumpsixologik tuzilmasi boshqaruv subyektlarining individual faoliyatiga qaratilgan bo'lib, bu o'rinda boshqaruv jarayoni va faoliyati hamma vaqt o'zaro muvofiq holatda bo'ladi va muomala qonuniylari asosida o'zaro uyg'unlashib boradi.

Boshqaruv jarayoni davriy xarakterda bo‘lib, bu davrlarning har biri o‘z davomiyligi, tatbiq etilish sohasi, vazifalari va o‘z yechimiga ega. Boshqaruvning alohida olingan davrini quyidagi jarayonlarni qamrab olgan bo‘g‘in sifatida tasavvur qilish mumkin: axborotlarni qabul qilish va ularning tahlili, boshqaruv qarorining qabul qilinishi, ta’lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, rejani bajarish uchun ishni tashkil qilish, hisob-kitob, nazorat ishlari va natijalarini tahlil qilish.

18.4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing

Bugungi kunda kasbiy ta’lim muassasalari ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat ko‘rsatishi va raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlab berishlari talab etiladi. Bunda, ta’lim muassasasida yo‘lga qo‘yilgan marketing xizmati muhim o‘rin tutadi. Marketing tadqiqotlari ko‘plab soha masalalarini qamrab oladi:

- qisqa (1 yilgacha) muddatli ijtimoiy-pedagogik bashoratlar;
- uzoq (1 yildan ortiq) muddatli ijtimoiy-pedagogik bashoratlar;
- bozorning joriy va istiqbol potensialini o‘rganish;
- bitiruvchilarning ishga joylashish statistikasining tahlili;
- yangi sohalar mutaxassislarning ish o‘rinlarini o‘rganish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish yo‘nalishlarini tadqiq qilish;
- bozor narxlarini belgilanish xususiyatini o‘rganish;
- ta’lim muassasasi ish faoliyati samaradorligini belgilash (teskari aloqa).

Ta’lim muassasasi boshqaruvining pedagogik yo‘naltirilganligi barcha imkoniyatlarni asosiy maqsad – yosh avlodni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasiga muvaffaqiyatli kirib borishini ta’minalashga qaratilgan bo‘ladi. Ta’lim muassasasi rahbari tomonidan olg‘a suriladigan rejalar, rejalashtirilayotgan muhim tadbirlar jamoada mu-

hokama qilinishi va muvofiqlashtirilishi lozim. Rahbarning bu boradagi harakatlari qo‘yilgan vazifani amalga oshirishga izchil va qat’iy yondashuvga asoslangan bo‘lsa, jamoa azolari tomonidan qabul qilinadi va qo‘llab-quvvatlanadi. Bilim yurti rahbari jamoa boshqaruvini o‘zaro hurmat va talabchanlik asosida tashkil etishi lozim.

Rahbarlik qiluvchi shaxs o‘z xatti-harakatlari bilan jamoaga ibrat ko‘rsata olishi, amalga oshiriladigan qat’iy choralar mohiyatini tushunishi va ularning ijodiy samarasini ta’minlashi lozim.

Nazorat savollari:

1. *Pedagogik, psixologik boshqaruv mazmuni nimalardan iborat?*
2. *Pedagogik jamoa, uning shakllanishi, hamda ta’lim muassasasini boshqarish mazmuni nimalardan iborat?*
3. *Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi va uning mazmuni nimalardan iborat?*
4. *Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing ahamiyati nimalardan iborat?*

19-BOB KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASH

Tayanch iboralar: tarbiyaviy tizimi, tarbiyaviy tizimining konseptual g'oyasi, tarbiya jarayoni, tarbiyachi faoliyati, tarbiyalanuvchi faoliyati, tarbiya prinsiplari, tarbiya tizimi, tarbiyalash texnologiyalari, hissiy rang-baranglik, tarbiyalash usullari.

19.1. Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari, kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni tarbiyalashga qo'yiladigan talablar

Buyuk kelajakni yaratuvchi yangi avlodni tarbiyalash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri. Fundamental o'zgarishlar natijasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy asoslar o'zgardi. Lekin bu o'zgarishlar, ko'pgina hollarda, «yuqori»da sodir bo'ldi va asosan qonuniy darajalarda yuz berdi. Ammo odamlar ongi va munosabatida o'zgarishlar juda sekinlik bilan kechmoqda. Olimlarning e'tirof etishicha, davlat tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun yosh avlodni yangi qonunlar asosida to'g'ri tarbiyalash kerak.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar jarayoni, boshqa-rishning demokratik va bozor iqtisodiga o'tish, shuningdek, ta'limga, ayniqsa, tarbiya maqsadi va usullarining yangilanishi kasb-hunar tizimidagi o'quvchilarning ma'nnaviy qiyofasini mutlaqo o'zgartirib yubordi. Endi oldindan belgilangan stereotip (o'xshash) bo'yicha yosh avlodlarni tarbiyalash vaqtি o'tdi. Hozirgi vaqtida shaxsni shakllantirish uni jamiyat taraqqiyotining turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tendensiyalari bilan tanishtirish asosida amalga oshiriladi. Yangi maqsadlarga muvofiq holda o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullari o'zgarmoqda, ta'limga variativ usullari, pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad va vazifasini belgilash – bu ta'limga muassasasi pedagogik jamoasi faoliyatining mazmunini aniqlaydi.

Ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizimining konseptual g‘oyasi – shaxs rivojlanishini maqsadga yo‘naltirilgan holda boshqarish. Buning uchun esa, yaxshi shart-sharoit yaratilishi va avtoritarizmdan voz kechishi zarur. Bizning nazarimizda, bunday hamkorlik pedagogikasi juda qo‘l keladi. Hamkorlik pedagogikasining mazmuni o‘quvchi-yoshlarning o‘z kuchiga ishonishini ifodalovchi munosabatlar yordamida unga tanlash erkinligini berishda namoyon bo‘ladi. Demak, bunda pedagogik jamoa tomonidan o‘quvchi-yoshlarning o‘z-o‘zini belgilash, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun vaziyatlar yaratilib berilishi nazarda tutiladi. Bu degan so‘z, ular o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llarini belgilashda, o‘z faoliyatini boshqarish usullarini tanlashda ham erkin bo‘ladilar. O‘qituvchi unga faqat rahbarlik qilib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib turadi.

Tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo‘lgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o‘rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko‘rsatmasalar tajriba va bilim o‘rgana olmaydilar.

Tarbiya jarayoni

- maqsadga yo‘nalganlik;
- ko‘p omillik;
- jo‘shqinlik;
- davomiylilik;
- uzlusizlik;
- komplekslilik;
- variantlilik;
- ikki tomonli xarakter;
- natijalarning olisligi;

Tarbiya vazifalari.

1. O‘z vatani fuqarosini tarbiyalash. Tarbiyaning bu vazifalarini amalga oshirish quyidagilarni taqozo etadi;

a) Milliy vatanparvarlik, o‘z Vataniga, tarixiga, madaniyatiga iftixor tuyg‘usi;

b) Millatlararo madaniy munosabatlar, siyosiy madaniyat.

2. Shaxsnинг ма’навиятини шакллантirish. Ма’навият – кишining ichki dunyosi bo‘lib, uning jamiyat va tabiatdagi «Men»i, obrazi, taqdiri va rolini ifoda etadi. Ма’навият darajasi – bu, ma’lum ma’noda, insoniylik mezонидир. Ма’навиятни шакллантirish bu uning shaxsiy harakatlari, intilishlari, refleksiyasi bilan kishining ichki dunyosini vujudga keltirishdir.

3. Mehnatkash insonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish zarur.

4. Ruhiy-jismoniy sog‘lomlikni tarbiyalash. Bu axloqiy-hayotiy muvozanat va psixologik qulaylik holatini ushlab turish hamda jismoniy rivojlanish me’yoridan uzoqlashib ketishga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini shaklлantirishdir.

5. Insonning tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish.

Ekologik fojia muammosi davrimizning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kishining tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish qat‘iy hududiy o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda o‘lkashunoslik va tabiatshunoslik bo‘yicha amaliy faoliyatni kuchaytirish va kengaytirishni talab etadi. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiyalanuvchilarga nafaqat ekologik xavfsizlik qoidalarni anglab yetish, balki tabiatni qo‘riqlash ishida shaxsan qatnashish zarurligiga ishonch hosil qilish imkonini ham beradi.

6. Shaxsda induviduallik va jamoaviylikni tarbiyalash.

Hozirgi paytda ayrim pedagogik doiralarda individual tarbiya had-dan tashqari maqtalmoqda. Aslida, individual va jamoaviy tarbiya bir-biriga zid emas. Individuallik tabiat tuhfasi bo‘lib, uni rivojlantirish zarur. Modomiki, inson jamiyatda yashar ekan, u jamiyatdagi axloq va huquq mezonlarini, ijtimoiy fikrlarni hurmat qilishi lozim. Mehnatning aksariyat ko‘rinishlari uchun jamoa harakati zarur bo‘ladi. Shu tufayli jamoaviylik ruhida tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Ayni chog‘da individual tarbiya nihoyatda muhimdir, chunki bunga,

dastlab yetarlicha e'tibor berilmagan edi, hozir esa buni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning o'zi talab etmoqda.

Tarbiya tizimining milliy xususiyatlari:

- milliy tarix va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an'analar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;
- milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo'lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish.

Tarbiya prinsiplari – umumi qoida bo'lib, unda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish mazmuni, usullari shakllariga bo'lgan asosiy talablar aks etgan. Ta'lif prinsiplaridan farqli ravishda, ular o'qituvchilar tomonidan tarbiyaviy vazifalarni hal etishda qo'llaniladi. Bu prinsiplarnig asosiy jihatlari: majburiylik, komplekslilik (uyg'unlilik), teng ahamiyatlilik bo'lib hisoblanadi.

Tarbiya prinsiplari – tarbiyachilar uchun tayyor va har narsaga yaraydigan qoida emas, chunki uni qo'llash bilan yuqori natijalarga erishib qolmaydi.

Bu tarbiyachining na tajribasini, na mahoratini almashtira oladi, ularning amalgaga oshirishi shaxs faoliyati bilan shakllangan.

Tarbiya prinsiplari va tizimi.

Tarbiyaviy jarayon tayanuvchi prinsiplar tizimida quyidagilarni ajratish mumkin:

- tarbiyaning ijtimoiy yo'nalganligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyada ijobiy jihatlarga tayanish;
- tarbiyani insonparvarlashtirish;
- shaxsiy yondashish;
- tarbiyaviy ta'sirning umumiyligi.

Tarbiyaning ijtimoiy yo'nalganligi. Ilg'or o'qituvchilar tarbiyaning ijtimoiy institut sifatida tushunganlar. Turli davrlarda yo ijtimoiy, yo davlat, yoki shaxsiy yo'nalish kasb etib, uning mazmun prinsiplari o'zgargan. Mazkur prinsip o'qituvchining barcha faoliyati tarbiyaning davlat strategiyasiga mos holda o'sib kelayotgan avlodini tarbiya

vazifalariga bo‘ysundirishni talab qiladi va tarbiyachilar faoliyatini shaxsni ijtimoiylashtirishga yo‘naltiradi. Bu prinsiplarni amalga oshirishning asosiy qoidalari tarbiyaviy (mehnat, ijtimoiy, o‘yin va b.) faoliyat jarayonida o‘quvchilarda faoliyatning ijtimoiy qimmat va muhim sababga molik, ijtimoiylashtirish suratini tezlashtirishni tashkillashtirish zaruriyati bilan bog‘langan.

Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi. Mazkur prinsip o‘qituvchilar faoliyatining ikki asosiy yo‘nalishini ko‘zda tutadi:

a) tarbiyalanuvchilarni kishilarning ijtimoiy va mehnat faoliyati, unda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar bilan atroficha va darhol tanishtirish;

b) tarbiyalanuvchilarni haqiqiy hayotiy munosabatlar, ijtimoiy-foydali faoliyatning turli ko‘rinishlariga jalg qilish. Tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi prinsipini amalga oshirish o‘qituvchidan quyidagilarni ta’minalash mahoratini talab etadi:

- tarbiyalanuvchilar tomonidan mehnatning jamiyat va alohida shaxs hayotidagi rolini tushunish;
- fuqarolarning o‘sib borayotgan talablarini qondirish uchun iqtisodiy bazaning ahamiyati;
- moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi mehnat kishilariga hurmat;
- ijodiy mehnatga bo‘lgan qobiliyatini rivojlantirish;
- zamonaviy ishlab chiqarishning umumiylashtirishini tushunish;
- iqtisodiy bilimlarni egallash;
- umumiylashtirishni madaniyat, mehnatni ilmiy tashkil etish;
- mehnat faoliyatiga shaxsiy va ijtimoiy qarashlarni qo‘shib olib borish;
- jamiyat mulki va tabiat boyliklariga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish;
- mas’uliyatsizlik, boqimandalik, tekinxo‘rlik ko‘rinishlariga murosasiz munosabatda bo‘lish.

Tarbiyaning hayot, mehnat bilan aloqasi prinsipi quyidagi shartlarga rioya qilib amalga oshiriladi:

- ijtimoiy, iqtisodiy va mehnat tarbiyasida mavhumlik va aqida-parastililikni bartaraf etish;
- tarbiyalanuvchilar faoliyatining turli ko‘rinishlarida (shu jumladan, ta’til davridagi ishlarni qo‘sghan holda) ishtirok etish xohishlarini qo‘llab quvvatlash;
- tarbiyaviy ishlarda mahalliy o‘lkashunoslik manbalaridan foydalanish;
- qabul qilinayotgan qarorlarga mas’ullik hissini o‘rgatish;
- ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlarga muvofiq tarbiyaning mazmuni, uslubi, vosita va shakllarini yangilash.

Tarbiyaviy jarayonni shunday tashkil etish kerakki, tarbiyalanuvchilar o‘z mehnatlarining kishilar jamiyat uchun zarurligini, ularga manfaat keltirishni his qilsinlar. Foydali ishlarga tayanish – tarbiyada foydali ishga tayanish kishidagi ijobjiy xislatlarni va shu asosda yetarlicha shakllanmagan yoki salbiy shakllangan sifatlarni zarur daraja va uyg‘unlikda aniqlashni ko‘zda tutadi.

Prinsipni amalga oshirish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- tarbiyaviy jarayonda adovat, tarbiyalovchining tarbiyalanuvchi kurashi kuch va pozitsiyalarini qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas;
- ijobjiy natijalar tarbiyalanuvchi taqdirida tarbiyalovchining hamkorlik, toqat va manfaat ko‘rvuchi sifatida ishtirok etish imkoniyatini beradi;
- tarbiyalanuvchining axloqida yuzaga kelgan kamchiliklarga diqqatni qaratmaslik, ijobjilarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash zarur;
- o‘quv yurtida ijobjiy tarbiyaviy muhit, ruhiy psixologik iqlim yuzaga keltirish, saranjom-sarishtalik, tozalikni saqlash zarur;
- tarbiyalanuvchilarni yuqori natijalarga erishish imkoniyati mavjudligiga ishonch hosil qilish.

Tarbiyani insonparvarlashtirish prinsipiga qo‘yiladigan asosiy talablar:

- tarbiyalanuvchi shaxsiga insoniy munosabat;
- uning huquqi va erkinligini hurmat qilish;

- tarbiyalanuvchiga kuchi yetadigan va oqilona shakllantirilgan talablarni qo‘yish;
- tarbiyalanuvchining holatini, hatto, u taqdim etilgan talablarni bajarishidan bosh tortgan paytda ham tushunish;
- kishining o‘zi bilan o‘zi bo‘lish huquqini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchilar ongiga tarbiyaning maqsad va vazifalarini yetkazish;
- talab etilayotgan sifatlarni majburiy shakllantirmaslik;
- shaxsning or-nomus va qadr-qimmatini kamsituvchi jazoga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’lum sabablar bilan shaxsning haqligiga zid keluvchi sifatlarni shakllanishini uning tomonidan to‘liq rad etilish huquqini tan olish.

Tarbiyaviy jarayonning insonparvarlashtirilishi uning demokratlashtirilishi bilan bevosita bog‘langan. Demokratlashtirish, dastavval tarbiyaviy tizimning barcha bosqichlarini uslub va usullarida ko‘ri-nadi. Shu ma’noda demokratlash avtoritarizmning aksidir.

Shaxsiy yondashish. Bunday yondashish tarbiyalanuvchilarining shaxsiy sifatlariga tayanishni ko‘zlaydi va tarbiyachidan quyidagilarni talab etadi:

- shaxsning individual xususiyatlarini (xarakteri, mijozи (temperamenti), qarashlari, odatlari va b.) muntazam o‘rganish va yaxshi bilish;
- mohirona tashxislash va shaxsiy sifatlarning hayotiy shakllanganlik darajasini bilish;
- tarbiyalanuvchini shaxsning rivojlanishini ta’minlovchi murakkablashib boradigan faoliyatga tortish;
- shaxsning faolligiga tayanish;
- shaxsni tarbiyalashdan o‘z-o‘zini tarbiyalashga o‘tish, maqsadni, mazmuni, usullarni o‘z-o‘zini tarbiyalashning shakllarini belgilash mahoratini hosil qilish;
- faoliyatning muvaffaqiyatga olib keluvchi mustaqillik, tashabbus, tarbiyalanuvchilarining tashabbuskorligini, mohirona tashkil etish va yo‘naltirishni rivojlantirish.

Tarbiyaviy ta'sirning birligi. Bu prinsip tarbiyaga daxldor bo'lgan barcha shaxslar, tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, pedagogik ta'sirni o'zaro to'ldirgan holda, birlashib harakat qilishlari tarbiyalanuvchilarga kelishilgan holda talablar qo'yishlari, bir-birlariga yordam berishlari talab etiladi.

19.2. O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixologik usullari

Tarbiyaviy tizimning eng asosiy tashkil etuvchilaridan biri – bu shaxsni ijodkorlikka, mustaqillikka, insonparvarlikka, o'zini qadrlay bilish va o'zgalarga hurmat qilishga o'rgatishdir.

Tarbiyaviy tizim asosiga insonparvar psixologiya va pedagogika tamoyillari qo'yiladi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quvchilarning qiziqishi-xohishiga qarab ta'lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;
- o'quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish;
- fan to'garaklar, texnik yo'nalishdagi to'garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o'zgartirish;
- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;
- huquqiy ta'lim va tarbiyaviy takomillashtirish;
- ommaviy sport, harbiy vatanparvarlik ishlarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi malakasini shakllantirish;
- ta'lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o'z-o'zini boshqarishni rivojlantirish.

Ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, guruh rahbari, muhandis-pedagoglar, tarbiyachilar o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda asosiy shaxslar hisoblanadi. Ular o'quvchi yoshlarning individual xususiyatlarini, hayot sharoitini o'rganadi va

tahlil etadi, o'quvchilar jamoasining rivojlanishi borasida bashorat qiladi, ular shaxs sifatida o'z-o'zini belgilashga yordam beradi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonida yuritiladigan asosiy hujjatlardan biri bu o'quvchilarning psixologik pasporti – xarakteristika. Ta'limga muassasasida har bir o'quvchining psixologik pasporti bo'lishi lozim. Uni muntazam ravishda to'ldirilib borilishi tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi har qanday shaxs (ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, guruh rahbari, muhandis-pedagog, tarbiyachi o'quvchi)ning refleksiv madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Pasport xarakteristikada qayd etiladigan ma'lumotlar uchta manba orqali olinadi kuzatish va o'quvchilar bilan suhbatlashish, hujjat (shaxsiy varaqalar, tibbiyot ko'rigi, kartalar, jurnallar va boshqalar) bilan test savollari treninglar o'tkazish orqali. Tarbiyaviy masalalarni hal etishdagi qiyinchiliklar o'quvchi-yoshlarning o'smir yoshi bilan bog'liq muammolar, ularning jismoniy va ruhiy o'ziga xosligi, yoshlarning norasmiy guruahlari ommaviy axborot vositalarining o'quvchi-yoshlarning xulq-atvoriga ta'sirining yoritishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, o'smirlarga ta'sir ko'rsatish borasida raqobatlarning kuchayganini ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bunda shubhasiz, ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar g'olib kelmog'i kerak. Ta'limga muammolarda o'quvchi-yoshlarning ota-onalari bilan ishslashga katta o'rin ajratiladi. Ota-onalar bilan muntazam ravishda psixolog suhbatlashadi va maslahatlashadi. Holbuki, bunga doimiy ravishda ehtiyoj ortib bormoqda. Shuning uchun ota-onalar lektoriyalarini muntazam (ravishda psixolog suhbatlashadi va maslahatlashadi) yo'lga qo'yishga muhimdir. Pedagoglar huquqni muhofaza etuvchi tashkilotlarning xodimlari va boshqalar ishtirokida anjumanlar tashkil etish yaxshi samaralar beradi. O'quvchilarga tarbiya berish va ular shaxsni rivojlantirishda adabiyotning tarbiyalovchi imkoniyatidan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot ta'sirida o'quvchilar shaxsini shakllantirishning o'ziga xos jihatiga shundan iboratki, bunda ular ijodiy qobiliyatini, barcha ma'naviy imkoniyatlarini namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Bundan

tashqari, jamoanining ijodiy ishlari metodikasi bo'yicha tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini oshiradi. Jamoanining ijodkorlik ishlari deyilganda, ta'lif muammosida turli mavzular bo'yicha har xil anjuman yig'ilishlar, tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish tushuniladi. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida turli uyushma yoki jamoatchilar tashkilotlari tuzilib, ishlab chiqilgan Nizomlar asosida tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq. Keyingi vaqtarda yangi ilg'or tarbiya konsepsiyalari va texnologiyalari paydo bo'lmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kun ta'lif-tarbiyasining asosiy vazifasi o'quvchi shaxsni kamol topqirish, xuddi shu ma'noda aytish mumkinki, ta'lif muassasasini bitiruvchilar shaxsining modeli «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da hamda har bir aniq ta'lif muassasasining maqsad va vazifalarida o'z ifodasini topgan. YUNESKO ning «Yangi ming yillikda» nomli ma'rzasida esa, ta'lif-tarbiya vazifasi quyidagicha tavsiflangan:

- o'qishga o'rgatish;
- yashashga o'rgatish;
- birgalikda yashashga o'rgatish;
- mehnat qilishga va mablag' topishga o'rgatish.

Bizning nazarimizda, o'quvchining ta'lif-tarbiyasi borasida ushbu maqsadlari hozirgi zamон o'zbek ta'lifi uchun istiqbolli hisoblanadi. Darhaqiqat, tarbiyalash texnologiyalari borasida Vatanimiz fani va amaliyotida yetarli darajada katta tajribalar to'planganini e'tirof etmoq zarur. Demak, ma'naviy meros va uning natijasi o'laroq, ma'naviy kamolot maqsadiga erishish kafolatdir desak, xato bo'lmaydi. Har qalay, yosh avlodni oldindan belgilangan stereoturlar asosida shakllantirish payti o'tdi. Hozirgi vaqtida o'quvchilarni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tendensiyalari bilan mutazam tanishtirib borish o'ta muhimdir. Bu ularning o'z hayoti, yo'lini erkin tanlashga imkoniyat yaratadi. Demak, yangi maqsadlarga muvofiq holda o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etish usullari

ham o‘zgaradi. Bizning nazarimizda, ta’lim muassasalarida xilmashil tadbirlarni tashkil etish (usullari ham) va o‘tkazishning umumiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

- ma’naviy - axloqiy yo‘nalganlik;
- umummadaniy mazmun;
- mantiqiy yakunlanganlik, tadbirlarning yaxlitligi va g‘oyaga bo‘ysunganligi;
- hissiy rang-baranglik;
- bilish va yaratuvchilik asoslarining birligi;
- ishtirokchilarning umumiy madaniyatini oshirishni ta’minlash;
- tadbirda ishtirok etishning ommaviyligi, ya’ni unga ta’lim muassasasining barcha o‘quvchi-yoshlarni jalg etishga harakat qilishi.

O‘quvchilar bilan darsdan tashqari mashg‘ulotlar va muloqotlar o‘tkazish ularning jismoniy-ruhiy o‘sishi va ta’lim-tarbiyasi uchun muhim, ko‘p hollarda esa, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Tarbiyaviy ishlar darsdan tashqari faoliyat bo‘lib, tarbiyalamoq o‘quvchi-yoshlarning faoliyatini tashkil qilmoq demakdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tarbiyaviy ishlarda katta samara beradi. Texnologiya – bu shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rag‘batlantirish qonunlarini o‘zida jo qilgan va yakuniy natijasini ta’minlaydigan pedagogik faoliyatdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda loyiha usulida keng foydalanilmoqda. Loyerha asosida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar tarbiyaviy ish strategiyasini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Loyerha usullari-maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat bo‘lib, maqsad oldindan belgilanadi. Tarbiyaviy yoshlar loyihasi – bu o‘quvchilarning ijodiy, ma’lum darajada mustaqil faoliyati:

- bunda o‘quvchilarning o‘zlari bevosita ishtirok etishadi, ya’ni loyihani ijrosi uchun zaruriy material-ma’lumotlar to‘plashadi;
- tadqiqot-tadbirlar o‘tkazish bo‘yicha taxminlarni ilgari surishadi;
- tadbirlarni amalda tashkil etish, o‘tkazishda faoliyat ko‘rsatishadi;
- tadbirlarning ijtimoiy ahamiyatini bilishadi.

Dasrdan tashqari tarbiyaviy ishlar quyidagilarga imkon beradi:

- mashg‘ulot va muloqot;
- bir-birini bilish;
- yaxshi munosabatlar shakllanishi;
- shaxs qirralarini anglash;
- yaxshi daqiqalarni birgalikda boshdan kechirish;
- insonlarning yaqinlashuvi;
- hamkorlikdagi hissiy kechinmalar;
- do‘stlashish-ruhiy yaqinlashish;
- tarbiyachi kasbining kerakligini his etish;
- ehtiyoj-talabni his etish.

19.3. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarni tarbiyalash usullari

O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida quyidagi shakllardan foydalaniлади:

1. Fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash.
2. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar va muloqotlar o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash.
3. Darsdan tashqari paytlarda va o‘quv yurtidan tashqarida ma’naviy-ma’rifiy va turli xil tarbiyaviy tadbirlar jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash.

Fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni tarbiyalash har bir fan va undagi har bir mavzuni o‘rganish jarayonida uning tarbiyaviy xarakterini, tomonlarini ochib berish orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchilar bilan darsdan tashqari mashg‘ulotlar va muloqotlar o‘tkazish ularning jismoniy ruhiy rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasi uchun muhim, ko‘p hollarda esa, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Dasrdan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulot va muloqot quyidagilarga imkon beradi:

- bir-birini bilish;
- yaxshi munosabatlar shakllanishi;

- shaxs qirralarini anglash;
- yaxshi daqiqalarni birgalikda boshdan kechirish;
- insonlarning yaqinlashuvi;
- hamkorlikdagi hissiy kechinmalar;
- do'stlashish – ruhiy yaqinlashish;
- tarbiyachi kasbining kerakligini his etish;
- ehtiyoj-talabni his etish.

Darsdan va o'quv yurtidan tashqarida ma'naviy-ma'rifiy va turli xil tarbiyaviy tadbirlar o'tkazib tarbiyalamoq o'quvchi-yoshlarning faoliyatini tashkil qilmoq demakdir.

O'quvchilarни tarbiyalash usullari.

Ta'lim-tarbiya ishida aniq didaktik maqsadlarga ko'ra, tahsil beruvchi va tahsil oluvchilarning o'zaro aloqadorligi biri ikkinchisini taqozo etuvchi xatti-harakatlari majmuasi yoki muloqotda bo'lish usullariga ta'lim-tarbiya usullari deb yuritiladi.

Tarbiya usullarini turkumlash:

1. Tarbiyaviy jarayonda axborotni o'zlashtirish manbaiga ko'ra:
 - a) og'zaki (so'zlab berish, savol-javob, suhbat, ma'ruza, tushuntirish, bayon etish kabilar);
 - b) ko'rsatmali (ko'rsatmali bayon etish, tushuntirish);
 - v) amaliy (tajriba sinovlari va laboratoriya ishlari, o'quv ishab chiqarish mehnati).
2. Tarbiyaviy jarayonda axborotni uzatilishi va o'zlashtirish mantiqiga ko'ra:
 - a) oddiydan murakkabga (induktiv);
 - b) murakkabdan oddiya yoki mavhumdan ma'lumga (deduktiv).
3. Tarbiya jarayonini o'rganuvchilarning mustaqil tarbiya tafakkuri darajasiga ko'ra:
 - a) mahsulsiz (reproduktiv);
 - b) mahsullik (produktiv).
4. Tarbiyaviy ishlarining bajarilish darajasiga ko'ra:
 - a) Tarbiya beruvchi rahbarligidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar;

b) Tarbiya beruvchi rahbarligisiz tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari (manbalar bilan ishslash, yozma ishlari, laboratoriya ishlari, mehnat vazifalarini bajarish va shu kabilar).

5. Tarbiyalanuvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bo‘yicha:

- a) tarbiyalash o‘yinlari;
- b) tarbiya bo‘yicha munozaralari;
- v) tarbiya bo‘yicha qiziqarli amaliy vaziyatlarni yuzaga keltirish.

6. Javobgarlik burchini shakllantirish va rag‘batlantirish usuliga ko‘ra:

- a) ishontirish;
- b) talab qo‘yish;
- v) qo‘ylgan talabga muvofiq mashq qildirish;
- g) rag‘batlantirish va jazolash.

7. Nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish usuliga ko‘ra:

- a) yakka holda tarbiyalash;
- b) yoppasiga (yalpi) tarbiyalash;
- v) og‘zaki va yozma sinov yoki so‘rovnomalari;
- g) dasturli so‘rov (testlar yordamida mashinali yoki mashinasiz);
- d) o‘z-o‘zini nazorat qilish va shu kabilar.

Pedagogikada **maqsadiga ko‘ra tarbiya usullari** quyidagi guruhlarga ajratiladi: faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish usullari; xulq-atvor va faoliyatni rivojlantirish usullari.

Tarbiya, asosan, quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: ko‘rsatish va tushuntirish, rag‘batlantirish va jazolash, vazifa berish va talab qilish, tekshirish, tuzatish, ishontirish va tahlil qilish. Ana shunday ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan kattalar bolalarning bilish va amaliy faoliyatlarini yuzaga keltirib, ma’lum tomonga yo‘naltiradilar va bu faoliyatlar nazorat qilinib, to‘g‘rilab hamda shuning bilan birga faoliyatlarni rivojlantirish amalga oshiriladi.

Pedagogikada **tarbiya berish usuli ikki turga** bo‘linishi qayd etilgan. Birinchi usul, (**ilhomlantiruvchi**) san’atni o‘z rag‘batlari

bilan o‘rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul (**majbur etish**) esa, majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul.

Nazorat savollari:

1. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarini tarbiyalashning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarini tarbiyalashga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. O‘quvchilarini o‘rganishning qanday usullari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborat?
4. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarini tarbiyalashning qanday shakllari va usullari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborat?

20-BOB.

KASB-HUNAR TA'LIMIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SIFATINI NAZORAT QILISH

Tayanch iboralar: sifatni nazorat qilish, nazorat obyekti, umumta'lim tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik, kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy fazilatlar, ilmiy saviya, g'oyaviy saviya, siyosiy saviya, iqtisodiy va uslubiy saviya, nazorat qilish usul-lari, dars tahlili, pedagogik talab.

20.1. Kasb-hunar ta'limalda ta'limal-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilishning maqsad va vazifalari

Har qanday ta'limal-tarbiya muassasalari ishining maqsadlari bir-birini taqozo etuvchi va uzviy aloqador: ta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zda tutadi. Bu maqsadlar bir-birlari bilan uzviy aloqadorligi sababli ularning har birini shartli ravishda alohida-alohida quyidagicha ko'rsatish mumkin:

I. Ta'limiylar – mavzu bo'yicha o'quv materiali mazmuniga ko'ra aniqlanib, o'quvchilarda o'rganilayotgan obyektning muhim xususiyat (jihat)lari, namoyon bo'lish shakllari haqida bilim va ulardan amaliyatda (kasbiy faoliyatda yoki umuman hayotda) foydalanish bo'yicha ish-harakat usullarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

II. Tarbiyaviy maqsad – o'rganilayotgan obyektni jamiyat va tabiat hayoti, manfaati uchun qanday ahamiyatga egaligini ko'zda tutib, o'quvchi shaxsida shakllanishi lozim bo'lgan shaxsiy (ijobiy va salbiy) xislat hamda fazilatlarni ko'zda tutadi.

III. Rivojlantiruvchi maqsad – tahsil oluvchining dasturiy materialni o'zlashtirishi natijasida bilimi, tajribasi, odob-axloqi va shu kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bilan bir vaqtida mantiqiy

tafakkur (fikr yuritish) qobiliyatlarining shakllantirilishini ko'zda tutadi. Fikr yuritish o'rganilayotgan obyektni muhim o'ziga xos xususiyatlarini anglab olish, idrok etish va mushohada yuritish uchun diqqatni qaratilishini talab etadi.

Ta'lism-tarbiya ishini o'quvchilarning yoshi va boshqa individual xususiyatlariga ko'ra tashkil etish – individual va tabaqlashgan yondashuv) bu sohadagi muhim masala bo'lib, maqsadga erishish shart-sharoitlari, usullari, vositalarini tanlashga imkon beradi.

Ta'lism-tarbiya ishida quyidagilar hisobga olinmog'i zarur:

1. Ta'lism-tarbiya ishini yakka va jamoaviy shakllarini uyg'unlashtirish.
2. Har bir o'quvchining kuchli va kuchsiz jihatlarini hisobga olish va undan oqilona foydalanish.
3. Har bir o'quvchiga mos keladigan vazifalarni berib o'z kuchiga ishontirish.
4. O'quv masalalarining muammolilik va qiyinlik darajasini astasekinlik bilan oshirib borish.
5. Mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarning faolligiga erishish.
6. Ko'zlangan umumiy maqsadga har bir o'quvchining o'z kuchi bilan erishish shart-sharoiti usullari va vositalarini oldindan topish.
7. Dars vaqtidan unumli foydalanishga erishish.
8. Ta'lism standarti doirasidagi bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni barcha o'quvchilarni shaxsiy mulkiga aylantirishga erishish.
9. O'quv materialini qismlarga bo'lib o'quvchilarga mantiqan tugallab bo'lakchalar shaklida yetkazish va ularga xulosa chiqarish uchun imkoniyat yaratish.
10. Eng muhim va murakkab materiallarni ajratib olish va ularga imkon qadar diqqat e'tiborni qaratish.
11. Murakkab masalalarini hal etishda savollarni o'zgartirish (variatsiyalash).

12. O'zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarini mustahkamlash va qo'llash maqsadlarida o'quvchilarning ijodiy mustaqil ishlarini tashkil etish va shu kabilar.

20.2. Kasb-hunar ta'limalda o'quv ta'limal jarayonini nazorat qilish

Kasb-hunar kollej ta'limal muassasalarida ta'limal jarayonini nazorat qilish o'quv yurtining rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi. Bu ish pedagogik jamoaga rahbarlik qilishning ma'lum bir shakli hisoblanib, unda ta'limal-tarbiya ishini takomillashtirishga oid hujjatlarga asoslaniladi.

Quyidagilar nazorat obyektlari bo'lib xizmat qilishi mumkin:

1. O'quvchilarning umumta'limal, umumkasbiy va kasbiy tayyoragarlik darajasi; ularning bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarning o'zlashtirganlik darajasi.
2. O'qituvchi va muhandis-pedagoglar tomonidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning ilmiy, g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy va uslubiy saviyasi.
3. O'quv rejasi, dasturini bajarilish holati va rejalashtirish hamda hisobga olish, hujjatlarini yuritilishi.
4. O'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini darslarga tay-yorgarlik ko'rishi.
5. O'quvchilar bilan sinfdan va ta'limal muassasasidan tashqari ishlarni olib borilishi.
6. O'quv xonalari, laboratoriylar va ustaxonalarning o'quv moddiy bazasi bilan ta'minlanganlik holati va shu kabilar.

Nazorat qilish ko'rinishlari:

1. Umumiy kuzatish;
2. Maqsadga muvofiq (mavzular bo'yicha) kuzatish
3. Umumiy kuzatishlar va nazorat.

Nazorat qilish usullari:

1. Mashg'ulotlar (nazariy, ishlab chiqarish ta'limi va amaliyoti hamda darsdan tashqari ishlarniga qatnashish, kuzatish va tahlil qilish.

2. O‘quv-rejalahtirish hujjatlarini bajarilishini tahlil etish.
3. O‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim va ish-harakat usullarini bevosita nazorat qilish (nazorat ishlari, reyting tizimi, testlar, topshiriqlar va shu kabilalar yordamida).
4. O‘qituvchilar va muhandis-pedagoglar bilan suhbatlashish.
5. O‘quvchilarini laboratoriyalar, o‘quv maydonlari, sexlari va shu kabilardagi bajargan ishlarini tekshirish.
6. O‘quvchilar bilan yakka tartibda suhbatlar o‘tkazish.
7. O‘quv-rejalahtirish, hisobga olish va hisobot hujjatlarini (o‘rganish) tahlil qilish.

Nazariy va ishlab chiqarish ta’limi dars mashg‘ulotlarini tahlil qilish.

Darsni tahlil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘qituvchining ilg‘or ish uslubini o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish, zaur hollarda uslubiy yordam berish, ta’lim-tarbiya ishining samadorligini oshirishdan iborat:

1. Nazoratchi (tekshiruvchi)ning tayyorgarligi:

- a) darsga qatnashishdan ko‘zlangan mashg‘ulot maqsadni aniqlab olish;
- b) darsning mavzusi va maqsadini aniqlash;
- v) o‘quv dasturini o‘rganish, o‘quv va uslubiy adabiyotlar bilan tanishish;
- g) ilgari (oldin) kuzatgan (nazorat qilgan) darslarining natijalari bilan tanishish, o‘qituvchi bilan suhbatlashish.

2. Darsni tahlil qilishning taxminiy chizmasi:

- a) darsni o‘tkazish shart-sharoitlari;
- b) darsning jihozlanish darajasi;
- v) o‘qituvchi va o‘quvchilarning ish o‘rinlarining holati;
- g) xonaning sanitariya-gigiyenik holati.

3. Darsni tashkil etish mazmuni va metodikasi:

1. Dars maqsadlarini to‘g‘ri aniqlanganligi;
2. Dars strukturasi va bosqichlarining muqobilligi;

3. Darsni turli basqichlari (tarkibiy qismlariga) vaqtini to‘g‘ri taqsimlanganligi;
4. O‘quv materiali mazmunini me’yorga ko‘ra tanlanganligi;
5. O‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini faollashtirish usullari;
6. Fanlararo aloqadorlikning ta’minlanganligi;
7. Tarbiyaviy vazifalarni yechish usullari;
8. Ko‘rgazmali va boshqa didaktik materiallar qo‘llanilganligi;
9. O‘quv materialini ilmiy bayon etilishi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;
10. Darsning turli bosqichlarida o‘qitish usullarini maqbul qo‘llanilganligi;
11. O‘quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etilishi va unga rahbarlik qilish darajasi;
12. O‘qituvchining pedagogik mahorati, texnikasi, nutqi va shunga o‘xhash xususiyatlari;
13. O‘qituvchining o‘z fani va o‘qitayotgan mavzusini bilish darajasi.

Yordamchi kuzatishlar:

- a) darsni tashkil etish darajasi: o‘qituvchi va o‘quvchining tashqi ko‘rinishi;
- b) o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga munosabati (qiziqishi, faolligi, tartib intizomi va shunga o‘xhashlar).

Darsdan kutiladigan natijalar:

- a) ko‘zlangan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishilganligi;
- b) o‘zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarining chuqur va puxta o‘zlashtirilganlik darajasi.

Mashg‘ulotni maqbul tashkil etilganlik darajasi, o‘quvchilarni xatti-harakatlari (axloqi):

- a) mashg‘ulotni o‘z vaqtida boshlanganligi;
- b) o‘quvchilar ishini tashkil etilganligi va vaqtidan unumli foydalanganligi;
- v) o‘quvchilarni bajaradigan ishlariga munosabatlari (qiziqishari faolligi, tartib-intizomi va shunga o‘xhash tomonlari);

g) o'qituvchining o'z ishini maqbul tashkil etganligi, pedagogik jihatdan o'zini tutishi, nutqi va shu kabilar.

Bilim va ish-harakat usullarini mustahkamlash va takomil-lashtirish:

1. Asosiy diqqatni birinchi marta bayon etilayotgan, ya'ni oldin o'zlashtirilmagan materialga qaratish.

2. O'zlashtira olmagan o'quvchilar uchun materialni qayta takrorlash.

3. O'quv materialini asta-sekin murakkablashtirib borish;

4. Yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchilarga vazifa mohiyatini takroran bayon etish yoki yaxshi bajarish bo'yicha bat afsil yo'l-yo'-riq ko'rsatish, faol va yaxshi o'zlashtirib olgan o'quvchilarni rag'-batlantirish, qo'shimcha topshiriq berish va shu kabilar.

Bilimlarni qo'llash va ish-harakat usullarini shakllantirish:

1. O'zlashtira olmagan o'quvchilarga yordamchi savollar, vazifalar berish.

2. Yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilarga qo'shimcha vazifalar berish.

3. Jamoa shaklidagi ishlarni tashkil etish.

4. Jamoa shaklidagi o'quvchilar ishlariga yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarga rahbarlik qilishlariga jalb etish.

5. O'quvchilarning o'zaro yordamini tashkil etish.

Nazorat qilish va baholash:

1. O'zlashtirmaydigan va faol bo'lмаган о'quvchilarni tez-tez nazorat qilib turish.

2. O'zlashtirmaydigan o'quvchilarga o'z nuqtai nazarlarini isbot-lash talabini qo'yish.

3. O'zlashtirmaydigan o'quvchilarni yaxshi baholar bilan rag'bat-lantirish.

4. Qo'yilgan baholarni aniq mezonlar bilan isbotlash.

5. Har bir o'quvchining shaxsiy sifat va fazilatlarni rivojlantirish shart-sharoitlarini hisobga olib borish.

6. Yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarga individual yondashish.

20.3. Kasb-hunar ta’limida tarbiya jarayonini nazorat qilish

Tarbiya jarayonida «o‘quvchi» tushunchasi bilan bir qatorda «shaxs» tushunchasidan foydalaniladi. Bu bilan tarbiya jarayoni, avvalambor, o‘quvchini shaxs sifatida shakllantirishga qaratilganligi ta’kidlanadi. «Shaxs» nutq qobiliyatiga ega bo‘lgan va mehnat faoliyatiga layoqatlari aqlii zot – insondir». Shaxs atrofidagi odam bilan o‘zaro faol munosabat jarayonida, jamiyatda, jamoada, boshqa odamlar bilan muomalada shakllanadi. Shaxs tushunchasi alohida odamga unga xos bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar bilan tavsif berish uchun foydalaniladi. Shaxsning asosiy xususiyati jumlasiga uning o‘ziga xosligi, fikrlash tarzi, faoliyati motivlari kiradi.

Tarbiyaviy jarayonning asosi, shaxsning ijtimoiy jihatdan qimmatli fazilatlarni shakllantirishning asosiy manbai – faoliyat va muomaladir. Tarbiyalanuvchilarning jamiyatga foydali faoliyati qanchalik oqilona tashkil etilgan bo‘lsa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali kechadi. Tarbiya jarayonining ana shu muhim qonuniyatini o‘qituvchi hamisha yodda saqlashi va doimo o‘z tarbiyaviy tatbiq etmog‘i darkor.

Tarbiya jarayonining asosi bo‘lgan ijtimoiy-foydali faoliyat o‘quv mehnatini ham, unumli mehnatini ham, jamoatchilik asosidagi mehnatini ham, ishdan tashqari paytdagi ijtimoiy faoliyatini ham o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy foydali faoliyat jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida muomalaning xil-xilma shakllari tarkib topadi, shaxsning ijtimoiy qimmati vazifalari rivojlanadi. O‘quvchilar ijtimoiy foydali mehnatning har xil turlarida qatnashib, aslida jamiyat ishlariga kirishib boradilar, jamiyatda muayyan o‘rnini egallaydilar. Yigit va qizlar ijtimoiy mehnatga qo‘silib, o‘zlarining ahamiyatlarini, jamiyatga foydali ekanligini his qiladilar. Faoliyat jarayonida vujudga keladigan munosabatlar o‘quvchilar zimmasiga jiddiy vazifalarni yuklab, ularning xulq atvoriga, shaxs xislatlariga nisbatan yuksak talablar qo‘yadi. O‘qituvchining o‘quvchilar ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etish

sohasidagi ishning muhimligi ham ana shundan kelib chiqadi. U o‘quvchilarni ana shunday faoliyatning har xil turlariga jalg qilibgina qolmay, eng muhimmi, ularda ana shu faoliyatga munosabatni, shuningdek, faoliyat jarayonida tarkib topadigan o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarini tarbiyalashi lozim. Ta’lim jarayoniga nisbatan tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunda asosiy vazifa – faoliyat usullarini egallashdan iborat bo‘ladi.

Shaxs yaxlit zot bo‘lib, uning har bir xislati boshqa xislatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, insonni qismlarga ajratib tarbiyalab bo‘lmaydi. Bu esa, tarbiya vazifalarini, avvalo, o‘quvchilarning g‘oyaviy-siyosiy, mehnat va axloqiy tarbiyasi vazifalarini hal etishga kompleks yondashishni talab qiladi.

Tarbiyaga kompleks yondashish – tarbiyaviy ta’sirning barcha shakllarini shunchaki umumlashtirish emas, balki har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish vazifalarini yaxlit hal etish prinsipidir.

Maxsus faoliyat sifatida tarbiya favqulotda va stixiyali (tarqoq) ta’sirlardan muayyan dasturga, ongli maqsadga ega bo‘lganligi, ta’sirning maxsus ishlangan va asoslangan vositalari, shakllari va usullarini qo‘llanish bilan farq qiladi.

Tarbiyaning muayyan maqsadlari yosh ishchida qanday fazilatlar tarbiyalanishi, shaxsining mazmuni aniq qanday bo‘lishi haqidagi ravshan tasavvurdan kelib chiqadi. Mana, shu fazilatlarni aniq belgilash tarbiyaning asosiy, eng muhim maqsadlarini belgilash demakdir. Ilmiy-usulik adabiyotni va o‘qituvchilar tarbiyaviy ishida vujudga kelgan tajribani umumlashtirib, ishlab chiqarish ta’limi va ishlab chiqarish tajribasi jarayonida o‘quvchilardan shakllantiriladigan yosh malakali o‘qituvchilarning asosiy fazilatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- g‘oyaviy-siyosiy tarbiya fazilatlari va xususiyatlari;
- mehnatga hayotiy zarurat, jamiyatda o‘zini qaror toptirishning asosiy usuli sifatida munosabatda bo‘lish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ish sifatini yaxshilash uchun kurashda o‘z muayyan o‘rnini topadi;

- ishni yaxshiroq, tezroq, puxtarloq, tejamliroq, bajarishga intilish va uning yo'llarini izlash davlat mulkiga munosabat tejamkorlik, egalik tuyg'usi tashabbuskorlik;
- mehnat tarbiyasining fazilatlari va ichki xususiyatlar;
- mehnat va mehnat ahliga, o'z kasbiga hurmat, mehnatsevarlik, mehnat qilish ishtiyoqi;
- o'z kasb mahoratini takomillashtirishga doimo intilish;
- o'quv-ishlab chiqarish mehnatida ijodiy faollilik;
- yuksak mehnat madaniyati va texnika madaniyati;
- mehnatda g'ayrat, tirishqoqlik, halollik, kasb mustaqilligi va tashabbuskorlik;
- yuksak burch tuyg'usi; o'z ishi natijalari uchun mas'uliyat;
- axloqiy fazilatlar;
- ijtimoiy burchga ongli munosabat; ongli axloq va mehnat intizomi;
- jamoatchilik, o'zaro yordam, kattalarga hurmat, insonparvarlik;
- halollik, haqqoniylilik, o'ziga talabchanlik, vijdonlilik, mas'uliyat, so'zining ustidan chiqish, intizom, kamtarlik;
- qo'yilgan maqsadlarga erishishda iroda, qat'iyat va sobitqadamlik.

Tarbiyaning samaradorligi tarbiyaviy ish usullarini to'g'ri tanlash va tatbiq etishga hal qiluvchi darajada bog'liqdir. Pedagogikada tarbiya usullari quyidagi guruhlarga ajratiladi: faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish usullari; xulq-atvor va faoliyatni rivojlantirish usullari.

Quyida shularning asosiyлари qisqacha ko'rib chiqiladi:

Pedagogik talab.

O'quvchilarga talab bevosita va bilvosita shaklda qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar buyruq, ko'rsatma, yo'l-yo'riqdir. Ular jamaa endi tarkib topayotgan paytda guruh bilan ishlashning dastlabki bosqichi uchun xosdir. Bilvosita talablar, iltimos, maslahat, shama qilish va hokazolar o'quvchilarda muayyan darajada shakllangan e'tiqod,

motivlar, to‘g‘ri xulq-atvor bo‘lishini taqozo etadi. Talablarning bil-
vosita shakli ko‘pincha bevosita talablardan samaraliroq bo‘ladi.

Jamoatchilik fikri

Jamoaning baholari, mulohazalari, irodasini birlashtiruvchi ja-
moatchilik fikri mohir pedagog qo‘lida katta tarbiyaviy samara be-
radigan faol va ta’sirchan kuchdir. O‘quvchilarning yig‘ilishlardagi
nutqlari, mavjud kamchiliklar xususida aytilgan tanqidiy mulohaza-
lar, devoriy gazetadagi maqolalar, o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarish
organlarining qarorlari, jamoatchilikning ma’qullashi yoki qoralashi,
jamoa talabi va hokazolar jamoatchilik fikri ifodasining shaklidir.
Rivojlangan jamoada jamoatchilik fikrining roli hal qiluvchi ahami-
yatga ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga jamoatchilik fikri stixiyali
tarzda shakllanmaydi. U o‘qituvchi va boshqa pedagoglar tomoni-
dan guruhdagi tarbiya jarayonining boshqarilishi qanday bo‘lishiga
bog‘liq.

Nazorat savollari:

1. *Kasb-hunar ta’limida ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilishning maq-
sad va vazifalari va uning mazmuni nimalardan iborat?*
2. *Kasb-hunar ta’limida o‘quv-ta’lim jarayonini nazorat qilishning qanday usul-
lari mayjud, ularning mazmuni nimalardan iborat?*
3. *Nazariy va ishlab chiqarish ta’limi dars mashg‘ulotlarini tahlil qilish mazmuni
nimadan iborat?*
4. *Kasb-hunar ta’limida tarbiya jarayonini nazorat qilishning qanday usullari
mayjud, ularning mazmuni nimalardan iborat?*

21-BOB. KASB TA'LIMINI UMUMIY O'RTA TA'LIM, OLIV TA'LIM VA FAN BILAN INTEGRATSIYALASH

Tayanch iboralar: integratsiya, integratsiyalash omillari, ishlab chiqarish integratsiyasi, fanlar integratsiyasi, uzlusiz ta'lim, ta'lim tizimining bo'g'lnlari (turlari) o'zaro integratsiyasi, integratsiya ta'sirchan mexanizmlari.

21.1. Kasb ta'limini umumiy o'rta ta'lim va oliv ta'lim bilan integratsiyalash omillari

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 9-moddasida, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining yagona va uzlusizligi belgilab qo'yilgan.

Uzlusiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha hisoblanadi. U ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzlusiz ta'limni quyidagi prinsiplari asosida tashkil etiladi va rivojlantiriladi:

– ta'limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuziligi;

– ta'limning demokratlashuvi – ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

– ta'limning insonparvarlashuvi – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'milanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

– ta’limning ijtimoiy lashuvi – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

– ta’limning milliy yo’naltirilganligi – ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O’zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o’ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

– ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlarma kamol topgan insonni shakllantirishga yo’naltirilganligi;

– iqtidorli yoshlarni anglash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Shulardan kelib chiqqan holda, kasb ta’limini umumiyligi o’rtaliga va oliy ta’lim bilan integratsiyalash omillarini belgilash mumkin.

Kasb ta’limini umumiyligi o’rtaliga va oliy ta’lim bilan integratsiyalashning muhim omillari quyidagilardan iborat:

– Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo’llidan izchil ilgarilab borayotganligi;

– O’zbekiston Respublikasida ta’lim tizimining yagona va uzlusizligi;

– O’rta-maxsus, kasb-hunar ta’limining umumiyligi o’rtaliga ta’lim nezizida o’qish muddati uch yil bo’lgan uzlusiz ta’lim tizimidagi mustaqil, majburiy turi ekanligi;

– «Milliy dastur»da belgilangandek umumiyligi ta’lim dasturlaridan o’rtaliga maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o’tilishi;

– Oliy ta’limning o’rtaliga maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslangan hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichdan iborat, uzlusiz ta’lim tizimidagi o’rta-maxsus, kasb-hunar ta’limidan keyingi ta’lim bosqichi ekanligi;

– uzlusiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash puxta mexanizmlarinining ishlab chiqarilganligi va amaliyotga joriy etilganligi;

– O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, Respublikaning jahondagi mavqeyi va obro‘-e’tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

21. 2. Kasb ta’limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da fan bilan ta’lim jarayonining aloqalarini rivojlantirish masalalariga katta e’tibor berilgan va bu borada bir qator vazifalar belgilab berilgan.

Fan bilan ta’lim jumladan, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi jarayonining aloqalarini rivojlantirishda kasb (o‘rta-maxsus, kasb-hunar) ta’limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi katta o‘rin tutudi.

O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, uning muammolari va yechimlari, istiqbollari sohasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi olimlar tomonidan o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida ilg‘or amaliy ilmiy tadqiqotlar o‘tkaziladi. Ta’lim sifati davlat ta’lim standartlariga muvofiq kelishini o‘rganish va uni muvoifiqlashtirishni tashkil etish va ta’minalash maqsadida pedagogika va ta’lim sohasida ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqib amaliyotda qo‘llanadi. Fundamental va amaliy fan sohasidagi ilmiy kadrlarning o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi jarayonidagi keng ishtiroti ta’minlanadi va shu orqali, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining aloqasi-integratsiyasi yo‘lga qo‘yiladi, yoshlarning fantexnika sohasidagi ijodkorligi har tomonlama kengayadi, ular Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 1992-yil 2-iyuldagisi va 1997-yil 29-avgustdagisi qarorlariga binoan «Ta’lim to‘g‘risi»dagi Qonunlari hamda uning yangi mukammallashtirilgan varianti,

1997-yil 29-avgustdagи qarorlariga binoan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» amalga kiritildi. Bu hujjatlarda ta’limning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy rivojlantirishning ustuvor sohasi ekanligi e’tirof etilib, ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta’lim tizimi va uni boshqarish tartibi, pedagog xodimlarning huquqlari, vazifalari va mas’uliyati kabi masalalar qatorida fan va ta’lim jarayonlari aloqalarini rivojlantirish, ishlab chikarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirishning qonuniy asoslari va yo‘llari belgilab berildi.

Respublika Xalq ta’limining asosiy maqsadlari demokratik erkin davlat qurish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish bilan bog‘langan. Zero, eski ta’lim-tarbiya tizimi bilan yangi jamiyat barpo qilib bo‘lmasligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Shuning uchun ham, xalq ta’limi tizimining barcha sohalarida turli yo‘nalishdagi yangi rejalar, dasturlar, konsepsiylar va nizomlar ishlab chiqilmoqda, respublikamizning porloq istiqbolini belgilab beradigan mukammal uzlusiz ta’lim tizimini yaratish va uni takomillashtirish ustida qizg‘in ish olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hayotida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlar xalq ta’limi tizimida o‘z aksini topmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, Respublika pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Respublika o‘quv-metodika markazi, pedagogika o‘quv yurtlari olimlari va ilg‘or o‘qituvchilari bilan hamkorlikda ta’lim mazmunini yangilash sohasida ilmiy izlanishlar bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

«Fan-texnika-ishlab chiqarish» tizimining har bir tarkibiy qismi ma’lum darajada mustaqil bo‘lib, ularning har biri fan-texnika taraqqiyotida o‘ziga xos vazifalarni bajaradi va aniq taraqqiyot qonuniyatlariga ega.

Fan ilmiy tadqiqotlar asosida-g‘oyalarni jamlaydi, texnika uni yangi mashina va texnologiyada moddiylashtiradi, kasbiy ta’lim asosi-ta’lim berish orqali mutaxassislar bilan ta’minlanadigan ishlab

chiqarish o‘z navbatida fan, ilmiy tadqiqotlar va texnika yutuqlarini amaliyotda qo‘llaydi. O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, uning muammolari va yechimlari, istiqbollari sohasida ilmiy izlanishlar fundamental va amaliy fanlar doirasida olib borilganligi sabab ushbu fanlardan birortasi ilmiy tadqiqotlar jarayonida yetakchi omil bo‘lib, kasbiy ta’limni tadqiq qilishda «fan - ilmiy tadqiqotlar - texnika - kasb ta’limi - ishlab chiqarish» tizimining asosiy bo‘g‘ini, «ishlab chiqarish jarayonini oddiy mehnat jarayonidan ilmiy tadqiqotlar jarayoniga» aylantirish asosi hisoblanadi. Fan - ilmiy tadqiqotlar - texnika - kasb ta’limi - ishlab chiqarish integratsiyasi ta’lim integratsiyasining asosiy yo‘nalishi sifatida didaktik moslangan ko‘rinishda ham namoyon bo‘ladi. Ikkinci tomondan, fan umumta’lim va maxsus ixtisoslik turkumidagi o‘quv predmetlari doirasida umumiyy va kasbiy ta’lim mazmunining shakllanish manbalaridan biri hisoblanadi va asosiy ilmiy bilimlar majmuida o‘z aksini topadi. Zamonaviy ilmiy bilimlarga oid g‘oyalardan biri ularni integratsiyalash g‘oyasi hisoblanadi. Ilmiy bilimlarni integratsiyalash g‘oyasi o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida ham o‘z aksini topishi zarur.

Kasb ta’limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi mazmun mohiyatini to‘larq anglash uchun avvalombor «integratsiya» tushunchasining o‘zini ko‘rib chiqamiz.

«Integratsiya» tushunchasiga integratsiyalananadigan obyektlarning mohiyatiga ko‘ra turlicha ta’rif berish mumkin. Masalan:

– «mamlakatlar integratsiyasi» tushunchasi ostida dunyodagi bir qancha mamlakatlarning iqtisodiy, ilmiy-texnik hamkorligi;

– «ishlab chiqarish integratsiyasi» tushunchasi orqali sanoat, agrosanoat yoki ilmiy-ishlab chiqarish majmualari tushuniladi. «Fanlar integratsiyasi» deyilganda esa, bilimlar sintezining turli shakllari, tushuniladi.

Umuman, ilmiy adabiyotlarda «integratsiya» tushunchasiga quydigicha ta’rif berilgan «integratsiya – bu ayrim tarkibiy qismalarning yangi xossa hosil qilib, bir butun birlashish jarayonidir». Pedagog olim V.P. Kuzminning xulosasiga ko‘ra, integratsiya – tizimli yondashuvdan

iboratdir. Chunki «tizim» – bir butunning obyektiv shakli, «integratsiya» esa, ayrim qismlarning birlashish mexanizmi va natijasidir.

Biz, «integratsiya» tushunchasiga berilgan turli xil izohlarni umumlashtirgan holda, bu jarayonni u yoki bu fanning ularni unifikatsiyalar va majmualashtirishga olib keladigan tarkibiy qismlarning yagona dunyoqarash mantiqiy-metodologik o‘zaro ta’siri jarayoni deb bilamiz.

O‘rganib chiqqan ilmiy tadqiqotlarimizda «integratsiyalash, integratsiyalash jarayoni» tushunchasi bilan bir qatorda» differensiyalash, differensiyalash jarayoni» tushunchasi ham uchraydi. Integratsiyalash va differensiyalash jarayoni inson tafakkurining ikki jihat bo‘lib, bir tomondan, olam – yagona butunlik sifatida, ikkinchi tomondan chuqur aniq qonuniyatlar va sifatiy o‘ziga xos turli xil tarkiblar tizimlar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ikkita jarayon bir-birini dialektik taqozo qiladi, to‘ldiradi va biri ikkinchisi orqali namoyon bo‘ladi.

Ko‘pchilik falsafa sohasidagi tadqiqot ishlarida integratsiya va differensatsiya jarayonlarining o‘zaro munosabati o‘zgarmas va qo‘zg‘almas emasligi ta’kidlanadi.

Ilmiy bilimlar taraqqiyotining turli bosqichlarida bu jarayonlardan bittasi ikkinchisidan ma’lum vaqt mobaynida ustunlik qilishi mumkin. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, integratsiya jarayoni differensatsiya jarayoniga nisbatan ustunlik qilmoqda. Shubhasiz, ilmiy bilimlar differensatsiyasi fan-texnika taraqqiyotida ma’lum ahamiyatga ega, ammo u hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Bu vazifani ilmiy bilimlar integratsiyasi jarayoni bajaradi.

I.T. Frolov fikricha – «integratsiyalash g‘oyasi fan va texnika taraqqiyotidagi asosiy yo‘nalishdir».

Hozirgi kunda fanlar ta’limining, jumladan, kasb ta’limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi muammosiga e’tibor ortib bormoqda. Bu holat o‘z navbatida tabiat va jamiyat taraqqiyoti muammolarining majmuaviy xarakterda ekanligini isbotlamoqda, ya’ni ularning yechimi bir qancha fanlarning yutuqlarini amalda ta’lim jarayonida qo‘llash bilan bog‘liqdir.

Hozirgi davrda ta'limning, jumladan, kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasining yangi zamonaviy turi bilishning umumiyligi shakllari va vositalari paydo bo'lishi bilan bog'liq. Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ularning shakllanish manbalari kasb ta'limida o'rganiluvchi tabiiy, texnik, pedagogik, usulik, gumanitar va boshqa fanlar orqali o'zlashtirib olinuvchi umumiyligi tusini beruvchi tushunchalar hisoblanadi. Zero, ta'limning, jumladan, kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi ko'p tushunchalarga umumiyligi tus berish va uni shakllantirish asosida namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim tizimining ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvini rivojlantirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- o'quv-ishlab chiqarish majmualarini (markazlarini) tashkil etish va ulardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jihozlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- ilmiy tadqiqotlar olib borish, kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy-texnologik yechimlar topishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;
- ilmiy tadqiqotlar o'tkazish orqali bevosita ishlab chiqarishga kadrlar tayyorlash qo'llab-quvvatish;
- kasb ta'limi asosida tayyorlangan kadrlarning ilg'or texnologiya sohasida malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib borish va tadqiq qilish.

21.3. Kasb ta'limini umumiyligi o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyasi

Kasb ta'limini umumiyligi o'rta ta'lim va oliy ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlashga «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda belgilab berilgandek, ta'lim tizimining uzlusizligi asos bo'ladi.

Uzlusiz ta'lim tizimining bir bo'g'ini bo'lgan umumiyligi o'rta ta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limning uzluk-

sizligi va izchilligi hamda o‘zaro integratsiyasi davlat ta’lim standartlari asosida, tegishli ta’lim dasturlarining izchilligi asosida ta’minlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etgandan iboratdir. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tishini ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim dasturlari: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar), umumiy o‘rra ta’lim (I-IX sinflar), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim. To‘qqiz yillik (I-IX sinflar) o‘qishdan iborat umumiy o‘rta ta’lim majburiyidir. Ta’limning bu turi boshlang‘ich ta’limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlash-tirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o‘rta ta’lim tugallanganidan keyin ta’lim fanlari va ular bo‘yicha olingan baholar ko‘rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o‘rta ta’limning kasbiy ta’lim bilan izchilligi va integratsiyasini ta’minlash uchun quyidagilar zarur:

- maktabning I-IX sinflari doirasida sifatli umumiy o‘rta ta’lim olishni ta’minlovchi davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlardan oldin va keyin olinadigan ta’lim dasturlari bilan mantiqiy bog‘liqlikligi hamda bir-birini takrorlamasligini hisobga olinishi lozim;

- ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, izchilligi va integratsiyasi ta’minlangan zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish hamda o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash.

O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi. Umumiyo o‘rta ta’lim negizida o‘qish muddati uch yil bo‘lgan majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzuksiz ta’lim tizimidagi mustaqil turi bo‘lib, unda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o‘qish yo‘nalishi o‘quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Bu ta’lim turida o‘quvchilar o‘zlarini tanlab olgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko‘nikmalarini o‘zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar va bu ko‘nikmalarni biror bir oliy ta’lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida qo‘llashlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni hamda tegishli o‘quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki egal-langan ixtisos va kasb-hunar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi diplom beriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi jarayonida umumiyo o‘rta ta’limning kasbiy ta’lim bilan izchilligi va integratsiyasini ta’minlavchi integratsiyalashgan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar berish uchun quyidagilar zarur:

- umumiyo o‘rta ta’lim negizida ta’limni davom ettiruvchi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlar faoliyat ko‘rsatishining me’yortiv bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari uchun umumiyo o‘rta ta’lim va oliy ta’lim bilan izchilligi va integratsiyasini

ta'minlovchi ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmular ishlab chiqish;

– akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nik-malarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan va integratsiyalashgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslangan hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichdan iborat uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Oliy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan bakalavriat-mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va ular davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplomga ega bo'lishadi.

Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi bo'lgan magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim hisoblanadi.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intixosidir.

Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom beriladi.

Kasb ta'limini oliy ta'lim bilan integratsiyasini ta'minlash uchun quyidagilar zarur:

– kasb ta'limining oliy ta'lim bilan uzluksizligi va integratsiyasini ta'minlovchi bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

– ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan hamda uzlucksiz ta’lim tizimining bo‘g‘inlari (turlari) o‘zaro integratsiyasi ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Nazorat savollari:

1. *Kasb ta’limini umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim bilan integratsiyalashning qanday omillari mayjud, uning mazmuni nimalardan iborat?*
2. *Kasb ta’limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasining mazmuni nimalardan iborat, u qanday amalga oshiriladi?*
3. *Kasb ta’limini umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim bilan integratsiyasining mazmuni nimalardan iborat, u qanday amalga oshiriladi?*

22-BOB. KASB-HUNAR TA'LIM JARAYONINING ISHTIROKCHILARI VA JARAYONLARNI LOYIHALASHTIRISH

Tayanch iboralar: ta'lim jarayonlarni loyihalashtirish, o'zaro hamkorlik, pedagogik faoliyat, motivlar, o'quv faoliyati, o'zaro ta'sir, muloqot, munosabat, muomala munosabatlari, pedagogik vositalar.

22.1. Ta'lism-tarbiya jarayonida, shuningdek, kasb-hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi

Ta'lism-tarbiya jarayonida ta'lism beruvchilar (o'qituvchi) va ta'lism oluvchi (o'quvchi) orasidagi ta'lism-tarbiya berishga qaratilgan o'zaro munosabatlар namayon bo'ladi. Ta'lism beruvchilar (o'qituvchi) pedagogik faoliyat bilan, ta'lism oluvchi (o'quvchi) esa, o'quv faoliyati bilan shug'ullanadi.

Pedagogik faoliyat – ma'lum bir sharoit (vaziyat)da ijtimoiy qimmatli motivlarga ko'ra ta'lism-tarbiya maqsadi sari yo'naltirilgan o'ziga xos vositalar asosida mo'ljallangan pedagogik natija bilan yakunlanadigan xatti-harakatlar tizimidir. Professor-o'qituvchining pedagogik faoliyati son-sanoqsiz o'quv-tarbiya vazifa (masala)larini o'quvchilar bilan birga yechishdan iborat. Ulardan eng muhimi ta'lism-tarbiyaning maqsadini oydinlashtirib, o'quvchilar bilan hamkorlikda ro'yobga chiqarishdir. Bu vazifa o'quvchilarni o'qitish ishini o'z-o'zini o'qitishga, ularning xatti-harakatlarini boshqarishni o'z-o'zini boshqarishga aylantirish, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy tadqiqot, o'quv-tadqiqot ishlariga jalb etish yo'li bilan hal etiladi.

Ta'lism oluvchi o'quv faoliyati bilan shug'ullanishdan maqsadi mayjud o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limga maqsadi, vazifalariga mos holda, o'rta-mahsus ma'lumot olish, barkamol shaxs, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega yuqori malakali, raqobatbardosh o'rta-mahsus ma'lumotli mutaxassis bo'lib yetishishdan iborat.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi jarayonida o‘quvchilarga ijobi, samarali tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish uchun, avvalo, o‘qituvchining shaxsi, ilmiy-pedagogik faoliyati ma’lum talablarga javob berishi lozim. U yuksak g‘oyaviylik, ishchanlik, ilmiy-ijodkorlik va axloqiy sifatlarni o‘zida mujassamlantirishi talab etiladi. O‘quvchi o‘zining sevimli o‘qituvchisiga o‘xshashni istaydi, unga ergashadi, shogird bo‘lishga intiladi. O‘qituvchi ta’lim jarayonida aytgan fikr-mulohazalarigina emas, balki uning kim ekanligi, hayotda, turmushda o‘zini qanday tutishi, ilm-fan sohasida nimalarga qodir ekanligi ham katta tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega. O‘qituvchi shaxsining yetukligi, uning g‘oyaviy va fuqarolik qiyofasi, chuqur bilimi, ilmiy salohiyati barcha ta’lim-tarbiya ishlarida o‘chmas iz qoldiradi.

KHKlardagi ta’lim-tarbiya jarayoni ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, uning samaradorligi professor-o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik munosabatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. O‘qituvchi ham, o‘quvchi ham ta’lim-tarbiya jarayonining subyektlaridir, ularning faoliyati o‘zaro chambarchas bog‘liq va nisbatan mustaqillik xususiyatiga ega. Chunki ularning maqsadi bir, ya’ni umumiy ishni birga bajaradilar. Agar ular o‘rtasidagi birlik yo‘qolsa, munosabatlar taranglashsa yoki aloqa uzilsa, pedagogik jarayonga putur etadi. Bu obyektiv qonuniyat o‘qituvchi bilan o‘quvchining bevosita aloqasida ham, bavosita munosabatlarida ham mavjuddir.

22.2. O‘zaro hamkorlikdagi o‘zaro ta’sir, muloqot va munosabatlar

O‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi jarayonida O‘qituvchi va o‘quvchilar bir-biriga o‘zaro ta’sir qilishi tabiiy hol.

O‘quvchilar birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘qituvchining nimalarga qodir ekanini, ilm-fanga qo‘sghan hissasini, bilimdonligi va ma’naviy-axloqiy qiyofani tezda payqab oladilar va shunga qarab o‘zaro hamkorlik munosabatida bo‘ladilar. Ular o‘qituvchini,

faqat mashg‘ulotlarni yaxshi o‘tgani uchungina emas, balki shaxsiy-insoniy va ma’naviy-axloqiy fazilatlari uchun ham hurmatlaydilar. Va aksincha, o‘quvchilar bilimi sayoz o‘qituvchini xush ko‘rmaydilar.

O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlar juda murakkab xususiyatlarga ega. Chunki u eng oddiy ruhiy (psixik) va ijtimoiy bog‘lanishlardan tortib doimiy xarakterga (tavsifga) ega bo‘lgan eng murakkab ijtimoiy harakatlar va o‘zaro munosabatlargacha bo‘lgan ijtimoiy aloqalar tizimidan iborat. O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlar obyektiv ravishda vujudga keladi va ta’lim muassasasida ta’limning maqsadi hamda vazifalari nuqtai nazaridan ongli ravishda tartibga solinadi, boshqariladi. Chunki o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv yurtlari oldida turgan maqsad, vazifalarni o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham ongli ravishda qabul qiladi va bajaradi.

O‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik munosabatida o‘qituvchi tarbiyachi, ustoz sifatida namoyon bo‘ladi. U O‘zbekiston Davlatining ta’lim, kadrlar tayyorlash sohasidagi milliy dasturini amalga oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi kishidir. O‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlarda u yetakchilik qiladi, ko‘proq tashabbus ko‘rsatadi. O‘qituvchining bilimi, kasbiy mahorati, dunyoqarashi, e’tiqodi, his-tuyg‘ulari, eng muhimi uning xatti-harakatlari (xulqi) ular o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro hamkorlik munosabatlariga hal qiluvchi darajada ta’sir etadi. O‘qituvchining professional (kasbiy) burchi va mas’uliyati bu munosabatlarni ongli ravishda tartibga solish, yaxshilash va rivojlantirishni talab etadi. Mabodo, o‘qituvchi bilan o‘quvchi yoki o‘quvchilar jamoasi o‘rtasidagi munosabatlar buzilsa, yomonlashsa, buning uchun o‘qituvchi javobgar deb qaraladi. Chunki o‘qituvchi bu o‘zaro hamkorlik munosabatlarining tasodifiy ishtirokchisi emas, balki uni oqilona uyushtiruvchi, ongli ravishda tashkil etuvchi, boshqaruvchidir.

O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala munosabatlar pedagogik jarayon uchun muhim bo'lgan bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Avvalo, bu munosabatlar ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi shartlardan biridir. Ular tarbiyaviy ta'sir jarayonini yaxshilashi, kuchaytirishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkin. O'quvchi o'qituvchining gaplarini tinglayotganda, u ko'rsatgan yo'l-yo'riqlarga amal qilayotganida o'qituvchi fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini aytayotganiga, uning o'quvchilarini adolatli ekaniga ishonchi komil bo'mog'i lozim. Mabodo, o'quvchining qalbida o'qituvchiga nisbatan adovat vujudga kelsa, u aytayotgan g'oyalar, gaplarning barchasini o'quvchi yoqtirmasligi, yomon ko'rishi mumkin. Bunday vaziyatda har qanday pedagogik vositalar ham ijobjiy ta'sir o'tkaza olmaydi, kutilgan natija ham boshqacha bo'lib chiqishi ehtimoldan uzoq emas. Va aksincha, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi hayrxohlik, iliq, yaxshi munosabatlar, xushmuomalalik pedagogik jarayonning sifati va samarasini oshiradi. O'qituvchining ijobjiy ta'siri o'quvchilar qalbida uzoq vaqtlargacha, ba'zan umr bo'yи saqlanib qoladi. Va aksincha, o'zaro bir-birini tushunmaslik, o'quvchini hurmat qilamaslik yoki uning shaxsiga tegish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarida ma'lum ma'naviy-axloqiy qoidalar, talablarga rioya qilishi zarur. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchining o'zaro hamkorlik munosabati o'quvchilarga umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarni singdirish vositasi bo'lishi;
- o'zaro hamkorlik munosabatlarning xarakteri uchun ma'naviy-axloqiy mas'uliyat professor-o'qituvchi zimmasida bo'lishi;
- o'qituvchi o'z xulqini, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini muttasil nazorat qilib, boshqarib borishi;
- o'qituvchi barkamol inson sifatida, yetuk mutaxassis sifatida o'z obro'yini oshiradigan xatti-harakatlarnigina qilishi;

- o‘qituvchining o‘quvchiga o‘zaro hamkorlik munosabati, faqat rasmiy (ish yuzasidan) emas, balki zarur paytida do‘stona bo‘lishi;
- o‘quvchiga nisbatan xushmuomalali bo‘lish, uni hurmatlash, undagi yaxshi sifatlarni o‘stirish;
- o‘quvchiga bo‘lgan hurmatni unga nisbatan qo‘yiladigan adolatli talablar bilan chambarchas bog‘lay olish kerak, buning uchun o‘quvchining individual xususiyatlarini o‘rganishi, bilishi;
- o‘quvchilarning xato fikr-mulohazalari, noo‘rin xatti-harakatlariga bardoshli bo‘lish, ta’na qilmaslik, pedagogik nazokat va odob bilan ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash zarur.

Nazorat savollari:

1. *Kasb hunar ta‘limi jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi mazmuni nimalardan iborat?*
2. *Kasb hunar ta‘limi jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligiga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?*
3. *O‘zaro hamkorlikdagi o‘zaro ta’sir, muloqot va munosabatlar mazmuni nimalardan iborat?*
4. *O‘zaro hamkorlikdagi o‘zaro ta’sir, muloqot va munosabatlariga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?*

23-BOB. MUTAXASSISLIK FANLARINING KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Tayanch iboralar: O'quvchilar shaxsini shakllantirish, aqliy kamolot, jismoniy kamolot, psixologik qobiliyat, psixologik xususiyat, ishchanlik qobiliyati, o'quvchilarning bilish, bilish faoliyati, axloqiy motiv, muloqot motivlari, o'quv motivlar, bilish motivlar.

23.1. Kasb-hunar ta'lilda o'quvchilar shaxsini shakllantirish, aqliy va jismoniy kamol toptirish

Kasb-hunar ta'limgagi ta'lim va tarbiya bir maqsadni – barkamol inson shaxsni tarbiyalashni nazarda tutadi. Kasb-hunar ta'lilda o'quvchilar shaxsini shakllantirish, aqliy va jismoniy kamol toptirishda aqliy va jismoniy tarbiya katta ahamiyat kasb etadi.

Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida – o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga KHKlarda o'qitiladigan barcha fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat turlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, iroda va xarakterni qaror toptirish) tanlagan kasblari bilan bog'liq asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi.

Kasb-hunar ta'lilda o'quvchilarini aqliy kamol toptirish qu-yidagilar orqali amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni berish;
- o‘quvchilarda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish;
- mavjud bilimlardan amaliyatda foydalanish ko‘nikma va mala-kalarini tarkib toptirish;
- bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish;
- bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlesh, ijodiy tafakkur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma-lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiylar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Kasb-hunar ta’limda o‘quvchilarni jismoniy kamol toptirish quyidagilar orqali amalga oiriladi:

- o‘quvchilarni o‘z sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minalash;
- o‘quvchilarning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g‘amxo‘rlik qilish;
- o‘quvchilarda yangi harakat turlari borasida ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish;
- o‘quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan tanlagan kasblari bilan bog‘liq asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash va shu kabilar.

23.2. O‘qitish jarayoni davomida o‘quvchilarning bilish faoliyati

Ma’lumki, bilish faoliyatining subyekti o‘quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta’lim markazida uning shaxsi,

ongi, ham o‘rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlari o‘quvchilar va uning ta’lim olishini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi o‘qituvchilar munosabati yotadi. Ta’limda o‘quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o‘quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, mutaxassislik fanlari bo‘yicha umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar o‘quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya’ni o‘quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo‘lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli, bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O‘quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O‘quvchining jalb etilayotgan ta’lim jarayoni turlicha kechishi; subyekt (o‘quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktuv, boshqalarda izlanishli, uchinchilarida ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalari xarakteriga ta’sir etadi.

O‘quvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo‘li kabi o‘qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o‘rganish ularning tarixiy yo‘lini o‘zlashtirish yordamida kechadi.

Insoniyatning umumlashtirilgan bilimlari tizimi ta’lim davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi va ular ilmiy haqiqat tashuvchilariga aylanadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subyektining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xarakteridir. O‘quvchilarning ta’lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga

ega emas va o‘quvchining o‘zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o‘quvchining xafa bo‘lib, «men o‘qidim, o‘rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat’iy takrorlashi beziz emas.

Bilishga qiziqish o‘qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani ta’lim muassasasiga, fanga, darslarga, o‘z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o‘ziga xos uzoq yo‘liga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim o‘quv-harakatlari ta’sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o‘qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsnинг ma’naviy boyishiga ko‘maklashuvchi umumiyo‘g‘i yo‘nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta’sir etadi.

Bilishga qiziqishning ijtimoiy motivlar bilan o‘zaro aloqasi jiddiy bo‘lib, ular orasida o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan muloqot alohida rol o‘ynaydi. Ijtimoiy motivlar keng, uzoqlashgan, istiqbolli, ularning ifodasi ta’limning boshlang‘ich davridayoq paydo bo‘ladi («Ma’lumotli, kasb egasi bo‘lishni istayman»).

Axloqiy motivlar – juda muhim guruh, ularda shaxs shakllanishining jiddiy jihatlari, avvalo, odamlarga, faoliyatga, o‘zining jamiyatdagi va jamoadagi o‘rniga nisbatan axloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari – bu bir guruh o‘quvchilarni o‘qishga real undaydi. Zamirida ta’lim muassasasiga ijobiy munosabat yotadi.

O‘quv motivlari – sof shaxsiy tuzilma, biroq ular predmetlar dunyosidan boshlanadi (A. N. Leontoev), shunchaki hosil bo‘lmaydi.

Bilish motivlari – tobora xarakterli guruh, zero, u bilish – o‘quv predmetiga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Bunda tobora ahamiyatlisi bilishga qiziqish va ehtiyojlar sanaladi. O‘quvchiga

«yangi narsani bilish», «o‘zini bilimga intilishini ko‘rish», «ilmga sho‘ng‘ish» o‘zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq.

Bilishga qiziqish o‘quvchining faolligi, ta’limda mustaqilligi asosida yotadi. Ta’lim muassasasiga muhabbatni shakllantiradi. Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsining barqaror qirrasi, sifati bo‘lib, ko‘pincha bilish faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunday ayniqla, o‘quv materiali mazmunidan kelib chiqadigan omillar va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim mazmunining bilishga qiziqishni uyg‘otishning o‘ziga xos tomonlariga quyidagilar kiradi: o‘quv materialining yangiligi, bilimlar mazmuniga tarixiy yondashuv, chetlab o‘tish, zamonaviy fan yutuqlarini ko‘rsatish, bilimlarning amaliy roli, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va o‘qituvchi, o‘quvchilar munosabatlari va boshqalar.

Nazorat savollari:

1. *Kasb-hunar ta’limda o‘quvchilar shaxsini shakllantirishning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
2. *Aqliy tarbiyaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
3. *Jismoniy tarbiyaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
4. *O‘quvchilarни aqliy va jismoniy kamol toptirish deganda nima tushiniladi?*
5. *O‘quvchilarни aqliy va jismoniy kamol toptirish qanday amalga oshiriladi?*
6. *O‘qitish jarayoni davomida o‘quvchilarning bilishi qanday amalga oshiriladi?*

24-BOB.
TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA
INNOVATSION TEENOLOGIYALAR

Tayanch iboralar: innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, ta'lif shakli, ilmiy dunyoqarash, hamkorlikdagi faoliyati, o'quv imkoniyatlari, innovatsion faoliyat pedagogning innovatsion faoliyati, ijodiy faoliyat, innovatsiya belgilari axborotlar fondi.

24.1. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim mакtablarida o'qitishni tashkil qilishning shakl va usullariga qo'yiladigan zamonaviy talablar

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim mакtablarida o'qitishni tashkil qilishning shakl va usullariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. O'qitishni tashkil qilishning shakl va usullari ta'lif mazmunini o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirib olishga, barkamol avlodni tarbiyalash, milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar ongiga singdirish vazifalariga yordam berishi kerak.
2. O'quvchi-talabalar tomonidan fan asoslarini puxta o'zlashtirishini ongli ravishda o'zlashtirgan bilimlarni amaliyatda qo'llay olishlari uchun tegishli bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga yordam berishi kerak.
3. O'qitishni tashkil qilishning shakl va usullari o'quvchilarni yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, o'quv fanlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib tanlanishi va xilma-xil bo'lishi kerak.
4. O'qitishni tashkil qilishning shakl va usullari o'quvchi-talabalarining mustaqil fikrlash faolligini oshirishi, ularda ilmiy dunyoqarash, iyomon-e'tiqod, ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish kerak.

24.2. O‘qitishning shakl va usullarini sinflarga ajratish

Ta’lim shakllari (forma-lotincha—tashqi ko‘rinish) – bu usul o‘quv jarayonining mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

Ta’lim shakli o‘quv jarayonining shunday tashqi tomonlarini namoyon qiladi, ya’ni:

1. Uning mavjud bo‘lish yo‘li, tartib-tartibot:

- ta’lim oluvchilar soni: ommaviy, kichik guruhlarda, yakka holda o‘qitish;
- o‘qitish vaqt: 45 daqiqa sinf darsi, 90 daqiqa birlashgan dars, «tanaffussiz dars»;
- o‘qitish joyi: auditoriya, laboratoriya mashg‘ulotlari, ustaxonalarda ishslash.

O‘quv ishini tashkillashtirish shakli:

- ma’ruza, seminar, mustaqil ish va boshqalar.

Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish yo‘llari:

- umumiy (frontal), guruhli, yakka tartibli.

Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish shakllari:

Ommaviy ish (frontal) – barcha ta’lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo‘yiladi.

Jamoaviy ish (kollektiv) – ham umumiy va guruhga taalluqli bo‘lishi mumkin:

- oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish;
- majburiyatlarni bo‘lish, hisobot shaklini tanlash;
- xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta’lim oluvchilar fikrlari tinglanadi va muhokama qilinadi);
- Ma’qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

Guruhli – kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

Yakka tartibli (individual) – o‘quv topshirig‘ini yakka o‘zi bajarishi.

Ta’lim berish usullarini tanlash.

Ta’lim berish usullarini tanlash va qo’llashda quyidagi **didaktik omillarni e’tiborga olish muhim**:

– Maqsadni belgilash: ta’lim berish maqsadi, pedagogik vazifalar, o’quv faoliyat natijalari.

– O’quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi: maqsad va ushbu o’quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan.

– Ta’lim berish usullarini o’quv axborotini egallashlariga ta’siri. G. Mayer fikriga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o’tganda, ma’lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so‘ng tinglovchi xotirasiswa 10%; ko‘rish orqali (ko‘rganda) – 20%; ko‘rib va eshitish orqali (ko‘rganda va eshitganda) – 50%; ko‘rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada – 70%; ko‘rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo’llanilganda – 90% axborot qoladi.

– Ta’lim oluvchilarni o’quv imkoniyatlari: tayyorgarlik daramasi, umumo’quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo’naltirilganligi, yoshi, ishslash qobiliyati, o’ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlar.

– Vaqt sarfi:

– O’quv dasturida yil davomida o’quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo‘lishi mumkinki, bu esa, ko‘p vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo’llash imkonini beradi;

– Vaqt u yoki boshqa usulni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarflanish nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Shu bois, bunday usullarni qo’llashni rejalashtirishda, o‘zidan ushbu tashkilashtirish yo‘lini amalga oshirishga zarur tayyorgarlikka vaqt va kuch etarli bo‘ladimi?, deb so‘rash kerak.

– **Ta’lim berish sharoiti:** ba’zi usullarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta’lim berishning texnik vositalari,

kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshqa.

– Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o’rtasidagi, jamoadagi o’zaro munosabatlarning xususiyatlari (hamkorlik yoki so’zsiz bo’ysunishli).

– **Ta’lim oluvchilar soni:** agarda u katta bo‘lmasa, ta’lim berishni faol ta’lim usullarni qo’llab, jadallashtirish mumkin.

– Ta’lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari: ma’qul deb topilgan usullarni qo’llashni bilishi va uddalashi, talablariga mos shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi lozim.

Qo’shimcha omillar:

– Mayzuni o’rganishni (mustaqil ta’lim beruvchi rahbarligi ostida) tashkillashtirish yo‘li: Qay tarzda?

– Didaktik vositalar: Qaysilari?

– Faollikni rag’batlantiruvchi usullar: Qaysilari?

– Nazorat va o’z-o’zini nazorat: Qaysilari?

24.3. Pedagogning innovatsion faoliyati: yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish

O’qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashdan ko’zlangan asosiy maqsad – ularning yangilikka intiluvchanliklari, yangilikni mustaqil izlash, yaratish va qo’llash ko’nikma va malakalarini shakllantirish, ilg’or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashq‘ulotlarni o’tkazish mahoratini takomillashtirishdan iborat.

Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi, zamon bilan birga qadam tashlashga yordam beruvchi kuch sanaladi.

«Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakl-

lanayotgan me'yorlarning mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan mujmal muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir», deb ta'kidlaydi V.I. Stobodchikov. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Innovatsion faoliyat – uzlusiz ravishda yangiliklar bilan ishlashdan iborat bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlarning fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deya e'tirof etish mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallash;
- pedagogik tadqiqot usullaridan samarali foydalanish malakalarini o'zlashtirish;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyatiga ega bo'lish;
- tajriba-sinov ishlarini rejalahtirish va amalga oshira olish;
- hamkasblar bilan hamkorlikka erishish;
- Hamkasblar bilan o'zaro fikr almashish, ularga amaliy usulik yordam ko'rsata olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish tajribasini o'zlashtirish;
- yangiliklarni izlab topish, ularning bankini yaratish va o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion jarayonlar dinamikasining tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olibgina qolmay, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish, umumlashtirish kabi jaryonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Innovatsiyalarning belgilari:

- dolzarb muammolarni hal etishga qaratilganligi (pedagogik innovatsiya muammolari mazmunini yangicha yechimini amalga oshirishga qaratiladi);
- pedagogik amaliyotda keng qo'llanish imkoniyati ochiladi.
- pedagogik innovatsiyalar jarayonining o'zgarishi yangilanishga olib keladi. Natijada yangi (stabil) sifatga ega bo'lgan natijalar qo'lga

kiritiladi. Innovatsiyani tizimning turli predmetlariga ta'siri yangi samaradorlikka olib keladi;

- moslashuvi (qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar);
- ishning yakuniga yetishi (innovatsiya to'liq potensialli tatbiq etish darajasiga yetadi).

Ta'lif tashkilotlariga yangiliklarni kiritish bosqichlari:

S.D. Polyakov tomonidan yangiliklarni kiritish modeli ishlab chiqilgan va u to'rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – yangi g'oyalarni izlash. U o'z navbatida:

1. Axborotlar fondini yaratish. O'qituvchilarni ta'lilda innovatsion jarayonlar rivojlanishiga bag'ishlangan konferensiya, amaliy seminar, treninglarda ishtirokini rag'batlantirish.

2. Ta'lif muassasasini innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, usul birlashma, markazlar, tuman, shaharlardagi internet orqali innovatsion banklar bilan aloqa o'rnatish.

Ikkinci bosqich – yangilikni kiritishni shakllantirish. U o'z navbatida uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Tahlil va loyihalashtirish – yangilikni kiritish g'oyalarni shakllantirish va o'quv yurtini ichki imkoniyati, ishning borish jarayonini loyihalash.

2. Innovatsion g'oyani novator o'qituvchilar ijodiy guruhi bilan aprobatasiyanan o'tkazish.

3. Aprobatsiya o'tkazilgan amaliy ishning yakunini chiqarish, shu asosda yangilikni keng miqyosda o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish va uni amalga oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqish.

Uchinchi bosqich – yangilikni amaliyotga kiritish:

1. Boshqaruv resurslari. Keng masshtabli yangiliklarni amalga oshirishda boshqaruv resurslari ishga solinadi. U holda rahbar tashabbus va mas'uliyatni o'z bo'yniga oladi va butun pedagogik jamoani eksperimentga jalb etadi, qatnashishni talab etadi.

2. Innovatsion o'quv. Innovatsion texnologiyalarni o'qish-o'r-ganish butun pedagogik jamoani jalb qilish orqali amalga oshirish yaxshi samara beradi. Bu jarayonni amalga oshirishda rahbarning avtoriteti muhim rol o'ynaydi.

To‘rtinchi bosqich – yangilikni joriy etishni mustahkamlashdan iborat bo‘lib, unda yangilikni o‘qish-o‘rganish butun pedagogik jamoa qatlamini to‘la qamrab oladi. Hattoki, yangilikka qarshi bo‘lganlar ham bu jarayonga jalg etiladi. Bunday hollarda maktab rahbarini vazifasi ikki barobar oshib, u faqatgina, tashkiliy pedagogik ishlar bilan chegaralanib qolmay, bir vaqtning o‘zida ruhiy-psixologik muhit yaratishi, ijodiy yondashuv asosida ish yuritishga to‘g‘ri keladi. Shunda mакtabda yangilik tizimiga moslashish uchun optimal sharoit yaratish zaruriyati tug‘iladi. Bu holat bir tomondan pedagog va o‘quvchilar bilan psixokorreksion ishlarni o‘tkazish, yangicha sharoitda, yangicha fikr yuritish, yangicha ish yuritadigan o‘qituvchi va pedagogik jamoani shakllantirish eng muhim zaruriy shartlardan bo‘lib qoladi.

Ko‘rib chiqilgan model innovatsion jarayon rahbarlar tomonidan tashkil etiladigan, ularning tashabbuslari bilan «yuqorida» yangilikni o‘quv jarayoniga kiritishdan iborat.

Innovatsion jarayonni, yangilikni yuqorida emas, pastdan, o‘zini-o‘zi rivojlantirish tamoyilidan kelib chiqib, innovatsion g‘oyani ma’lum guruh o‘qituvchilar tashabbus ko‘rsatib, ishlay boshlaydilar. Innovatsion g‘oyani amalga oshirish ishlarni boshqa hamkasblari qo‘llab-quvvatlab, ular ham shu yo‘sinda ish tuta boshlaydilar.

Bunday holatlarda bir guruh o‘qituvchilar ham yangicha ishslash ishtiyogi bilan tajriba-sinov ishlarni amalga oshiradilar. Shu asosda, mакtab o‘quv jarayoniga yangilikni kiritish ishlari boshlanib ketishiga sabab bo‘ladi. Albatta, bu holatda ham yangilikni tatbiq etishda qarama-qarshiliklar bo‘lishi mumkin. Bunday holatda ko‘pchilikning fikrlari to‘g‘ri chiqadi. Va asosda yangilikni zarurligi, o‘z vaqtida amalga oshirish ta’lim sifatiga erishish garovi ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan «yuqorida» tashabbus asosida yangilikni o‘quv jarayoniga qo‘llanishini «pastdan» tashabbusga nisbatan qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Ammo yangilikni yuqorida markazlashtirilgan holda kiritilganda o‘qituvchilarning innovatsion tashabbuskorligi pastroq darajada bo‘lishi ko‘zatiladi.

Shu sababli maktab rahbarlari yangiliklarni pedagogik faoliyatga kiritishni rejalashtirishda: yangilikni maqsad va vazifalarini, uni o‘quv jarayoniga kiritishning real imkoniyatlari, pedadagogik jamaoa uchun ijodiy muhit yaratish, ta’lim-tarbiyaviy ishlarni yangicha ishslash modelini, maktabning moddiy-texnik imkoniyatini, tajriba-sinovni olib borish texnologiyasini boshidan oxirigacha mantiqiy ketma-ketligini pedagogik jamoaning o‘zi bilan hamkorlikda ishlab chiqishi kerak. Kelgusida maktab rivojlanuvchi rejimida ishlashi, sifat samaradorlikni kafolatlashiga ishonch hosil qilishi kerak. Pedagogik jamaoa esa, ijodkor o‘qituvchidan ijodkor pedagogik jamaoa majmuasiga aylanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Tadqiqotchi olim G.A. Mritigyanning «innovatsion faoliyat» haqidagi fikri diqqatga, yanada e’tiborga sazovor: «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin:

- xususiy tajriba;
- tajriba-sinov ishi;
- o‘qituvchining innovatsion faoliyati.

Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi o‘zi tashkil etadigan tajriba mohiyatini shunchalik yaxshi tushunadi. Shu bilan birga, u o‘z innovatsion faoliyatining subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda takomillashtirishda faol ishtirot etadi. U fandagi bilim, an’analardagi o‘zgarishlarni mazmun va mohiyatini tahlil eta bilishga ko‘nib boradi.

Bugungi kunga kelib, ta’lim tizimidagi innovatsiyalarini quyidagicha tavsiflamoqdalar:

- faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagى);
- kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan);
- o‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli);
- kelib chiqish manbaiga ko‘ra (jamaoa uchun ichki yoki tashqariidan olingan).

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o‘rganib chiqqan olimlardan biri V. Slastyonin uni quyidagi tuzilishga ega deb ko‘rsatib o‘tadi: «Innovatsion faoliyatning tuzilishi ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatidan iborat. Innovatsion faoliyatning darajalari reproduktiv, evristik, kreativ bo‘lishi mumkin».

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, yangilanishlar, o‘zgarishlar, innovatsiyalar tom ma’noda ta’lim tizimiga kirib keladi va u to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo‘ljallanilayotgan ta’lim tizimini loyihalash.
3. O‘zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O‘zgarishlarni amalga oshirish.

Pedagogik innovatsiya ta’lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo‘naltirilganligi sababli o‘qituvchidan o‘quv jarayoniga, uni boshqaruviga yangicha yondashuvni talab etadi.

O‘qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishining tahlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A. Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda amalga oshadi:

- tayyorgarlik;
- rejalashtirish;
- amaliyotga joriy etish.

O‘qituvchilarни innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to‘siqlar mavjud. Bular: o‘qituvchining o‘zi ko‘nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya’ni o‘qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo‘lsa, yana bir sabab yangi va no ma’lum bo‘lgan narsalar har doim odamlarda cho‘chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

A.M. Xon o‘qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirishda uchraydigan psixologik to‘siqlarning ikki turini ajratadi:

- kognitiv psixologik to‘siqlar;

– muntazam paydo bo‘ladigan to‘sıqlar.

Kognitiv psixologik to‘sıqlar yangilik haqidagi bilimlarning yetishmasligi, yangilikni his qilmaslik va nofaol xatti-harakatlar hisoblansa, muntazam psixologik to‘sıqlar yangilikka nisbatan ishonchslilik, rahbariyatga ishonmaslik, tashabbusni qo‘llab-quvvatlamaslik va odatda yangilik kirituvchilarga qarshi kurashish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Zamon talabi shiddat bilan o‘zgarib borar ekan, ta’lim sohasi ham u bilan barobar o‘zgaradi va o‘qituvchidan o‘z faoliyatini o‘zgartirishni talab etadi. Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining asosiy vazifasi faqat ta’lim berishdangina emas, balki boshqaruvchilikdan ham iborat bo‘lib, u ta’lim jarayonini innovatsiyalar asosida tashkil etishi va boshqarishi talab etiladi.

Innovatsion faoliyat o‘qtuvchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo‘lib, uni shaxsiy, kasbiy, pedagogik, usulik mahoratini sifatli qayta qurish demakdir.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil kilishni 3 bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo‘llashdan oldingi davrdagi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanishi davrini tahlil qilish.
3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo‘lgandan keyingi davrdagi faoliyatini tahlil qilish.

Ma‘lumki, shaxsning xislat va fazilatlari pedagogik faoliyat ko‘rsatish jarayonida shakllanadi va uning faoliyati natijasi hisoblanadi. Shu sababli o‘qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va tinimsiz mustaqil o‘qib-o‘rganishga doimiy zaruriyat sezish psixologiyasini hosil qilish lozim. Chunki yangilik – insonga ulug‘-vorlikdan ko‘ra ko‘proq zavq bag‘ishlaydi.

Hozirgi kunda, o‘qituvchi pedagogik faoliyatini yangilash va innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritib borish asosiy, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, bu sohada o‘qi-

tuvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma, mala-kalari, ijodiy salohiyati hamda nostonart tafakkurlarida o'z aksini topuvchi kasbiy mahorati bilan belgilanadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatini tashkil etish, uni shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1-bosqich – tayyor usulik tavsiyalar aniq qilib ko'chiriladi va ular amaliyotda bevosita qo'llaniladi.

2-bosqich – mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya) lar, usullar kiritiladi.

3-bosqich – yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, usullari va shakli to'la ishlab chiqiladi.

4-bosqich – o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiya-sini va metodikasini ishlab chiqadi.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik jammadagi psixologik muhit, jamoa a'zolarining qay darajada dunyo ta'lifi bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligi, asosiy harakat-lantiruvchi kuch hisoblanadi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining shakllanishida pedagogik jamoada ijodiy muhitning alohida o'rni borligini ko'pchilik olimlar ta'kidlab o'tadilar. O'qituvchilarning novatorlik xususiyatlari va ta'lif jarayonidagi yangiliklarga bo'lgan ijobjiy munosabatlariga qarab, K. Rodjers va K. Angelovskiy pedagogik jamoa a'zolarini beshta guruhg'a ajratishni taklif etadilar.

1. Novatorlar.
2. Eski g'oyalarni amalga oshiruvchilar.
3. Eski g'oyalarni amalga oshirishni ma'qul ko'rurvchilar (ular ak-sariyat holatlarda ko'pchilikni tashkil etadilar).
4. Yangi g'oyalarni amalga oshirishni ma'qul ko'rurvchilar (bugungi kunda ularning soni ham ortib bormoqda).

5. Ikkilanuvchilar.
Ta'lif sifatini oshirish jamiyatning barcha jabxalarida hayotni yaxshilash va farovon turmush kechirishga olib keladi. Yangilikni kiritish ta'lif sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi

uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lif jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar.

Nazorat savollari:

1. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim maktablarida o'qitishni tashkil qilishning qanday asosiy shakl va usullari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborai?
2. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim maktablarida o'qitishni tashkil qilishning shakl va usullariga qanday zamonaviy talablar qo'yiladi?
3. O'qitishning shakl va usullarini qanday sinflarga ajratiladi?
4. Pedagogning innovatsion faoliyat mazmuni nimalardan iborat?
5. Pedagogning innovatsion faoliyatining qanday bosqichlari mavjud, uning mazmuni nimalardan iborai?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni. T. : 1997-y.
2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». T. : 1997-y.
3. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T. : O'zbekiston, 1997-y.
4. Karimov I.A. «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T. : «O'zbekiston», 2000-y.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. –T. : O'zbekiston, 1996-y.
6. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». –T. : O'zbekiston, 2008-y.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010-y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 6-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori // Xalq so'zi, 2011-yil 7-aprel, №68 (5235).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT bosh assambleyasining ming yillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliv darajadagi yalpi majlisidagi nutqi. /Xorijiy ijtimoiy- siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharxları –T. : O'zbekiston, 2010-y.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi «Uzluksiz ta'lif tizimi uchun davlat ta'lif standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 5-sonli qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydag'i «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 204 - sonli qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 400-sonli qarori.
13. O'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi tayyorlov yo'naliishlari kasb va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi. -T. : 2004-y.
14. Abdullayev A.X., Dexkambayeva Z. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tayyorlov yo'naliishlari bo'yicha tarmoq ta'lif standartlarini ishlab chiqish» uslubiy qo'llanma. -T. : 2000-y.
15. Abdullayev A.X., Dexkambayeva Z. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tarmoq ta'lif standartlarini ekspert baholash» uslubiy qo'llanma. -T. : 2001-y.
16. Abduhalilov T. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifida ta'lif sifati monitoringini tashkillashtirish ilmiy-pedagogik asoslari. Nomzodlik dissertatsiyasi. -T. : O'MKHTRI, 2003-y.
17. Abdullayev A.X., Ametov A.K. Kadrlar tayyorlash miliy dasturi falsafasi, davlat ta'lif standartlarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T. : 2003-y.

18. Abduhaliqov T. Kasb-hunar ta'limali sifati monitoringi. -T. :MRI, 2003-y.
19. Abduraximov S. va boshqalar Injenerlik pedagogikasi va ilg'or pedagogik texnologiyalar fanidan uslubiy qo'llanma Toshkent – 2003-y.
20. Abdullayeva SH., Axatova D.A Pedagogika, Toshkent Fan 2004-y.
21. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl. asarlar –Toshkent – Fan, 1968-y.
22. Вайнатовский А.И. Организационные формы производственного обучения в учебных заведениях профтехобразования. – М: 1990 г.
23. Гребенюк О. С., Гребенюк Т. Б. Теория обучения. Москва «ВЛАДОС пресс» 2003 г.
24. Daujanova T. Kasb-hunar ta'limali muassasalarida tajriba-sinov ishlari monitoringi. Kasb-hunar ta'limi ilmiy-usulik jurnal. 2000-y, №9.
25. Yo'ldoshev J. Ta'limalimiz istiqlolli yo'lida. – Toshkent: Sharq, 1996-y.
26. Yo'ldoshev J.G., Usmanov S.A Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004-y.
27. Колиличенок А. К. Энциклопедия педагогических технологий. Санкт-Петербург, Изд. «Каро» 2002 г.
28. Курбанов Ш.Э., Сейтхалилов Э.А. Управление качеством образования. Т. :Шарқ, 2004 (русс. яз.), 2006 (O'zb. t.).
29. Mayorov A.N. Monitoring v obrazovatelnom SPb.: obrazovaniya-kultura, 1998-y.
30. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'limali pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –T. : TDPU, 2007-г.
31. Rashidov H.F. va boshqalar. «Kasbiy pedagogika» blokini o'qitish metodikasi. /O'quv-uslubiy qo'llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T. : O'MKHTTKMO va UQTI, 2007-y.
32. Рашидов Х.Ф. Особенности развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане: - Т. :Фан. 2004 г.
33. Skakun V.A. ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun qo'llanma-T: 1995-y.
34. Соколов Б.А Методические основы преподавания машиностроительных дисциплин. – М: 1981 г.
35. Tolipov O'.Q., Barakayev M., Sharipov SH.S. Kasbiy pedagogika (ma'ruzalar matni). –T. : «Offset-print» matbaasi, 2001-y.
36. Xodjaboyev A.R. Kasbiy ta'limali metodologik asoslari. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2004-y.
37. Sharipov S.Sh. va boshqalar Kasbiy ta'limali pedagogikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. –T. : TDPU, 2005-y.
38. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluklari. Monografiya. –Toshkent: «FAN», 2005-y.
39. Шаперинский С.А. Вопросы теории производственного обучения М: 1981 г.
40. <http://www.disser.h10.ru/pedagog.html>
41. <http://www.ziyonet.uz/>
42. <http://www.istedod.uz/>
43. <http://www.pedagog.uz/>

MUNDARIJA

Kirish.....3

I BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING YANGI BOSQICHIDA KASBIY PEDAGOGIKANING O'RNI VA VAZIFALARI

1-BOB. «KASBIY PEDAGOGIKA» FAN SIFATIDA

1.1. O'zbekiston Respublikasi umumiy va kasbiy ta'lismi tizimi islohatlari	7
1.2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida.....	12
1.3. «Kasbiy pedagogika» fanining maqsad va vazifalari	15
1.4. Kasbiy pedagogika fanining asosiy tushunchalari	17
1.5. Kasbiy pedagogika mazmunini belgilovchi asosiy ilmiy yo'nalishlar: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oly ta'lismi pedagogikasi va boshqalar....	25
1.6. «Kasbiy pedagogika» fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.....	32

2-BOB. KASBIY PEDAGOGIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

2.1. Milliy g'oyaning shakllanishi, yoshlarni umumbashariy va milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiyalash, xalq pedagogikasi tajribasiga tayanish	39
2.2. VIII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda shakllangan, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimining fundamental asoslari	42
2.3. O'rta Osiyo mutafakkir olimlari kasbiy ta'lim haqida.....	44
2.4. Movoraunnahr madaniyati rivojlanishi davrida, X-XII va XIV-XVI asrlarda kasbiy ta'lim.....	46
2.5. Turkistonda VIII - XIII asrlarda jamiyat ta'lim asos bo'lgan barcha yangi g'oyalar, madaniyat va fanga ochiq va jo'shqin bo'lgan davrda kasbiy ta'lim tajribasi.....	48

3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI

3.1. Ta'lismi islohotlarini muvaffaqiyatli amalgaga oshirish shart-sharoitlari: milliy pedagogik merosga tayanish, yangi maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish, bosqichma-bosqich amalgaga oshirish, tadrijiylik	54
3.2. «Ta'lismi to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi	59

4-BOB. KASBIY TA'LIMNING DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMOLARI

4.1. «Uzluksiz ta'lim» tushunchasi	62
4.2. Uzluksiz ta'lim tuzulishi	62
4.3. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari	63
4.4. Kasbiy ta'lim turi va tizimi	68
4.5. Kasbiy ta'lim rivojlanishining asosiy omillari	69
4.6. Uzluksiz ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'limning o'rni va ahamiyati	71

5-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELINING O'ZIGA XOSLIGI

5.1. O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim siyosatining tamoyillari	74
5.2. Milliy dasturning kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda, qayta tuzish vazifalari	76
5.3. Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari	78
5.4. Milliy dasturni amalaga oshirish bosqichlari	80
5.5. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari	82
5.6. Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish va rivojlantirish tamoyillari	87
5.7. Milliy dasturni amalga oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari	89

6-BOB. TA'LIMNI STANDARTLASHTIRISH. O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MAZMUNI, MAQSAD VA VAZIFALARI

6.1. Sivilizatsiya rivojlanishining boshlang'ich davrlarida standartlashtirish ko'rsatkichlarining vujudga kelishi	92
6.2. Standart, standartlashtirish me'yorlari tushunchalari	94
6.3. O'MKHT tarmoq standarti komponentlari	96
6.4. Standartlashtirish turlari. O'MKHT davlat ta'lim standartlarining sh funksiyalari	101
6.5. O'MKHT DTS maqsadi, funksiyalari, vazifalari, tamoyillari	103
6.6. DTSga, uni ishlab chiqish va amalda qo'llashga qo'yiladigan talablar	104
6.7. DTSni ishlab chiqish va amalga kiritish bosqichlari	105
6.8. Bozor munosabatlariiga o'tish sharoitlarida kasbiy ta'lim sifatiga talablar, «Ta'lim sifati», «Ta'lim sifatini nazorat qilish», «Ta'lim sifatini baholash» tushunchalari	107
6.9. O'rtalik maxsus kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari turlari va ularagi ta'lim-tarbiya jarayoni	109

7-BOB. O'ZBEKISTON XALQ XO'JALIGINING ASOSIY TARMOQLARI

7.1. Xalq xo'jaligi tarmoqlari, sanoat-qishloq xo'jaligi, kichik korxonalar, kichik biznes	112
7.2. O'MKHTdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umum davlat tasniflagichi	118
7.3. O'MKHT da kichik mutaxassis tayyorlash tizimi	125

8-BOB. KASBIY TA'LIM TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI (CHET EL TAJRIBASI SIFATIDA)

8.1. Kasbiy ta'limga tegishli ilg'or chet el tajribasini o'rganish bo'yicha qiyosiy izlanishlar olib borishning maqsadi va mazmuni.....	130
8.2. Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Italiya va Yaponiya mamlakatlarda kasbiy ta'lim.....	133
8.3. Hamdo'stlik mamlakatlarda kasbiy ta'lim.....	136
8.4. Qiyosiy tahlil natijalari asosida respublikamizda kasbiy ta'limning rivojlanish omillarining o'ziga xosligini hisobga olgan xulosalar.....	138

9-BOB. O'RTA-MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING ISHLAB CHIQARISHGA MOSLASHUVI

9.1. Kichik mutaxassislarning o'qishni tugatgandan so'ng korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlariga kirishib ketishining ijtimoiy jihatlari	140
9.3. Hozirgi kunda, jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi	153

II BO'LIM. KASBIY TA'LIMDA O'QITISHNI TASHKIL QILISH ASOSLARI

10-BOB. KASB TA'LIM PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK PRINSIPLARI

10.1. Kasb-hunar ta'limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar	163
10.2. Kasb hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar onglilik va faoliik ilmiy-sistemalik nazariy va amaliy birligi ta'lim-tarbiya birligi ko'rsatmalilik	166
10.3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari va ularni kasb-hunar ta'limida qo'llash	173

11-BOB. KASBIY PEDAGOGIKADA QO'LLANILADIGAN ILMIY TADQIQOT USULLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI

11.1. Kasbiy pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullari	175
11.2. Kasb-hunar ta'lmini tashkil qilish shakllari va vositalari	181

12-BOB. KASB-HUNAR TA'LIMINI TASHKIL QILISHDA O'QITUVCHINING ASOSIY VAZIFALARI

12.1. O'qituvchining lavozim vazifalari	186
12.2. O'qituvchining ta'limni rejalashtirish bo'yicha vazifalar.....	189
12.3. Nazorat va baholash bo'yicha vazifalari.....	190
12.4. O'qituvchining usulik ishlari	193

13-BOB. KASBIY FAOLIYAT VA UNING OBYEKTTLARI

13.1. O'qituvchining pedagogik faoliyati	201
13.2. Faoliyat uslubi, usullar, holatlар, shakllar	203
13.3. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar	206

14-BOB. PEDAGOGIK FAOLIYATI VA PEDAGOIK QOBILIYAT

14.1. O'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlari: konstruktiv, tashkiliy, gnostik, kommunikativ	210
14.2 O'qituvchining pedagogik qobiliyati	210
14.3. O'qish va o'qitish bo'yicha qobiliyatlar, tarbiya jarayoniga yo'naltirilgan pedagogik qobiliyatlar.....	212

15-BOB. O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY MAHORATI

15.1. O'qituvchining faoliyati, uning tarkibiy qismlari	215
15.2. Pedagogik mahorat, pedagogik mahorat haqidagi ta'riflar, uning komponentlari: insонparvarlik, pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika o'rganish	217
15.3. Pedagogik mahoratga erishish usullari va pedagogik mahoratni oshirish manbalari	219

16-BOB. KASB TA'LIMI DUAL TIZIMI

16.1. Kasb-hunar ta'imiini bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'lash.....	221
16.2. Ta'lmini ishlab chiqarish orqali amalga oshirish shakli turlari.....	226
16.3. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchilarining ishlab chiqarishga moslashuvchanligi.....	229

III BO'LIM. KASB TA'LIMI MUASSASALARINI BOSHQARISH

17-BOB. KASB-HUNAR TA'LIMINI BOSHQARISH

17.1. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini boshqarishning umumiy va ilmiy asoslar.....	237
17.2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga rahbarlik qilish, rahbarlar ishining mazmuni	244

18-BOB. O'QITUVCHI VA RAHBARLARDA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUV MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH

18.1. Pedagogik, psixologik boshqaruv to'g'risida ma'lumot.....	248
18.2. Pedagogik jamoa – ta'lim muassasasini boshqarashning obyekti	250
18.3. Pedagogik faoliyatni boshqarish dasturi	250
18.4. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda marketing.....	252

19-BOB KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASH

19.1. Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar tarbiyalashning maqsad va vazifalari, kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni tarbiyalashga qo'yiladigan talablar	254
19.2. O'quvchilarni o'rganishning pedagogik-psixologik usullari	261
19.3. Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni tarbiyalash usullari.....	265

20-BOB. KASB-HUNAR TA'LIMIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONI SIFATINI NAZORAT QILISH

20.1. Kasb-hunar ta'limdi ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilishning maqsad va vazifalari	269
20.2. Kasb-hunar ta'limdi o'quv ta'lim jarayonini nazorat qilish.....	271
20.3. Kasb-hunar ta'limdi tarbiya jarayonini nazorat qilish	275

21-BOB. KASB TA'LIMINI UMUMIY O'RTA TA'LIM, OLIV TA'LIM VA FAN BILAN INTEGRATSİYALASH

21.1. Kasb ta'lmini umumi o'rta ta'lim va oliv ta'lim bilan integratsiyalash omillari	279
21.2. Kasb ta'limining ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi.....	281
21.3. Kasb ta'lmini umumi o'rta ta'lim va oliv ta'lim bilan integratsiyasi	285

22-BOB. KASB-HUNAR TA'LIM JARAYONINING ISHTIROKCHILARI VA JARAYONLARNI LOYHALASHTIRISH

22.1. Ta'lim-tarbiya jarayonida, shuningdek, kasb-hunar ta'limi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi	290
22.2. O'zaro hamkorlikdagi o'zaro ta'sir, muloqot va munosabatlar	291

23-BOB. MUTAXASSISLIK FANLARINING KASB-HUNAR KOLLEJI O'QUVCHILARI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

23.1. Kasb-hunar ta'limda o'quvchilar shaxsini shakllantirish, aqliy va jismoniy kamol toptirish	294
23.2. O'qitish jarayoni davomida o'quvchilarning bilish faoliyati.....	296

24-BOB. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

24.1. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji, umumta'lim maktablarida o'qitishni tashkil qilishning shakl va usullariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	300
24.2. O'qitishning shakl va usullarini sinflarga ajratish.....	301
24.3. Pedagogning innovatsion faoliyati: yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish	303
Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati	312

A.I. Avazboyev., Ya.U. Ismadiyarov

KASBIY PEDAGOGIKA

Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir: ***A. Suvonov***

Sahifalovchi: ***A. Baxronov***

Musahhih: ***K. Boltaboeva***

Litsenziya raqami AI M 163. 09.11.2009. Bosishga 2014-yil 2-oktyabrdan ruxsat etildi. Bichimi 60x84^{1/16}. Ofset qog'ozzi. Tayms garniturasи. Sharli bosma tabog'i 18,60. Nashr tabog'i 17,0. Adadi 500 nusxa. Shartnoma № 83-2014. Buyurtma № 849. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. 100200, Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.



*Cho'lpon nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN: 978-9943-05-692-3

9 789943 056923